

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

G.N.MAXMUDOVA

INNOVATSION IQTISODIYOT

O‘QUV QO‘LLANMA

Ta‘lim yo‘nalishi: 5230100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

**Toshkent
“Universitet”
2021**

Maxmudova Guljaxon Nematdjonovna. Innovatsion iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Universitet”, 2021. 256 bet.

UO‘K: 330:001.895(075.8)

KBK: 65ya73

M 32

Taqrizchilar:

S.U.Mexmonov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

X.P.Abulqosimov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O‘quv qo‘llanma “Iqtisodiyot” fakulteti iqtisodiyot yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, yangi o‘quv reja asosida tuzilgan. Mazkur o‘quv qo‘llanmada innovatsion iqtisodiyot fanining namunaviy va ishchi dasturiga kiritilgan mavzular bo‘yicha ma’ruza materiallari va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishga oid ko‘rsatmalar va tavsiyalar berilgan. Ma’ruza materiallarida fanning sillabusiga kiritilgan mavzularning mohiyati yoritilgan. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun interfaol usullardan foydalangan holda topshiriqlar berilgan. Ushbu o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, magistrantlari, talabalari hamda barcha innovatsion iqtisodiyot qiziquvchilariga mo‘ljallangan.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil “23” noyabrdagi “500”-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN: 978-9943-7858-8-5

© “Universitet” nashriyoti, Toshkent, 2021 y.

MUNDARIJA

I Bob. “Innovatsion iqtisodiyot” fanining predmeti va ob’yekti, innovatsiyalarni rivojlanish nazariyasiga kirish	4
II Bob. Jahon iqtisodiyotida innovatsion jarayonlarning bosqichlari va modellari	20
III Bob. Milliy innovatsion tizimlar	28
IV Bob. Innovatsion rivojlanishning indikatorlari	45
V Bob. Biznes-g‘oyalar va innovatsion biznes	63
VI Bob. Intellektual mulk va uni himoyalash usullari	80
VII Bob. Texnologiyalar va innovatsion mahsulotlarni bozorga uzatish usullari	103
VIII Bob. Innovatsion iqtisodiyotdagi kadrlar salohiyati	117
IX Bob. Innovatsion loyihani amalga oshirish: start-apdan korporatsiyagacha	140
X Bob. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish	153
XI Bob. Innovatsion xatarlarni boshqarish tizimi	172
XII Bob. Biznesni innovatsion rivojlantirish va investitsiyalashning nazariy asoslari	185
XIII Bob. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishi	202
XIV Bob. Innovatsion faoliyatning infratuzilmasi	213
XV Bob. Innovatsion iqtisodiyot – raqamli iqtisodiyotga o‘tishning asosi sifatida	230
Glossariy	245
Foydalanilgan adabiyotlar	249

I BOB. “INNOVATSION IQTISODIYOT” FANINING PREDMETI VA OB’YEKTI, INNOVATSIYALARNI RIVOJLANISH NAZARIYASIGA KIRISH

1.1. “Innovatsion iqtisodiyot” tushunchasi, fanning maqsadi va vazifalari hamda uning fanlar tizimidagi o‘rni.

“Innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan “innovation” so‘zidan olingan bo‘lib, “yangilikni joriy etish” degan ma‘noni anglatadi. Bunda yangilik deganda, aynan yangi tartib, yangi usul, ixtironi, yangi voqelikni tushinish, yangilikni ishlab chiqarishga joriy etish tushiniladi.

Innovatsion iqtisodiyot (bilimlar iqtisodiyoti, intellektual iqtisodiyot) – bu innovatsiyalar oqimiga, doimiy texnologik takomillashuvga, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilishga asoslangan iqtisodiyotning bir turi bo‘lib, bunda asosiy foyda moddiy ishlab chiqarish (sanoat iqtisodiyoti) yoki moliya (kapital) konsentratsiyasidan emas, balki novator va olimlarning aql-zakovati, axborot sohasi hisobiga shakllantiriladi va ko‘paytiriladi.

Hozirgi kunda AQSh, Germaniya, Yaponiya, Avstraliya, Kanada, Shvetsiya, Finlyandiya, Singapur, Isroil, Janubiy Koreya va boshqa davlatlar innovatsion iqtisodiyotga ega bo‘lgan va rivojlangan venchur biznesiga ega davlatlardir.


2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasida “Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish” ustuvor vazifa sifatida ta’kidlangan.

Fanning maqsadi - talabalarda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion iqtisodiyot, innovatsion biznes rejani loyihalashtirishda yangiliklardan samarali foydalanish, innovatsion faoliyat indikatorlarini hisoblash, shuningdek, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsion faoliyatni boshqarishning davlat siyosati (huquqiy, soliq, infratuzilma va b.q.) to‘g‘risidagi nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fanning ob'yekti. Rivojlangan mamlakatlarda va O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan innovatsion iqtisodiy faoliyat jarayoni hisoblanadi.

Fanning predmeti va boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Fanning predmeti. Milliy iqtisodiyotni innovatsion taraqqiyot yo'liga o'tkazish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasidan iborat.



1- rasm. Iqtisodiy fanlar tizimi

“Innovatsion iqtisodiyot” sof iqtisodiy fanlar (1- rasm) guruhiga kirib, “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi”, “Makroiqtisodiyot”, “Mikroiqtisodiyot” kabi fanlar bilan uzviylikda o‘rganiladi.

2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasini “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI da ilm-fanning ishlab chiqarish bilan faol integratsiyalashuvini ta’minlash maqsadida fundamental va innovatsion tadqiqotlar uchun maqsadli grant mablag‘larini ajratish mexanizmini tubdan qayta ko‘rib chiqish vazifasi belgilab berilgan. Shuningdek, dasturda innovatsiyalar bilan bog‘liq quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan¹:

- Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, intensiv texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarni keng joriy qilish, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, klaster tizimini va barcha yo‘nalishlarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni yanada rivojlantirish yo‘nalishlarida qishloq xo‘jaligi sohasini isloh qilish.
- Meva-sabzavotchilik, uzumchilik, urug‘chilik, chorvachilik va agrologistikani rivojlantirish, suv tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish,

¹ Strategy.uz saytidan olindi.

ilmiy-tadqiqot ishlari, soha uchun malakali kadrlarni tayyorlash masalalariga mablag‘ yo‘naltirish.

- Faoliyat doirasini kengaytirish, «startap loyihalarini har tomonlama, shu jumladan venchur moliyalashtirish asosida, qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish va IT kompaniyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini yanada rivojlantirish.
- Intellektual mulk faoliyatini rivojlantirish va zamonaviy IT-yechimlar, autorsing usullari va «sun‘iy intellekt»dan foydalangan holda intellektual mulk ob‘yektlari ekspertizasini tashkil etishni takomillashtirish.
- Ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish, har bir oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot dargohi nufuzli chet el universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni kuchaytirish.
- Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish tartibini takomillashtirish.
- Mahalliy olimlarning xorijiy nashrlarni keskin oshirishga qaratilgan «Proofreading service» xizmatini rivojlantirish.

02.03.2020 yilda qabul qilingan PF-5953-sonli “2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”²gi Prezident Farmonida, shuningdek, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi bilan birgalikda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga yoshlarning eng ilg‘or loyihalarini jalb etish maqsadida Toshkent shahrida «Xalqaro yoshlar innovatsiya forumi»ni o‘tkazish hamda forum doirasida «Eng yaxshi loyihalar» tanlovini tashkil etish to‘g‘risidagi taklif ma‘qullangan.

Fanning bugungi kundagi vazifasi 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi va unga muvofiq qabul qilinadigan Davlat Dasturlarida belgilangan yuqoridagi chora-tadbirlardan kelib chiqqan holda innovasion iqtisodiyotning mohiyatini anglash va har bir talabada kreativ yondashuvni shakllantirishdan iboratdir.

² <https://lex.uz/docs/4751561>

1.2. Innovatsiyalarni rivojlanishida texnologik jarayonlarning o‘rni va uning klassik nazariyalari

Innovatsion iqtisodiyot nazariyasi 20-asr boshlarida avstriyalik iqtisodchi Yozef Shumpeter tomonidan yaratilgan³. Uning "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" monografiyasi 1911 yilda nashr etilgan hamda 1926 va 1934 yillarda qayta nashr etilgan. Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi ko‘plab taniqli olimlar, shu jumladan, iqtisodiyot sohasidagi Nobel mukofotlari egalari tomonidan doimiy ravishda chuqurlashtirilib kelinmoqda⁴. Yozef Shumpeter birinchi bo‘lib fanga iqtisodiy o‘shish va rivojlanish o‘rtasidagi farqlarni kiritib, yangiliklarni aniqlagan va ularni tasniflagan.

Y.Shumpeterning fikricha, iqtisodiy faoliyatga aynan innovatsion yondashuv – har bir davr iqtisodiy tizimining rivojlanish darajasini belgilab beradi. Uning ta’limotiga ko‘ra, iqtisodiy o‘shishga kichik biznes, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali erishish mumkin. (2- rasm)



2- rasm. Yozef Aloiz Shumpeterning innovatsion iqtisodiy o‘shish nazariyasi

Shumpeter fikriga ko‘ra, taraqqiyot – tadbirkor ixtiyoridagi ishlab chiqarish resurslarining kombinatsiyasidan iborat:

- Yangi mahsulotni yaratish;
- Yangi ishlab chiqarish usullarini joriy etish;
- Yangi ta’minotchi bozorlarni o‘zlashtirish;
- Xom-ashyoning yangi manbasiga yo‘l topish;
- Firmani tashkil etishning yangi shaklini yaratish.

Demak, ushbu Shumpeter kontseptsiyasi (innovatsiyalar) quyidagi beshta holatni o‘z ichiga oladi:

³ <http://ru.ncbase.com/econ/dev.htm>

⁴ <http://vira.su/public/tec/inovacione-razvitie-yekonomiki-teorija-i-metodologija.html>

1. Iste'molchilar hali tanish bo'lmagan yangi mahsulotni yoki yangi sifatli mahsulotni yaratish.
2. Iqtisodiyotning muayyan tarmog'ida hali sinovdan o'tmagan, yangi ilmiy kashfiyotga asoslanmaydigan va tovarlar tijorat muomalasining yangi shaklida bo'lishi mumkin bo'lgan yangi ishlab chiqarish usulini yaratish.
3. Yangi bozorni, ya'ni ushbu bozor ilgari mavjud bo'lganidan qat'iy nazar, ma'lum bir mamlakatda muayyan sanoat tarmog'i hali savdo qilmagan bozorni ochish
4. Ishlab chiqarish omillarining yangi manbalarini kashf qilish, ushbu manbaning ilgari mavjud bo'lganiga yoki qayta yaratilishi kerakligiga qaramasdan.
5. Tarmoqda yangi tashkilotini yaratish, masalan, monopoliyaga erishish yoki monopol mavqeini tugatish.

Kapitalizmning paydo bo'lishi bilan iqtisodiyotning innovatsion sektori ham shakllanib, u o'z ichiga maxsus ta'lim, fan, ijodkor-tadbirkorlar va innovatsiyalarga qiziqish bildiruvchi davlatni qamrab oldi.

20-asrning ikkinchi yarmida dunyoning ilmiy-texnik jihatdan etakchi davlatlari post-industriya jamiyatini yaratdilar, unda innovatsion iqtisodiyot sektori ustunlik qildi. Va bu iqtisodiyot innovatsion deb nomlandi, chunki innovatsiyalar iqtisodiyot va hayotning barcha sohalarida yaratilgan va qo'llanilgan.

Ommaviy innovatsiyalar avlodi va innovatsion iqtisodiyotni yaratishning asosiy omili to'plangan yuqori sifatli va ijodiy inson kapitali bo'ldi.

Bellning post-industrial iqtisodiyotdagi faoliyati quyidagi o'zgarishlarni tavsiflaydi, bunda superprofitlar ishlab chiqarish orqali emas, balki yangi bozorlarni tashkil etish orqali yaratilmaydi. Innovatsion iqtisodiyot - bu sanoat iqtisodiyotining o'rnini bosadigan keyingi iqtisodiy shakllanishdir.

Innovatsion iqtisodiyot birinchi marta AQShda paydo bo'ldi. Mashhur amerikalik futurolog E. Toffler, uning boshlanishi - 1956 yil, "Ikkinchi to'lqinning tutun quvurlari iqtisodiyotining yo'q bo'lib ketishi va Uchinchi to'lqinning yangi iqtisodiyotining paydo bo'lishining dastlabki ramziy belgisi: oq yoqali ishchilar va yoqali ishchilar bilan fabrikadagi ishchilar sonidan ancha yuqori bo'lgan" (E. Toffler) "Uchinchi to'lqin").

Yana bir guruh iqtisodchi olimlar iqtisodiy farovonlik bo'yicha o'z tadqiqotlarida, rivojlanayotgan mamlakatlar innovatsiyalar hisobidan jadal iqtisodiy yuksalishining ichki omillarini ko'rsatib berdilar. Ular Shumpeter g'oyasiga zid bo'lgan o'z qarashlarida transmilliy kom'aniyalar, yahni yirik kom'aniyalar iqtisodiy o'sishni ta'minlashda katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashgan.

Ba'zi tadqiqotchilar (E.Toffler, F.Fukuyama, D.Bell, J.Naysbitt va boshqalar) zamonaviy dunyoning aksariyat rivojlangan davlatlari uchun uni yaratgan mamlakatning jahon iqtisodiy ustunligini ta'minlaydigan innovatsion iqtisodiyotdir, deb hisoblashadi.

R.Solou modeli texnologik taraqqiyotni farovonlikni barqaror oshiruvchi va o'sishning optimal variantini topishga imkon yaratuvchi yagona asos sifatida ko'rsatadi. Biroq u texnik taraqqiyotni tashqi (ekzogen) omil sifatida ko'rib chiqadi, demakki uni tushuntirmaydi. Ayrim olimlarning fikricha, texnik taraqqiyotning determinantlari bugungi kunda yetarlicha aniq emas. Biroq davlat siyosati turli xil instrumentlardan shu jumladan, ilmiy tadqiqot va loyiha – konstruktorlik ishlaridan foydalanib texnik taraqqiyotni rag'batlantirishi mumkin. Masalan, patent qonunchiligini mukammallashtirib, ayrim rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Yaponiya, Germaniya) uzoq muddat davomida yangi mahsulotni ishlab chiqarish huquqiga monopoliyani berishdi. Soliq to'g'risidagi qonunlar ko'pgina mamlakatlarda ilmiy tadqiqot tashkilotlariga bir qancha imtiyozlar beradi. Maxsus tashkil etilgan milliy ilmiy fondlar fundamental ilmiy tadqiqotlarga subsidiyalar beradi. Hozirgi kunda mablag'larni inson kapitaliga yo'naltirish ham muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda, texnik taraqqiyotida u asosiy rolni o'ynaydi.

Errou-Romer modeli

Pol Romer birinchilardan bo'lib, "endogen o'sish nazariyasi"ni shakllantirgan. Ushbu nazariya ishlab chiqarishda tashqi samaralarning ijobiy jihatlariga asoslangan bo'lib, ishlab chiqarish faoliyatida ishchilarning bilimlilik darajasi natijasida paydo bo'ladi. K.Errou ham xuddi shu g'oyaga tayangan "amaliyot orqali o'qish" (Learning by Doing) kontseptsiyasini taklif etadi. Ular texnologik taraqqiyotni endogenlashtiradi, iqtisodiyotda kapitalning daromadlilik darajasi qisqarishiga qarshi bo'ladilar va shu yo'l

bilan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni uzoq muddatli o'sishiga erishiladi degan fikrni ilgari suradilar.

R.Lukas va X.Uzava modellari

Texnologik taraqqiyotni endogen omil sifatida ko'rgan boshqa guruh olimlar inson kapitalini jamg'arish omilining iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganadilar. Inson kapitali sifatida shaxsning bilimi, malakasi, yangiliklarni o'zlashtirganligi, ba'zi hollarda ishlab chiqarishda foydalanish mumkin bo'lgan energiyasi va rag'batlantiruvchi quvvatlarining zahirasi tushuniladi. Ushbu modelda inson kapitali hajmini investitsiyalar orqali to'ldirib boriladi, jumladan, bunga turli bosqichlardagi ta'lim va tarbiya olish, mehnat faoliyatida yangiliklarni o'zlashtirish, axborot olish kiradi. Lukas yondashuvida inson kapitalini jamg'arish-bu faol iqtisodiy jarayon hisoblanib, bunda resurslar iste'mol etiladi. Ular muqobil ushlanmalarga sabab bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning optimallashtirish to'g'risidagi shaxsiy qarorlarini bajarishlari uchun xizmat qiladi. Shuningdek, ular resurslar taqsimotida jismoniy va inson kapitaliga sarflanadigan investitsiyalar o'rtasidagi maqbul nisbatni ham aniqlaydilar.

Uzava modelida endogen o'sish nazariyasi tadbirkorlik faoliyatining ITTKIlari (R&D) sohasidagi faoliyatiga asoslanadi. Monopolistik raqobatning bozor shakli ifodalangan ushbu modelda firmalar o'zlarining innovatsion faoliyati natijasida bir muddat monopol foydaga erishadilar.

1.3. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi

Ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalariga (ITTKI) tadqiqotlar va (yoki) amaliy tajribalar natijasida olingan va yangi materiallar, mahsulotlar, jarayonlar, qurilmalar, xizmatlar, tizimlar yoki usullarni yaratishga yo'naltirilgan mavjud bilimlarga asoslangan tizimli ravishda amalga oshiriladigan ishlar kiradi. Ishlanmalar tarkibiga konstruktorlik, loyihaviy va texnologik ishlar kiradi. O'zbekistonda 2016 yilda 437 ta, 2019 yilda 304 ta tashkilotlar ITTKIni bajargan.

**Ilmiy ishlarning turlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-
konstruktorlik ishlanmalari⁵**

	2016	2017	2018	2019
Ilmiy tadqiqot va tajribakonstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni, birlik	437	389	668	304
shu jumladan: 1)				
ilmiy tadqiqot ishlari	313	284	456	195
ulardan fundamental	133	118	188	113
loyiha-konstruktorlik va texnologik ishlar	31	31	54	28
tajribaviy nusxa-namunalar, partiyalar, buyumlar (mahsulotlar) tayyorlash	20	19	33	16
qurilish uchun loyiha ishlari	10	8	33	6
Bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar hajmi, mln.so‘m	143	118	219	126
shu jumladan:	426122,9	449905,4	680038,0	853404,4
ilmiy tadqiqot ishlari				
ulardan fundamental	292803,5	300254,5	336482,5	535208,9
loyiha-konstruktorlik va texnologik ishlar	61487,6	82276,3	89254,2	162804,0
tajribaviy nusxa-namunalar, partiyalar, buyumlar (mahsulotlar) tayyorlash	23917,2	36888,4	38714,0	97641,2
qurilish uchun loyiha ishlari	3086,2	4025,6	7677,9	6318,8
ilmiy-texnik xizmatlar	43750,3	31166	77687,2	54628,9

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2016-2019 yillarda Ilmiy tadqiqot va tajribakonstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni 133 taga kamaygan bo‘lsada, ular tomonidan bajarilgan ishlar hajmi qariyb ikki barobar ortgan.

⁵ <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>

Quyidagi tizimli muammolarning mavjudligi, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun mavjud imkoniyatlar va salohiyatdan yetarlicha foydalanmaslik ko'zlangan islohotlarning samarali amalga oshirilishiga hamda mamlakatning jadal innovatsion rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda:

- davlat dasturlarini ishlab chiqishda zamonaviy fan va innovatsion texnologiyalarning yutuqlari va rivojlanish tendentsiyalarini lozim darajada kompleks tahlil qilish va o'rganish mavjud emas, buning oqibatida mazkur dasturlar aksariyat holatlarda muammolarning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan hamda uzoq muddatli rivojlanish masalalarini hal etmayapti;
- fundamental va amaliy tadqiqotlarni tashkil etishning hozirgi ahvoli innovatsion g'oyalar va ishlanmalarni to'liq ro'yobga chiqarish va amaliy joriy etish uchun lozim darajadagi sharoitlarni ta'minlamayapti;
- innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni strategik prognoz qilish, qo'llab-quvvatlash va joriy etishni ta'minlovchi yagona organning mavjud emasligi, ilmiy-tadqiqot va axborot-tahlil muassasalarining tarqoq holda faoliyat ko'rsatishi fan, ta'lim va ishlab chiqarishning to'liq integratsiyalashishiga imkon bermayapti, bu esa o'tkazilayotgan izlanishlarning samaradorligini pasaytirmoqda;
- yuqori texnologiyalar, nou-xau va zamonaviy ishlanmalarni birinchi navbatda joriy etishni talab qiluvchi ustuvor soha va tarmoqlarni aniqlash bo'yicha faoliyatni tashkil etishdagi kamchiliklar texnologik qoloqlikka va innovatsion tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishning cheklanganligiga olib kelmoqda;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish hamda innovatsion g'oyalar va ishlanmalarni joriy etishda alohida holatlardagi tor idoraviy manfaatlarning ustunlik qilishi byudjet mablag'laridan nooqilona foydalanishning sabablaridan biridir;
- innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklikni tatbiq etishga, shuningdek, innovatsion mahsulotlarni joriy etish uchun infratuzilmani takomillashtirishga yetarli e'tibor qaratilmayapti;
- innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish va joriy etish sohasida yuqori tajriba va salohiyatga ega bo'lgan xorijiy (xalqaro) tashkilotlar bilan hamkorlik, shuningdek, ulardan butun mamlakat fani, sanoati va

iqtisodiyotini rivojlantirishning dolzarb muammolarini hal qilishda foydalanish past darajada saqlanib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 may, PQ-3697-sonli «Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorida mamlakatimizda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirish hamda aholi hayot darajasi va farovonligining barqaror o‘shishiga imkon beruvchi faol tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga, innovatsion g‘oya va texnologiyalarni joriy etishga, fan va innovatsion faoliyat jadal rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e‘tibor qaratilayotganligi, shu bilan birga, o‘tkazilgan tahlil natijalari mamlakatda faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga to‘sqinlik qiluvchi, jumladan, quyidagi qator tizimli muammolarning mavjudligi⁶ ta’kidlanadi:

birinchidan, hududlarning mavjud resurs bazasi va salohiyatini hisobga olgan holda ilg‘or va zamonaviy innovatsion ishlanmalar, texnologik loyihalar-startaplar va innovatsiyalar bozorini tizimli tahlil qilish yo‘lga qo‘yilmagan;

ikkinchidan, innovatsion loyihalar-startaplarga investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish sohasiga innovatsiyalarni faol joriy qiluvchi iqtidorli tadbirkorlar faoliyatiga ko‘maklashish va muvofiqlashtirish ishlari lozim darajada amalga oshirilmayapti;

uchinchidan, innovatsion rivojlanish sohasida, ayniqsa, joylarda ishbilarmonlik muhiti past darajada, shuningdek, innovatsion va muvaffaqiyatli texnologik loyihalar-startaplarni ishlab chiqish va ilgari surish bo‘yicha zarur ko‘nikmalarga ega tadbirkorlarning yetishmovchiligi saqlanib qolmoqda;

to‘rtinchidan, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarning ma’lumotlar bazasi mavjud emas, yangi resurslarni yaratish va tajribani biznes-tuzilmalarga o‘tkazish amaliyoti rivojlanmasdan qolmoqda;

beshinchidan, innovatsion ishlanmalar bozorini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari sust darajada ishlab chiqilgan, innovatsion g‘oyalardan samarali foydalanishni muvofiqlashtirish yo‘lga qo‘yilmagan, innovatsion ishlanmalarning sifati esa bozor talablariga javob bermaydi;

⁶ <https://mineconomy.uz/uz/node/2119>

oltinchidan, innovatsion ishlanmalar, texnologik loyihalar-startaplar sohasiga texnika oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari va iqtidorli yoshlarni jalb etishga, shuningdek, biznes-inkubatorlarni yaratishga lozim darajada e'tibor qaratilmayapti;

yettinchidan, aholi o'rtasida innovatsion tadbirkorlikni ommalashtirish ishlari samarali olib borilmayapti, innovatsion mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqishga va ilgari surishga jalb qilishda texnik va psixologik to'siqlar saqlanib qolmoqda.

Mavjud muammolarni bartaraf etish hamda faol tadbirkorlikni rivojlantirish, innovatsiyalar bozorining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi, shuningdek, mahalliy va xorijiy innovatsion ishlanmalarni iqtisodiyotning real sektoriga ilgari surish uchun qulay huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining davlat-xususiy sheriklik shartlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida innovatsion loyihalar-startaplarni ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish va o'zlashtirish, innovatsion faoliyat natijalarini transfer qilish va tijoratlashtirishni amalga oshiruvchi innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar markazlari tashkil etildi.

Markazlarning asosiy vazifalari:

- ishlab chiqarish va xizmatlarning yangi va zamonaviy turlarini yaratish maqsadida hududlarning salohiyati va resurs bazalarini chuqur tadqiq qilish;
- innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida innovatsion menejmentni rivojlantirish;
- yangi va talab yuqori bo'lgan mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish bo'yicha innovatsion loyihalar-startaplarni, jumladan, xorijda qo'llaniladigan ilg'or uslub va texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish va o'zlashtirish;
- innovatsiyalar bozorining marketing tadqiqotlarini o'tkazish, ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulot (ish, xizmat)lar bozorlarini shakllantirish, ularning bozor talablariga yo'naltirilishi va moslashishi uchun tavsiyalar ishlab chiqish;
- investorlar va innovatsion mahsulot (ish, xizmat)lar iste'molchilarini qidirib topish ishlarini, jumladan, innovatsion infratuzilma sub'yektlari o'rtasida kooperatsiyani rivojlantirish orqali tashkil etish;

- innovatsion faoliyatni amalga oshirish masalalari bo'yicha manfaatdor shaxslarning keng doirasiga maslahat berish, aholi va tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasida innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni ommalashtirishga qaratilgan reklama va ko'rgazma tadbirlarini tashkil etish;
- qo'shma innovatsion loyihalarni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari, startaplar hamda sanoat va qishloq xo'jaligining ustuvor tarmoqlaridagi boshqa sheriklar bilan innovatsion hamkorlikni rivojlantirish;
- innovatsion faoliyatning ishlab chiqilgan va muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazilgan natijalarini ilgari surish va tijoratlashtirish.

Markazlarni tashkil etishda davlat-xususiy sheriklikning asosiy shartlari:

- ❖ markazlarni tashkil etish va ularga tegishli infratuzilmani (transport bog'lamalari, avtostantsiyalar, avtobekatlar mavjudligi va h.k.) qurish uchun zarur yer uchastkalari, bo'sh binolar xususiy sheriklarga haq undirilmasdan, istisno tariqasida to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar asosida ajratiladi;
- ❖ markaz binolarini qurish uchun yer uchastkalarini tanlash belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi;
- ❖ davlat va xususiy sheriklar tenglik asosida markazlarning ta'sischilari sifatida ishtirok etadi;
- ❖ davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi kelishuv markazlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab yigirma yil muddatgacha tuziladi;
- ❖ markazlar faoliyatining yo'nalishi davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi kelishuv amal qilishining butun muddati davomida saqlanib qoladi;
- ❖ markazlarning intellektual mulk ob'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishga qilingan xarajatlarini qo'lash Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;
- ❖ davlat sherigi iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy etishni rag'batlantirish, jumladan, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni davlat xaridlari doirasida tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha shart-sharoitlarni yaratishga ko'maklashish majburiyatini oladi;

❖ davlat va xususiy sheriklarning huquqlari va majburiyatlari, shuningdek, davlat-xususiy sheriklikning boshqa shartlari davlat va xususiy sheriklar o'rtasida Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi Kuzatuv kengashining roziligi bilan tuziladigan kelishuvlarda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanishining asosiy yo'nalishlari:

- mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishning uzoq muddatli stsenariylari asosida ustuvor soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirishning kelajakdagi modellarini shakllantirish imkonini beradigan strategik rejalashtirish tizimini yaratish;
- davlat xizmatlari ko'rsatishning tartib-taomillarini o'timallashtirish va soddalashtirishni, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligini oshirishni tahminlaydigan davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini joriy etish;
- hududlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining barqaror o'sishi, shuningdek, aholining hayot darajasi va farovonligi yuksalishi uchun zarur sharoitlarni ta'minlashga qodir bo'lgan fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish;
- innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish sohasiga investitsiyalarni keng jalb etish, ularning yanada rivojlanishini tahminlovchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ishlanmalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish, shuningdek, ushbu faoliyatda iqtidorli yoshlar faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitlar yaratish;
- mamlakatimiz ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatining istiqbolli yutuqlarini targ'ib qilish va joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, shu jumladan ilmiy-eksperimental ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar, yuqori texnologiyalar markazlari, texnoparklar va boshqa innovatsiyaga yo'naltirilgan tuzilmalarni, xususan chet el investorlari ishtirokida tashkil etish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- tabiatni muhofaza qilish, resurs va energiya tejaydigan texnologiyalarni, jumladan muqobil energiya manbalarini, suvni tozalash va chuchuklashtirish, undan oqilona foydalanishning zamonaviy shakllarini keng qo'llash orqali faol joriy etish;

- sog‘liqni saqlash sohasida kasalliklarni barvaqt aniqlash va ‘rofilaktika qilish, o‘z vaqtida va samarali davolashga imkon beruvchi ilg‘or texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va sog‘lom avlodni tarbiyalashga qaratilgan kom‘leks tizimni yaratish;
- agrar sohaga innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni, shu jumladan ishlab chiqarish samaradorligini va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning eks‘ort salohiyatini oshirishga, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga ko‘maklashuvchi qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi selektsiya navlarini targ‘ib qilish;
- iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini har tomonlama rivojlantirishni tahminlovchi zamonaviy axborot-kommunikatsiya, sanoat va boshqa innovatsion texnologiyalarni jadal joriy etish;
- innovatsiya faoliyati sohasida ilg‘or xorijiy (xalqaro) tashkilotlar bilan, shu jumladan ularni nou-xau, nanotexnologiyalar va yuqori texnologik tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishning mahalliy bozoriga jalb qilish orqali hamkorlikni kengaytirish.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. “Innovasion iqtisodiyot” fanining maqsadi va vazifalari hamda uning fanlar tizimidagi o‘rni
2. “Innovasion iqtisodiyot” tushunchasiga ta’rif bering.
3. “Innovasion iqtisodiyot” shakllari va uning unsurlari nimalardan iborat?
4. Innovatsiyalarning mohiyati va xususiyatlari.
5. Innovatsiyalar va tadbirkorlik qanday bog‘langan?
6. Innovatsiyalarni rivojlanishida texnologik jarayonlarning o‘rni va uning klassik nazariyalari.
7. Tayanch innovatsiyalar va texnologik tuzilmalar.
8. Innovatsiyalar nazariyasi rivojlanishining asosiy bosqichlari.


1-amaliy mashg‘ulot

1-guruh

1. “Innovatsion iqtisodiyot” fanining maqsadi va vazifalarini “T-sxema” asosida yoritib
2. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturidagi Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, intensiv texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarni keng joriy qilish, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, klaster tizimini va barcha yo‘nalishlarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash masalasiga “Keys-stadi” tuzing: “Keys-stadi” quyidagi bosqichlarda tuziladi:
 - 1-qadam: Kichik guruhlariga topshiriq beriladi.
 - 2-qadam: Guruhlar to‘shiriqda berilgan vaziyat tahlilini o‘zaro almashadilar.
 - 3- qadam: Topshiriq natijalarining taqdimoti va guruh ishi baholanadi.

2-guruh

1. “Venna diagrammasi” asosida quyidagi kategoriyalarning o‘zaro o‘xshashlik va farqli jihatlarini ajrating.



2. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturidagi Meva-sabzavotchilik, uzumchilik, urug‘chilik, chorvachilik va agrologistikani rivojlantirish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlari, soha uchun malakali kadrlarni tayyorlash masalasiga “Keys-stadi” tuzing.

3-guruh

1. “Innovatsiya” kategoriyasini “Sinkveyn” texnikasi asosida yoritib
“Sinkveyn” (5 qator) texnikasi (Maqsad – kategoriyaga xarakteristika berish)

Sinkveyn sxemasi:

1–qator – tushuncha;

2-qator – tushunchani tavsiflovchi 2 sifat;

3-qator – ushbu tushuncha vazifalari to‘g‘risidagi 3 ta fe‘l;

4-qator – ushbu tushuncha mohiyati to‘g‘risidagi 4 so‘zdan iborat so‘z birikmasi;

5-qator – ushbu tushuncha sinonimi.

2. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturidagi «start-ap loyihalarini har tomonlama, shu jumladan venchur moliyalashtirish asosida, qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish va IT kompaniyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasiga “Keys-stadi” tuzing.

4-guruh

1. Innovatsion taraqqiyotning mazmunini FSMU texnologiyasi asosida yoritib.

1. FSMU TEXNOLOGIYASI

(F) - Fikringizni bayon eting.

(S) - Fikringizni bayoniga biron sabab ko‘rsating.

(M) - ko‘rsating sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.


(U) - fikringizni umumlashtiring

2. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturidagi Intellektual mulk faoliyatini rivojlantirish va zamonaviy IT-echimlar, autsorsing usullari va «sun‘iy intellekt»dan foydalangan holda intellektual mulk ob‘yektlari ekspertizasini tashkil etishni takomillashtirish masalasiga “Keys-stadi” tuzing.

II BOB. JAHON IQTISODIYOTIDA INNOVATSION JARAYONLARNING BOSQICHLARI VA MODELLARI

2.1. Innovatsion jarayonning mohiyati va shakllari

Milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, diversifikatsiyalash, bank-moliya tizimi va sanoat tarmoqlari o'rtasidagi integratsiyani rivojlantirish hamda mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlash orqali innovatsion rivojlanishga zamin tayyorlash dolzarb vazifalardan biridir.



3-rasm. Innovatsion faoliyatning mohiyati

Rivojlangan mamlakatlarda innovatsiya jarayonni muvaffaqiyatli kechishi davlat va biznesning o'zaro ta'sir modelida namoyon bo'ldi.

Dastlab davlat innovatsion rivojlanish tashabbuskori sifatida namoyon bo'ladi, uning strategiyasi, ustuvorligi, qo'llab-quvvatlash shakllarini belgilaydi va start-up loyihalarni moliyalashtiradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda innovatsiya nazariyalarini bir butun sifatida tadqiq etilgan ishlar juda ham kam uchraydi. Innovatsiya mavzusining evolyutsiyasiga nazar soladigan bo'lsak, adabiyotlar tahlili quyidagi tarixiy bosqichlarni aniqlash imkonini berdi:

- 1910 - 1930 yy. – nazariyaning fundamental asoslari shakllanishi;
- 1940 - 1960 yy. – avvalgi davr tayanch innovatsion g'oyalarni rivojlantirish va batafsil o'rganish;
- 1970- yy.ning o'rtasidan to hozirga qadar.

Innovatsiyalarning fundamental asoslari shakllanishida "katta to'liqlar" nazariyasi asoschisi N.D. Kondratyevning tadqiqotlaridan boshlash to'g'ri bo'lardi. Holbuki, u katta to'liqlar shakllanishida texnik

o'zgarishlarning rolini aniq ko'rsatib bermagan bo'lsa-da, katta to'liqlarning ko'tarilishi chog'ida amalga oshmagan ixtirolar amalda o'z ifodasini topishini nazarda tutgan.

N.D. Kondratyev o'zining tadqiqot faoliyati natijasida quyidagi asosiy holatlarni aniqlagan:

- sanoat ishlab chiqarishda almashinuv fazalari ketma-ketligining davriyligini aniqlagan;
- davrlarning ko'pligini isbotlagan;
- davrlar modelini ishlab chiqqan.

Keyinchalik uning ilmiy qarashlariga Y. Shumpeter tomonidan qo'shimcha kiritildi va u katta to'liqlarning paydo bo'lishida texnik o'zgarishlar asosiy o'rin tutishini asoslab berdi.

Jamiyat va tabiat rivojlanishi qonuniyatlarini yaxlit holda, tizimlar rang barangligida anglash oldindan ko'ra bilish uchun zarur asos va zamin hisoblanadi. Istalgan bir fanning asosiy funksiyasi shundan iborat. Biroq bu har qanday yirik xo'jalik, ijtimoiy va ekologik qarorlar qabul qilishda ham amaliy zarurat hisoblanadi.

Boshlang'ich holatni baholash va undan foydalanishda ikki narsani inobatga olish zarur. Birinchidan, tabiiy qonunlardan farqli o'laroq ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari jamiyatning o'zidagi tub o'zgarishlar bilan birgalikda o'zgarishi mumkin. Industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tish bulardan keyingisiga xos bo'lgan qonuniyatlar tizimini yangidan o'rganib chiqish zarurligini ko'rsatadi

Ikkinchidan, ijtimoiy qonun va qonuniyatlar tarkibi bir turda emas, ular ierarxik bo'lib, bilishning turli darajalarini aks ettiradi. Siklik dinamika qonuniyatlari tizim dinamikasidagi notekislikni, sikllar bosqichlarining almashish qonuniyatlari va tizimlar rivojlanish sikllarining o'zini, jamiyatning innovatsion yangilanish jarayonining to'liqsimonligini ochib beradi. Bu davriy o'zgarayotgan voqelikni anglashning ikkinchi bosqichidir. Bilishning oliy bosqichi - sotsiogenetika qonuniyatlari bo'lib, unda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar dinamikasida nasliylik, o'zgaruvchanlik va tanlov yig'indisi (birikuvi) hisoblanadi. Sotsiogenetika qonuniyatlari tizimning innovatsion yangilanishi chuqurligi va sarhadlarini baholashga ko'maklashadi.

2.2. Innovatsion jarayonlar modellarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

O'tgan asrning 60-yillarini boshida AQSHda, 70-yillar boshida Tayvanda, Isroilda, Janubiy Koreyada, 80-yillarda Singapur va Finlyandiyada davlat innovatsion rivojlanish dasturlari tashabbuskori sifatida namoyon bo'lgan. "Jadallashish davri" muddati Singapurda 10 yil, AQSH va Tayvanda 25 yilni tashkil etdi.

Innovatsion rivojlanishning asosiy g'oyasi shundaki, iqtisodiyotning mazkur rivojlanish jarayonida, avvalo, bilimlarni yangilash tezligi keskin ortib boradi, boshqa tomondan esa, texnologiya va mahsulotlarning murakkablashuvi ko'plab faoliyat turlari bu jarayonga jalb qilinadi. Bunday sharoitda shaxs yoki davlatning muvaffaqiyati uchun nafaqat ixtisoslashgan bilimlardan foydalanish, balki bilimlarni yangilash va tezkor o'qitish qobiliyati uchun ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi.

Jahon tajribasiga ko'ra, innovatsion siyosat iqtisodiyotni tartibga solishga uzviy bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga u ilmiy yoki sanoat siyosatining oddiy davomi hisoblanmay, balki iqtisodiyotning hamma yo'nalishlari bo'yicha o'zaro bog'liq chora-tadbirlarni aks ettiradi. SHuning uchun innovatsion siyosatni ishlab chiqish birgina dastur bilan bog'lanmasligi yoki bir muassasaning huquqi sifatida xizmat qila olmaydi, nafaqat vazirliklar, balki iqtisodiyot va jamiyatdagi turli hamkorlar o'rtasidagi konsensusni topish va muvofiqlashuvni talab etadi.

Bundan tashqari, fan-texnika rivojini boshqarish davlat institutlari faoliyatida bir texnologik tartibni boshqasiga almashtirishni sharoitlari va bahosini kuzatish mumkin. Axborot texnologiyalari inqilobi boshqaruv tizimini sezilarlicha o'zgartirdi. Boshqaruv nazariyasi bo'yicha mashhur amerikalik mutaxassis V.Xetel bilimlarni boshqarish va intellektual yetakchilikka asoslangan an'anaviy boshqaruvdan boshqaruvdagi yangi yondashuvga o'tish modelini tavsiflab berdi.

O.Toffler "Hokimiyat metamorfozalari" kitobida ilk bor hokimiyat asosi va zamonaviy olamda muvaffaqiyatli faoliyat manbai sifatida aniq tahriflagan. XXI asrda faqat bilim, intellekt hokimiyat manbai va davlat uchun raqobat kuchiga aylanadi. Aynan bilimlar – muvaffaqiyat va iqtisodiy o'sish kaliti, bu Yaponiya, Tayvan, Koreya Respublikasi salohiyati ortib borishidagi "iqtisodiy mo'jiza" bilan isbotlangan.

Hozirgi kunda turli manbalarda jamiyat rivojidadagi “sanoatlashuvdan keyingi jamiyat”dan “raqamli iqtisodiyot”ga qadar zamonaviy bosqichning ko‘plab ta’riflari beriladi. 1996 yilda OESR ta’rifiga binoan, hozirgi kunda “bilimlarga asoslangan” iqtisodiyot yoki B.A.Lundval ta’riflaganidek, “ta’lim iqtisodiyoti”ga sezilarlicha tez sur’atda harakatlanadi.

2015 yil boshiga kelib Janubiy Koreya jahondagi 50 ta eng iqtisodi innovatsion rivojlangan davlatlar reytingida birinchi o‘rinni egalladi. 2015 yil Samsung kompaniyasida qilingan ITTKI xarajatlarining salmog‘i yuqori bo‘lib, ushbu kompaniya jahonda yetakchilik qilmoqda. Janubiy Koreyani yutuqlarini tahlil qilsak, dastlab iqtisodiyotni modernizatsiyalash turli ko‘rinishdagi chet el texnologiyalarini o‘zlashtirish hisobiga (shartnomalar, litsenziyalar, maslahat xizmatlari shular jumlasidandir) tashkil qilinib amalga oshirildi. Xorij tajribasini o‘rganish orqali, Yaponiya bilan hamkorlikda qo‘shma venchur firmalari tashkil qilindi. Janubiy Koreyaning innovatsion rivojlanishida yirik korporatsiyalarni (chebollar) qo‘llab quvvatlanishi alohida ahamiyatga ega.

Buyuk Britaniyada 2000 yillar boshlaridan innovatsiyalarni rag‘batlantirish va rivojlantirishga qaratilgan markazlashtirilgan maqsadli siyosat olib borildi, 2003 yilda esa savdo va sanoat vazirligi tomonidan texnologik sohani rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. 2004 yilda esa texnologik strategiya bo‘yicha kengash tuzilib, investitsiyalar yangi texnologiyalarni vujudga keltirish, qo‘llab quvvatlash va tijoratlashirishni amalga oshirish uchun yo‘naltirildi. Uzoqqa mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasi 2008 yilda nisbatan to‘liq shakllantirildi. Buyuk Britaniyada ilm-fan va yuqori texnologiyalarni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashda ilmiy izlanishlar va ishlanmalar bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarga nisbatan qo‘llaniladigan soliq imtiyozlari asosiy mexanizm bo‘lib hisoblanadi.

Germaniyaning innovatsion siyosatining o‘ziga xos tomoni bo‘lib ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion faoliyatni moliyaviy qo‘llab quvvatlashga davlat tomonidan ko‘maklashuvi hisoblanadi. Aynan davlat ilmiy tadqiqotlarni yo‘naltirishda katta rolg‘ o‘ynaydi: oliy ta’lim dargohlaridagi ilmiy tadqiqotlarni 80 %gacha beshta yirik ilmiy jamiyatlar tomonidan beriladigan grantlar hisobiga olib boriladi. 1950 yillarda Germaniyada innovatsion subhektlarni moliyalashtirishning boshlarida ilk venchur fondlari

‘aydo bo‘la boshladi. Bu fondlar kichik biznes kom‘aniyalarini rivojlantirishga yo‘naltirildi. Ilmiy-tadqiqot sohasida davlat va xususiy sektor hamkorligi borasida qabul qilingan dasturlar ijobiy natija berdi. 1970 yili ITTKIga davlat byudjetidan ajratilayotgan xarajatlar 70 foizga qisqargan bo‘lsa, hozirda 30 foizga kamayganini ko‘rish mumkin. Germaniya innovatsion tizimida ixtirolarni ro‘yxatga olishni soddalashtirilgan tartibi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, 1977 yillarga qaraganda ‘atentlar sonini 20 barobarga ko‘paytira bonga misol bo‘la oladi

Finlyandiyaning innovatsion rivojlanishida 1980 yillarda tashkil etilgan Sitra innovatsion fondi venchur moliyalashda muhim o‘rin tutdi, ushbu fondning maqsadi bo‘lib iqtisodni raqobatbardoshligini rivojlantirish, iqtisodni barqaror rivojlanishini, mamlakatda ishbilarmonlik faoliyatini kuchaytirish va finlyandiya korxonalarini xalqaro hamkorligini kuchaytirish xizmat qiladi. Finlyandiya milliy innovatsion tizimining davlat segmentida ikkita hal qiluvchi vazirliklarni bo‘lishi katta ahamiyat kasb etadi. Ta‘lim va madaniyat vazirligi ilm bo‘yicha siyosatga javob bersa, Finlyandiya akademiyasi esa ilmiy tekshirishlarni moliyalashtirishga yo‘naltirish uchun asosiy mexanizm hisoblanadi. Bandlik va iqtisodiyot vazirligi texnik va innovatsion siyosatga mashul bo‘lib, moliyalashtirishga yo‘naltirish uchun asosiy mexanizm Tekes xizmat qiladi. Tekes agentligi mamlakatni rivojlantirishda muhim institut sanalib, izlanuvchilar hamjamiyatini sanoat va servis sektorlarini qo‘llab quvvatlaydi. Tekes har yili Finlyandiya dagi 60 %dan ko‘p innovatsion loyihalarni moliyalashtiradi, ularning 80 %i samarali natijaga ega bo‘ldi. SHuningdek Finlyandiya da texnopolis yaratishga katta ahamiyat berilgan, dunyodagi yirik va birinchilardan bo‘lgan, dunyoda o‘zining o‘lchamlari bilan lol qoldirgan “Texnopolis” tarmog‘i yaratilgan. “Texnopolis” tarmog‘ida 18 ta ilmiy va texnologik parklar kiradi va ulardan 2 tasi mamlakat tashqarisida joylashgan.

2.3. Zamonaviy innovatsion jarayonlar va biznes-modellar

Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga qaratilgan islohotlar 1978 yilda boshlanib, davlatning kelgusidagi taraqqiyoti uchun g‘oyat katta imkoniyatlar yaratdi. Xitoy ham Yaponiya kabi o‘zining innovatsion rivojlanishining chet eldan patentlar, litsenziyalar xarididan boshlab zamonaviy sanoat tarmog‘ini shakllantirishga muvaffaq bo‘ldi.

Xitoyda innovatsion iqtisodiyotga o‘tish rejasi bosqichma-bosqich modelga asoslanib, ushbu jarayonda quyidagi bosqichlardan o‘tildi:

- 1-bosqich - 1978-1984 yillar, bu etap yashirin jarayon deb nomlandi va shu davrda hududiy innovatsion tizim asoslari yaratildi;
- 2-bosqich – 1985 – 1995 yillarni o‘z ichiga olib unda hududiy innovatsion tizim rivojlandi;
- 3-bosqich 1996 yildan boshlanib regional innovatsion tizimlarni takomillashtirish shaklida hozirgacha davom etmoqda.

Xitoyda bozor iqtisodi, uning mexanizmlari tobora rivojlanmoqda va takomillashmoqda, bozor raqobati va hamkorligi muhiti kuchaymoqda. Korxonalar hamkorlik va mehnatni taqsimlash muammolariga tobora ko‘proq ahamiyat berishmoqda. «Ishlab chiqarish – universitet faoliyati – ilmiy tadqiqotlar» zanjiriga asoslangan hamkorlik yanada ko‘proq tarqalib kengaymoqda. Korxonalarning mustaqil innovatsion faoliyati regional innovatsion tizimlarni tezlikda takomillashuviga va yaratilishi tugallanishiga imkon bermoqda.

Xitoyning innovatsion rivojlanishining o‘ziga xos tamoyili chet eldan investitsiyalarni jalb qilish va tayyor texnologiyalarni xarid qilish, ishlab chiqarishga tatbiq etishdan o‘zining xususiy innovatsiyalarini yaratish va yuqori texnologiyali brendlarni vujudga keltirishga ustuvorlik berganligida ham ko‘rinadi. Strategik «2006–2020 rejasi» hukumatning xitoycha o‘sish modelini shakllantirish, innovatsiyalarni bo‘lg‘usi iqtisodiy taraqqiyot poydevoriga aylantirishga urinishi bo‘ldi.

Hindistonda iqtisodni innovatsion rivojlantirishda kerakli infratuzilma yaratish, texnik, informatsion va uslubiy yordam ko‘rsatish, shuningdek davlat moliyalashtirishini jalb qilish orqali innovatsion faoliyat tavakkalchiligini kamaytirishga asosiy e‘tibor berildi. Kompaniyalarga faoliyatini kengaytirish bosqichida 1996 yilda Hindiston hukumati tomonidan tuzilgan texnologik rivojlanish Kengashi ko‘mak beradi. Xindiston innovatsion tizimini asosiy elementlaridan bo‘lib texnologik parklar va inkubatorlar hisoblanadi.

Hindiston hukumatida ilmiy-texnologik parklar yaratish, ilm va texnologiyalarni qo‘llab quvvatlovchi maxsus Agentlik faoliyat ko‘rsatadi. Hindistonda innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun umumiy huquqiy bazani yaratishga katta ahamiyat berilmoqda va natijada 2008 yilda

Hindiston hukumati innovatsiyalar doirasida “Milliy innovatsion akt” qonunini qabul qildi. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan 45 ta texnoparklarda ishlab chiqarilib eksport qilinayotgan 80 foiz mahsulotlar axborot texnologiyalari sohasiga tegishlidir. Dunyoning yetakchi 300 dan ortiq transmilliy korporatsiyalar kompyuter dasturlari bo‘yicha ishlanmalarini olib kirishib amaliyotga joriy qilishmoqda.


Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Innovatsion jarayonning mohiyati tushuntirib bering
2. Innovatsion jarayonning qanday shakllari mavjud?
3. Dastlabki innovatsion g‘oyalar va ilmiy maktablarning shakllanishi.
4. Innovatsion jarayonlar modellarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.
5. Zamonaviy innovatsion jarayonlar va biznes-modellar.
6. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish evolyutsiyasi.
7. Xitoyning innovatsion rivojlanishi qanday kechgan?
8. Hindistonda innovatsion faoliyat qanday rag‘batlantirilgan?

2-amaliy mashg‘ulot

1-guruh

1. Innovatsiyalarni rivojlanishida texnologik jarayonlarning o‘rni qanday? “Qanday” ierarxik diagrammasi yordamida javob bering.



2. Y.A.Shumpeterning innovatsion rivojlanish nazariyasini “FSMU” texnologiyasi asosida tushuntiring.

2-guruh

1. O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlar bilan ishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni smarali mexanizmini yo‘lga qo‘yishda qanday muammolar mavjud? “Qanday” ierarxik diagrammasi yordamida javob bering.
2. Innovatsiyalar yordamida iqtisodiy o‘shishga erishishning endogen nazariyalarini “FSMU” texnologiyasi asosida tushuntiring.

3-guruh

1. O‘zbekistonda innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qanday ishlar olib borilmoqda? “Qanday” ierarxik diagrammasi yordamida javob bering.
2. Innovatsiyalar yordamida iqtisodiy o‘shishga erishishning ekzogen nazariyalarini “FSMU” texnologiyasi asosida tushuntiring.

III BOB. MILLIY INNOVATSION TIZIMLAR

3.1. Milliy innovatsion tizimlarning shakllanishi: kontseptual holati, xususiyatlari, tendentsiyalari

Milliy innovatsiya tizimining birinchi kontseptual poydevori o'tgan asrning 80-yillarida yaratilgan. Lundvall, Frimen va Nelson uning asosiy maqsadlarini taoriflab berishgan. Ularning xulosalari zamonaviy iqtisodiyotni taraqqiy ettirishning asosiy omili biznesni rivojlantirish manfaatlaridagi innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar ekanligi, institutsionallik innovatsion faoliyat mazmuni va tuzilmasiga taosir qiluvchi omil hisoblanishi va ilmiy bilim iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o'ynashi to'g'risidagi g'oyalardan iborat bo'lgan.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, mamlakatning bosqichma-bosqich ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va uning tashqi bozordagi raqobatbardoshligi rivojlangan milliy innovatsiya tizimining mavjudligi asosida ta'minlanadi. Milliy innovatsiya tizimi tarkibi elementlarini shakllantirish va o'zaro samarali aloqadorligini ta'minlash davlat innovatsiya siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Olimlarning umumiy fikricha, milliy innovatsiya tizimini milliy chegaralar doirasida ilmiy bilimlar va texnologiyalarni ishlab chiqish va kommertsiyalash bilan mashg'ul, maqsad-vazifalari turlicha bo'lgan tuzilmalarning, jumladan, davlat idoralarining integratsiyasi jarayoni va natijasi sifatida e'tirof etish joiz. Ular mustahkam milliy ildizlarga, anoanalarga, siyosiy va madaniy xususiyatlarga ega institutlar majmuasi bilan ta'minlanadi (E.Kondratyev). G.Goldenshteynning qayd etishicha, samarali milliy innovatsiya tizimini yaratishning muhim sharti davlat undan asosiy manfaatdor bo'lishiga, innovatsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini har yili belgilashi va zarur resurslar bilan ta'minlashiga bog'liqdir.

Innovatsiya siyosati sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnika taraqqiyotining jadal surhatlarda rivojlanishi bilan bog'liq holda davlat iqtisodiy siyosatining alohida ustuvor yo'nalishi sifatida shakllangan.

Yuqori texnologik mahsulotlar bozorida yetakchilik qilayotgan mamlakatlar tajribasi texnologik yetakchilik bilan bog'liq quyidagi qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi:

Birinchi qonuniyat – ilm-fan va innovatsion yangiliklarning mamlakat raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash dastagi va zamonaviy bilimlarga asoslangan yangi tipdagi jamiyatning bazaviy elementi sifatida baholanmoqda. Innovatsion tizim faoliyatini ta'minlash rivojlangan mamlakatlarning yuqori texnologik mahsulotlar bilan savdo qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa yalpi ichki mahsulotning 1,6% idan (Kanada) 3,7% igacha (Shvetsiya) yangi bilimlar va texnologiyalarni yaratish uchun katta hajmdagi mablag'lar sarflashni taqozo etadi.

Ikkinchi qonuniyat – korporativ tadqiqotlar va ishlanmalarning muhim iqtisodiy ahamiyatga egaligi. Kompaniyalarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining rivojlanishi ilmiy yangiliklar va yangi texnik imkoniyatlarni yaratadi. XX asrning oxirlarida rivojlangan mamlakatlarda innovatsion rivojlanishga sarflangan umummilliy xarajatlarning aksariyat qismi tadbirkorlik sektori tomonidan moliyalashtirilgan. Ushbu ko'rsatkich 2013 yilda Koreyada – 78,5%ni, Yaponiyada – 73,5%, Shvetsiyada – 69,3%, AQSHda – 68,0%, Frantsiyada – 60,3%, Germaniyada – 56,4%ni tashkil etdi. Korporativ tadqiqotlar asosan yuqori texnologik mahsulotni ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda olib boriladi. AQSHda axborot-kommunikatsion texnologiyalar sohasida ITTKI xarajatlarning 1/3 qismi korporativ sektor hissasiga to'g'ri keladi. Misol uchun, 2012 yilda Intel va Microsoft kompaniyalarining har biri ushbu sohaga 10 mlrd. dollardan mablag' sarflagan.

Uchinchi qonuniyat – zamonaviy bilimlarni jamg'arish – kumulyativ jarayon hisoblanadi. Ilm-fan va maorifga sarflanayotgan mablag'lar barqaror va uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lsagina samara beradi. Mazkur sohani moliyalashtirish biron bosqichda to'xtab qolsa, uni keyinchalik ko'paytirish o'zini oqlamaydi. Davlatning ilmiy-texnik siyosatini moliyalashtirishdagi asosiy manba byudjet mablag'lari hisoblanadi. Mazkur manbadan ilmiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlarning 1/5 dan 1/2 qismigacha moliyalashtiriladi. Tahlillar ko'rsatishicha, 2013 yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik xarajatlari Shvetsiyada – 3,6%ni, Yaponiyada – 3,5%ni, Germaniyada – 2,9%ni, AQSHda – 2,7%ni tashkil etgan.

Xitoy iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashda milliy innovatsion tizimlarning tutgan o'rni kattadir. 2008 yilda boshlangan

jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi dunyo bo'yicha ITTKIga ajratilayotgan mablag'lar miqdorini keskin kamayishiga sabab bo'ldi. Lekin Xitoyda ITTKIlariga ajratilayotgan mablag'lar dinamikasi yuqoriligicha qoldi. Agar 2000 yilda ITTKIlariga ajratilgan mablag'lar miqdori (XQP bo'yicha) 32,6 mlrd. doll.ni (YaIMga nisbatan 1,3 %) tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilda ushbu ko'rsatkich 233,0 mlrd. mlrd. AQSH dollarga yetib, (YaIMga nisbatan 2,1 %) 2000 yilga nisbatan 7,1 baravar ortdi⁷. Milliy innovatsion tizimlar (MIT) odatda iqtisodiyotning texnologik ukladida almashinuvi davrida shakllanadi. MITni tashkil etayotgan har bir davlat oldida quyidagi masalalarni hal etish vazifasi turadi: innovatsiyalarga siyosiy-tashkiliy yondashuvni ishlab chiqish, innovatsiyalarni kengaytirilgan ishlab chiqarish mexanizmlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etishni rag'batlantirish, innovatsion jarayonlarni muvaffaqiyatli rivojlantirish sharti sifatida zamonaviy jamiyatda barqarorlikni oshirish. Xitoy esa ushbu vazifalarni hal etishni uddasidan chiqdi⁸.

2016 yilning mart oyida bo'lib o'tgan sessiyada Xitoy xalq xo'jaligi va ijtimoiy rivojlanishining 13-besh yillikka (2016-2020 yy.) mo'ljallangan dasturi loyihasi taqdim etildi. Ushbu loyihada yaqin besh yilda quyidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:⁹

- ***Iqtisodiy o'sishning*** yillik yuqori sur'atlarini saqlab qolgan holda 2020 yilga borib YaIM hajmini va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarni 2010 yildagiga nisbatan ikki barobar oshirish hamda innovatsion, muvofiqlashtirilgan, "yashil", ochiq va hamkorlikka tayangan rivojlanishga erishish;

- ***Innovatsion rivojlanish sohasida*** yuqori texnologiyalar, shu jumladan AKT, yangi energiya manbalarini topish, aviatsiya, biomeditsina va aqliy ishlab chiqarishda muvaffaqiyatga erishish, ilmiy tadqiqotlar intensivligi va darajasini oshirish, yirik xalqaro loyihalarni amalga oshirishda faol tashabbuskor bo'lish, bozor taklifining samaradorligi va sifatini oshirib real talab hajmiga ta'sir etish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish;

- ***Zamonaviy ishlab chiqarish sohasida*** "Xitoyda ishlab chiqarilgan 2025" strategiyasini amalga oshirishni davom ettirish, ishlab

⁷ Data.oecd.org сайти маълумотлари асосида ҳисобланди.

⁸ Селихов Д. КНР в мировом инновационном развитии // Мировая экономика и международные отношения, 2013, №11 – С. 21.

⁹ СА.NEWS сайти маълумотларидан фойдаланилди.

chiqarishda innovatsiyalar va yuqori texnologiyalarni o'zlashtirishga e'tiborni kuchaytirish, strategik jihatdan muhim bo'lgan rivojlanib borayotgan tarmoqlarni qo'llab quvvatlash, axborot texnologiyalari va avtomobillarning yangi energiya manbalarini yaratish;

- **Internet sohasida** yangi avlod axborot infratuzilmasini yaratishni jadallashtirish, beshinchi avlod telekommunikatsiya aloqalari standartini kengaytirish, "Internet plyus" dasturini joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya etish va ijtimoiy boshqaruv sohasidagi innovatsiyalarga ta'sir etishda katta ma'lumotlar texnologiyasini harakatga keltirish;

- **Energetika inqilobini** zamonaviy yuqori samarali energetika tizimini sof energiya manbalari va kam uglerodli texnologiyalardan foydalangan holda yaratish orqali chuqurlashtirish;

- **Urbanizatsiya sohasida** qishloqdan shaharga ko'chib keluvchilarning urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish;

- **Atrof-muhitni himoya qilish sohasida** energiya iste'moli hajmini yiliga 5 mlrd. tonna ekvivalentida ushlab turish, atrof-muhitni muhofaza etishning qat'iy tizimini joriy etish, uglerod chiqindilari ustidan qat'iy nazorat o'rnatish, global iqlim boshqaruvida faol ishtirok etish;

- **Tashqi dunyoga ochiqlik sohasida** metall ishlab chiqarish, temir yo'l qurilishi, telekommunikatsiya, mashinasozlik va aviatsiya tarmoqlarida ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga qaratilgan xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish, tashqi savdo aylanmasi hajmida xizmatlar ulushini 16%ga yetkazish, xizmat ko'rsatish tarmog'iga xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi cheklovlarni kamaytirish, xorijiy investorlarning bank va qimmatbaho qog'ozlar bozoriga kirishini kengaytirish, sanoatning yetakchi mashinasozlik, yuqori texnologiyali sohalari, energiya tejankor va tabiatni muhofazalovchi tarmoqlarga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish;

- **"Kamar va yo'l" strategiyasi** doirasida xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikni mustahkamlash, Osiyo banki va BRIKSni taraqqiy ettirish yangi bankining infratuzilma investitsiyalarini rivojlantirish, Ipak yo'li jamg'armasining ahamiyatini to'la ma'noda namoyon etish, Xitoy bilan iqtisodiy o'tkazma yo'laklarni hosil etuvchi davlatlar bilan qurilish ishlarini amalga oshirish;

- **Global iqtisodiy boshqaruv sohasida** Butunjahon savdo tashkilotining global savdo va investitsiyalashning asosiy kanali sifatidagi

ahamiyatini saqlab qolishni ta'minlash, "Kamar va yo'l"ga kiruvchi davlatlar bilan erkin iqtisodiy zonalarni faol tashkil etish, fors Ko'rfazidagi arab davlatlari, Yaponiya, Koreya, Isroil, Kadana va Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlar bilan erkin savdo zonalarini tashkil etish bo'yicha mintaqaviy kelishuvlarni o'rnatish jarayonlarini tezlashtirish, AQSH va Yevropa bilan investitsiya kelishuvlari bo'yicha muzokaralar olib borishni davom ettirish;

- **Aholi farovonligi bo'yicha** 50 mln. aholini kambag'allikdan chiqarib, ularni jamiyatdagi barcha munosabatlarda moddiy ta'minlash, "bir oilaga – ikki bola" siyosatini hayotga keng tatbiq etish orqali 2020 yilda umumiy aholi sonini 1,42 mlrd.kishiga yetkazish;

- **Strategiya va xavfsizlik bo'yicha** siyosat, davlat hududi, iqtisodiyot, jamiyat, resurslar va internet kabi tayanch sohalarda milliy xavfsizlik siyosatini ishlab chiqish va amalda qo'llash, terrorizmga qarshi kuchlarni mustahkamlash va shu yo'nalishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, milliy mudofaa va armiyani modernizatsiyalashni harakatga keltirish.

3.2. O'zbekistonning XXR bilan iqtisodiy-innovatsion hamkorligi

O'zbekiston Xitoy bilan strategik sheriklikni yanada mustahkamlash, o'zaro manfaatdorlik va tenglikka asoslangan ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqda.

Ikki mamlakat o'rtasida hukumatlar darajasidagi delegatsiyalarning o'zaro tashriflari muntazamlik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "O'zbekiston Xitoyni qadimiy tarix va noyob madaniyat, ulkan salohiyatga ega, jahon iqtisodiyotining yetakchilaridan bo'lgan va o'z maqsadlari yo'lida qat'iy borayotgan mamlakat sifatida biladi¹⁰".

Faol aloqalar, jumladan, BMT, SHHT doirasida dolzarb masalalar yuzasidan o'zaro hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Pekin O'rta Osiyoda ekologik muvozanatni buzishi mumkin bo'lgan gidroenergetik loyihalarni amalga oshirishda qatnashmaslikka oid pozitsiyasini tasdiqladi, mintaqadagi transchegaraviy daryolardan oqilona foydalanish printsiplarini qo'llab-quvvatlaydi. O'zbekiston Xitoyni hududiy yaxlitlik, "uch yovuz

¹⁰ <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-khitoy-strategik-sheriklik-va-d-stlik-munosabatlar-12-05-2017>

kuch” – terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashish masalalarida doim qo‘llab-quvvatlaydi.

Sarmoyaviy hamkorlik ikki mamlakat hukumatlari o‘rtasida 2010-yilda imzolangan noxomashyo va yuqori texnologiyalar sohasidagi hamkorlik dasturi doirasida amalga oshirilmoqda.

Bugun O‘zbekiston va Xitoy turli loyihalar, avvalambor, yuqori texnologiyalar sohasidagi loyihalarni hayotga tatbiq etish borasidagi hamkorlikni faol rivojlantirmoqda.

Mamlakatimizda Xitoy kapitali ishtirokidagi 700 dan ziyod korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ularning 100 dan ortig‘i yuz foiz Xitoy sarmoyasi asosida tashkil etilgan. Yurtimizda Xitoyning 100 ga yaqin kompaniyalari vakolatxonlari ishlab turibdi.

2002-yildan boshlab Xitoy investitsiyalari va kreditlari ishtirokida umumiy qiymati 7,8 milliard dollar bo‘lgan 83 investitsiya loyihasi, shu jumladan, 5,75 milliard dollar miqdoridagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jalb etilgan 52 loyiha, 992,4 million dollarlik imtiyozli kreditlar yo‘naltirilgan 31 loyiha amalga oshirildi. 2017 yil davomida XXR rezidentlari kapitali ishtirokida 163 ta yangi korxonalar ro‘yhatdan o‘tdi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyovning 2017-yil may oyida Xitoyga tashrifi chog‘ida o‘ttizdan ortiq investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan hujjatlar imzolanganini alohida qayd etish joiz. Xitoy Xalq Respublikasi O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va sanoatning eksport salohiyatini yuksaltirishda faol ishtirok etmoqda. XXRning yetakchi sanoat kompaniyalari bilan uzoq muddatli va o‘zaro manfaatli aloqalarni, birinchi navbatda, yuqori texnologiyaga asoslangan tarmoqlarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Neft-gaz va telekommunikatsiya tarmoqlarida, transport, to‘qimachilik, kimyo sanoati va boshqa yo‘nalishlarda qo‘shma loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Xitoy biznes sub’yektlari O‘zbekistondagi ko‘plab yangi sanoat korxonalari, jumladan, Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar, Qo‘ng‘irot soda zavodlari qurilishida ishtirok etdi. XXR tadbirkorlari ko‘magida mamlakatimizda elektr texnikasi mahsulotlari, mobil telefonlar, qurilish texnikasi ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. “Huawei” kompaniyasi tomonidan Toshkent shahri

va O‘zbekiston mintaqalarining telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 20 ta loyiha amalga oshirildi. ZTE korporatsiyasi bilan hamkorlikda chiqarilayotgan modem, smartfon hamda boshqa uskunalarga ichki va xorij bozorlarida talab yuqori. XXR Milliy neft-gaz korporatsiyasi mamlakatimizda istiqbolli uglevodorod konlarini qidirish va qazish ishlarida faol qatnashmoqda. Muborak gaz-kimyoy majmuasida tabiiy gazni chuqur qayta ishlash bo‘yicha hamkorlik qilib kelinmoqda¹¹.

O‘zbekiston o‘zining yaqin mintaqaviy qo‘shnisi hamda global muammolarni hal etishda muhim o‘rin tutadigan davlat sifatida Xitoy Xalq Respublikasi bilan strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashdan manfaatdordir. O‘zaro manfaatli hamkorlikning huquqiy bazasini 2005 yilda imzolangan Do‘stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma, 2010 yildagi Do‘stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlarini har tomonlama chuqurlashtirish va rivojlantirish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya, 2012 yildagi Strategik sheriklik o‘rnatish to‘g‘risidagi Qo‘shma deklaratsiya, 2013 yildagi Ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish haqidagi Qo‘shma deklaratsiya, 2014-2018 yillarga mo‘ljallangan Strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish dasturi hamda 2016 yilda imzolangan Qo‘shma bayonot tashkil qiladi¹².

COVID-19 ga qarshi vaksina, samarali sinov va mavjud profilaktika choralari bilan birgalikda, pandemiyani nazorat ostiga olishga yordam beradigan muhim vositaga aylandi. Bunda Xitoy-O‘zbekiston hammuallifligida yaratilgan ZF-UZ-VAC2001 vaksinasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu Xitoy Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya instituti olimlari tomonidan yaratilgan, Anhui Zhifei Longcom Biopharmaceutical Co.Ltd farmasevtika kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan hamda o‘zbekistonlik olimlar bilan hamkorlikda klinik tadqiqotlari olib borilgan koronavirusga qarshi yangi rekombinant vaksinadir.

Xitoy-O‘zbekiston hammuallifligida yaratilgan ZF-UZ-VAC2001 vaksinasini yaratishda koronavirus tashqi oqsili biotexnologik usul bilan sintezlanib olingan bo‘lib, organizmga yuborilganda oqsilga nisbatan immun javob hosil bo‘ladi. Bunday vaksinalar boshqa turdagi vaksinalar bilan solishtirganda, eng yuqori xavfsizlik profiliga ega hisoblanadi.

¹¹ <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-khitoy-strategik-sheriklik-va-d-stlik-munosabatlar-12-05-2017>

¹² www.gov.uz/uz/pages/international_relations

Ta'kidlash joizki, Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilg'or texnologiyalar markazi va Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti olimlari Xitoyning ZF2001 vaksinasi ustidagi tadqiqotlarni keng ko'lamda o'tkazilishiga o'z hissalarini qo'shdilar. Amalga oshirilgan ishlar natijasida xitoylik hamkorlarimiz O'zbekistonni mazkur vakcina hammuallifi deb e'lon qildi va vaksinaga ZF-UZ-VAC2001 deb nom berildi. Bugungi kunda ZF-UZ-VAC2001 O'zbekistonda koronavirusga qarshi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan yagona vaksinadir ZF-UZ-VAC 2001 koronavirusning yangi tipiga qarshi rekombinant (CHO cell) vakcina tibbiyot amaliyotida qo'llash uchun tegishli tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Ro'yxat raqami - DV/X 08646/03/21.

Bugungi kunga qadar ZF-UZ-VAC2001 vaksinasining III-faza sinovlarida emlanganlarning har biridagi o'zgarishlar to'la nazorat qilib borilmoqda. Mazkur vakcina JSST talablariga mos holda O'zbekistonda III-faza sinov tadqiqotlari o'tayotgan yagona vaksinaligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilar koronavirusning «britancha shtammi» va boshqa shtammlaridan ham mazkur vakcina yordamida himoyalaniish mumkinligini qayd etmoqdalar. Negaki ZF-UZ-VAC2001 vakcina biotexnologiya usulida yaratilgan bo'lib, bunda virusning tojlari, ya'ni bo'lakchalari kesib olinadi va ular laboratoriya sharoitida ko'paytiriladi.¹³

3.3. O'zbekistonda MITning rivojlanishi

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy islohotlar kontsepsiyasiga asosan, mamlakatimizda intellektual va texnologik salohiyatni oshirishning uzoq muddatli stsenariylarida asosiy yo'nalish-innovatsiyalarni rivojlantirish, korxonalarda innovatsion faoliyat bilan faol shug'ullanishni rag'batlantirish ko'rsatib o'tilgan. Bu iqtisodiyotning ustuvor soha va tarmoqlarini innovatsion rivojlantirishning yangi modellarini shakllantirish imkonini beradigan strategik milliy innovatsiya tizimini yaratish bilan bog'liq.

¹³ <https://mininnovation.uz/oz/news/2975>

2-jadval**Innovatsion rivojlanish samaradorligi ko'rsatkichlarini o'zgarishi**

Ko'rsatkichlar	2014	2015	2016	2017
Mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan %da	97,2	99,0	105,6	105,6
Mashina va asbob-uskunalarining eskirish darajasi, %	52,7	52,4	50,9	50,5
Asosiy vositalarning yangilanish darajasi, %	17,1	12,6	18,9	12,9
Mashina va asbob-uskunalarni yangilanish muddati, yil	7,0	11,0	7,0	9,0
Mashina va asbob-uskunalarni chiqib ketish darajasi, %	1,1	3,2	6,3	2,8

Darhaqiqat, milliy innovatsiya tizimi ilm-fan, sanoat va jamiyat o'rtasida shunday uzviy munosabatlar tizimini shakllantiradiki, unda innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, innovatsion taraqqiyot ehtiyojlari esa ilmiy faoliyat ravnaqini belgilab beradi va rag'batlantiradi. Shu bois barcha mamlakatlar milliy innovatsiya tizimiga tayangan holda milliy raqobatbardoshlikning yuqori darajasiga erishish va saqlab turish siyosatini olib borishadi.¹⁴

O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendentsiyalari, uzoq muddatli istiqbolda milliy innovatsiya tizimining barqaror rivojlanishini tahminlaydigan omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Innovatsion rivojlanish iqtisodiyotning ustuvor sohalarini samarali modernizatsiyalash, ilmiy-texnika sohasi faolligi va tizimligini oshirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosatining ustuvorligi ta'minlanadi.

O'zbekistonda 2015-2020 yillarda innovatsion rivojlanishning maqsadli ko'rsatkichlari prognozlash va makroiqtisodiy tadqiqotlar Instituti tomonidan milliy innovatsion tizim (MIT) o'zgarishlari intensivligi va o'sishining faktorli omillaridan kelib chiqib, aniqlangan.

¹⁴ A. Oteuliev O'zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirish kontsepsiyasi asoslari 29.12.2017 | Son: №12(120)-2017

O‘zbekistonda MITning rivojlanish bosqichlari

1-bosqich (2012-2015 yy.). Mazkur bosqichning asosiy maqsadi – MIT anhanaviy va yangi segmentlarini, innovatsion faoliyat institutlari va mexanizmlarini birlashtirgan holda institutsional asosni mujassamlashtirish, alohida tizimlarda tuzish bilan ularga bir butun tizimli tavsif berish.

Mazkur bosqichda ilg‘or xorijiy texnologiyalarni qarz olishga yo‘naltirilish zarur bo‘lib, ular iqtisodiyotni ko‘lamli modernizatsiyalash va qayta jihozlashni ta‘minlashlari zarur. Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning amal qilish samaradorligini oshirish uchun texnologiyalarni ommaviy qarz olish bu jarayonni faollashtirish uchun javobgar bo‘lgan Milliy innovatsion tizim unsurlarini shakllantirish pirovard oqibatda ularning raqobatbardoshligini oshirishni tahminlaydi. Ishlab chiqarishning ilg‘or usullarini joriy etish ilmiy tadqiqotlar ishlariga katta miqdorda investitsiyalar talab qiladi. Chunki qarz olingan texnologiyalar odatda yetarli ishlashga va retsipientning texnik va institutsional muhitiga moslashishga muhtoj. Iqtisodiyot qanchalik ko‘p rivojlangan bo‘lsa, shunchalik ilg‘or texnologiyalarni u qarz oladi

2-bosqich (2016-2020 yy.). O‘zbekiston MIT samarali amal qilishini ta‘minlash va moslashtirish asosida dunyo global innovatsion tizimining uzviy qismi bo‘lishi zarur. Bu kuchli raqobatbardosh texnologik platformalar va klasterlar yadrosini shakllantiradigan tizimli innovatsion loyihalarni amalga oshirishga; davlat xarajatlari salmog‘ini kamaytirish va ko‘proq rag‘batlantirish bilvosita vositalaridan foydalanadigan xususiy investitsiyalarning o‘sishi; cheklangan miqdordagi loyihalarga resurslarni jamlash; risklarni taqsimlash asosida innovatsion sohada xalqaro kooperatsiyani rivojlantirishga qaratilgan.

Istiqbolda ilm-fan va ilmiy xizmat ko‘rsatish hamda mamlakat innovatsion tizimining jadal rivojlanishini ta‘minlaydigan iqtisodiyot real sektorini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlatning maqsadli faol siyosatini ishlab chiqish ko‘zda tutilmoqda.

Xalqaro talablarga mos yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirish va innovatsion faollikni oshirish milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish strategiyasining yangi ustuvor yo‘nalishlarini belgilash uchun shart-sharoit yaratadi. Mavjud iqtisodiy o‘sish salohiyati va zahiralaridan kelib chiqib, yuqori texnologiyali tarmoqlar mahsulotlari ulushini 2010

yildagi 11,3% dan 2018 yilda 15% va 2020 yilda 31% gacha yetkazish prognoz qilingan, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish salmog‘i esa yillar bo‘yicha mos ravishda, 2,9% dan 15% va 22% gacha o‘sadi.

Bu ko‘rsatkichlarga erishish uchun katta investitsiya resurslari talab qilinadi. Ilmiy-texnik ishlarga xarajatlar 2018 yilda 2010 yilga nisbatan YaIMga nisbatan 1% gacha yoki 0,8 f.p.ga o‘sishi zarur. Ushbu ko‘rsatkich 2020 yilga borib innovatsion rivojlangan mamlakatlar ko‘rsatkichiga yaqinlashgan holda YaIMning 3%iga yetishi mumkin. ITTKIga xarajatlarni oshirishda aksariyat qismi “ilm-fan-ishlab chiqarish” aloqasini kengaytirish orqali ilg‘or ilmiy-texnik ishlanmalarga qo‘yilmalarning ilgarilab o‘sishi hisobidan iqtisodiyot nodavlat sektori kiritishi kerak. Korxonalar va tashkilotlar tomonidan innovatsiyalarga sarflanayotgan xarajatlar ulushi 0,4% dan 2018 yilda 2,8% gacha va 2020 yilga borib esa 5% gacha oshirilishi prognoz qilingan.

Mamlakat innovatsion rivojlanishining uzoq va o‘rta muddatli maqsadlariga erishishni quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

1. Byudjet mablag‘larini asosiy yo‘nalishlarda ITTKIni moliyalashtirishga jamlash, bu fundamental bilimlarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni va “inson kapitali”ning sifat darajasini oshirishni anglatadi. Kuchlarni ularning raqobatbardoshligini ta‘minlash, jumladan, olinayotgan natijalar kapitallashgan qismi salmog‘ini oshirish uchun ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy ishlanmalarni bozor mahsulotiga aylantirishni ta‘minlaydigan innovatsion infratuzilmani yaratishga jamlash zarur.
2. Davlat-xususiy sherikligi mexanizmidan foydalanish. Amaliy ishlanmalar va innovatsion infratuzilmani yaratishni davlat ishtirokida amalga oshirish zarur, texnologik modernizatsiya esa ko‘proq biznesning o‘zi tomonidan amalga oshirilishi lozim.

3.4. O‘zbekistonda zamonaviy innovatsion strategiyani amalga oshirish


Bugun har bir mamlakat ilg‘or iqtisodiyot nazariyasiga asoslangan o‘z milliy innovatsiya tizimini yaratishga intilmoqda. Biz bir necha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning muvaffaqiyatli va kutilgan natijani bermagan tajribasini tahlil qilinganda, har qaysi mamlakatda bu tizimni rivojlantirish strategiyasi amaldagi davlat makroiqtisodiy siyosati, me‘yoriy-

huquqiy qonunchilik, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita davlat boshqaruvi shakllari, ilmiy-texnologik va sanoat salohiyati, ichki tovar va mehnat bozorining holati, tarixiy-madaniy rivojlanish darajasi bilan uyg‘unlikda belgilanganligi aniqlandi.

Milliy innovatsiya tizimini yaratayotgan har bir mamlakat uchun quyidagi hal etilishi lozim bo‘lgan asosiy muammolarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

- innovatsiyalarga nisbatan yondashuvning tashkiliy masalalarini ishlab chiqish
- innovatsiyalarni kengaytirilgan tarzda takror ishlab chiqarish mexanizmini yaratish
- innovatsiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish
- innovatsion jarayonlarni muvaffaqiyatli rivojlantirish sharti sifatida iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va oshirish.

Fanning zimmasiga jamiyatga yangi imkoniyatlar berish kabi asosiy vazifa yuklatilsa, yangilikni joriy etishning asosiy vazifasi insonlar yashash tarziga ta‘sir qilishdan iborat bo‘ladi. Demak, yangilikni joriy etish birinchi bo‘lib mahsulot yoki xizmatni qo‘llash emas, balki yangi g‘oya va ilmiy natijalarni tijorat darajasida o‘zlashtirishdir.



4-rasm. Fan, ta‘lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik

Fundamental izlanishlar o'zining harakat dinamikasiga ega. Ular amaliy ishlab chiqarish faoliyati talabiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emas. Fundamental fanlar aksariyat hollarda tub o'zgarishlarga olib keluvchi ixtirolar va yangiliklar yaratishi mumkin. Yarim o'tkazgichlar, lazer, gen muhandisligi, o'ta o'tkazuvchanlik va shu kabilar ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida yangi yo'nalishlar ochilishiga sabab bo'ladi. SHunga qaramay, yangi ixtirolar innovatsion jarayonlarning bir bo'lagi bo'lishi uchun, bozor chig'irig'idan o'tishi kerak. Fundamental fanning hamma natijalari ham ishlab chiqarishga zudlik bilan tatbiq etilavermaydi (innovatsion jarayonlar aynan ishlab chiqarish sohasida amalga oshiriladi).

Bunda quyidagi muammolarga e'tibor qaratish zarur:

- biznesning ilmiy-texnik axborotlarga ega bo'lishi uchun transaksiya xarajatlari juda katta;
- yangi texnologiyalarning qiymat va bozor risklari korxonalar, ayniqsa, kichik korxonalar uchun juda katta;
- innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun o'z resurslarini taklif etuvchi moliyaviy va investitsion institutlarning keng kamrovli va diversifikatsiyalangan bozori mavjud emas;
- xususiy sektordagi ko'plab korxonalarda innovatsion boshqaruv qarorlari tizimi shakllantirilmagan;
- fanni ishlab chiqarish bilan bog'lab turishi mumkin bo'lgan innovatsion vositachilar instituti rivojlangan tarmog'i yaratilmagan;
- raqobatli muhit mahalliy korxonalarni innovatsiyalarni jalb qilishga yetarli darajada rag'batlantirmaydi;
- iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida biznes texnologiyalarining asosiy massasida biznesni tashkil qilishning mablag'larni namunaviy tovarlar ishlab chiqarish yoki ular bilan savdo qilishga kiritishni nazarda tutuvchi an'anaviy yondashuvlar ustunlik qiladi.

Innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy ishlanma va ilmiy hajmdor texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish uchun innovatsion muhitni yaxshilash, ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligi va sifatini oshirish, ilmiy hajmdor mahsulotlarning ichki va tashqi bozorlarida raqobatbardosh ilmiy-amaliy natijalar olish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018 yil 12 yanvarda qaror qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqotlar natijalarini va innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga samarali tatbiq etishni ta’minlaydigan mexanizmlari:

- iqtisodiyot tarmoqlarining innovatsion texnologiyalarni yaratish va mahsulotlarning tajriba partiyalarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq tadbirlarni moliyalashtirishdagi ishtirokini yanada kengaytirish;
- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalarining moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish;
- xo‘jalik boshqaruvi organlari va yirik davlat korxonalarida maxsus bo‘linmalar–zarur tajriba-eksperimental va konstruktorlik-texnologik infratuzilmalari tashkil etish

Xo‘jalik boshqaruvi organlari va yirik davlat korxonalariga 2018 yil yanvardan boshlab ilmiy tadqiqotlar natijalarini va innovatsion ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratilishini ta’minlashga qaratilgan quyidagi tahsirchan chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi:

a) tasdiqlangan shtat birliklari doirasida o‘zlarining shtat jadvallariga ilm-fan va innovatsiyalar bo‘yicha rahbar o‘rinbosari lavozimini kiritish;

b) o‘z tuzilmalarida innovatsiyalarga buyurtmalar portfelini shakllantirish va yaratilgan texnologiyalarning tajriba-sanoat sinovini o‘tkazish ishlarini muvofiqlashtirish, mahsulotning tajriba partiyalarini ishlab chiqarish va seriyalab ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishni tashkil qilishga mashul bo‘limlarni tuzish;

v) yirik davlat korxonalarida mos yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalarining malakali yetuk mutaxassislari va ilmiy xodimlarini jalb etgan holda yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish, zarur tajriba-sanoat sinovlarini o‘tkazish, mahsulotlarning tajriba partiyalarini ishlab chiqarish va seriyalab ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishga tayyorlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga ixtisoslashgan muammoviy tarmoq laboratoriyalarini tashkil etish;

g) xo‘jalik boshqaruvi organlari va yirik davlat korxonalarida Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini (yuridik shaxs tashkil etmagan holda) tashkil qilish, mazkur subhektlar sof foydasining 10 foizi miqdoridagi ajratmalarni uning mablag‘larini shakllantirish manbai etib

belgilash, ushbu jamg'arma mablag'larini faqat quyidagi maqsadlarga yo'naltirish:

- yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish, zarur tajriba-sanoat sinovlarini o'tkazish, mahsulotlarning tajriba partiyalarini ishlab chiqarish va seriyalab ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga tayyorlash chora-tadbirlarini amalga oshirish bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirish;
- mos yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari bilan ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bo'yicha tuzilgan shartnomalarni moliyalashtirish;
- mos yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik va ilmiy-laboratoriya bazasini mustahkamlash, ularni eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy ishlanmalarni joriy etish, ilmiy-texnik xodimlarni moddiy rag'batlantirish va malakasini oshirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Xo'jalik boshqaruvi organlari va yirik davlat korxonalari rahbarlari ushbu bandeda nazarda tutilgan tadbirlarning o'z muddatida va to'liq bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan «2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonga muvofiq, 2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi va O'zbekistonni 2030 yilgacha innovatsion rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi.

Mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish – Strategiyaning bosh maqsadi etib belgilandi.

Bosh maqsadga erishishda Strategiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;
- barcha darajada ta'lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash;
- ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik

ishlar natijalarini keng joriy etish uchun ta'lim, ilm-fan va tadbirkorlikni integratsiya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish;

- innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga davlat va xususiy mablag'lar kiritilishini kuchaytirish, bu sohalardagi tadbirlarni moliyalashtirishning zamonaviy va samarali shakllarini joriy etish;

- boshqaruvning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish;

- mulkchilik huquqlari himoyasini ta'minlash, raqobatbardosh bozorlar tashkil etish va biznes yuritish uchun teng shart-sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

- barqaror faoliyat yuritadigan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani yaratish.

Shuningdek, maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha o'zaro bog'liq huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy va texnik chora-tadbirlarni nazarda tutadigan 3 yilga mo'ljallangan rivojlanish dasturlarini tasdiqlash, keyinchalik 3 yilga mo'ljallangan yangi rivojlanish dasturlarini qabul qilish belgilab berildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Innovatsion muhit tushunchasini ta'riflang.
2. Innovatsion muhitning tuzilishi va iqtisodiy jarayonlardagi o'rni qanday?
3. Milliy innovatsion tizim nima?
4. MITning shakllanishi: kontseptual holati, xususiyatlari, tendentsiyalari.
5. O'zbekistonning zamonaviy innovatsion infratuzilmasiga baho bering.
6. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni misollar yordamida tushuntirib bering.
7. O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

3-amaliy mashg'ulot

1-guruh


Innovatsion muhit tushunchasi "FSMU" texnologiyasi, innovatsion muhitning tuzilishi va iqtisodiy jarayonlardagi o'rnini "Zig-zag" va texnologiyasi asosida yoritish.

2-guruh

Milliy innovatsion tizimlarning shakllanishining kontseptual holatini “FSMU” texnologiyasi, milliy innovatsion tizimlarning shakllanishining xususiyatlari va tendentsiyalarini “Zig-zag” va texnologiyasi asosida yoriting.


3-guruh

Fundamental fanning natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish muammolarini “baliq skeleti” texnikasi asosida yoriting.



4-guruh

Ilmiy-tadqiqotlar natijalarini va innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga samarali tatbiq etishni tahminlaydigan mexanizmlari va chora-tadbirlar kompleksini “T-sxema” texnikasi asosida yoriting.



IV BOB. INNOVATSION RIVOJLANISHNING INDIKATORLARI

4.1. Innovatsion iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, belgilari va ko'rsatkichlari

Innovatsion iqtisodiyot quyidagi asosiy printsiplar, belgilar va ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- Iqtisodiy erkinlikning yuqori ko'rsatkichi;
- Ta'lim va fan rivojlanishining yuqori darajasi;
- Iqtisodiyotning 4-6-chi texnologik tuzilmalari;
- Hayotning yuqori va raqobatbardosh sifati;
- Keng ma'noda inson kapitalining yuqori narxi va sifati;
- Iqtisodiyotning yuqori raqobatbardoshligi;
- Innovatsion korxonalar (60-80% dan yuqori) va innovatsion mahsulotlar ulushi yuqoriligi;
- Kapitalni almashtirish;
- Raqobat va innovatsiyalarga bo'lgan talabning yuqoriligi;
- Innovatsiyalarning ko'pligi va natijada raqobat tufayli ulardan ba'zilarining samaradorligini ta'minlash;
- Yangi bozorlarni ochish.

Bozor xilma-xilligi printsiipi rivojlangan bilimlar sohasi va uning yuqori eksportiga asoslanadi.

Kapitalni almashtirish innovatsion jarayonning har bir bosqichida sodir bo'ladi. Davlat fundamental fanlarni ilmiy grantlar, innovatsion infratuzilmani moliyalashtirish orqali moliyalashtiradi. Bu har xil tadqiqot va ishlanmalarni moliyalashtirish uchun o'zaro raqobatlashadigan har xil tadqiqot guruhlarini jalb qiladi. Ushbu bosqichning maqsadi innovatsion g'oyalarning ko'pchiligini yutib bo'lmasligini anglab yetishdir, ammo bu kapitalni almashtirish uchun sharoit yaratishga imkon beradi. Patentlar xususiyy firmalar tomonidan sotib olinadi, ularning aksiyalari investorlar tomonidan katta foyda olish umidida sotib olinadi. Shunday qilib, innovatsion iqtisodiyot keyingi moliyalashtirish oqimini davlat hisobidan emas, balki xususiyy investorlar hisobiga amalga oshiradi.

Rivojlanish yangi bosqichga ko'tarilishi bilan innovatsion kompaniyalar katta korporatsiyalar, innovatsion va venchur fondlari va boshqa tashkilotlar uchun qiziqish darajasi ortib boradi. Shunday qilib,

kelajakdagi ishlanmalarni prototiplarga yetkazish bosqichidan oldin ham bozor avjiga chiqadi, xorijiy sarmoyadorlar, texnologik innovatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin bo'lgan ishlanmalarni sotib oladigan ishlab chiqarish kompaniyalari jalb etila boshlanadi. Masalan, Intel korporatsiyasi nanotexnologiyalarga asoslangan kompyuterni yaratishini e'lon qilib, o'zining aksiyalari o'sishini ta'minlagan. Jarayon oxirida, kapitalni turli xil ishlanmalarni o'z ichiga oladigan mahsulotga almashtirish ro'y beradi, bunda u faqat o'z reklamalarida mavjud bo'lgan narsalarni biladi. Bunday holda, hech kim ilmiy g'oyadan yakuniy mahsulotgacha butun zanjirni moliyalashtirmaydi.

Kapital almashtirish bir vaqtning o'zida bir nechta bozorlarda sodir bo'ladi. Innovatsion jarayonning har bir keyingi bosqichida almashtirish ortib boruvchi foyda bilan amalga oshiriladi. Innovatsion iqtisodiyot hali mavjud bo'lmagan ishlanmalar yoki g'oyalar, ularning aksariyati amaliy bo'lmagan g'oyalar innovatsion mahsulotlarning yangi bozorlariga zamin yaratayotganiga asoslanadi. Kapitalni almashtirish bir necha bor sodir bo'ladi.

Innovatsion iqtisodiyotda kapitalni almashtirishning asosiy jarayoni bu milliy boylikdagi jismoniy va tabiiy kapitalni inson kapitali bilan almashtirishdir.

Rossiyaning milliy inson kapitali uning qiymati va sifatini oshirishda dunyoning etakchi davlatlari va raqobatchilaridan ortda qolmoqda.

Innovatsion iqtisodiyot innovatsion jarayonning har bir bosqichida mahsulotlar, xizmatlar va kadrlarning ortiqcha miqdorini o'z ichiga oladi: bilimlar, g'oyalar, ishlanmalar, patentlar, yuqori texnologiyalar, kompaniyalar, tadbirkorlar, olimlar, infratuzilma va boshqalar. Ushbularni qisqartirish raqobatni boshlaydi va qo'llab-quvvatlaydi, bu esa tovarlar va xizmatlar xilma-xilligi va sifatining oshishiga va innovatsiyalarning ko'payishi va ular o'rtasidagi raqobat tufayli mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi. Rivojlangan mamlakatlarda samarali innovatsion tizimlar raqobatni qo'llab-quvvatlaydi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalarida raqobatbardosh bozorlarning iqtisodiy erkinlik ko'rsatkichi past bo'lgan iqtisodiyotdan asosiy farqi hisoblanadi. Raqobat rivojlanishning asosiy intensiv omili sifatida shaxs, iqtisodiyot, jamiyat va inson kapitali rivojlanishini aytishimiz mumkin.

Innovatsion bozor iqtisodiyoti har xil turdagi bozorlarning bir vaqtning o'zida o'sishini nazarda tutadi, bu faqat juda yuqori mehnat unumdorligi va yuqori texnologiyalar bilan olinishi mumkin bo'lgan turli xil qo'shimcha qiymatlar mavjud bo'lganda ta'minlanadi. Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar, g'oyalar, mutaxassislar va boshqalarning ko'pligi iste'molchilarning talab va ehtiyojlariga qarab ilmiy va innovatsion tizimlar tomonidan ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, olimlar va novatorlarning ijodi, ular o'rtasidagi raqobat ularni iqtisodiyot va jamiyat talablarini innovatsion taklif o'sishidan ortda qoldirishga undaydi. Bu erda inson kapitalining jadal rivojlanishi va uning rivojlanish omili sifatida zamonaviy iqtisodiyotdagi etakchi roli namoyon bo'ladi.

Ta'limni rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish va daromadlarni ko'paytirishga infratuzilmani rivojlantirmasdan turib erishib bo'lmaydi.

Iqtisodiy o'sishning yana bir muhim omili – bu yangi ish o'rinlari yaratish yoki ishlab chiqarishning energiya samaradorligini oshirish kabi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik xarakterdagi muammolarni uzoq muddatli echimini topishda muhim rol o'ynaydigan texnologik taraqqiyot va innovatsiyalardir. Bugungi kunda tadqiqot va innovatsiyalarga sarmoya kiritish dunyo hukumatlari uchun ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, bugungi kunda taxminan 1–1,15 milliard kishi ishonchli telefon xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega emas, 3 milliarddan ortiq odam hali ham Internetga ulana olmaydi, ularning 90 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqomat qiladi. Ushbu raqamli tafovutni bartaraf etish axborot va bilimlarga teng kirishishni ta'minlash, innovatsiyalar va tadbirkorlikni rag'batlantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Eng muhim, shu bilan bir paytda eng murakkab va munozarali ko'rsatkichlar – bu innovatsion jarayonning kompaniya faoliyatiga ta'sirini tavsiflovchi ko'rsatkichlardir. Boshqa ko'rsatkichlar tadqiqot va ishlab chiqish, patentlash va texnologiyani qabul qilish orqali o'lchanadigan innovatsiyalarning tarqalishini tavsiflaydi.

Ko'rsatkichlar binar bo'lishi mumkin, masalan, bu fakt muhimmi yoki yo'qligini ifodalab beradigan. Ular muayyan jarayonlarni saralashi

(ranjirlashi) mumkin, masalan, 0 dan 5 gacha yoki 1 dan 3 gacha va hokazo.¹⁵

1. Maqsadli ko'rsatkichlar.

Innovatsion faoliyatning iqtisodiy vazifalari:

- eskirgan mahsulotlarni almashtirish;
- mahsulotning qo'llanilish doirasini oshirish (mahsulotning asosiy maqsadi ichida va tashqarisida);
- ekologik mahsulotlar yaratish;
- bozor pozitsiyasini saqlab qolish yoki yaxshilash;
- yangi bozorlarni ochish (yangi bozor joylarini yaratish orqali mamlakat ichida yoki chet elda);
- mahsulotlarning moslashuvchanlik xususiyatlarini yaxshilash;
- mahsulot tannarxini pasaytirish (ish haqi fondini qisqartirish, materiallar sarfini kamaytirish, energiya sarfini kamaytirish, nuqsonli mahsulotlarni kamaytirish, loyiha-konstruktorlik ishlarining narxini pasaytirish, boshqaruv xarajatlarini kamaytirish).
- mahsulot sifatini yaxshilash;
- mehnat sharoitlarini yaxshilash;
- atrof – muhitga zararni kamaytirish.

2. Innovatsion yangilik darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

Bu ko'rsatkichlar ikkita asosiy guruhga bo'linadi: texnik parametrlar va bozor parametrlari.

Quyidagi ma'lumotlar texnik parametr sifatida ishlatilishi mumkin:

a) mahsulot bilan bog'liq innovatsiyalar uchun:

- yangi materiallardan foydalanish.
- yangi oraliq mahsulotlardan foydalanish.
- yangi funktsional qismlar.
- tubdan yangi texnologiyalardan foydalanish.

b) texnologik jarayon innovatsiyalari uchun:

- ishlab chiqarishning yangi usullari.
- yangi tashkilot (yangi texnologiyalarni joriy etish).
- yangi professional dasturiy ta'minot.

c) Quyidagilar bozor parametrlari sifatida ishlatilishi mumkin:

- faqat kompaniya darajasidagi innovatsiya;

¹⁵ https://studbooks.net/782884/ekonomika/indikatoriy_innovatsionnoy_deyatelnosti

- kompaniyaning operatsion bozordagi yoki tarmoq yangiliklari;
- jahon miqyosidagi yangilik.

3. Innovatsiya mohiyatini belgilovchi ko'rsatkichlar:

- ilmiy yutuqni belgilaydigan yangilik;
- muhim texnik yangiliklar;
- texnik yaxshilanishlar yoki o'zgarishlar;
- sanoatning boshqa sohasida foydalanish imkoniyati;
- mavjud mahsulotni yangi bozorga olib chiqish.

4. Innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi yoki innovasion faoliyatga to'sqinlik qiluvchi ko'rsatkichlar.

Mazkur ko'rsatkichlar ikki guruhga bo'linadi:

- turli xil ma'lumot manbalari mavjudligi natijasida innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi ko'rsatkichlar: ichki manbalar (kompaniya ichida), bozor holati haqidagi ma'lumot manbalari, ta'lim va tadqiqot ma'lumotlari manbalari, boshqa har qanday ma'lumot manbalari.

- korxonada ham, tashqarisida ham iqtisodiy omillar tufayli innovatsion jarayonga to'sqinlik qiladigan ko'rsatkichlar.

Innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi omillarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar sifatida quyidagilardan foydalanish taklif etiladi:

- kompaniya yoki kompaniyalar guruhi ichidagi ma'lumotlarga asoslangan ko'rsatkichlar (ichki ilmiy-tadqiqot ishlari, marketing, ishlab chiqarish va boshqalar).

- tashqi tijorat manbalaridan olingan bozor to'g'risidagi ko'rsatkichlar (raqobatchilar, sotib olingan va amalga oshirilgan yoki qo'llanilmagan texnologiyalar, mijozlar yoki xaridorlar, konsalting kompaniyalari, ta'minotchilar, materiallar, uskunalari va dasturiy ta'minot etkazib beruvchilar).

- ta'lim va tadqiqot tashkilotlarini (oliy o'quv yurtlari, davlat va xususiy tadqiqot tashkilotlari) tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

- patent faoliyatini, konferentsiyalar, jurnallar, ko'rgazmalar va boshqalarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

Innovatsiyalarga to'sqinlik qiluvchi omillarni tavsiflovchi quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- iqtisodiy ko'rsatkichlar (haddan tashqari yuqori hatarlar, yuqori narx, moliyalashtirishning etarli emasligi, innovatsiyalarni qaytarish muddati davomiyligi).

- ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (innovatsion salohiyatning yetarli emasligi, malakali kadrlarning yetishmasligi, texnologiyalar va bozorlar haqida ma'lumotlarning yetishmasligi, innovatsion xarajatlarni nazorat qilishdagi qiyinchiliklar, kompaniyadagi o'zgarishlarga qarshilik, tashqi xizmatlarning yetishmasligi, hamkorlik uchun qulay sharoitlarning yetarli emasligi).

- boshqa ko'rsatkichlar (zaif texnologik istiqbollar, infratuzilmaning nomukammalligi, ilgari kiritilgan yangiliklar tufayli innovatsiyaga ehtiyoj yo'qligi, mulk huquqlarini himoya qilish tizimining nomukammalligi, qonun hujjatlari, me'yoriy – huquqiy hujjatlar, soliqqa tortish, xaridorlarning yangi mahsulotlarga qiziqishining yo'qligi).

5. Kompaniyaning innovatsion va ishlab chiqarish faoliyati o'rtasidagi korrelyasion ko'rsatkichlari.

Yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlarning sotuv ulushi (oxirgi uch yilda sotilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlar soni, takomillashtirilgan texnologiyalar yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o'zgarmagan ulushi).

Innovatsion faoliyat natijalari ko'rsatkichlari (uch yillikning boshi va oxiridagi sotuv, mahsulot eksporti, ishchilar soni, operatsion afzalliklar).

Ishlab chiqarishda foydalanilgan innovatsiyalarning ta'siri (ishchi kuchidan foydalanish, materiallar va energiyani sarflari, asosiy vositalardan foydalanish, uch yil ichida mahsulot tannarxini pasaytirish va boshqalar).

Ta'kidlanganidek, yuqoridagi ko'rsatkichlarni baholashda mahsulotlarining hayotiylik davri muhim omil hisoblanadi.

Ko'rinib turibdiki, teng sharoitlarda ular qanchalik yuqori bo'lsa, innovatsiyalarning yashash davri shunchalik qisqa bo'ladi. Ammo bunday innovatsiyalar texnologik yoki texnik nuqtai nazardan muhimroq yoki ilg'or bo'lishi shart emas. Yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlarni sotish ulushining yuqori qiymati har doim ham innovatsion faoliyatning yuqori intensivligini ko'rsatmaydi. Shunday qilib, kompaniyaning ishlab chiqarish faoliyatiga innovatsion faollikning ta'sirini tavsiflovchi barcha sanab o'tilgan ko'rsatkichlar mahsulotning hayotiylik davriga bog'liq bo'lgan yuklamalar

bilan hisobga olinishi kerak. Agar innovatsiyalarning xizmat qilish muddatini taxmin qilish qiyin bo'lsa, yangilikni joriy etish chastotasi orqali ham ushbu omilni hisobga olish mumkin.

Korrelyatsion ko'rsatkichlarni talqin qilishda quyidagi omillarni ham hisobga olish kerak. Birinchidan, sotilgan innovatsion mahsulotlarning ulushi donabay ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan kompaniyalarda qayta ishlovchi yoki partiyali ishlab chiqaruvchi korxonalariga qaraganda yuqori. Ikkinchidan, yangi tashkil etilgan kompaniyalarda innovatsion mahsulotlarning ulushi uzoq vaqtdan beri bozorda bo'lgan kompaniyalarga qaraganda yuqori.

Nihoyat, eskirgan mahsulotlarni almashtirmoqchi bo'lgan kompaniyalar mahsulot turlarini kengaytirayotgan kompaniyalarga qaraganda yaxshiroq ishlaydi.

6. Xarajatlar ko'rsatkichlari.

Innovatsion xarajatlar ko'rsatkichlarining ikki guruhidan foydalanish taklif etiladi:

- joriy yildagi kompaniya innovatsion faoliyatining umumiy xarajatlari. Ushbu xarajatlar innovatsion soha yo'nalishlari yoki innovatsion byudjetning kattaligi bilan belgilanadi.

- innovatsiyalarni joriy etish qachon bo'lganidan qat'iy nazar, joriy yil yoki hisobot davri uchun innovatsiyalarga xarajatlar qiymati.(maqsadli yondashuv)

Byudjet doirasidagi taxminiy xarajatlar innovatsiyalarni joriy etish bilan bog'liq innovatsion faoliyat xarajatlarini, potentsial innovatsiyalarni ishlab chiqishni va nihoyat muvaffaqiyatsiz innovatsiyalar xarajatlarini hisobga oladi.


Bunda eng mashaqqatli ish ilmiy tadqiqot va tajriba xarajatlarini baholash jarayonidir. Shuni ham unutmaslik kerakki, yirik kompaniyalar odatda kichik biznes sub'yektlariga qaraganda innovatsion loyihalarni ko'proq amalga oshiradilar.

Byudjet doirasidagi hisobning asosiy afzalligi uning an'anaviy byudjet hisobi bilan bog'liqligidir. Kamchiligi esa – bu innovatsion faoliyat va sotish o'rtasidagi bog'liqlikning yetarli emasligi, shuningdek natijalarning innovatsiyalarning hayotiylik davri, innovatsiyalarni ishlab chiqish vaqti va boshqalar kabi parametrlari bilan yetarli darajada bog'liq emasligidir.

Maqsadli yondashuvda faqat muayyan bir davr uchun innovatsiyalarni amalga oshirishda bevosita qilingan xarajatlar hisobga olinadi. Mazkur yondashuvda muvaffaqiyatsiz yoki to‘xtab qolgan innovatsion loyihalar, ishlab chiqilayotgan loyihalar va ma’lum bir mahsulot yoki ilovaga bevosita aloqador bo‘lmagan tadqiqotlar uchun xarajatlar hisobga olinmaydi. Ushbu yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, bunda innovatsion faoliyat natijalarini bevosita tahlil qilish mumkin. Innovatsiya va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi korrelyasion bog‘liqlikni ham aniqlash mumkin.

4.2. Innovasion rivojlanish indikatorlari

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlatiladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashni, balki boshqaruv va hisobini tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo‘llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega.




5-rasm. O‘z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni (2010-2016 yillar)¹⁶

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyat // statistik to‘plam

Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni 2010 yildan 2016 yilga qadar 8 barobarga ko‘payib, 289 tadan 2374 taga yetdi. Jumladan birinchi marta innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirgan korxonalar soni 696 taga ko‘paydi.

Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi 2016 yilda 10688,2 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Ushbu ko‘rsatkich 2015 yilga nisbatan 1,3 barobar, 2008 yilga nisbatan 8 barobarga ko‘paygan. Innovatsiyalarga xarajatlar 2008 yilga nisbatan 5 barobarga ko‘paygan bo‘lsa, 2015 yilga nisbatan 53 foizga kamaygan. (6-rasm)




6-rasm. Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi va xarajatlari dinamikasi (2010-2016 yillar)

Zamonaviy va ishonchli infratuzilmani yaratish O‘zbekistondagi bozor islohotlarining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Mamlakatda infratuzilmani rivojlantirish nafaqat yuqori sifatli ichki aloqani ta‘minlash, balki xalqaro transport yo‘nalishlariga muvaffaqiyatli qo‘shilish uchun zarurdir. Bugungi kunda O‘zbekistonning uzunligi 5,8 ming km, shundan 4,3 ming km uzunlikdagi temir yo‘llarning keng tarmog‘i mavjud. Umumiy

foydalanish joylarida temir yo‘llarning zichligi 1000 km² uchun 12,9 km ni tashkil etadi, bu Turkiya (15,6) va Norvegiya (12,9) ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Yo‘llarning umumiy uzunligi 184 ming km, shundan 42 ming km umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari hisoblanadi.(7-rasm)

Shuningdek, O‘zbekistonda nisbatan rivojlangan ishlab chiqarish sanoati mavjud bo‘lib, uning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi 19,5 foizni tashkil etadi, bu sohada ish bilan bandlik 2017 yilda 12 foizga yetgan.



7-rasm. O‘zbekistonda innovasion rivojlanish indikatorlari¹⁷

Innovatsion rivojlanish sohasida innovatsiyalarning bosqichma-bosqich pasayishi tendentsiyasi kuzatildi, buni 2015 yilda global innovatsion indeks bo‘yicha reytingda O‘zbekistonning pozitsiyasi (144 mamlakat orasida 122-o‘rin) tasdiqlaydi. Masalan, bir million aholiga to‘g‘ri keladigan tadqiqotchilar soni (to‘liq ish bilan ta‘minlashga teng) 2004 yildagi 566 tadan 2017 yilda 485 taga tushgan. Yalpi ichki mahsulotda tadqiqot va

¹⁷ stat.uz

ishlanmalarga sarflanadigan xarajatlar ulushi YaIMning 0,36 foizidan 2000-2017 yillarda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,19 foizgacha tushdi.

Innovatsiyalar turlari bo'yicha tahlil qilinganda, Innovatsiyalar joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar soni hamda Joriy qilingan innovatsiyalar soni asosan texnologik innovatsiyalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.(3-jadval)

3-jadval

Korxonalar va tashkilotlarning innovatsion faoliyati¹⁸

	2015	2016	2017	2018	2019
Innovatsiyalar joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar soni:					
texnologik	894	893	975	982	1514
marketing	14	20	22	17	28
tashkiliy	27	20	26	25	45
Joriy qilingan innovatsiyalar soni:					
texnologik	1737	1816	1946	2482	4427
marketing	36	51	62	42	128
tashkiliy	46	39	38	34	134
Ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) hajmi, mlrd.so'm	8023,6	10688,2	18543,3	28871,5	26811,4
Innovatsiyalarga qilingan xarajatlar, mlrd.so'm	5528,3	2571,4	4162,3	4707,2	6603,5

3-jadvaldan ko'rinadiki, 2015-2019 yillarda Innovatsiyalarga qilingan xarajatlar kamaysada Ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) hajmi 4 baravardan ziyodroqqa ortgan.

Innovatsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi¹⁹:

¹⁸ <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>

¹⁹ O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 24-iyul, O'RQ-630-son


- mahsulotga oid innovatsiyalar – texnik va texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) ishlab chiqishga hamda joriy etishga qaratilgan innovatsiyalar;
- jarayonga oid innovatsiyalar – texnik va texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan ishlab chiqarish yoxud ta’lim usullarini ishlab chiqish va joriy etishga, shuningdek texnologiyalar transferini amalga oshirishga qaratilgan innovatsiyalar;
- marketingga oid innovatsiyalar – mahsulotlarning dizayni va qadoqlaridagi o‘zgarishlarni qamrab oluvchi yangi yoki takomillashtirilgan usullarni joriy etishga, mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) sotish va taqdim etishning yangi usullaridan foydalanishga, yangi narxlash strategiyalarini shakllantirishga qaratilgan innovatsiyalar;
- tashkiliy innovatsiyalar – biznesni tashkil etish va yuritish, ish o‘rinlarini tashkil etish va tashqi aloqalarni yo‘lga qo‘yishning yangi yoki takomillashtirilgan usullarini joriy etishga qaratilgan innovatsiyalar.

4-jadval

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar, mlrd.so‘m (2010-2016 yillar)


	2010y.	2011y.	2012y.	2013y.	2014y.	2015y.	2016y.
Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar	264,4	372,6	311,9	4634,2	3757,4	5528,3	2571,4
shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:							
tashkilotning o‘z mablag‘lari	184,3	263,2	213,4	2501,5	1381,5	1251,8	1180,0
xorijiy kapital	48,3	24,9	39,9	1228,7	32,3	156,6	314,9
tijorat banklari kreditlari	30,0	63,7	26,8	533,5	262,5	280,1	157,3
boshqa mablag‘lar	1,8	20,9	31,7	370,6	2081,0	3839,7	919,1

2010 yilda innovatsiyalar asosan tashkilotning o‘z mablag‘lari hisobidan (69,7 foizi) moliyalashtirilgan. 2014 yildan boshqa mablag‘lar hisssasi (55,4 foiz) oshgan. 2016 yilda tashkilotning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish 2010 yilga nisbatan 6,4 barobar oshgan.



8-rasm. 2016 yilda moliyalashtirish manbalari bo‘yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar

2016 yilda texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlarning 45,9 foizi (1180,0 mlrd.so‘m) takilotning o‘z mablag‘lari hisobidan, 12,2 foizi (314,9 mlrd.so‘m) xorijiy kapital, 6,1 foizi (157,3 mlrd.so‘m) tijorat banklari kreditlari, 35,7 foizi (919,1 mlrd.so‘m) boshqa mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan.



9-rasm. 2016 yilda o‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmining innovatsiyalarni o‘zlashtirilgan muddatlari bo‘yicha taqsimlanishi (foizda)

Yevropa mamlakatlari amaliyotida bir qator innovasion rivojlanish indikatorlaridan foydalaniladi. Jumladan, Burgenland/Innovation soffensive Burgenland 2020. Aktionsplan für Forschung und Innovation (Avsriya), Bayern FIT – Forschung, Innovation, Technologie – Das neue Innovations program der Bayerischen Staatsregierung (Germaniya), BASSIN PARISIEN/ Contrat Projets Etat/ Région (CPEP) (Fransiya), Region Border, Midland and Western (BMW)/ BMW Regional Operational Programme 2007–2013 (Irlandiya), East of England/Regional economic strategy for the East of England 2008–2031 (Buyuk Britaniya), Etelä-Savon/Etelä-Savon innovaatiostrategia 2010–2015 (Finlandiya), Region Province of Groningen/Innovatief Actieprogramma Groningen 2010–2012 (IAG) (Niderlandiya) Region Vychodne Slovensko/Regionálna inovačná stratégia Košického samosprávneho kraja (Slovakiya) va boshqalarni misol keltirish mumkin.

5-jadval

IHTT qo‘llanmasidagi “Fraskata oilasi” indikatorlari

Turi	Nomlanishi
ITTKI	Fraskati qo‘llanmasi: tadqiqot va tajriba ishlarini olib borish uchun taklif etilgan standart amaliyot (2002 g.)
Innovatsiya	Texnologik innovatsiyalarni tahlil etish va yig‘ish bo‘yicha qo‘llanma-Oslo qo‘llanmasi 1989
Ilm va texnika kadrlari	Ilm va texnika sohasidagi kadrlar zahirasini o‘lchash (2005)
Patentlar	IHTT ning patentlar sohasidagi statistikasi bo‘yicha qo‘llanma (2009)
To‘lovlarning texnologik balansi	Iqtisodiy globalizatsiya ko‘rsatkichlari ma’lumotnomasining 4-bobiga kiritilgan 2005
Yuqori texnologiyalar	Iqtisodiy globalizatsiya ko‘rsatkichlari ma’lumotnomasining 4-bobiga kiritilgan 2005
Bibliometriya	“Bibliometrik tahlil va ilmiy tadqiqotlar namunalari, metodlari va tizimlari tahlili” (1997)
Globalizatsiya	Iqtisodiy globalizatsiya ma’lumotnomasi 2005
AKT	Axborotlashgan jamiyat tahlili va ko‘rsatkichlari bo‘yicha qo‘llanma (2009)
Biotexnologiya	Biotexnologiyalar sohasidagi statistika tizimi (2005)
Ishlab chiqarish darajasi	Ishlab chiqarish darajasini o‘lchash (2001)

4.3. Innovasion indikatorlarni rivojlantirishning milliy vazifalari

O‘zbekistonda iqtisodiy taraqqiyotning yangi sifat bosqichiga o‘tishda islohotlar va oldinga qo‘yilgan maqsadlar o‘z darajasida aniq va bir necha bor ifoda etilgan. Muammo bu maqsadlarni qanday amalga oshirish, mamlakatni amalda tayyorlash, uni yangi holatga keltirish va transformatsiya mexanizmlarini topishdadir. Belgilangan strategik ko‘rsatmalarning to‘liq miqyosda amalga oshirilishi mamlakatning yangi texnologik va bilimga asoslangan iqtisodiyoti tomonidan talab qilinadigan ijodiy va eng muhimi, samarali ish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi.²⁰

6-jadval

Innovasion rivojlanishning milliy ko‘rsatkichlari

	2014	2015	2016	2017	2018
Indikator 9.1.1 Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari umumiy uzunligidagi qattiq qoplamali yo‘llarning ulushi, %	98,4	98,4	98,5	98,5	98,5
Indikator 9.1.2 Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi va yuk tashish hajmi.					
a) Yo‘lovchi tashish aylanmasi, ming yo‘lovchi - km					
jami	113,2	120,1	126,0	130,0	135,3
avtomobil transporti	101,9	109,1	114,9	117,7	121,6
temir yo‘l transporti	3,8	3,8	4,0	4,3	4,3
havo transporti	7,0	6,8	6,7	7,5	8,8
shahar elektr transporti	0,5	0,4	0,4	0,5	0,6
b) yuk tashish aylanmasi, mlrd.tn-km					
jami	66,2	65,8	65,3	66,9	71,3
avtomobil transporti	11,9	12,8	13,3	13,6	14,6
temir yo‘l transporti	22,9	22,9	22,9	22,9	22,9
havo transporti, mln. tn-km	125,1	131,1	132,2	156,9	123,5
quvur yo‘li transporti	31,2	30,0	28,9	30,2	33,6
Indikator 9.2.1 Qayta ishlash sanoatida yaratilgan qo‘shilgan qiymatni YaIMga nisbatan foizda va aholi jon boshiga					

²⁰Rajabboyev J.J. Innovatsion rivojlanish va yoshlar: mavjud vaziyat va istiqbollar//Academic research in educational sciences Volume 2 | Issue 1 | 2021

hajmi.					
a) YiMA ulushi, % da	14,9	14,9	15,8	16,4	18,4
b) aholi jon boshiga, ming.sum	770,7	905,9	1 095,1	1 354,2	2 020,3
Indikator 9.2.2 Umumiy bandlikda qayta ishlash sanoatidagi bandlikning ulushi, %	11,3	11,3	11,3	11,9	12,0
Indikator 9.3.1 Kichik korxonalar va mikrofirmalarning qo‘shilgan qiymatining jami sanoatning yalpi qo‘shilgan qiymatdagi ulushi, %	-	29,2	33,3	35,6	31,6
Indikator 9.5.1 ITTKIga xarajatlar YaIMga nisbatan foizda.	0,16	0,17	0,18	0,16	0,1
Indikator 9.5.2 Bir millon aholiga to‘g‘ri keladigan tadqiqotchilar (to‘liq bandlik ekvivalentida) soni.	492	487	495	485	470
Indikator 9.b.1 Qo‘shilgan qiymatning umumiy hajmida o‘rta va yuqori texnologik tarmoqlar mahsulotini qo‘shilgan qiymatining ulushi, %	17,6	16,1	15,3	19,1	23,3
Indikator 9.c.1 Uyali aloqa tarmoqlari bilan qamrab olingan aholi ulushi, texnologiyalar bo‘yicha.					
2-G texnologiyasi bo‘yicha				97,0	98,0
3-G texnologiyasi bo‘yicha				75,0	75,5
4-G (LTE) texnologiyasi bo‘yicha				43,0	44,0

6-jadvaldan ko‘rinadiki, 2014-2018 yillarda O‘zbekistonda innovasion rivojlanish indikatorlari o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Shuningdek, keyingi yillarda uyali aloqa tarmoqlari bilan qamrab olingan aholi ulushining ortib borishi, ayniqsa 4-G (LTE) texnologiyasining keng yoyilishi ahamiyatga molik.

Mamlakatimizda belgilab olingan milliy vazifalar quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiy rivojlanish va odamlar farovonligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida sifatli, ishonchli, barqaror va chidamli infratuzilmani, shu

jumladan, hududiy va transchegaraviy infratuzilmani rivojlantirish, bunda barcha uchun arzon va teng huquqli foydalanishni ta'minlash.

- Umumqamrovli va barqaror sanoatlashuvga ko'maklashish va ishlov beruvchi tarmoqlarning oldinlab rivojlanishi, resurs tejovchi i ekologik xavfsiz texnologiyalarni keng qo'llash orqali mavjud korxonalarni modernizatsiyalash hamda yangilarini tashkil etish yo'li bilan 2030 yilgacha sanoat ishlab chiqarishining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 40 foizga yetkazish.
- Mayda sanoat korxonalari va kichik korxonalarining moliyaviy xizmatlardan, shu jumladan arzon kreditlardan, foydalanish imkoniyatini kengaytirish hamda ishlab chiqarish-sotish zanjirlarida qo'shilgan qiymatni hosil qilish va bozorlarga integratsiyalashuvni kuchaytirish.
- 2030 yilgacha infratuzilmani modernizatsiyalash va sanoat korxonalarini qayta jihozlash, resurslardan foydalanish hamda sof va ekologik xavfsiz texnologiyalar va ishlab chiqarish jarayonlaridan keng foydalanish hisobidan ularni barqaror qilish, bunda barcha manfaatdor mamlakatlarning ularning individual imkoniyatlariga muvofiq ishtirokini ta'minlash.
- Iqtisodiyot tarmoqlarining texnologik salohiyatini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni, jumladan innovatsion faoliyat uchun qulay shart-sharoit yaratish va ilmiy tadqiqot hamda konstruktorlik sohasidagi xodimlar sonini jiddiy ravishda ko'paytirish orqali, jonlantirish.
- Mahalliy texnologiyalar sohasidagi ishlanmalar, tadqiqotlar va innovatsiyalarni, jumladan sanoatning diversifikatsiyasi uchun qulay bo'lgan siyosiy iqlimni yaratish va xom ashyo sohalarida qo'shilgan qiymatni ko'paytirish orqali, qo'llab-quvvatlash.
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini jiddiy ravishda kengaytirish hamda Internet tarmog'idan umumiy va arzon foydalanishni ta'minlash.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Innovatsion iqtisodiyot ko'rsatkichlarining qanday rivojlanish kontseptsiyalarini bilasiz?

2. Innovatsion iqtisodiyot ko‘rsatkichlarining qanday asosiy parametrlari bor?
3. Innovatsion iqtisodiyotning xalqaro statistik ko‘rsatkichlarini rivojlanishi.
4. IHTT qo‘lanmasidagi “Fraskata oilasi” indikatorlari.
5. Innovatsion tizimlarni baholash bo‘yicha “Oslo” qo‘llanmasi.
6. Milliy innovatsion statistik ko‘rsatkichlar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Xalqaro innovatsion reytinglarda O‘zbekistonning o‘rni qanday?
8. O‘zbekistonda innovatsion indikatorlarni rivojlantirishning milliy vazifalari nimalardan iborat?

4-amaliy mashg‘ulot

Evropa mamlakatlarida qo‘llaniladigan innovatsion rivojlanish indikatorlarini 4 ta guruhga bo‘lingan holda tahlil qiling.

V BOB. BIZNES-G‘OYALAR VA INNOVATSION BIZNES

***Xohlash va kutish – bular bilan uzoqqa bora olmaysiz. Turing va orzuingiz ortidan yura boshlang. (Djared Leto)**


***Agar teatr veshalkadan boshlansa, biznes tadbirkor fikriga kelgan betakror g‘oyadan boshlanadi.**

5.1. Biznes-g‘oyalarning yaratilishi.

Innovatsion loyihani ishlab chiqish, bu jarayonning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lgan innovatsion g‘oyani shakllantirishdan boshlanadi. Innovatsion jarayonning rivojlanishidagi bu davrga an’anaviy ravishda ikki xil nuqtai nazardan yondashiladi.

Ba’zi mualliflar nuqtai nazaridan, innovatsion g‘oya – bu innovatsion loyihaning asosi va mohiyati bo‘lib, u loyihaning yakuniy maqsadini shakllantirishda aks etadi.

Boshqa tomondan, innovatsion g‘oyani shakllantirish – bu o‘ylangan harakatlar rejasini tushunish, ya’ni innovatsion g‘oya loyihaning maqsadiga erishish yo‘llari yoki usullarini ifodalaydi.




10-rasm. Dunyodagi biznes g‘oyalar²¹

Demak, innovatsion g‘oyani shakllantirish bosqichida muammoni hal qilishning muqobil variantlari aniqlanadi. Innovatsion g‘oya uzoq vaqt

²¹ www.beboss.ru

davomida, ishlab chiqish orqali shakllanishi yoki kutilmaganda paydo bo‘lishi mumkin.



11-rasm. O‘zbekistondagi biznes g‘oyalari²²

Innovatsion g‘oyalarning paydo bo‘lishi ekspert baholash usullari, shu jumladan, quyidagi mashhur metodlar yordamida sodir bo‘ladi

1. fikrlarni aniqlash usullari (intervyu usuli; so‘rovnoma usuli - tanlanma so‘rovlar; senariy yozish va boshqalar);
2. ijodiy usullar (aqliy hujum, morfologik tahlil; Delfi usuli va boshqalar).

Innovatsion g‘oyani shakllantirishning asosi loyihaning maqsadli xususiyatlari hisoblanadi. Kerakli operatsiyalar tarkibini topish jarayonida biz tizimlashtirishni, ya’ni yakuniy maqsadlarning tarkibiy elementlarini tanlashni amalga oshiramiz. Ko‘pgina mualliflarning ta’kidlashicha, loyihadagi elementlarni tanlashda ikkita funktsional va muammoli turlarni ajrata bilish zarur.

Loyiha maqsadlarining funktsional taqsimlanishining boshlanishi, uni to‘liq va har tomonlama hal qilish uchun zarur bo‘lgan operatsion elementlarning tarkibini aniqlashdir. Ushbu turdagi tuzilish “maqsadlar daraxti” ko‘rinishida amalga oshiriladi, bu bir qator darajalarga ega bo‘lgan ierarxik tizim bo‘lib, ular bajarilishini talab qiladigan ketma – ketlikdagi batafsil maqsadlardir. Shu bilan birga, har bir keyingi darajadagi maqsadlar yuqori darajadagi maqsadlarning bajarilishini ta’minlashi kerak.

²² elmadad.uz/ideas

“Maqsadlar daraxti”ni tahlil qilib shuni ta’kidlash mumkinki, tanlangan har qanday element, shu jumladan muqobil elementlar uchun, ularning ilmiy – texnik darajasini tavsiflovchi va mazmunini ochib beradigan yuqori darajadagi eng muhim maqsadli ko‘rsatkichlarning cheklangan ro‘yxati beriladi.

Bundan tashqari, maqsadli indikatorlarning ehtimoliy qiymatlari loyihaning alohida davrlari uchun, har bir element rivojlanishining individual prognozlariga asoslangan harajatlar sarfi va me‘yori nisbatlarini hisobga olgan holda hisoblanadi. Maqsadli ko‘rsatkichlar qiymatini belgilashda, yuqori darajadagi mos keladigan elementning maqsadli xususiyatlarini majburiy ta‘minlash zarurligini hisobga olish kerak. “Maqsadlar daraxti” elementlariga ko‘ra, maqsadli xususiyatlarni hisoblash eng yuqori darajadan quyiga qarab ketma – ketlikda amalga oshiriladi.

Shuningdek, “maqsadlar daraxti”ning har qanday elementi uchun maqsadli ko‘rsatkichlardan tashqari, maqsadlarga erishish uchun maxsus shart – sharoitlarni belgilovchi cheklovchi xususiyatlarni topish tavsiya etiladi. Ushbu xususiyatlar va ularning qiymatlari formulasi mutaxassislar tomonidan loyihaning o‘ziga xosligidan kelib chiqib tanlanadi. Cheklovchi xususiyatlar loyihani amalga oshirish jarayonida bajarilishi kerak bo‘lgan talablarni belgilaydi. Shunday qilib, loyihani cheklovchi xususiyatlarning tarkibi va ularning sifat qiymatlarini belgilash loyihani amalga oshirishda texnik – iqtisodiy asoslashning birinchi va tayanch bosqichi, deb hisoblash mumkin.

Keyingi bosqichda “ishlar daraxti” shakllanib, bu ierarxik tuzilishga ega bo‘lgan “maqsadlar daraxti”ning vazifalari va tizimini o‘zida ifoda etadi. Bu loyiha tuzilishi muammoli jihatidir. “Ish daraxti” – ko‘zlangan mablag‘larni olish yo‘llari va usullarini aniqlashi kerak bo‘lgan tadbirlar majmuidan iborat. Tadbirlarni shakllantirishda ishlar, masalalar, vazifalarni quyi darajadan yuqori darajadagi ketma-ketlikda bajarish tamoyilidan foydalanish kerak.

Kerakli amaliyotlar ro‘yxatini ishlab chiqish quyidagi ketma -ketlikda amalga oshiriladi:

➤ agar ilmiy asoslar yetarli bo‘lmasa, litsenziyalar, uskunalar yoki hujjatlarni sotib olish asosida xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish imkoniyati o‘rganiladi va chora -tadbirlar rejalashtiriladi;

- ilmiy tadqiqot ishlarining yoʻnalishi va aniq mavzulari boʻyicha takliflar ishlab chiqiladi;
- avval yakunlangan ilmiy – tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishda qoʻllash boʻyicha chora -tadbirlar ishlab chiqiladi;
- anʼanaviy uskunalar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish orqali maqsadli xususiyatlarni taʼminlash imkoniyati va maqsadga muvofiqligi oʻrganiladi.

Loyihani ishlab chiqishning keyingi bosqichlarida “maqsadlar daraxti” ning eng past darajadagi komponentlari boʻyicha tuzilgan va yuqori darajadagi tegishli elementlarni yaratish bilan bogʻliq vazifalar va bosqichlarga birlashtirilgan ishlar soni qoʻllaniladi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida, qabul qilingan loyiha variantlari uchun belgilangan muddatda maqsadlarga erishish uchun zarur boʻlgan operatsiyalar roʻyxati tuziladi.

Innovatsion gʻoyaning shakllanishi doimo marketing tadqiqotlari bilan birga olib borilishi kerak. Ushbu bosqichning maqsadi innovatsion loyihaning iqtisodiy tuzilmalarga taʼsirini, shuningdek koʻrib chiqilayotgan loyihaning maqsad va vazifalari sonini aniqlashdan iborat. Biz har doim ham ishlab chiqilayotgan loyihaning yakuniy maqsadlarini aniq belgilay olmaymiz, shuning uchun loyihani ishlab chiqish loyihaning yakuniy maqsadini miqdoriy aniqlashdan va uni turli xil vaqt oraligʻida amalga oshirish uchun oraliq vazifalarni belgilashdan boshlanishi kerak.

Ushbu maqsad bilan:

- loyiha maqsadli mahsulotining mumkin boʻlgan isteʼmolchilari aniqlanadi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotlarni yangi turdagi maqsadli mahsulotlarga almashtirish imkoniyatlari va iqtisodiy maqsadga muvofiqligi tahlil qilinadi;
- loyihani amalga oshirishni xomashyo, energiya manbalari, butlovchi qismlar va boshqalar bilan taʼminlaydigan tarmoqlar tuzilmasi oʻrganiladi;
- loyihaning yakuniy mahsulotidan foydalanishning yangi sohalari tahlil qilinadi;
- loyihaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini oʻrganiladi.

Mazkur bosqichda odatda innovatsion marketingning umumiy usullari qoʻllaniladi. Yakuniy bosqich – marketing tadqiqotlari natijalarida


loyihaning maqsadli xususiyatlarining miqdoriy qiymatlarini ifodalashdan iborat bo‘ladi.

5.2. Innovatsion jarayon va uning bosqichlari.

Innovatsion jarayon – bu g‘oyani mahsulotga ketma-ketlikda aylantirish jarayonidir.

Innovatsion jarayonni ikkita asosiy bosqichga bo‘lish mumkin: birinchi bosqich (bu eng uzoq) tadqiqot va ishlanmalarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi, ikkinchi bosqich mahsulotning hayotiy aylanishini anglatadi. (12-rasm)

Innovatsion loyihaning murakkabligiga qarab, innovatsion jarayonning birinchi bosqichida hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar juda xilma-xil bo‘lishi mumkin. Xususan, yirik innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va joriy etishda, turli vaqtlarda boshqa jamoalar tomonidan olingan ilmiy-texnik faoliyat natijalarini tizimli ravishda integratsiyalash, ikkala alohida kichik tizimlar va umuman texnologiyalarni qayta ishlash va takomillashtirish amalga oshiriladi. Ushbu bosqichdagi ishlarning ijrochilari universitetlar,



12-rasm. Innovatsion jarayonning bosqichlari

institutlar, ilmiy-texnik markazlarning olimlari, muhandislari va ijodiy jamoalari sanaladi.

Fundamental tadqiqotlar

Innovatsion jarayonning rivojlanish mantig'iga muvofiq, innovatsiyaning paydo bo'lishi yangi mahsulot uchun g'oyalarni shakllantirishdan boshlanadi. Ko'pincha g'oyalar fundamental tadqiqotlarni o'tkazish jarayonida tug'iladi.

Fundamental tadqiqotlar – bu inson, jamiyat va atrof-muhitning tuzilishi, faoliyati va rivojlanishining asosiy qonunlari to'g'risida yangi bilimlarni olishga qaratilgan eksperimental yoki nazariy faoliyatdir. Asosiy tadqiqotning maqsadi – hodisalar o'rtasidagi yangi aloqalarni kashf etish, tabiat va jamiyat rivojlanish qonuniyatlarini ularning aniq foydalanishiga nisbatan o'rganishdan iborat. Fundamental tadqiqotlar nazariy va izlanishlarga bo'linadi.

Nazariy tadqiqotlar natijalari ilmiy kashfiyotlar, yangi tushuncha va g'oyalarni asoslash, yangi nazariyalarni yaratishda namoyon bo'ladi. Tadqiqotga tadqiqotlarning o'zi kiradi, uning vazifasi g'oyalar va texnologiyalarni yaratish uchun yangi tamoyillarni kashf etishdir. Fundamental tadqiqotlarni olib borish ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishning yangi usullarini asoslash va eksperimental tekshirish bilan yakunlanadi. Barcha asosiy tadqiqotlar ilmiy muassasalarda ham, universitetlarda ham, yirik ilmiy-texnik sanoat tashkilotlarida ham faqat yuqori malakali mutaxassislar tomonidan olib boriladi. Fundamental fanning innovatsion jarayonlarni rivojlantirishdagi ustuvor ahamiyati uning g'oyalar ishlab chiqaruvchisi sifatida harakat qilishi, yangi bilim sohalariga yo'l ochishi bilan belgilanadi. Fundamental tadqiqotlar davlat byudjeti yoki davlat dasturlari orqali moliyalashtiriladi.

Amaliy tadqiqotlar

Amaliy tadqiqotlar – bu birinchi navbatda amaliy maqsadlarga erishish va aniq muammolarni, shu jumladan tijoriy ahamiyatga ega muammolarni hal qilish uchun yangi bilimlarni qo'llashga qaratilgan tadqiqotlardir. Ushbu bosqichda g'oyaning texnik maqsadga muvofiqligi tekshiriladi, bozor ehtiyojlarining ko'lami, shuningdek, korxonada yangi mahsulotni ishlab chiqarish va uning imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ushbu bosqichda ishlarning bajarilishi salbiy natijalarni olishning yuqori ehtimoli bilan bog'liq, amaliy-ilmiy tadqiqotlarga sarmoya kiritishda yo'qotish xavfi mavjud. Amaliy

tadqiqotlarni moliyalashtirish, birinchidan, davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan, ikkinchidan, yirik sanoat firmalari, aktsiyadorlik jamiyatlari, tijorat fondlari va venchur firmalar tomonidan taqdim etiladigan individual buyurtmachilar hisobidan amalga oshiriladi.

Tajriba-konstruktorlik ishlanmalari

Eksperimental konstruktorlik ishlari yangi jihozlar, materiallar, texnologiyalar namunalarini yaratish uchun amaliy tadqiqotlar natijalarini qoʻllashni anglatadi. Loyihalash ishlari – ilmiy izlanishlarning yakuniy bosqichi boʻlib, laboratoriya sharoitlari va eksperimental ishlab chiqarishdan sanoat ishlab chiqarishiga oʻtish demakdir.

Loyihalashga quyidagilar kiradi:

Texnik dizayn;

- ishchi-konstruktorlik hujjatlarini, shu jumladan buyumlar, montaj boʻgʻinlari va umuman mahsulot uchun chizmalar tayyorlash;
- prototiplarni tayyorlash va sinovdan oʻtkazish;
- muhandislik inshooti yoki texnik tizimning aniq dizaynini ishlab chiqish;
- yangi obʻyekt uchun gʻoyalar va variantlarni ishlab chiqish;
- texnologik jarayonlarni rivojlantirish;
- mahsulot, savdo markasi, etiketka, qadoqlash nomini aniqlash.

Tajriba-konstruktorlik ishlarining asosiy ilmiy-texnik natijalari: prototip, sanoat dizayni, foydali model, kompyuter dasturlari, maʼlumotlar bazalari, ilmiy-texnik hujjatlar hisoblanadi. Loyihalash ishlari davlat byudjetining moliyaviy koʻmagi yoki buyurtmachining oʻz mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladi.

5.3. Oʻzbekistonda innovatsion biznesni tashkil etishning asoslari

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlariga ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalarini va nou-xau ishlanmalarni keng joriy etish, ushbu yoʻnalishda ilmiy muassasalar va real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari oʻrtasida yaqin hamkorlikni oʻrnatish mamlakatni jadal innovatsion rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bilan birga, innovatsion gʻoyalar, texnologiyalar va loyihalarni toʻlaqonli realizatsiya qilish, ularni xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning

dolzarbligini hisobga olgan holda ishlab chiqarish tarmoqlariga amaliy joriy qilishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qator omillar mavjud.

➤ birinchidan, xorijiy innovatsion va ilmiy markazlarni, yetakchi investitsion fondlarni, texnologik agentliklarni, texnoparklar va boshqa manfaatdor sub'yektlarni mahalliy innovatsion ishlanmalarni amalga oshirishda ishtirok etishga faol jalb etish borasida yetarli darajada chora-tadbirlar amalga oshirilmayotganligi;

➤ ikkinchidan, davlat organlari va xususiy sektor vakillari, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari ishtirokida ishlab chiqarish joriy etilgan va muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan texnologiyalarni namoyish etish darajasi pastligi;

➤ uchinchidan, qulay investitsion muhitni shakllantirish, innovatsion g'oyalar va loyihalarni ishlab chiqish va joriy etish sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish, ilg'or va ilmiy hajmdor texnologiyalarni faol tarqatishning samarali tizimi mavjud emasligi;

➤ to'rtinchidan, Respublika viloyatlari kesimida ilmiy va innovatsion faollik past, bir ishtirokchining qayta-qayta jalb etilishi esa, har yilgi taqdim qilinadigan innovatsion ishlanmalar va mahalliy amaliy tadqiqotlarga bo'lgan buyurtmalar portfel tematikalarining takrorlanishiga olib kelmoqda;

➤ beshinchidan, texnologiyalarni tijoratlashtirish va ularni tashqi bozorlarga olib chiqish, milliy innovatsion tizimni shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish jarayonlariga ko'maklashishning amaldagi mexanizmlarining samarasi pastligi va kutilgan natijalarni bermayotganligi.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi tomonidan 2018 yildan boshlab xorijiy innovatsion va ilmiy markazlar, investitsion fondlar, texnologik agentliklar, texnoparklar va biznes-inkubatorlarning faol ishtirokida xalqaro interaktiv innovatsiyalar yarmarkalarini va xalqaro innovatsion-investitsion forumlarni o'tkazib kelinmoqda.

Innovatsiyalar yarmarkalari va xalqaro forumlarni o'tkazishning asosiy maqsadlari:

➤ davlat organlari, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari, texnoparklar va xususiy tadbirkorlar, shuningdek iqtisodiyotning real sektorini akademik va tarmoq ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yetakchi xorijiy investitsion

fondlar, innovatsion markazlar va boshqa manfaatdor tashkilotlar vakillari ishtirokidagi o‘zaro hamkorligini ta’minlash;

➤ O‘zbekiston Respublikasida va yetakchi xorijiy mamlakatlarda texnologiyalarni transfer qilish jarayonlari, shuningdek, real iqtisodiyot tarmoqlari va xususiy tadbirkorlik korxonalarida ishlanmalarni joriy qilishning natijalari bilan amaliy tanishib chiqishni ta’minlash yo‘li bilan mahalliy innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni tijoratlashtirish uchun sharoitlar yaratish;

➤ innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni ishlab chiqish va joriy qilish sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish, ichki va tashqi bozorlarda jamoat va xususiy sektorlardan ilg‘or va ilmiy hajmdor texnologiyalarni faol tarqatish;

➤ bozor ishtirokchilari o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish, tarmoq korxonalarining jadal rivojlanishiga ko‘maklashadigan mintaqaviy va xalqaro aloqalarni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot muassasalari, xususiy tadbirkorlik va investorlar o‘rtasida kooperatsion aloqalarni kengaytirish;

➤ xalqaro innovatsion-investitsion forumlar, konferentsiyalar, davra suhbatlar, treninglar, mahorat darslari va boshqa tadbirlarni o‘tkazish;

➤ ilmiy-tadqiqot, innovatsion va ixtiro g‘oyalari, texnologiyalari va loyihalarining doimiy asosda faoliyati amalga oshiriladigan va to‘ldirib boriladigan ma’lumotlar bazasini yaratish.

Innovatsiyalar yarmarkasini tashkil qilish tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

➤ birinchi blok «Tashabbuskor biznes» – O‘zbekiston Respublikasi hamda ilg‘or xorijiy mamlakatlarning davlat va xususiy sektorlari tomonidan mahalliy va xorijiy texnoparklar, texnologik agentlarning tayyor ilmiy va innovatsion ishlanmalar natijalarini va texnologiyalarni tijoratlashtirish sohasidagi faoliyatini yoritish uchun tashkil etilgan ko‘rgazma maydoni;

➤ ikkinchi blok «Innovatsion yechimlar» – ichki va tashqi bozorlarga chiqish maqsadida davlat va xususiy ilmiy muassasalar tomonidan maket va/yoki prototip ko‘rinishida eng zo‘r mahalliy ilmiy va innovatsion ishlanmalarni namoyish qilish;

➤ uchinchi blok «Kooperatsion aloqalar» – muloqot va o‘zaro foydali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, sherikchilik va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari

sohasidagi dolzarb masalalarni ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan qarorlarning miqyosini kengaytirish uchun platforma²³.

2017 yil 29 noyabrdagi O‘zR Prezidentining PF-5264-son Farmoniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etildi.

Vazirlikning asosiy faoliyat yo‘nalishlari:

a) davlat va jamiyat qurilishiga innovatsiyalarni joriy etish sohasida:

- innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni ishlab chiqishni, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini rivojlantirish, davlat xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishni tashkil etish;
- davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini, eng avvalo, infratuzilma ob‘yektlari va resurslar eng ko‘p sarf qilinadigan tarmoqlarda keng joriy etishga ko‘maklashish;
- dolzarb muammolarni, eng avvalo, joylardagi muammolarni hal etishda davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari va aholi bilan o‘zaro hamkorligining innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish;
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

b) iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy etish sohasida:

- mamlakatimizdagi innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni targ‘ib qilish va ulardan amaliy foydalanishning mexanizmlarini shakllantirish, bozorning tez o‘zgaruvchan jahon konhyunkturasini hisobga olgan holda milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga ko‘maklashishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishni tashkil etish;
- atrof-muhitning ifloslanish darajasini pasaytirish imkonini beruvchi ekologik toza texnologiyalarni qo‘llagan holda unumdorlikni oshirishni nazarda tutadigan «yashil iqtisodiyot» texnologiyalarining printsiplarini ishlab chiqish va joriy etishga ko‘maklashish;
- Respublika innovatsion salohiyatining, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari, texnoparklar, shuningdek, logistik xablar faoliyati samaradorligining o‘shishiga faol ko‘maklashish;

²³ O‘zR Prezidentining 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682-son Qarori

- makroiqtisodiy, soliq-byudjet, pul-kredit parametrlari, shuningdek, integratsiya jarayonlarining iqtisodiyotga ta'sirini baholash bilan o'zaro bog'liqlikda iqtisodiyot tarmoqlarini o'rta va uzoq muddatli rivojlantirish stsenariylarini shakllantirishga ko'maklashish;
- xizmatlar sohasini tubdan takomillashtirish, eng avvalo, innovatsion ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish hisobiga ularning sifatini va yalpi ichki mahsulotni shakllantirishdagi rolini oshirish;
- innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish orqali turizm sohasining raqobatbardoshligini tubdan oshirish bo'yicha takliflar kiritish;
- innovatsiyalarni joriy etish va hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan orqada qolgan tuman va shaharlarni jadal rivojlantirish hisobiga hududlar iqtisodiy taraqqiyotidagi nomutanosibliklarning oldini olish;

v) qishloq xo'jaligiga innovatsiyalarni joriy etish sohasida:

- eng avvalo, mavjud yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beruvchi «Aqlli qishloq xo'jaligi» kontseptsiyasiga asoslangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining zamonaviy sinalgan shakllarini joriy etish bo'yicha takliflar kiritish;
- agrar sektorda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini maksimal darajada avtomatlashtirish, hosildorlikni jiddiy oshirish va moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash, shuningdek, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkonini beruvchi innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini, shu jumladan yirik riteylerlar yordamida ta'minlash orqali savdo bozorlarini va ularni to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berishni kengaytirishga ko'maklashish;

g) ijtimoiy rivojlanishga innovatsiyalarni joriy etish sohasida:

- ta'lim tizimida innovatsiyalarni, shu jumladan o'qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini joriy etish orqali targ'ib qilishga ko'maklashish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni nazarda tutuvchi innovatsion o'quv dasturlarini ishlab chiqishni ta'minlash;
- sog'liqni saqlash tizimini, shu jumladan kasalliklarni barvaqt aniqlash va profilaktika qilishni ta'minlaydigan ilg'or texnologiyalarni, «Aqlli

tibbiyot» va «Yagona tibbiyot axborot markazi» kontseptsiyalarini joriy etish orqali jadal rivojlantirishga, shuningdek, aholining uzoq umr koʻrishi uchun qoʻshimcha sharoitlar yaratishga koʻmaklashish;

- «Xavfsiz shahar», «Aqlli shahar» kontseptsiyalarini joriy etishni, sogʻlom turmush tarzini ommalashtirish uchun zarur sharoitlarni taʼminlaydigan madaniy, sport va boshqa obʼyektlarni tashkil qilishni ham nazarda tutuvchi ilgʻor standartlarni hisobga olgan holda, shaharsozlikning faqat bosh rejalar, rejalashtirish va qurilish loyihalariga muvofiq izchil rivojlanishini taʼminlashga koʻmaklashish;

d) atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish tizimiga innovatsiyalarni joriy etish sohasida:

- atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishga, jumladan atmosfera havosiga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarni, suv obʼyektlariga tashlanadigan oqova suvlarni kamaytirishga, biologik xilma-xillik va ekotizimni saqlashga qaratilgan innovatsion texnologik yechimlar ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta ishlab chiqarish boʻyicha innovatsion gʻoyalar va ishlanmalarning, jumladan muqobil energiya manbalaridan foydalanish, energiya tejankor, ekologik toza avtotransport yoqilgʻisini ishlab chiqarish texnologiyalari, chang va gazdan tozalovchi texnologiyalarning amalda qoʻllanishiga koʻmaklashish;

- suvdan foydalanish tizimini, shu jumladan suvni tozalash, chuchuklashtirish, oqova suvlardan qayta foydalanish va suv tejashning innovatsion texnologiyalarini joriy etish orqali takomillashtirish boʻyicha takliflar ishlab chiqish;

- maishiy va sanoat chiqindilarini qayta ishlash, shu jumladan energiya va biooʻgʻitlarni ishlab chiqarish uchun yuqori texnologiyalarni joriy etish boʻyicha ilmiy asoslantirilgan takliflar ishlab chiqish;

- iqtisodiyotning energiya va resurs sarfini qisqartirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish boʻyicha dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

e) ilgʻor texnologiyalar joriy etilishini tashabbus qilish, muvofiqlashtirish va ragʻbatlantirish sohasida:

- innovatsion tadqiqotlar, g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni rag'batlantirishning samarali tizimini yaratish, shuningdek, istiqbolli fundamental va amaliy tadqiqotlar hamda novatorlik g'oyalarini, shu jumladan normativ-huquqiy bazani takomillashtirish orqali ishlab chiqish;
- imtiyoz va preferentsiyalar taqdim qilish, ko'rgazma tadbirlarini tashkil etish, yetakchi xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan o'zaro manfaatli yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali innovatsion ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
- yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqish bo'yicha ta'lim, ilmiy-tadqiqot va boshqa muassasalar, ilmiy-eksperimental ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar, yuqori texnologiyalar markazlari, texnoparklar va boshqa innovatsiyaga yo'naltirilgan tuzilmalarning faoliyatini muvofiqlashtirish (ilmiy-tadqiqot ishlari qismida), shuningdek, ularning moddiy-texnika va ilmiy salohiyatini mustahkamlashga ko'maklashish;
- innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va tijoratlashtirish bo'yicha zamonaviy ilmiy-texnologik komplekslar, biznes-inkubatorlar, startup-akseleratorlarni, shu jumladan yetakchi jahon ishlab chiqaruvchilarini jalb qilgan holda tashkil etish, shuningdek, IT-infratuzilmani rivojlantirishga ko'maklashish;
- uzoq muddatli texnologik rivojlanish ehtiyojlari va tendentsiyalarini hisobga olgan holda zamonaviy yuqori texnologik ishlab chiqarishni, shu jumladan yangi avlod transport vositalari, robot texnikalari va yuqori texnologik mahsulotlarning boshqa turlarini mahalliyashtirish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqish va joriy etish yuzasidan tashabbus ko'rsatish;
- mahalliy innovatsion mahsulotlarni, shu jumladan rasmiylashtirilgan xalqaro Patent va litsenziyalar asosida joriy etish, ichki va jahon bozorlariga yo'naltirish imkonini beruvchi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish.

Mamlakatda qisqa muddatda innovatsiyaga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishga va innovatsiyalarni keng joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Respublikani innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi organ tashkil etilganligi, uning huzurida Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi shakllantirilganligi mazkur yo'nalishdagi muhim bosqichlardan biri bo'ldi.

Ilmiy tadqiqotlar bilan ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning samarali mexanizmlarini yo'lga qo'yishga, aloqalarni mustahkamlashga to'siq bo'layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda:

- oliy ta'lim muassasalari ilmiy ishlari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari tadqiqotlarining natijalarini tijorlashtirish ko'rsatkichlarining pastligi hamda qoniqarsizligi;
- innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish, hududlar va tarmoqlar darajasida innovatsion rivojlanish va innovatsion faol kompleks dasturlarini amalga oshirish, innovatsion faol tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mavjud emasligi;
- xususiy sektor vakillarining innovatsion faoliyatga, jumladan ularning manfaatdorligi pastligi sababli yetarli darajada jalb qilinmasligi;
- davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida grantlarni taqsimlash va ulardan oqilona foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlarning mavjud emasligi;
- ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni joriy qilish sohasida xalqaro hamkorlik va investitsiyalar jalb etish darajasining qoniqarsizligi kabi omillar sabab bo'lmoqda.

Innovatsion jang'armalarning mablag'lari:

- ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni rag'batlantirishga;
- ilmiy-laboratoriya uskunalari, sarflash materiallari va butlovchi buyumlar sotib olishga;
- ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini shakllantirish va yangilashga, ilmiy xodimlarni moddiy rag'batlantirishga;
- innovatsiya faoliyati bilan bog'liq boshqa xarajatlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijorlashtirish bo'yicha bo'linmalarining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari:

- bozorni tizimli ravishda tahlil qilish va innovatsion mahsulot (ish, xizmat)larga bo'lgan talabni o'rganish, o'zini qo'lash muddatini, rentabellik va innovatsion mahsulotlarni tijorlashtirish bilan bog'liq xatarlarni baholash;

- yuqori tijorat salohiyatiga ega va amalga oshirishga tayyor bo‘lgan, o‘zlashtirish uchun istiqbolli loyihalarni tanlab olish;
- innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun investorlar, sheriklar va boshqa manfaatdor shaxslarni jalb qilish;
- yangi texnologiyalarni joriy qilish va innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida sanoat korxonalarini bilan o‘zaro hamkorlik qilish.²⁴

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Biznes g‘oyalari qanday yaratiladi?
2. Dunyodagi qanday ilg‘or biznes g‘oyalarni bilasiz?
3. Mamlakatimizda qanday ilg‘or biznes g‘oyalari bor?
4. “Maqsadlar daraxti”ning mohiyati nimadan iborat?
5. Innovation jarayon deb nimaga aytiladi?
6. Innovation jarayon qanday bosqichlardan iborat?
7. Fundamental tadqiqotlarning mohiyati nimadan iborat?
8. Amaliy tadqiqotlar nimaga qaratilgan bo‘ladi?
9. Innovatsiyalar yarmarkalari va xalqaro forumlarni o‘tkazishning asosiy maqsadlariga nimalar kiradi?
10. Innovatsiyalar yarmarkasini tashkil qilish tizimi qanday?
11. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining asosiy faoliyat yo‘nalishlari nimalardan iborat?
12. Innovatsion jamg‘armalarning mablag‘lari qanday maqsadlarga yo‘naltiriladi?

5-amaliy mashg‘ulot

Mashg‘ulot mavzusi: Biznes g‘oyalari va innovatsion biznes

Munozara qatnashchilariga eslatma

1. Munozara munosabatlar yig‘indisi emas, balki muammo yechimi uslubiyatidan iborat;
2. Ko‘p gapirmasdan boshqalarning so‘zlashiga imkon ber.
3. Maqsadga erishish yo‘lida xissiyotlarini jilovlab, batafsil o‘ylagan holda so‘zla.

²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori PQ-3698-son 2018-yil 7-may

4. Raqiblarning vaziyatini o‘rganib, ularga hurmat bilan murojaat qil;
5. Raqiblarning tomonidan aytilgan fikrlarga tanqidiy va istehzoli yondash;
6. Munozara predmeti bo‘yicha chetga chiqmagan holda to‘g‘ri yondashib gapir.

Muammoli seminarining boshqaruv dastaklari

Boshlovchi – barcha vazifalarni o‘ziga oladi – munozara bosqichlarini boshqarish, javoblarning asoslanishi va to‘g‘riligini tasdiqlash, qo‘llangan termin va tushunchalarning aniqlash, munosabatlarni to‘g‘ri qo‘llash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini to‘g‘ri boshqarish.

Taqrizchi – tomonlarning ma‘ruzalarini yo‘nalishlar bo‘yicha belgilash va to‘liq xarakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantiqiyligi va masalalarning aniq qo‘yilganligi, xulosalarning aniq ko‘rsatilishi.

Raqib – qabul qilingan tadqiqot o‘rtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi. U faqatgina ma‘ruzachining asosiy holatini tanqid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki xato tomonlarini topish hamda o‘zining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.

Ekspert – barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarning maxsuldorligini baholaydi.

Munozara reglamentini o‘tkazish tartibi

1. Boshlovchi ma‘ruza mavzusi va ma‘ruzachilarning taqdimotlarini e‘lon qiladi.
2. Ma‘ruza 5 minut davom etadi.
3. Taqrizchi – 2 minut.
4. Raqib – ma‘ruza mavzusi bo‘yicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi.
5. Jamoaviy muhokama – 5-10 minut.

Muhokama qilish va xulosalarni shakllantirish uchun savollar

1. Innovatsion biznes yuritishning asosi nimadan iborat?
 2. Biznes g‘oyalar qanday shakllanadi?
 3. Jahonda innovatsion biznes qanday yuritiladi?
 4. O‘zbekistonda innovatsion biznes yuritish asoslari
-
1. O‘zbekistondagi biznes g‘oyalar va innovatsion biznes yuritishni “Zigzag” texnikasi asosida yoriting.

2. Jahondagi biznes g'oyalar va innovatsion biznes yuritish "Zig-zag" texnikasi asosida yoriting.

(Muallif familiyasi va ismi, g'oya nomi, g'oya asosida biznes yuritilganda kutilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy samara)

3. "Biznes g'oya" va "Innovatsion biznes" kategoriyalarini "Sinkveyn" texnikasi asosida yoriting

Namuna: Biznes g'oya

Original, plagiat

Tashabbusga undaydi, harakatga keltiradi, foyda olib keladi

Biznes g'oya innovatsion biznes asosidir.

Biznes reja

VI BOB. INTELLEKTUAL MULK VA UNI HIMOYALASH USULLARI

6.1. Intellektual mulk tushunchasi mohiyati va O‘zbekistonda muhofazalash

Intellektual mulk insonning ijodiy faoliyati natijasida yaratilgan ilmiy, adabiy, badiiy, san’at asarlari va sanoat namunasi.

“Intellektual mulk” tushunchasi dastlab 1967 yil 14 iyuldagi “Butunjahon intellektual mulk tashkilotining (BIMT)ni tashkil etish to‘g‘risida”gi Stokgolm konvensiyasida ilgari surilgan. Mazkur konvensiya Intellektual mulkning huquqiy maqomini belgilash bilan birga uning tarkibi, ya’ni ob’yektlarini ham aniqladi hamda BIMT faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini ko‘rsatib berdi.

7-jadval

Innovatsion jarayonlar rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar²⁵

Omilar guruhi	Salbiy ta’sir etuvchi omillar	Ijobiy ta’sir etuvchi omillar
<i>Iqtisodiy</i>	Investitsiya mablag‘larining yetishmasligi	Zaruriy moliyaviy zaxiralarning mavjudligi
<i>Texnologik</i>	Moddiy-texnika va ilmiy-texnikaviy ishlar uchun zarur bo‘lgan sharoitlarning talabga javob bermasligi. Mavjud texnologiyalarining eskiligi va hokazo	Etarli darajada moddiy-texnikaviy bazaning va ishlab chiqarish texnologiyalari, xo‘jalik hamda ilmiy-texnikaviy infratuzilmaning mavjudligi
<i>Siyosiy</i>	<i>Antimonopol qonunlar tomonidan cheklanganligi</i>	<i>Qonuniy chora-tadbirlarning yaratilishi</i>
<i>Huquqiy</i>	<i>Soliq, amortizatsiya, patentlash va litsenziyalashtirishning talabga javob bermasligi</i>	<i>Innovatsion faoliyatning rivojlanishini huquqiy ta’minlash</i>
<i>Tashkiliy</i>	Tashkiliy tarkiblarning eskirishi	Bozor sharoitlaridan kelib chiqqan holda tashkiliy tarkibni takomillashtirishga moyilligi

²⁵ Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. – T.: TDIU, 2013.

<i>Boshqaruv</i>	Markazlashtirilgan avtoritar boshqaruv, axborotlar bilan ta'minlashning va sub'yektlar hamda ichki sub'yektlar munosabatlarining murakkabligi. Innovatsion jarayon bo'yicha kelishuvning murakkabligi	Ishlab chiqarish tashkiliy tizimining muqobilligi, demokratik boshqaruvga asoslanishi, axborotlar bilan ta'minlanishi. Innovatsion jarayonni amalga oshirishda umumiy maqsadning shakllanishi
------------------	---	---

6-jadvaldan ko'rinadiki, Innovatsion jarayonlar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy va huquqiy omillar intellektual mulkni himoyalash bilan bevosita bog'liqdir.

Intellektual mulk agentligi tomonidan intellektual mulk tizimini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk sohasidagi **Strategiyasi** ishlab chiqildi. Ushbu hujjat maqsadi intellektual mulk sohasini rivojlantirishning keyingi yo'nalishlarini va intellektual mulk tizimidagi manfaatdor davlat tashkilotlari, ularning vazifalari va vakolatlarini belgilash, shuningdek, alohida e'tiborga molik asosiy muammolarni ochib berishdan iboratdir.

Strategiya vazifalari quyidagilardan iborat:

- intellektual mulk sohasini rivojlantirish masalasiga tizimli yondashuvni va muammoli masalalarning bartaraf etilishini ta'minlash;
- davlat idoralarining o'zaro hamkorligini kuchaytirish, jumladan, intellektual mulk borasidagi qonunchilikni bir xilda talqin etilishi borasida;
- qatnashuvchi tomonlarning mas'uliyatini oshirish;
- ilmiy-texnik ijodkorlik va innovasion fikrlash/tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoit yaratish;
- qatnashuvchi barcha tomonlarda intellektual mulkka nisbatan hurmat hissini shakllantirish.

Ushbu hujjatning ishlab chiqilishi quyidagi dolzarb muammolarning yechimini talab etadi:

- ❖ Intellektual mulk sohasida band bo'lgan barcha davlat tashkilotlarining uyushqoqlik bilan ishlashiga, intellektual mulkni himoyalash va uni kommersiyalashtirishga erishish.

- ❖ Tadbirkorlik va ilm-fan sub'yektlarining, xuddi shuningdek, davlat tashkilotlari xizmatchilari va boshqaruv tizimi xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish.
- ❖ Intellektual mulk tizimini va unga nisbatan hurmat hissini rivojlantirib borish iqtisodiyotni innovasion jihatdan rivojlantirish asoslari sifatida belgilanishi lozim.
- ❖ Umuman olganda, intellektual mulk davlat taraqqiyoti va xalqning moddiy farovonligini oshirishda muhimdir, degan nuqtai nazarni shakllantirish

Strategiyani yaratishda Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi, O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk sohasiga doir qonunlari, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, shuningdek, Butunjahon intellektual mulk tashkilotining (bunday keyin - BIMT) milliy Strategiyani ishlab chiqish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalari huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Qonun talablariga rioya etilishida mavjud muammolarni kompleks hal etish, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish, mualliflar va huquq egalarining munosib haq olish huquqlarini ta'minlash, yuksak badiiy saviyadagi asarlar yaratilishini rag'batlantirish, ushbu jarayonlar va munosabatlarda davlat nazorati amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida Intellektual mulk agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi mualliflik huquqi va turdosh huquqlar tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qarori loyihasi tayyorlandi. Ushbu Qaror loyihasi mualliflik huquqini samarali himoya qilish, mualliflar va huquq egalariga mutanosib haq to'lash mexanizmlarini yaratish va mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqarishni amalga oshiruvchi "O'zbekiston mualliflari jamiyati" nodavlat-notijorat tashkilotini tuzishni nazarda tutadi.

Patent huquqi dastlab feodalizmning so'nggi davrlarida feodal jamiyat negizida xo'jalik yuritishning kapitalistik usuli vujudga kelib, rivojlana boshlashi bilan yuzaga keldi. Patent huquqi – ishlab chiqarishning kapitalistik usuli ustun kelishi va hokimiyatning burjuaziya yo'lga o'tishi natijasida shakllandi.

Innovatsion musobaqa Patentlar poygasini o‘z ichiga olib, firmalararo innovatsiyada birinchilikka sazovor bo‘lish deganidir. Patentlar poygasida birinchilikni olgan firma o‘z mahsulotini sotishda maxsus huquqqa ega bo‘lib bozorda o‘z monopoliyasiga 15 yildan 20 yilgacha bo‘lgan davrda erishadi.

Interaktiv davlat xizmatlari yagona Portali orqali “Ixtiroga Patent olish” interaktiv xizmatini ko‘rsatish reglamenti quyidagicha:

1. Xizmat tavsifi (Pasporti)

1.1. Xizmat nomi (Interaktiv davlat xizmatlari yagona portali orqali “Ixtiroga Patent olish” Xizmat natijasi ixtiroga Patent olishdan iborat)

1.2. Xizmatni ko‘rsatadigan tashkilotlar va blanklarni olish joyi (Arizalarni qabul qilishni O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk Agentligi amalga oshiradi. www.ima.uz; E-mail: info@ima.uz)

1.3 Huquqiy asoslar (1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, 1997 yil 1 mart, № 257-1; 2. O‘zbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonuni; 3. Ixtiroga O‘zbekiston Respublikasi patentini berish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko‘rib chiqish qoidalari)

1.4 Xizmatdan foydalanuvchilar (Yagona portalda ro‘yxatdan o‘tgan barcha yuridik va jismoniy shaxslar)

1.5 Bajarish muddati (Xizmat 3-5 yil davomida taqdim etiladi)

1.6. Tasdiqlovchi hujjatni berish muddati (Intellektual mulk Agentligi bir ish kuni davomida talabnoma kelib tushganligini tasdiqlaydi).

Intellektual mulkni O‘zbekistonda muhofazalash

O‘zbekistonda Milliy Patent tizimi yaratilish tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, 1992-2011 yillar – intellektual mulk ob‘yektlari muhofazasi bilan shug‘ullanuvchi vakolatli organlar Davlat Patent idorasi va Mualliflik huquqi agentligi tashkil etildi, jahon Patent tizimi amaliy ish tajribasini o‘rganish va iqtisodiy oyoqqa turish yillari bo‘ldi. Ushbu davrda bevosita intellektual mulk ob‘yektlarini huquqiy jihatdan muhofaza qilish sohasidagi qonunlar qabul qilindi, bular: “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi, “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi, “EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari to‘g‘risida”gi, “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”gi, “Mualliflik

huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida", "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida"gi kabi qonun hujjatlaridan iborat.


Shuningdek, O'zbekiston Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT)ga va intellektual mulk sohasidagi 10 dan ortiq xalqaro shartnomalarga a'zo bo'ldi, hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 maydagi "O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori bilan Davlat Patent idorasi va Mualliflik huquqi bazalarida O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tashkil etildi. Natijada xalqimizning ilmiy-texnikaviy ijod erkinligidan samarali foydalanishi uchun yanada kengroq sharoitlar yaratildi. Intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, yagona yondashuvni ta'minlash, mamlakatimizning ushbu sohadagi xalqaro shartnomalarini tayyorlash va hayotga tatbiq etish bo'yicha yaxlit tizim vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 20 oktyabrdagi PQ-2637-sonli "O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tarkibiy tuzilmasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 noyabrdagi 394-sonli Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi to'g'risidagi Nizomi tasdiqlandi. Ushbu qarorning asosiy maqsadi intellektual mulk ob'yektlarini xalqaro norma va standartlarga muvofiq huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, unga xos bo'lmagan va umrini o'tab bo'lgan vazifalarni bekor qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi faoliyatiga zamonaviy interfaol davlat xizmatlarini joriy etishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari:

- intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlash, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari hamda boshqa intellektual mulk ob'yektlarini huquqiy himoya qilish;
- ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk ob'yektlarini ekspertizadan o'tkazish, ro'yxatga olish va hisobga qo'yishni tashkillashtirish;

- Davlat patent fondi va intellektual mulkning rasmiy ro'yxatga olinganligi to'g'risida ma'lumotlar bazasini shakllantirish va olib borish, iqtisodiyotning real sektorining xo'jalik yurituvchi sub'yektlari, ilmiy tashkilotlar, olim va mutaxassislarning ma'lumotlardan samarali foydalanishi uchun ularning saqlanishi va foydalanish qulayligini ta'minlash;
- intellektual mulk sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, tadbirkorlik sub'yektlari va aholiga "bir darcha" tamoyili asosida interfaol davlat xizmatlarini ko'rsatish;
- milliy intellektual mulk ob'yektlarini chet elda huquqiy himoya qilishni ta'minlash bo'yicha korxonalar va tashkilotlarga konsultativ va amaliy ko'mak berish, shuningdek intellektual mulk sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish;
- intellektual mulk sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish.



13-rasm. O'zR Intellektual mulk agentligi ijro apparati tuzilmasi

6.2. Intellektual mulk sohasida xalqaro hamkorlik

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) – intellektual mulk sahosidagi bir nechta muhim xalqaro konvensiyalarni (Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to‘g‘risidagi Bern konvensiyasi va Sanoat mulkini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Parij konvensiyasi) boshqarish bilan shug‘ullanadigan xalqaro tashkilotdir. 1974 yildan buyon ushbu tashkilot Birlashgan millatlar tashkilotining ijodiyot va intellektual mulk masalalari bo‘yicha maxsuslashtirilgan muassasasi vazifasini ham bajarib keladi.


Hozirgi kunda 184 davlat yoki dunyodagi mamlakatlarning 90% dan ortig‘i BIMT a‘zosi, tashkilotning yig‘ilishlarida kuzatuvchi maqomiga 250 taga yaqin nohukumat va hukumatlararo tashkilotlar ega. BIMT Sekretariati (yoki Xalqaro byuro) Jenevada joylashgan bo‘lib, u 90 ta mamlakat vakillaridan iborat xodimlar shtatiga ega. 2008 yil 1 dekabrda boshlab tashkilotning Bosh direktori Frensis Garridir.

BIMT intellektual mulkni muhofaza qilish sohasidagi birinchi xalqaro tashkilotdir. U amalda 1893 yilda diplomatik konferensiyada, Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to‘g‘risidagi Bern konvensiyasi va Sanoat mulkini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Parij konvensiyasining ma‘muriy vazifalarini bajaruvchi ikkita byuro BIRPI (intellektual mulkni himoya qilish bo‘yicha birlashgan xalqaro byuro) deb nomlanadigan yagona muassasaga birlashishi natijasida tashkil qilingan.

IMTning dastlabki va asosiy vazifasi – ko‘p tomonlama xalqaro konvensiyalarni boshqarish, shu hisobda shartnomalar, qo‘shimcha shartnomalar, ularning rasmiy tarjimalarning matnlarini, davlatlarning qo‘shilish to‘g‘risidagi arizalarini saqlash, nizolarni hal qilish, shartnomalarni qayta ko‘rib chiqish jarayonlarini ta‘minlash, intellektual mulk ob‘yektlarini xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazishni ko‘zda tutuvchi shartnomalar uchun ro‘yxatga olish vazifalarini bajarishdan iborat.

Xalqaro me‘yoriy huquqiy hujjatlar ikkiga bo‘linadi:

1. Xalqaro konvensiyalar va bitimlar
2. Hukumatlararo bitimlar



14-rasm. Xalqaro patent tashkilotlari nomi va saytlari

Hozirgi vaqtda BIMT mualliflik va turdosh huquqlar sohasidagi 7 ta shartnoma va sanoat mulki ob'ektlari sohasidagi 23 ta shartnoma bo'yicha boshqarishni amalga oshirmoqda.

8-jadval

Xalqaro konvensiyalar va bitimlar
Bern konvensiyasi
Xalqaro e'tirof etish to'g'risidagi Budapesht shartnomasi
Lokarno bitimi
Madrid Protokoli
Nitssa bitimi
Sanoat mulki muhofaza bo'yicha Parij konvensiyasi
Patent kooperatsiyasi shartnomasi
Patent huquqi shartnomasi
Strasburg bitimi
Singapur shartnomasi
Tovar belgilari bo'yicha qonunlar
O'simliklarning yangi navlarini muhofaza qilish bo'yicha konvensiya
BIMTni ta'sis etuvchi konvensiya

O'zbekiston BIMTga va ushbu tashkilot boshqarib kelayotgan va milliy intellektual mulk tizimining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatib kelayotgan bir nechta asosiy shartnomalar va kelishuvlarga 1991 yildan beri a'zo hisoblanadi. (9-jadval)

Hukumatlararo bitimlar
O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Rossiya Federatsiyasi Hukumati o‘rtasidagi sanoat mulki muhofazasiga oid Bitim
O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Qirg‘iziston Respublikasi Hukumati o‘rtasidagi sanoat mulki muhofazasiga oid Bitim
O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Ozarbayjon Respublikasi Hukumati o‘rtasidagi mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga oid Bitim
O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Gruziya Hukumati o‘rtasidagi sanoat mulki muhofazasiga oid Bitim
Intellectual mulk himoyasi va huquqiy muhofazasi masalalari bo‘yicha Davlatlararo kengashni tuzish va intellektual mulk ob‘yektlari doirasida hamkorlik Bitimi
O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Turkiya Respublikasi Hukumati o‘rtasidagi mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga oid Bitim

O‘zbekiston Respublikasi BIMT ning quyidagi shartnoma va kelishuvlariga a‘zo:

- BIMT ni ta‘sis etuvchi Konvensiya;
- Sanoat mulkini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Parij konvensiyasi;
- Patent kooperatsiyasi to‘g‘risidagi shartnoma;
- Tovar belgilari bo‘yicha qonunchilik to‘g‘risidagi shartnoma;
- Patent jarayonlari maqsadlari uchun mikroorganizmlarni deponenlashtirishni tan olish to‘g‘risidagi Budapesht shartnomasi;
- Xalqaro Patent klassifikatsiyasi to‘g‘risidagi Strasburg bitimi;
- Belgilarni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun tovar va xizmatlarning xalqaro klassifikatsiyasi to‘g‘risidagi Nitssa bitimi;
- O‘simliklarning yangi navlarini muhofazalash bo‘yicha Konvensiya;
- Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to‘g‘risidagi Bern konvensiyasi;
- Sanoat namunalarining xalqaro klassifikatsiyasini ta‘sis etish to‘g‘risidagi Lokarno bitimi;
- Patent qonunlari to‘g‘risidagi shartnoma;
- Belgilarni xalqaro ro‘yxatga olish to‘g‘risida Madrid Bitimiga Bayonnoma.

BIMT bilan hamkorlik qilish doirasida O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi turli dolzarb mavzular bo‘yicha xalqaro va hududiy seminarlarni o‘tkazadi.

Ilmiy-texnikaviy ijodiyotga ko‘maklashish, ixtirochilik va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish maqsadida Toshkentdagi xalqaro innovatsion forum doirasida ikkita mukofot taqdim qilingan:

- Ixtirochilik uchun medal

- Intellektual mulk sohasidagi eng yaxshi korxonalar mukofoti.

Hozirgi kunda Agentlik BIMT bilan birgalikda intellektual mulk bo‘yicha milliy strategiyani ishlab chiqish bo‘yicha ishlarni boshlagan. Intellektual mulk bo‘yicha milliy strategiya iqtisodiy nuqtai nazardan qadri bo‘lgan IM ni yaratish bo‘yicha mamlakatning imkoniyatlarini oshiradi. Bundan tashqari IM sohasidagi strategiya mamlakatga muayyan reja doirasida hamda samardorlik va barqarorlik prinsiplariga rioya qilgan holda barcha manbalarning salohiyatini ochib berish imkonini yaratadi.

2017 yilda BIMT bilan Agentlik qoshidagi IM sohasidagi kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv markazini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi kelishuvga erishildi. Ushbu ko‘mak doirasida o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar taqdim etiladi, o‘quv auditoriyalari texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlanadi, o‘qituvchilar qayta tayyorlanadi, hamda markaz tashkil qilayotgan turli tadbirlarga chet ellik mutaxassislar jalb qilinadi.

O‘quv markazi negizida Agentlik bilan birgalikda BIMTning Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash markazi (TIQQM) ochildi, va u o‘z navbatida Respublika bo‘yicha universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlaridagi TIQQM boshqarib boradi. TIQQM yuqori sifatli texnik ma’lumotlar va ular bilan bog‘liq xizmatlardan foydalanish imkonini beradi, va shu bilan birga, ijodkorlarga o‘z salohiyatlarini ochish, muhofazani ta’minlash va o‘z huquqlarini boshqarish imkonini yaratadi. Hozirgi kunda Respublika bo‘yicha 8 ta TIQQM faoliyat yuritib kelmoqda.

6.3. Litsenziyalash

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 12 maydagi “Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro‘yxati to‘g‘risida”gi 222-II-son qaroriga asosan audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlarni takrorlash, sotish,

prokatga berish, shuningdek fonogrammalarni tayyorlash bo'yicha faoliyat turlarini lisenziyalanadigan faoliyat turlari bo'lib hisoblanadi. Mazkur faoliyat turlarini lisenziyalash bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 15 martdagi 72-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq asdiqlangan "Audiovizual asarlarni, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlarni takrorlash, sotish, prokatga berish, shuningdek fonogrammalarni tayyorlash bo'yicha faoliyat turlarini lisenziyalash to'g'risida Nizom" ga asosan tartibga solinadi.

Mazkur Nizomning maqsadlariga ko'ra:

- audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlarni takrorlash;
- audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlarni sotish;
- audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlarni prokatga berish;
- fonogrammalarni tayyorlash faoliyat turlari lisenziyalanadi.

Audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlarni takrorlash, sotish, prokatga berish, shuningdek fonogrammalarni tayyorlash bo'yicha faoliyat turlarini amalga oshirish uchun namunaviy (oddiy) lisenziya beriladi.

Lisenziyalarni berish, amal qilishini to'xtatib turish yoki to'xtatish, shuningdek uni bekor qilish yoki qaytadan rasmiylashtirish haqidagi qarorlar O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi (lisenziyalovchi organ) tomonidan qabul qilinadi.

Nizomning 5-bandiga asosan, audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlarni takrorlash, sotish, prokatga berish, shuningdek fonogrammalarni tayyorlash bo'yicha faoliyat turlari yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Intellektual mulk agentligi sanoat mulki obektlariga patent berish haqidagi talabnomalarni ko'rib chiqish uchun qabul qiladi, ular bo'yicha davlat ekspertizasini o'tkazadi, ularni davlat ro'yxatiga oladi, sanoat mulki obektlariga patentlar beradi, rasmiy axborotnoma nashr etadi, sanoat mulki obektlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining qo'llanilishiga doir qoidalar qabul qiladi va tushuntirishlar beradi. (10-jadval).

Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi haqidagi talabnomalarning tuzilishi²⁶

№	<i>Ixtiro haqidagi talabnoma quyidagilarni o‘z ichiga oladi</i>	<i>Foydali model haqidagi talabnoma quyidagilarni o‘z ichiga oladi</i>	<i>Sanoat namunasi haqidagi talabnoma quyidagilarni o‘z ichiga oladi</i>
1.	Ixtironing muallifi (hammuallifi) va kimning nomiga patent berish so‘ralayotgan bo‘lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko‘rsatilgan patent berish haqidagi arizani	Foydali modelning muallifi (hammuallifi) va kimning nomiga patent berish so‘ralayotgan bo‘lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko‘rsatilgan patent berish haqidagi arizani	Sanoat namunasining muallifi (hammuallifi) va kimning nomiga patent berish so‘ralayotgan bo‘lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko‘rsatilgan patent berish haqidagi arizani
2.	Ixtironi uni amalga oshirish uchun yetarli darajada to‘liq ochib berilgan tavsifni	Foydali modelni uni amalga oshirish uchun etarli darajada to‘liq ochib berilgan tavsifni	Buyomning tashqi ko‘rinishi haqida to‘la-to‘kis, bor tafsiloti bilan tasavvur qilish imkonini beruvchi buyom aks ettirilgan tasvirlar turkumini, rasmni
3.	Ixtironing mohiyatini ifodalovchi hamda uning tavsifiga to‘la muvofiq bo‘lgan formulasini	Foydali modelning mohiyatini ifodalovchi hamda uning tavsifiga to‘la muvofiq bo‘lgan formulasini	Agar sanoat namunasining mohiyatini ochib berish uchun zarur bo‘lsa, buyom umumiy ko‘rinishining chizmasi, ergonomik sxemasi, konfeksion xaritasini
4.	Agar ixtironing mohiyatini tushunish uchun zarur bo‘lsa, chizmalar va boshqa materiallarni	Agar foydali modelning mohiyatini tushunish uchun zarur bo‘lsa, chizmalar va boshqa materiallarni	Sanoat namunasining undagi muhim belgilar majmuini aks ettirgan tavsifi

²⁶ “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Toshkent, 2014 yil 9 dekabr.

Ilmiy kashfiyotlar. Kashfiyot ob'yektlari.

Kashfiyotni aniqlash tartiblari.

Ishlab chiqarish texnikasi yoki yangi jarayon ko'rinishidagi texnik o'zgarishlar texnik ixtirolar va kashfiyotlarni ta'riflash uchun ishlatiladi. Bunday kashfiyotlar ishlab chiqarish va xarajatlarni firma va sanoat tarmoqlari darajasida o'zgartirishi mumkin. Solouning neoklassik o'sish modelida texnologik rivojlanish kashfiyotlar tufayliligiga to'xtalib o'tilgan. Texnologik jarayonning bir nechta pog'onaga ega ekanligiga ham batafsil to'xtalib o'tilgan.

Kashfiyot deb bilim darajasiga tubdan o'zgartirish olib kiradigan ilgari noma'lum bo'lgan, ammo ob'yektiv mavjud moddiy nuqtaning hodisa, xossa va qonuniyatlarini tushuntirib beruvchi ta'limotga aytiladi.

Kashfiyotni himoya qilish maqsadi:

- Ilmiy mazmun ishonchliligini tasdiqlash uchun;
- Muallif va davlat ustunligini o'rnatish;
- Kashfiyot muallifining xususiyatlarini tan olish va unga tegishli imtiyozlar berish;
- Kashfiyot bilan bog'liq ilmiy-texnologik masalalarni hal qilishda ko'maklashish;
- Fan va texnikada, foydalanish uchun kashfiyotlarni davlat tomonidan ma'lumot uchun qabul qilinishi va hisobga olinishi (11-jadval).

11-jadval

Kashfiyotlarni aniqlash bosqichlari²⁷

Kashfiyotni aniqlash bosqichlari	Amalga oshiriladigan ishlar
<i>1-bosqich</i>	Asos qidiruv tadqiqotni ilmiy-amaliy injenerlik tadqiqotdan ajratish lozim. Tadqiqotning obekti tabiiy yoki texnik bo'lishi mumkin va uni tartibli amalga oshirish kerak.
<i>2-bosqich</i>	Kashfiyot predmeti hodisa, xossa, qonuniylikni oldindan belgilash.
<i>3-bosqich</i>	Kashfiyot shakliga muvofiq kashfiyot predmeti qat'iy shakllantiriladi.
<i>4-bosqich</i>	Bunda ilmiy qoidalar jamoatchilik tomonidan muhokama qilinadi.

²⁷Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. T.: TDIU, 2013 y.

Sanoat mulki ob'yektining huquqiy sub'yektlari

Sanoat mulki ob'yektining muallifi. Ijodiy mehnati bilan sanoat mulki ob'yektini yaratgan jismoniy shaxs shu ob'yektning muallifi deb e'tirof etiladi.

Agar sanoat mulki ob'yekti bir nechta jismoniy shaxsning birgalikdagi ijodiy mehnati asosida yaratilgan bo'lib, ular o'rtasida tuzilgan shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, ularning barchasi shu ob'yektning teng huquqli hammualliflari deb e'tirof etiladi.

Mualliflik huquqi boshqaga o'tkazilmaydigan va topshirilmaydigan shaxsiy nomulkiy huquqdir.

Patent egasi. Sanoat mulki ob'yektining patenti quyidagilarga beriladi:

- sanoat mulki ob'yektining muallifiga (hammualliflariga) yoki uning (ularning) merosxo'riga (merosxo'rlariga);
- muallif yoki uning merosxo'ri tomonidan patent berish haqidagi talabnomada yoki sanoat mulki ob'yekti ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar Agentlikka topshirilgan talabnoma beruvchini o'zgartirish haqidagi arizada ko'rsatilgan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslarga (ularning o'zi rozi bo'lgan taqdirda);
- ushbu moddada nazarda tutilgan hollarda ish beruvchiga.

Xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini yoki ish beruvchidan olgan aniq topshiriqni bajarish munosabati bilan yaratilgan sanoat mulki ob'yektining patentiga bo'lgan huquq, agar bu hol ular o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, ish beruvchiga tegishli bo'ladi.

Ish beruvchi sanoat mulki ob'yektini sir saqlagan taqdirda muallifga (hammualliflarga) mutanosib ravishda haq to'lashi shart, haq miqdori shartnomada belgilanadi.

Patent egasi bo'lmagan, o'z xizmat vazifalarini yoki ish beruvchidan olgan aniq topshiriqni bajarish munosabati bilan yaratilgan sanoat mulki ob'yektining muallifi (hammualliflari) tegishli sanoat mulki ob'yektidan foydalanilganligi yoxud unga oid litsenziya sotilganligi uchun haq olish huquqiga ega. Sanoat mulki ob'yektidan foydalanilganlik yoki unga oid litsenziyani sotganlik uchun tushayotgan mablag'lar hisobidan muallifga (hammualliflarga) to'lanadigan haqning miqdori, uni to'lash shartlari va tartibi muallif (hammualliflar) hamda ish beruvchi o'rtasidagi shartnomada belgilanadi.

Patent egasining sanoat mulki ob'yehtidan foydalanish huquqi.

Agar sanoat mulki ob'yehtidan o'z xohishicha foydalanish boshqa patent egalari huquqlarini, shu jumladan boshqa shaxslarning mazkur ob'yehtidan foydalanishini taqiqlab qo'yish huquqini buzmasa, bunday foydalanish patent egasiga tegishlidir, shu zaylda foydalanish ushbu Qonunga muvofiq patent egasining huquqini buzish deb hisoblanmaydigan hollar bundan mustasno.

Bir nechta patent egasiga qarashli bo'lgan sanoat mulki ob'yehtidan foydalanish borasidagi o'zaro munosabatlar ular o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Bunday kelishuv bo'lmagan taqdirda, har bir patent egasi muhofaza qilinayotgan sanoat mulki ob'yehtidan o'z xohishicha foydalanishi mumkin, lekin qolgan patent egalari roziligisiz ob'yehtga mutlaq litsenziya berishga yoki patentni o'zga shaxsga topshirishga haqli emas.

Patent egalari patent ro'yxatga olingan sanadan boshlab uch yil mobaynida sanoat mulki ob'yehtidan foydalanmasa yoki etarli darajada foydalanmasa, ushbu muhofaza etilayotgan sanoat mulki ob'yehtidan foydalanishni xohlovchi va foydalanishga tayyor har qanday shaxs, patent egasi litsenziya shartnomasi tuzishdan bosh tortgan taqdirda, o'ziga majburiy nomutlaq litsenziya berishni so'rab sudga iltimosnoma bilan murojaat qilishi mumkin.

Patent berish haqidagi talabnomani ekspertizadan o'tkazish.

Innovatsion loyihalarning texnik va ilmiy ekspertizalari innovatsion loyihalarning amaliy ahamiyatini, ilmiy-texnologik darajasini hamda iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash, ularni moliyalashtirishning maqsadga muvofiqligi va hajmi to'g'risida tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida amalga oshiriladi.

Texnik va ilmiy ekspertizalarni o'tkazish jarayonida ishtirokchilarning mustaqilligi hamda huquqiy jihatdan himoyalanganligi, ekspertizalar natijalarining xolisligi, ochiqligi ta'minlanishi kerak, davlat sirlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar bundan mustasno.

Texnik va ilmiy ekspertizalar innovatsion loyihani amalga oshirish uchun bajarilayotgan yoki taklif etilayotgan yo'nalishga muvofiq bo'lgan mutaxassislarni jalb etish orqali o'tkaziladi.

Texnik va (yoki) ilmiy ekspertizalarni o'tkazish jarayonida ekspertizalar natijalaridan shaxsan manfaatdor bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

Texnik va (yoki) ilmiy ekspertizalarni o'tkazishda ishtirok etgan hamda qabul qilingan xulosadan norozi bo'lgan ekspert mazkur xulosaga o'zining asoslantirilgan fikrini ilova qilishga haqlidir.

Texnik ekspertiza loyihaga oid talabnomaning taqdim etilgan hujjatlari belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlashga, shuningdek loyihaga oid talabnoma bo'yicha taqdim etilgan axborotni idrok etish va tahlil qilishning buzilishiga olib keladigan xatolarni aniqlashga qaratilgan faoliyatdir.

Texnik ekspertizani o'tkazish muddati loyihaga oid talabnoma olingan paytdan e'tiboran o'n besh kalendar kundan oshmasligi kerak.

Texnik ekspertiza quyidagi tartib-taomillarni o'z ichiga oladi:

- loyihaga oid talabnomaning to'liq va to'g'ri rasmiylashtirilganligini, shuningdek zarur imzolar, muhrlar va shtamlarning mavjudligini tekshirishni;
- berilgan loyihaga oid talabnomaga o'xshash bo'lgan, ilgari amalga oshirilgan loyihalarning mavjudligini tekshirish va loyihaga oid talabnomalarning takrorlanishini aniqlashni;
- taqdim etilgan moliyaviy-iqtisodiy hisob-kitoblarning to'g'riligini aniqlashni;
- loyihaga oid talabnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarni tekshirishni, texnik xatolar va noaniqliklarni aniqlashni;
- vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan loyihalarni texnik ekspertizadan o'tkazish reglamentiga muvofiq boshqa tartib-taomillarni.

Ilmiy ekspertiza innovatsion loyiha bo'yicha asoslangan qaror (xulosa) qabul qilish maqsadida innovatsion loyihaning ilmiy yangiligini, dolzarbligi va amaliy ahamiyatini o'rganishga, shu jumladan ilmiy jamoaning ilmiy-uslubiy salohiyatini, moddiy-texnika bazasini tahlil qilish hamda baholashga qaratilgan faoliyatdir.

Ilmiy ekspertizani o'tkazish muddati loyihaga oid talabnoma olingan paytdan e'tiboran o'ttiz kalendar kundan oshmasligi kerak.

Ilmiy ekspertizani baholash mezonlari quyidagilardan iborat:

- ilm-fan yutuqlariga asoslangan mahsulot ishlab chiqarishni tayyorlash (tashkil etish), ushbu mahsulotning import o'rnini bosishi va (yoki) eksportga yo'naltirilganligi bo'yicha salohiyatini baholash uchun ilmiy-

texnik hujjatlarni ishlab chiqishni rejalashtirishni nazarda tutuvchi loyihani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar;

- loyihani tijoratlashirish istiqbollari;
- innovatsiya obyektiga bo‘lgan talab darajasi;
- intellektual mulk obyektlariga doir muhofaza hujjatlarining mavjudligi;
- loyiha ijrochilarida ilmiy-texnik yoki innovatsion faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha tegishli tajribaning va tajriba-konstruktorlik ishlari natijalarining mavjudligi;
- ishlab chiqarish bazasining texnologik jihatdan ta‘minlanganlik darajasi.

Ilmiy ekspertizani o‘tkazishga xorijlik mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

Innovatsiyalarni yaratishga doir davlat buyurtmasi doirasida bajariladigan innovatsion loyihalar ilmiy va texnik ekspertizalar o‘tkazishni nazarda tutuvchi majburiy davlat ekspertizasidan o‘tkazilishi lozim.

Davlat ilmiy va texnik ekspertizalari vakolatli davlat organi tomonidan o‘tkaziladi.²⁸

Intellektual mulk agentligi patent berish haqidagi talabnoma bo‘yicha rasmiy ekspertiza, foydali model haqidagi talabnoma ekspertizasi hamda ixtiro haqidagi talabnomaning yoki sanoat namunasi haqidagi talabnomaning mohiyati bo‘yicha ilmiy-texnika ekspertizasidan iborat bo‘lgan davlat ekspertizasini o‘tkazadi.

Talabnoma beruvchi patent berish haqidagi talabnoma topshirilgan sanadan e‘tiboran ikki oy mobaynida talabnomada ko‘rsatilgan sanoat mulki ob‘yektining mohiyatini o‘zgartirmagan holda unga tuzatishlar, aniqliklar yoki qo‘shimcha materiallar kiritish huquqiga ega. Patent berish haqidagi talabnoma bo‘yicha tuzatishlar, aniqliklar yoki qo‘shimcha materiallar patent boji to‘langan taqdirda, ko‘rsatilgan muddat o‘tganidan keyin, lekin Agentlik patent berish haqida qaror qabul qilguniga qadar taqdim etilishi mumkin.

Belgilangan talablar buzilgan holda rasmiylashtirilgan patent berish haqidagi talabnoma yuzasidan talabnoma beruvchiga so‘rov yuborilib, unda shu so‘rov yo‘llangan sanadan e‘tiboran uch oy ichida tuzatishlar kiritilgan yoki etishmayotgan materiallarni taqdim etish taklif qilinadi. Agar talabnoma

²⁸O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni 2020-yil 24-iyul, O‘RQ-630-son

beruvchi soʻralgan materiallarni yoki belgilangan muddatni uzaytirish toʻgʻrisidagi iltimosnomani koʻrsatilgan muddatda taqdim etmasa, patent berish haqidagi talabnoma chaqirib olingan hisoblanadi. Belgilangan muddat talabnoma beruvchining iltimosnomasiga koʻra shu muddat oʻtgan sanadan keyin koʻpi bilan oʻn ikki oyga uzaytirilishi mumkin.

Sanoat mulki obʻyekti birligi talablari buzilgan holda topshirilgan patent berish haqidagi talabnoma yuzasidan talabnoma beruvchiga tegishli soʻrov unga yuborilgan sanadan eʼtiboran uch oy muddat ichida ushbu obʻyektlardan qaysi biri koʻrib chiqilishi lozimligini xabar qilish hamda tegishincha talabnoma hujjatlariga aniqliklar kiritish taklif qilinadi. Dastlabki talabnoma materiallariga kiritilgan boshqa obʻyektlar alohida talabnomalarga ajratilishi mumkin. Agar talabnoma beruvchi ushbu obʻyektlardan qaysi birini koʻrib chiqish zarurligini xabar qilmasa va aniqlik kiritilgan materiallarni taqdim etmasa, ixtiro, foydali model formulasida yoki sanoat namunasi tavsifida birinchi qilib koʻrsatilgan obʻjekt davlat ekspertizasidan oʻtkaziladi.

Davlat ekspertizasi soʻrovi boʻyicha materiallarni taqdim etishning talabnoma beruvchi tomonidan oʻtkazib yuborilgan muddatlari, belgilangan muddatlarni uzaytirish muqarrarligini taqozo etgan sabablar tasdiqlangan va patent boji toʻlangan taqdirda, Agentlik tomonidan tiklanishi mumkin. Oʻtkazib yuborilgan muddatlarni tiklash toʻgʻrisidagi iltimosnoma talabnoma beruvchi tomonidan oʻtkazib yuborilgan muddat tugagan kundan boshlab koʻpi bilan oʻn ikki oy ichida topshirilishi mumkin.

Talabnoma beruvchi sanoat mulki obʻyekti tegishli davlat reestrda davlat roʻyxatidan oʻtkazilgunga qadar davlat ekspertizasining istalgan bosqichida patent berish haqidagi talabnomani chaqirib olishi mumkin.

Patent berish haqidagi talabnoma materiallaridagi maʼlumotlar Agentlik tomonidan sir saqlanishi kerak va ular haqidagi axborot talabnoma beruvchi yoki patent egasining roziligisiz berilmaydi. Talabnoma materiallaridagi axborotni ixtiro haqidagi talabnoma toʻgʻrisidagi yoki foydali model va sanoat namunasi davlat roʻyxatidan oʻtkazilganligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar rasmiy ravishda eʼlon qilingunga qadar oshkor etganlik qonunga muvofiq javobgarlikka sabab boʻladi.

Agar ixtiro haqidagi talabnoma yoki foydali model haqidagi talabnoma materiallarida davlat sirlarini tashkil qilgan maʼlumotlar mavjud boʻlsa,


bunday talabnoma bo'yicha ish yuritish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agentlik tomonidan ko'rib chiqish uchun qabul qilib olingan patent berish haqidagi talabnomalar talabnoma beruvchilarga qaytarilmaydi.

Rasmiy ekspertiza. Rasmiy ekspertiza patent berish haqidagi talabnoma topshirilgan sanadan boshlab ikki oy o'tgandan keyin Agentlik tomonidan o'tkaziladi. Talabnoma beruvchining iltimosnomasiga binoan rasmiy ekspertiza ko'rsatilgan muddat o'tmasidanoq boshlanishi mumkin. Bu holda talabnoma beruvchi iltimosnoma topshirilgan paytdan boshlab qo'shimcha patent boji to'lamasdan talabnoma materiallariga o'z tashabbusi bilan qo'shimchalar, tuzatishlar va aniqliklar kiritish huquqidan mahrum bo'ladi.

Rasmiy ekspertiza mobaynida taqdim etilgan taklifning huquqiy muhofaza ta'minlanadigan sanoat mulki ob'yektlariga qay darajada muvofiqligi ko'rib chiqiladi. Rasmiy ekspertiza natijalari bo'yicha Agentlikning qarori talabnoma beruvchiga ma'lum qilinadi.

Talabnoma beruvchi Agentlikning qarori ustidan qaror yuborilgan sanadan e'tiboran uch oylik muddat ichida Apellyatsiya kengashiga apellyatsiya berishi mumkin. Apellyatsiya kengashi apellyatsiya kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki oylik muddat ichida uni ko'rib chiqishi lozim.




15-rasm. Intellektual mulk ob'yektlarini ro'yhatdan o'tkazish uchun topshirilgan talabnomalar soni (2018 y.)²⁹

²⁹ <http://ima.uz/uz/services/statistik-malumotlar/>

Apellyatsiya kengashining qarori ustidan qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran olti oy ichida sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Foydali model haqidagi talabnoma ekspertizasi. Agentlik patent boji to'langan taqdirda foydali model haqidagi talabnomani ekspertizadan o'tkazadi. Patent boji rasmiy ekspertizaning talabnoma ko'rib chiqishga qabul qilingani to'g'risidagi qarori talabnoma beruvchiga yuborilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida to'lanishi mumkin. Ko'rsatilgan muddat o'tkazib yuborilgan taqdirda talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanadi.


Agar ekspertiza natijasida talabnoma foydali modellar sifatida muhofaza qilinadigan ob'yektlarga taalluqli bo'lmagan taklif to'g'risida ekanligi aniqlansa, Agentlik patent berishni rad etish haqida qaror qabul qiladi, talabnoma beruvchi bundan xabardor qilinadi.



16-rasm. Intellektual mulk ob'ektlariga talabnomalar bo'yicha o'tkazilgan davlat ekspertizasi soni (2018 y.)³⁰

Agar talabnoma ekspertizasi natijasida foydali model haqidagi talabnoma materiallari qo'yilgan talablarga mos ekanligi aniqlansa, Agentlik foydali modelga patent berish to'g'risida qaror qabul qiladi, talabnoma beruvchi bundan xabardor etiladi.

³⁰ <http://ima.uz/uz/services/statistik-malumotlar/>



17-rasm. Intellektual mulk ob'ektlariga talabnomalar bo'yicha o'tkazilgan davlat ekspertizasi soni (2018 y.)³¹

Foydali model sifatida talabnomada ko'rsatilgan ob'yektning patentga layoqatlilik shartlariga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda Agentlik foydali modelga patent berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi, talabnoma beruvchi bundan xabardor etiladi.

Talabnoma beruvchi Agentlikning qarori ustidan qaror yuborilgan sanadan e'tiboran uch oylik muddat ichida Apellyatsiya kengashiga apellyatsiya berishi mumkin. Apellyatsiya kengashi apellyatsiya kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki oylik muddat ichida uni ko'rib chiqishi lozim.

Apellyatsiya kengashining qarori ustidan qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran olti oy ichida sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Intellektual mulk nima va u qanday paydo bo'lgan?
2. Innovatsion jarayonlar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar
3. O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk sohasidagi Strategiyasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari nimalardan iborat?
5. Intellektual mulk O'zbekistonda qanday muhofazalanadi?
6. O'zbekiston intellektual mulk sohasida qaysi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi?

³¹ <http://ima.uz/uz/services/statistik-malumotlar/>

7. Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi haqidagi talabnomalarning tarkibi qanday tuzilishga ega?
8. Ilmiy kashfiyotlar nima?
9. Ilmiy kashfiyot ob'yektlarini aniqlash usullarini sharhlab bering?
10. O'zbekiston Respublikasida ilmiy kashfiyotlarni muhofazalash qanday amalga oshiriladi?
11. Ilmiy kashfiyotlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasini qaysi qonunlarini bilasiz?
12. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida ilmiy kashfiyotlarning roli nimalardan iborat?
13. Sanoat mulki ob'yektining huquqiy sub'yektlari kimlar?
14. Intellektual mulk ob'yektlariga talabnomalar qanday tartibda ekspertizadan o'tkaziladi?

6-amaliy mashg'ulot

Mashg'ulot mavzusi: Intellektual mulk va uni himoyalash usullari

Munozara qatnashchilariga eslatma

1. Munozara munosabatlar yig'indisi emas, balki muammo yechimi uslubiyatidan iborat;
2. Ko'p gapirmasdan boshqalarning so'zlashiga imkon ber.
3. Maqsadga erishish yo'lida xissiyotlarinni jilovlab, batafsil o'ylagan holda so'zla.
4. Raqiblaring vaziyatini o'rganib, ularga xurmat bilan murojaat qil;
5. Raqiblaring tomonidan aytilgan fikrlarga tanqidiy va istehzoli yondash;
6. Munozara predmeti bo'yicha chetga chiqmagan holda to'g'ri yondashib gapir.

Muammoli seminarining boshqaruv dastaklari

Boshlovchi barcha vazifalarni o'ziga oladi – munozara bosqichlarini boshqarish, javoblarning asoslanishi va to'g'riligini tasdiqlash, qo'llangan termin va tushunchalarning aniqlash, munosabatlarni to'g'ri qo'llash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini to'g'ri boshqarish.

Taqrizchi – tomonlarning ma'ruzalarini yo'nalishlar bo'yicha belgilash va to'liq xarakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantiqiyliigi va masalalarning aniq qo'yilganligi, xulosalarning aniq ko'rsatilishi.

Raqib – qabul qilingan tadqiqot o'rtasida raqobatchilik jarayonini

shakllantiradi. U faqatgina ma'ruzachining asosiy holatini tanqid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki xato tomonlarini topish hamda o'zining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.

Ekspert – barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarning maxsuldorligini baholaydi.

Munozara reglamentini o'tkazish tartibi

1. Boshlovchi ma'ruza mavzusi va ma'ruzachilarning taqdimotlarini e'lon qiladi.
2. Ma'ruza 5 minut davom etadi.
3. Taqrizchi – 2 minut.
4. Raqib – ma'ruza mavzusi bo'yicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi.
5. Jamoaviy muhokama – 5-10 minut.

Muhokama qilish va xulosalarni shakllantirish uchun savollar

1. O'zbekistonda intellektual mulk muhofazasi
2. O'zbekiston intellektual mulk sohasidagi xalqaro hamkorligi
3. Intellektual mulk ob'yektlarini lisenziyalash

VII BOB. TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION MAHSULOTLARNI BOZORGA UZATISH USULLARI

7.1. Texnologiyalarni uzatishning nazariy asoslari

Bozor iqtisodiyotida innovatsiyalarni tizimli taqdim etish uslubiyoti xalqaro standartlarga asoslangan, va ularga muvofiq *innovatsiya* deganda, bozorga kirib kelgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliyotda qo'llanilayotgan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yoki ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan yangicha yondashuv ko'rinishidagi innovatsiyaviy faoliyat natijasi tushuniladi. Ushbu muammo bo'yicha ko'p sonli tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramasdan, bugungi kunda innovatsiyaviy faoliyat sohasida yagona, umumiy tarzda qabul qilingan terminologiya mavjud emas. Jahon amaliyotida mamlakatlarning innovatsiyalarni yaratishi va o'zlashtirishini Global innovatsion indeks (GII) ko'rsatib beradi.

The image shows a table titled "Global innovatsiya indeksi" (Global Innovation Index) with a blue background and a grid of white silhouettes of people at the bottom. The table has three columns: "Input sub-indeksi", "Output sub-indeksi", and "GII". The rows list the top 10 countries in each category.

Input sub-indeksi	Output sub-indeksi	GII
1. Singapur	1. Shvetsariya	1. Shvetsariya
2. Shvetsiya	2. Niderlandiya	2. Shvetsiya
3. Finlandiya	3. Shvetsiya	3. Niderlandiya
4. AQSH	4. Lyuksemburg	4. AQSH
5. Daniya	5. AQSH	5. Buyuk Britaniya
6. Buyuk Britaniya	6. Buyuk Britaniya	6. Daniya
7. Gong Kong	7. Germaniya	7. Singapur
8. Niderlandiya	8. Irlandiya	8. Finlandiya
9. Kanada	9. Koreya	9. Germaniya
	10. Islandiya	10. Irlandiya

18-rasm. Global innovatsiya indeksi

Innovatsiyalar turli shakllarda bo'lishi mumkin, ammo har qanday shaklda ham u mahsulot tannarxini kamaytirish yoki bozor talabini kengaytirishga yordam qiladi.

Innovatsion faoliyat – yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o‘tkazilishi va amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha faoliyatdir.

Innovatsion faoliyatning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:


- innovatsion faoliyatning erkinligi;
- innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashdan teng foydalanilishini ta’minlash;
- innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning oshkoraligi va aniq yo‘naltirilganligi;
- raqobatni rivojlantirishga ko‘maklashish;
- axborotni erkin almashish;
- innovatsion faoliyat natijasida yaratilgan intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish;
- fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik.

Innovatsion faoliyat subyektlari quyidagilardan iborat:

- innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar;
- innovatsion faoliyat sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar;
- tashkiliy-huquqiy shaklidan va mulkchiligidan qat’i nazar, yangi ishlanmalarni yaratadigan, joriy etadigan va innovatsiyalardan foydalanadigan ilmiy, ilmiy-tadqiqot, oliy ta’lim, ishlab chiqarish tashkilotlari va boshqa tashkilotlar;
- innovatsiyalar ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilar manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi nodavlat notijorat tashkilotlari;
- innovatsion faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan va foydalaniladigan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquq egalari;
- innovatsion faoliyatga investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investorlar va tadbirkorlik subyektlari.


Innovatsion faoliyatning pirovard natijasi bo‘lib innovatsiya mahsuloti (texnologiya) hisoblanadi. Innovatsiya mahsuloti (texnologiyasi) o‘zining hajmi bilan farqlanadi, u yangi texnologiyani joriy etilishi evaziga korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlarini o‘shirishini ifodalovchi ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topadi.

Innovatsion faoliyat o‘z ichiga ma’lum bosqichli jarayonlarni oladi. Ushbu bosqichli jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin.



19-rasm. Innovatsion faoliyatni tashkil etuvchi jarayonlar

Innovatsiyaviy jarayon samaradorligini oshirishda esa boshlang'ich marketing tadqiqotlari va bozor tahlili ayniqsa muhim hisoblanadi.



20-rasm. Xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar

Innovatsiyalarni boshqarish ilmiy-texnik g'oya shakllanishidan tortib uni tijorat asosida amalga oshirilishigacha bo'lgan barcha qadamlar (boshqaruv sikllari) yig'indisini qamrab oladi. Har bir yangilik g'oyasi yaratilishidan uni amalga oshirilishigacha bo'lgan vaqt davri innovatsiyaviy sikl deb ataladi.

Innovatsiyaning hayotiylik sikli – innovatsion mahsulotning bozorga chiqqan vaqtidan boshlab to bozordan chiqib ketishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab oladi.

Innovatsion faoliyat subyektlari quyidagi huquqlarga ega:

- usullarni, texnik vositalarni va asbob-uskunani mustaqil ravishda tanlagan hamda qoʻllagan holda erkin innovatsion faoliyatni amalga oshirish;
- innovatsion faoliyatni yakka tartibda yoki jamoaviy asosda amalga oshirish;
- innovatsion loyihalar tanlovlarida, shu jumladan Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablagʻlari hisobidan moliyalashtiriladigan innovatsion loyihalar tanlovlarida ishtirok etish;
- innovatsion faoliyat xavflarini mustaqil belgilash va baholash, ularni baholash hamda kamaytirish usullarini tanlash;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan ilmiy, texnologik, statistikaga oid va boshqa axborotni olish, davlat sirlarini va qonun bilan qoʻriqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi maʼlumotlar bundan mustasno;
- intellektual mulk obyektlari yaratilgan hollarda, ularning mualliflari yoki huquq egalari deb eʼtirof etilish, shuningdek intellektual mulkni huquqiy jihatdan himoya qilish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan soliq, bojxona imtiyozlaridan va preferensiyalardan foydalanish;
- innovatsion faoliyat davomida oʻzlari olgan natijalarni, agar ular davlat sirlarini va qonun bilan qoʻriqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi maʼlumotlarni oʻz ichiga olmagan boʻlsa, eʼlon qilish.
- Innovatsion faoliyat subyektlari qonun hujjatlariga va tuzilgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega boʻlishi mumkin.
Innovatsion faoliyat subyektlari quyidagi majburiyatlarni bajaradilar:
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish chogʻida qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;
- Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablagʻlari hisobidan moliyalashtiriladigan innovatsion loyihalarni amalga oshirish doirasida yaratilgan yangi ishlanmalarning belgilangan tartibda tijoratlashtirilishini taʼminlashi;
- innovatsion faoliyatga yoʻnaltiriladigan mablagʻlardan maqsadli foydalanishi;
- fuqarolarning hayotiga va sogʻligʻiga, atrof-muhitga zarar yetkazmasligi;
- intellektual mulk obyektlariga boʻlgan huquqlarni himoya qilish boʻyicha talablarga rioya etishi shart.


Innovatsion faoliyat sub'yektlarining zimmasida qonun hujjatlariga va tuzilgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin³².

Iqtisodiy adabiyotda innovatsiyalarning bir qator muhim shakllari ajratib ko'rsatilgan (21-rasm).



21-rasm. Innovatsiyalarning shakllari

Kumulyativ mahsulot texnologik jarayonning tarkibiy qismidir. Norzvorzi va Janglar sanoat unumdorligini o'sishiga oid empirik izlanishlari orqali texnologik rivojlanishning tannarxini kamaytirish yo'lini mikroelektronika, telekommunikatsiya va mos sanoat sohalarida aniqladilar. Umuman olganda, innovasion imkoniyat keng qamrovli tarkibga ega.



22-rasm. Innovasion imkoniyat turlari

³² O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 24-iyul, O'RQ-630-son

7.2. Korxonaning bozorni egallashga qaratilgan siyosati

Innovatsion faoliyatni mazmun va mohiyatiga, pirovard olinadigan natijasiga ko'ra, korxonalar tomonidan olib boriladigan ichki investitsiya faoliyatining tarkibiy qismi, ya'ni uning bir bo'lagi deb hisoblash mumkin. Ichki investitsiya faoliyati innovatsion faoliyatdan tashqari kapital qurilish, yangi texnika va texnologiyalarni sotib olish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, kengaytirish, rekonstruktsiya qilish kabi ishlarni ham bevosita o'z ichiga oladi. Demak, ichki investitsion faoliyat innovatsion faoliyatga nisbatan mazmunan keng tushuncha hisoblanadi. Innovatsion faoliyatga sarflangan mablag'lar jami kapital investitsiyaning yangi g'oya, ishlanmalar, jarayonlar, mahsulot, xizmat turlarini yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga taalluqli bo'lgan qismidir.

Korxonaning innovatsion salohiyati korxonaning barcha jihatlari, ya'ni yangilikni yaratish va undan amaliyotda foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Korxonaning innovatsion salohiyati elementlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moddiy-texnik resurslar;
- moddiy va nomoddiy aktivlar;
- moliyaviy resurslar;
- tashkiliy resurslar;
- kadrlarga oid resurslar;
- ijtimoiy-ruhiy omillar.


Shundan kelib chiqib, korxonada innovatsion jarayonlarni tashkil etish uchun ixtiyorida quyidagilarga ega bo'lishi lozim:

- g'oya va ishlanmalarni moliyalashtirish uchun yetarli pul mablag'lar;
- yangi mahsulotni yaratish va ommaviy ravishda ishlab chiqarish uchun tegishli moddiy-texnika bazasi;
- yangiliklarni amalga oshirish va uni joriy etish uchun qobiliyatli xodimlar;
- har qanday innovatsion jarayon asosini tashkil etuvchi original (rasman) g'oyalarni ishlab chiqish imkoniyati.

Hozirgi bosqichda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning davlat tomonidan boshqarilishi ob'yekt va sub'yektlar bo'yicha emas, jarayonlar darajasida amalga oshirilishi kerak. Bu tarkibiy qayta ishlab chiqarishga tizimli yondashuvni taqozo etadi hamda jismoniy va yuridik shaxslarni ilm-

fan va ilmiy xizmat ko'rsatish sohalaridagi aqliy faoliyatini institutsional-huquqiy va ijtimoiy-moliyaviy boshqarishni shakllantirish bilan bog'liq. Bunday asosda kichik korxonalar uchun soliq imtiyozlari joriy etish (davlat tashkilotlari texnologiyalar mualliflari tomonidan litsenziyalarni sotishda patentlash va preferentsiya uchun dotatsiyalar), nodavlat tashkilotlarini maqsadli qo'llab-quvvatlashni fundamental va amaliy tadqiqotlarni davlat tomonidan boshqarilishi bilan uyg'unlashtirish kerak.

Innovatsiyalarni rivojlantirishda resurslarni asosiy sohalarda jamlashga yordam beradigan samarali sanoat siyosatini ishlab chiqish va joriy qilish muhim baza va rezerv vazifasini o'taydi va iqtisodiyot tarmoqlarining innovatsion imkoniyatlarini oshiradi. Innovatsiya faoliyatini kengaytirish uchun tashkiliy va institutsional muhitni yaxshilash kerak. Mazkur muhitda novatorlik faoliyati innovatsion jarayonning barcha ishtirokchilari uchun iqtisodiy foydali bo'lishi lozim.



23-rasm. Strategiyani qabul qilishdagi omillar guruhi

Strategiyani tanlash, maqsad sari ajratilgan har bir yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi. Tanlovning soddalashtirilgan modeli Boston maslahat guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va u bozordagi ulush hamda tarmoqdagi o'sish sur'atidan kelib chiqqan holda strategiya tanlash uchun mo'ljallangan. Bozorning katta ulushini egallagan va tez o'suvchi tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan korxonalar (yulduzlar), o'sish strategiyasini tanlashi lozim. Barqaror tarmoqlarda yuqori o'sishga erishgan korxonalar cheklangan o'sish strategiyasini tanlaydi. Ularning asosiy maqsadi o'z o'rnini ushlab turish va foyda olish. Past sur'atlar bilan o'suvchi tarmoqlarda kichik ulushga ega bo'lgan korxonalar esa, ortiqchasini olib tashlash strategiyasini tanlashadi.

Tez o‘tuvchi tarmoqlarda o‘z o‘rnini mustahkamlamagan korxonalaridagi vaziyat qo‘shimcha tahlilni talab etadi. Strategiyalar variantlarini tanlashda, korxonada mahsulot bozor matritsasi bilan foydalanishi mumkin.

Innovatsion tadbirkorlik infratuzilmasi birinchi navbatda, alohida bo‘lib o‘tadigan va innovatsion deb nomlangan turga moslashib oladigan tadbirkorlikni ta‘minlovchi tizimni ifodalaydi. U innovatsion sohaning tadqiqotchilik-loyihalash sektorini iqtisodiyotning real sektori va yakuniy iste‘molchi bilan birlashtiradi.

12-jadval

Infratuzilma elementlarining qiyosiy jadvali

Innovatsion tadbirkorlik uchun	Bevosita innovatsiyalash uchun
Joriy qiluvchi firmalar	Sanoat universitetlari va xalq
Muhandislik markazlari	xo‘jaligining boshqa sektorlari
Injeniring firmalari	Tadqiqotchilik majmualari
Axborot xizmati ko‘rsatuvchi firmalar	Fanlar akademiyasi
Konsalting firmalari	Kutubxonalar va ma‘lumotlar to‘plamlari
Reklama faoliyati bo‘yicha firmalar	Sinov tariqasidagi ishlab chiqarishlar
Banklar va boshqa kredit tashkilotlari	Tajriba laboratoriyalari va markazlari
Innovatika ixtisoslashgan auditorlik firmalari	Axborot xizmati ko‘rsatuvchi firmalar
Ilmiy-texnik shirkatlar	Patent-litsenziyali tashkilotlar
Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari	Ilmiy parklar
Sertifikatsiya markazlari	Innovatsion markazlar
Lizing kompaniyalari	Innovatsion-ishlab chiqarish komplekslari
Patent-litsenziyali tashkilotlar	
Biznes-inkubatorlar	
Texnologiyalar transferi markazlari	
Sug‘urta kompaniyalari	

7.3. Texnologiyalar transferi markazlari va asosiy vazifalari

Texnologiyalar transferi – yangi ishlanmani u olinadigan (ishlab chiqariladigan) sohadan amalda qo‘llash sohasiga o‘tkazishga qaratilgan tadbirlar majmuidir.

O‘zbekistonda texnologiyalar transferining ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- mavjud texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqariladigan o‘xshash mahsulotga nisbatan yuqori sifatli va raqobatbardosh yangi yoki yaxshilangan mahsulot ishlab chiqarish;
- yangi ishlanmalar va texnologiyalar asosida mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqarish;
- o‘xshash texnologiyalarga nisbatan energiyani va resurslarni tejoychi texnologiyalarni joriy etish.

Texnologiyalar transferining asosiy usullari quyidagilardan iborat:

- texnologiyalarni bepul asosda olish;
- qo‘shma korxonalar tashkil etish orqali texnologiyalarni joriy etish;
- texnologiyalarni litsenziya shartnomalari asosida joriy etish;
- texnologik hujjatlarni berish;
- texnologiyalarni to‘laligicha sotib olish.

Texnologiyalar transferi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullar orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Texnologiyalar transferi mexanizmlari:

- texnik tavsifnomalarni, texnik-iqtisodiy asoslarni, yo‘riqnomalarni va boshqa hujjatlarni tahlil qilish va baholash;
- texnologiyalar transferini amalga oshiruvchi tarafning ekspertlarini jalb qilgan holda o‘quv treninglarini tashkil etish;
- inshootlar qurish va asbob-uskunalarni o‘rnatish hamda ulardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan texnik bilimlarni o‘zlashtirish;
- texnologiyalarni joriy etishga ko‘maklashuvchi mexanizmlardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Texnologiyalar transferi boshqa mexanizmlardan foydalangan holda ham amalga oshirilishi mumkin.

Texnologiyalar transferini amalga oshirishda quyidagi cheklovlar mavjud:

O‘zbekiston Respublikasiga:

- tarkibida himoyalangan (ya’ni tabiiy atrof-muhitga tarqaluvchi) zaharli moddalar yoki qayta ishlanmaydigan, ekologik jihatdan xavfli chiqindilar mavjud bo‘lgan;
- belgilangan normadan yuqori radioaktiv moddalar mavjud bo‘lgan;

- aholining sogʻligʻiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi mahsulotlar yaratish uchun moʻljallangan;
- milliy qadriyatlarga, anʼanalarga va ijtimoiy xulq-atvorga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi mahsulotlarni yaratish hamda targʻib qilish uchun moʻljallangan asbob-uskunalar va mahsulotlardan foydalanishga asoslangan texnologiyalar transferiga yoʻl qoʻyilmaydi.

Texnologiyalar transferi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Intellektual mulkka boʻlgan huquq mavjudligi va undan tushgan foyda texnologiyalar transferi uchun shartnoma tuzishning asosiy sharti hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablagʻlari hisobiga xarid qilinadigan texnologiyalar transferi uchun shartnomalar vakolatli davlat organi tomonidan roʻyxatga olinadi.

Foyda olish maqsadida innovatsion faoliyat subyektlari munosabatlarini tartibga soluvchi har xil turdagi shartnomalardan foydalangan holda yangi ishlanmalarni fuqarolik muomalasiga joriy etish jarayoni yangi ishlanmalarni tijratlashtirishdir.

Yangi ishlanmalarni tijratlashtirish:

- yangi ishlanmalarni qoʻllagan holda yaratilgan tovarlarni (ishlarni bajarish, xizmatlarni koʻrsatish) realizatsiya qilish yoki ulardan oʻz ehtiyojlari uchun foydalanish;
- taʼsischisi yoki taʼsischilaridan biri ustav jamgʻarmasiga ulush sifatida intellektual mulk obyektini yoki texnologiyani kiritgan tashkilot (affillangan tashkilot) boʻlgan tijorat tashkilotlarini tashkil etish;
- intellektual mulk obyektlariga boʻlgan mulk huquqlarini uchinchi shaxslarga oʻtkazish va mazkur obyektlardan foydalanishga boʻlgan huquqni royalti ajratmalariga asoslangan litsenziya shartnomalarini tuzish yoʻli bilan berish, shu jumladan ularni keyinchalik ushbu huquqlarni oluvchi tomonidan tijratlashtirish sharti bilan berish orqali amalga oshiriladi.

Intellektual mulk obʼyektiga doir huquq egasining tashkilot ustav fondidagi ulushi miqdori taʼsischilarning oʻzaro kelishuvi boʻyicha belgilanadi.

Davlat uchun strategik ahamiyatga ega boʻlgan yoki davlat sirlari jumlasiga kiruvchi maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan yangi ishlanmalarni

tijoratlashtirish davlat sirlarini saqlash to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi³³.

Texnologiyalar transferi markazlari (TTM) ilmiy-texnik natijalarning tijoratlashuvini tezlatib, kichik innovatsion korxonalar, jumladan, texnoparklar va innovatsion-texnologik markazlar tarkibida yaratiladi.

13-jadval

Texnologiyalar transferi markazining asosiy vazifalari

Texnologiyaning rivojlanish bosqichlari	Texnologiyalar transferi bosqichlari
Ilmiy-tadqiqotchilik ishlari bosqichlarini bajarish Texnologiyani amalga oshirish imkoniyatini tekshirish	Tadqiqot natijalarini e‘lon qilish Patent arizalari berish Anjuman va ko‘rgazmalarda qatnashish Ilmiy-tadqiqotchilik ishlari natijalariga egalik huquqini sotish
Tajriba-konstruktorlik ishlari bosqichlarini bajarish Mahsulotning sinov namunasi Texnologiya prototipi Texnik jihatdan amalga oshirish imkoniyatini tasdiqlash	Texnologiyani amalga oshirish uchun kichik korxonaga tashkil etish Texnologiyani sotish
Texnologiyani maromiga etkazish Bozor namunalari yaratish Sinov tariqasidagi sotuvlar Servisni tashkil qilish Ruxsatnoma olish Sertifikatsiya	Mahsulotni ko‘paytirish (kichik seriyada) va sotish Foydalanuvchilarni o‘rgatish Dillerlarni o‘rgatish Servis Texnologiyani sotish Korxonaga aksiyalarini sotish Biznesni sotish
Sanoat texnologiyasi yaratish Ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish Mahsulotni sertifikatsiyalash va ishlab chiqarish Diversifikatsiya	Mahsulot va xizmatlarni sotish Servis Texnologiyani sotish Korxonaga aksiyalarini sotish Biznesni sotish
Ishlab chiqarishni kengaytirish Mahsulotlarni ko‘paytirish	Mahsulot va xizmatlar sotish Servis

³³ O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni 2020-yil 24-iyul, O‘RQ-630-son

Ishlab chiqarishni sertifikatlash	Foydalanuvchilarni o'rgatish
Ishlab chiqarish va mahsulotni yangilash	Dilerlarni o'rgatish
Diversifikatsiya	Texnologiyani sotish
	Korxonada aksiyalarini sotish
	Biznesni sotish

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, texnologiyalar transferi innovatsion faoliyatning asoslaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda olib borilgan amaliy harakatlar natijasida 2019 yilda O'zbekiston Osiyo va Tinch okeani hududi bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasining Osiyo-Tinch okeani texnologiyalar transferi markazi (OTTTM) a'zoligiga qabul qilindi.

Butun dunyoda koronavirus pandemiyasi tufayli davom etayotgan epidemiologik vaziyat avvaldan belgilangan rejalarga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi, ammo Markaz faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha boshlangan amaliy harakatlarni izchil davom ettiradi va bu orqali yurtimizning innovatsion salohiyatini ko'tarishda o'z hissani qo'shadi.³⁴

Koronavirus (COVID-19) infeksiyasining tarqalishi tufayli yuzaga kelgan vaziyat, shuningdek pandemiya xavfi sababli chegaralarning yopilishi tufayli Bangkok (Tayland) shahrida bo'lib o'tishi rejalashtirilgan Osiyo va Tinch Okeani iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasining (ESKATO) 76-sessiyasi KUDO-live platformasida onlayn rejimida o'tkazildi.

Tadbirda jami 51 ta a'zo davlat, 3 ta assotsiatsiya a'zosi, 8 ta kuzatuvchi davlat ishtirok etdi. Ilk marotaba virtual rejimda o'tkazilgan ESKATO sessiyasi tashkilotchilarni tegishli o'zgarishlarni amalga oshirishga majbur etdi. Tadbirda delegatsiyalar dasturning har bir yo'nalishi bo'yicha muhim mavzularni muhokama qildilar.

Butun dunyo bo'ylab COVID-19 tarqalishi tufayli yuzaga kelgan inqiroz kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar ko'rilishini talab qiladi. Ushbu infeksiyaning tarqalishi global iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatib, ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohasiga kuchli zarba berdi. Strategik javob choralari eng avvalo xalq manfaatlariga qaratilgan bo'lishi lozimligiga alohida e'tibor qaratildi.

Ushbu inqiroz va uning qashshoqlik yoqasida turgan aholi qatlamiga ta'siri natijasida tengsizlik darajasi oshishi va odamlar qashshoqlikka tushib

³⁴ <https://mininnovation.uz/oz/news/2509>

qolishi mumkin. Dunyo aholisining uchdan ikki qismidan ko'prog'i Osiyo-Tinch okeani mintaqasida istiqomat qilishini, dunyodagi eng ko'p aholi yashaydigan shaharlar joylashganligini va dunyodagi sanoat faoliyati, energiya ta'minoti va energiya iste'moli, shuningdek 46 million muhojirning jamlanganligini inobatga olib, inqiroz Osiyo-Tinch okeani mintaqasining global iqtisodiy va ijtimoiy integratsiyasiga qanchalik kuchli bog'langanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga inqiroz Osiyo mamlakatlari tomonidan namoyish etilgan operativ harakatlar, izchil olib borilayotgan siyosat va innovatsiyalar ushbu misli ko'rilmagan epidemiya oqibatida yuzaga kelgan muammolarni samarali hal qilishi mumkinligini ham ko'rsatib berdi.

Ijtimoiy rivojlanish bo'yicha ishtirokchilarga Pekin+25 (ESCAP/76/8) tadqiqotlari bo'yicha Osiyo-Tinch okeani Vazirlar konferentsiyasining ma'ruzasi taqdim etildi. Osiyo-Tinch okeani deklaratsiyasida a'zo davlatlar Pekin deklaratsiyasi va harakatlar platformasini tezlashtirish uchun zarur bo'lgan asosiy harakatlarni belgilab oldilar: umumiy farovonlik va munosib ish; qashshoqlikni bartaraf etish, ijtimoiy himoya va ijtimoiy-maishiy xizmatlarni taqdim etish; zo'ravonlik, stigmatizatsiya, zararli stereotiplar va salbiy ijtimoiy me'yorlardan ozod bo'lish; gender tengligini ta'minlash, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish; atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash va muholifat salohiyatini rivojlantirish; ma'lumotlar va statistika; sheriklik va mintaqaviy hamkorlik.

«Osiyo-Tinch Okeani mintaqasida mintaqaviy hamkorlik orqali inqirozdan samarali tiklanish» (Building back better from crisis through regional cooperation in Asia and the Pacific) sessiya mavzusi etib belgilandi.

O'z navbatida Osiyo-Tinch Okeani texnologiyalar transferi markazi (OTTTM) Boshqaruv kengashining saylovlar natijalari e'lon qilindi. Saylovlar natijasi bo'yicha keyingi uch yillik muddatga (2020-2023) Boshqaruv kengashiga quyidagi davlatlar saylandi: Bangladesh, Xitoy, Indoneziya, Eron Islom Respublikasi, Nepal, Pokiston, Koreya Respublikasi, Shri-Lanka, Tayland va O'zbekiston.

2017-2020 yillar davomida Boshqaruv kengashi quyidagi tarkibda faoliyat yuritmoqda: Bangladesh; Xitoy; Fiji; Indoneziya; Eron Islom Respublikasi; Qozog'iston; Malayziya; Pokiston; Filippin; Koreya Respublikasi; Shri-Lanka; Tayland.

Yig'ilish yakunlari bo'yicha ikkita rezolyutsiya qabul qilindi:

- Osiyo-Tinch Okeani mintaqasida barqaror rivojlanish uchun okean, dengiz va dengiz resurslaridan barqaror foydalanishga ko'maklashish bo'yicha hamkorlikni mustahkamlash (Strengthening cooperation to promote the sustainable use of the oceans, seas and marine resources for sustainable development in Asia and Pacific);

- Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi pandemiya va inqirozlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini bartaraf etishda mintaqaviy hamkorlik (Regional cooperation to address socio-economic effects of pandemics and crises in Asia and Pacific).³⁵

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Innovatsion faoliyat nima?
2. Innovatsion faoliyatning asosiy prinsiplari nimalardan iborat?
3. Innovatsion mahsulot/xizmatlarni bozorga olib chiqish strategiyasi.
4. Tashkilotlardagi innovatsion jarayonlarning kalit sub'yektlari.
5. O'zbekistonda texnologiyalar transferining ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?
6. Texnologiyalar transferining asosiy usullariga nimalar kiradi?
7. Texnologiyalar transferini amalga oshirishda qanday cheklovlar mavjud?
8. Texnologiyalar transferi mexanizmlari nimadan iborat?
9. Yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish qanday amalga oshiriladi?
10. Texnologiyalar transferi markazi nima?
11. Texnologiyalar transferi markazining asosiy vazifalari nimadan iborat?
12. O'zbekistonning Osiyo-Tinch Okeani texnologiyalar transferi markaziga a'zoligi qanday imkoniyatlarni beradi?

7-amaliy mashg'ulot

Mashg'ulot mavzusi: Texnologiyalar va innovatsion mahsulotlarni bozorga uzatish usullari

4 ta guruhga bo'lingan holda muayyan texnologiya/innovatsion mahsulot transferi bo'yicha strategiya tuzing.

³⁵ <https://mininnovation.uz/oz/news/2083>

VIII BOB. INNOVATSION IQTISODIYOTDAGI KADRLAR SALOHIYATI

8.1. Innovatsion iqtisodiyotda inson omili

Davlat innovatsion siyosati haqida gapirganda doimo innovatsion iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash haqida yodda tutish lozim. Agar iqtisodiyotning an'anaviy sektorlarida "kadrlar hamma narsani hal qiladi" qoidasi aksariyat holatlarda to'g'ri bo'lib chiqsa, iqtisodiyotning ko'p ilm talab qiladigan sektorlarida ushbu fikrning ahamiyati bir necha marotaba ortadi.

Bilimlarga asoslangan iqtisodiyotda bilim vositalari birinchi darajali, eng muhim aktivlar hisoblanadi. Oqibatda yetarli darajada bilimlarga ega bo'libgina qolmay, ularni amaliyotda qo'llay oladigan, bilimlar eskirib borishi bilan ularni uzluksiz yangilab boradigan malakali mutaxassislar tayyorlash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislar tayyorlash masalalari bilan an'anaviy ravishda oliy o'quv yurtlari (OO'Yu) shug'ullanib keladi. Biroq, so'nggi yillarda xorij tajribasining ko'rsatishicha, OO'Yu bu masalani mintaqaviy va federal hukumatlar, shuningdek, yirik biznes vakillari ko'magida ancha samaraliroq hal etishlari mumkin ekan.

XXI asrda davlatlarning iqtisodiy o'sishi ko'p jihatdan ishlab chiqarishning barcha sohalarini intellektuallashtirish va ilmiy-innovatsion taraqqiyot bilan ta'minlanadi. Rivojlangan mamlakatlarda YaIM o'sishining 70%dan 85%igacha yangi texnologiyalar, asbob-uskunalar, yangi bilim yoki yechimlarga ega bo'lgan mahsulotlar ulushiga to'g'ri keladi. Fan-texnika taraqqiyoti (FTT) yutuqlari bizning kunlarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tobora keng va chuqur kirib bormoqda.

Innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasidan erishiladigan sinergetik samara vositasida mintaqalar va butun davlat jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tayanch elementiga aylanadi.

Mutaxassislarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni to'g'risida to'xtalar ekanmiz, "Toyuksberi, Krandall va Kreytnlar 20 ta eng ko'zga ko'ringan innovatsiyalarning bergan samarasini tekshirishdi va undan xususiy tarzda olingan o'rtacha daromad indeksi 27%ni tashkil qilgan bo'lsa,

ijtimoiy bergan samarasi 99% ko'rsatkichga ega bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, 4 barobar ko'proq deganidir" deb ta'kidlashgan.

Davlat innovatsion faoliyat sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga hamda amalga oshirishga:

- innovatsion faoliyat sohasida kadrlarni tayyorlashga doir davlat buyurtmalarini shakllantirish;
- innovatsion faoliyat sohasida kadrlarni tayyorlashga, qayta tayyorlashga hamda ularning malakasini oshirishga doir davlat talablari va standartlarini ishlab chiqish;
- innovatsion faoliyat sohasida kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi nodavlat ta'lim tashkilotlari, kasb-hunar ta'limi markazlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- ilm-fan va texnika yutuqlarini targ'ib qilish;
- yoshlarning texnik ijodkorligini qo'llab-quvvatlash va ularni kasb-hunarga yo'naltirish orqali ko'maklashadi.

Davlat innovatsion tadbirkorlik sohasida kadrlarni tayyorlashga ixtisoslashgan davlat ta'lim tashkilotlari faoliyatiga moliyaviy yordam ko'rsatadi.

Boshqaruv tizimidan tartibga tushirilgan maqomlar istalgan tuzilmaning me'yorida faoliyat ko'rsatishining muhim sharti hisoblanadi.

Turli rahbarlar lavozim vakolati katta-kichikligiga qaramay ular uchun quyidagi tamoyillarga ko'ra boshqaruv ahloqining umumiy negizi xosdir:

- Vakolatlilik - lavozim vakolatini malakali bajarish uchun zarur bilim, tajriba va uquvga ega bo'lish;
- Insonparvarlik - xizmat xulqidagi insonni sevish va ezgu ahloqiy xislat, odamlardagi eng yaxshi shaxsiy ishga qobillik sifatlarni ochishga intilish;
- Innovatsiyaviylik - yangilikni izlash, unga intilish ishtiyoqi, asosli tavakkal qila bilish qobiliyati;
- Pragmatika - natijalariga ko'ra ishlash, ish vaqtdan samarali foydalanish, faol investitsiya faoliyati;
- Ortobiotiklik - o'z hayotini qadrlay bilishni aniqlash, kelajakka bo'lgan barqaror ishonch, atrof-muhitga g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish.

Ma'muriy rahbar ("birinchi shaxs") muvafaqqiyati hokimiyatini boshqa rahbarlar bilan qanchalik bo'lisha olishligi, o'ziga bo'ysunuvchilarning ishbilarmonligidan qanchalik keng foydalana bilishiga bog'liq.

Boshqaruv faoliyati nazariyasi va amaliyoti innovasion menejer modelini yuzaga keltiradi. Mazkur modelga muvofiq u shunday shaxs bo'lishi kerak: yangilikka intiluvchanlik, istarasi issiqlik, ochiq ko'ngililik, onglilik va irodalilik kabi tizim tashkil etuvchi biologik sifatlarga ega bo'lishi lozim. Menejer jismonan barkamol bo'lishi kerak: "sog'lom tanda - sog'aql" deb bejiz aytilmagan.

Menejering madaniyatlik darajasi – inson tafakkuri va badiiy ijodiyoti eng yaxshi natijalari darajasida bo'lishlik xususiyati doimiy ehtiyojdir, bu uning etika, estetika, siyosatshunoslik, sotsiologiya va psixologiya bo'yicha bilimlarini chuqur egallashi lozimligini ko'rsatadi. Insoniylik jihati – menejering boshqaruv faoliyatini tizimlashtirilgan va moslashtirilgan antropologik bilimlardan foydalana olishdagi nazariy amaliy tayyorgarligidir. Antropologik bilimlar menejerga o'z kasb vazifasini bajarishi jarayonida odamlar bilan muloqotda bo'lish va birgalikda harakat qilishda shaxsiy ishbilarmonlik sifatlarini namoyon eta bilish va eng yaxshi kasbiy natijalarga erishish uchun zarurdir. Bular ayniqsa, ta'lim, servis, tibbiyot, savdo va tadbirkorlik kabi faoliyat sohalarida katta ahamiyat kasb etadi.

Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalarida va innovasion biznes bilan bog'liq barcha biznes maktablarda ixtisoslashtirilgan insonshunoslik fanlari o'qitiladi: sanoat psixologiyasi, ishlab chiqarish sotsiologiyasi, tadbirkorlik odobi, ishbilarmonlik iqtidori va boshqalar. Menejrlarni insonshunoslik bo'yicha tayyorlashda Yevropa Ma'muriy boshqaruv instituti (Frantsiya)da, Boshqaruv xalqaro instituti (Shveytsariya) va Barselona oliy boshqaruv ta'limi institutida qiziqarli tajriba to'plangan. Menejrlar tayyorlash bo'yicha Tokiodagi markaz ham jahonga ma'lum.

So'nggi paytlarga qadar "xodimlarni boshqarish" tushunchasi boshqaruv amaliyotida umuman bo'lmagan. Har bir tashkilot xodimlarni boshqarishning vazifaviy tizimiga ega bo'lishiga qaramay, bu boshqaruv bo'linma rahbarining huquq doirasiga kirgan. Tashkilotda xodimlarni boshqarish bo'yicha asosiy tarkibiy bo'linma mehnat resurslarini rejalashtirish, xodimlarning o'qishi, malakasini oshirishi va qayta

tayyolanishini tashkil etishni bajaruvchi xodimlar bo‘limidir. Ammo bu an’anaviy xizmatlar mehnatni tashkil etish va ish haqi bo‘linmalari, mehnatni muhofaza qilish bo‘limi bilan tashkiliy bog‘liq emas. An’anaviy xodimlarni boshqarish xizmatlari innovatsion tizimlarda muvofiq faoliyat yuritishni ta’minlash uchun kasbiy mahorat va tashkiliy maqomga ega emas. Shuning uchun jamoaga ijtimoiy-psixologik tashxis qo‘yish, guruhli va shaxslararo munosabatlarni tahlil qilish va tartibga solish, janjal va stresslarni boshqarish, kasbiy xususiyatlarni hisobga olish va xodimlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi, mehnatga undovchi sabablarni boshqarish va hokazolar xodimlar ishi bo‘limlari tomonidan umuman hal etilmagan. Innovatsion jamoalarda bular innovatsion menejer tomonidan hal etiladi, shu bilan birga boshqaruvning an’anaviy elementlari mehnat resurslarini boshqarish texnologiyasini tashkil etadi. Ma’lumki, mehnat resurslarini boshqarish rejalashtirish, xodimlarni tanlab olish va joylarini o‘zgartirish, mehnat faoliyati bahlash hamda ish haqi miqdorini belgilash, rag‘batlantirish va imtiyozlar tizimini ishlab chiqish vazifalarini o‘z ichiga oladi. Mehnat resurslarini boshqarish xodimlarni kasbiy yo‘naltirish va moslashtirish, joyni o‘zgartirish, pasaytirish va ishdan bo‘shatish tizimini o‘z ichiga oladi. Innovatsion yondashuvlarning an’anaviydan katta farqi xodimlarni tanlab olish tizimida namoyon bo‘ladi. An’anaviy yondashuvda tanlov bo‘yicha ishning kerakli hajmi ko‘proq darajada mavjud ishchi kuchi va unga bo‘lajak ehtiyoj o‘rtasidagi farq bilan belgilanadi. Noaniqlik va katta tavakkalchilik bilan izohlanadigan innovatsion faoliyatda ishchi kuchiga bo‘lajak ehtiyojni bashorat qilish murakkabdir. Mavjud xodimlar imkoniyatlarini ularning stoxastik ijtimoiy jarayonlarga moslashishi nuqtai nazaridan va malakalarining innovatsion faoliyat mazmuni darajasiga mosligini baholash zarur³⁶.

Hozirgi zamon ishlab chiqarishining innovatsion turi kasbiy muvaffaqiyat

muomalasini yangicha, xodimni tanlash, qayta o‘qitish va ijtimoiy moslashtirishning alohida tizimini shakllantiradi. Yangi vaziyat noan’anaviy ijtimoiy texnologiyalarni topishga majbur qiladi, xodimdan tug‘ma va keyingi olingan sifatlarni mavjud muhit talablari bilan birlashtirish, ishga undovchi sabablarning turli-tumanligini qabul qilish taqozo etadi.

³⁶ Borut Likar, co-editors Peter Fatur, Urshka Mrgole ; translation Arslingue K.Jontar, TEFL, TBE. - 1st. ed. - El. kniga. - Lyubliana Innovation management [Elektronski vir]

Innovatsion tuzilmalar xodimdan tafakkur kengligi va harakatchanlik, idrok etishning samarali tizimi, ijodga ichki ehtiyojning alohida turini talab etadi. Ular birinchi navbatda yuqori malakali ishchi kuchiga qaratilgan, novator olim yoki novator menejer shaxsi uning markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Innovatsion faoliyatda aql sohibi asosiy shaxs hisoblanadi, shuning uchun mehnatning ma'noli ahamiyat va yuqori ichki sabablar muhim ahamiyat kasb etadi. Novatorning asosiy shaxsiga alohida talablar aniq moslashtirilgan harakatlar, kommunikatsiya jarayonlari va shaxslararo munosabatlar bilan biriktirilishi kerak. Ko'pgina xorijiy kompaniyalar innovatsion menejerlarni tanlov asosida tanlab olishda xodimning sifatlarini innovatsion boshqaruvchi faoliyati talablariga mos kelishi testlaridan foydalanadi. Tanlov ishtirokchilarini tanlashda mantiqiy-didaktik ko'nikmalarga suyanuvchi tashkilotchilik qobiliyatlari, tashabbuskorlik, maqsadga intilish, maqsadga erishishdagi tirishqoqlik muhim sifatlardan hisoblanadi. Yetakchilik yuqori darajadagi javobgarlik, atrofdagilarga do'stona munosabat, operativlik va aniqlik, qabul qilinayotgan qarorlarning o'z vaqtidaligi bilan birlashtira oladigan nomzod yuqori baho oladi³⁷.

Innovatsion faoliyatda xodimlarni boshqarishga yondashuvlar an'anaviy menejmentga nisbatan mutaxassislarni rejalashtirish va tanlab olish bosqichidan boshlab yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish va yirik tashkiliy o'zgarishlarni bashoratlashgacha davom etadi.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi xodimlar sifatiga qat'iy talablar qo'yadi va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish ishdan bo'shatishlarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, ilg'or texnologiyalar sohasida innovatsiyalarni tatbiq etishda Procter&Gamble, Jonson&Jonson, IBM kompaniyalari, Comkon vodiysining bir qator firmalari har yili minglab ishchilarni ishdan bo'shatadi. Innovatsion yondashuvlarning an'anaviylardan katta farqi xodimlarni tanlash tizimida ham namoyon bo'ladi. Yangilik kiritishning yuqori darajasidan manfaatdor rahbar, albatta xodimning ijodiy qobiliyati va yutuqlarini aniqlashi kerak. Xodimdagi sifatlarni baholab, menejer namunaviy miqdoriy uslubiyotni nashrlar, patentlar, muayyan shaxsning ijodiy sifatlari kabi mezonlar bilan birlashtiradi. Xodimlarni tanlash bo'yicha vazifalar ham murakkabdir. Kasbiy muvaffaqiyat omillarining alohida ahamiyati innovatsion faoliyatda ishtirok etayotgan shaxsning oldiga yuqori talablar qo'yadi. Natijada nomzodning ham shaxsiy

³⁷ Yegorshin A.P. Upravleniye personalom. 2-oye izdaniye.- N. Novgorod:NIMB, 2007

psixologik xususiyatlari va kasbiy ko‘nikmalarini ko‘rib chiqish zarur. Amaliyotda yaxsni o‘rganish, shaxsning dunyo bilan munosabati kengligi, ularning umumiy tuzilishi, ierarxiklik va birgaligi darajasi, yakka shaxsning qobiliyati va fe‘l-atvor kabi aniq parametrlarini o‘rganish taklif etilgan. Bu tadqiqotlar shaxs nazariyasi va uning xususiyatlariga asoslanadi. Innovatsion faoliyatda ishtirok etayotganlarning kasbiy muhim xususiyatlari, ularning dinamikasi, hamda kasbiy ko‘nikmalari shakllanishi tezligi eng muhim hisoblanadi.

Boshqaruv hamisha hukmronlik, har qanday tashkilotning samarali faoliyat ko‘rsatishi, uni to‘g‘ri taqsimlashga bog‘liq. Lavozim vakolatidan (hokimiyatning taqsimlanishidan) qat’iy nazar, boshqaruv xulqning umumiy tamoyillari – vakolatlilik, insonparvarlik, innovatsiyalik va h.k. mavjud. Boshqaruv uslubiga kelsak, u avtokratik, byurokratik, demokratik va aristokratik bo‘lishi mumkin.

8.2. Boshqaruvning yangi texnologiyalari va strategiyasi

Innovatsion faoliyat jarayonida vujudga keladigan vazifalarining ko‘p jihatliligi unga turli kategoriyadagi xodimlarni kiritishni ko‘zda tutadi, ularni quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin. Birinchi guruh – ijodiy tashabbuskorlikni namoyon etish, ajoyib g‘oyalarni ilgari surishga qodir yuqori malakali novator olimlar. Novator menejerlar yangilik kiritishni jarayon sifatida boshqarishlari, yangiliklarni g‘oyadan aniq tijorat natijasigacha siljishini ta‘minlashlari zarur. Ular noaniq sharoitlarda qarorlar qabul qilishlari, moliyaviy va tadbirkorlik tavakalchiligiga borishlari, innovatsion faoliyatni boshqarishdagi tashkiliy va psixologik qiyinchiliklarni yengib o‘tishlari lozim.

Agar novator olim va loyihaning rahbari malakali xodimlar “o‘zagi”ni tashkil etsa, uning yonida yangiliklarni aniq amalga oshirishi uchun javobgar xodimlarning uchinchi, eng ko‘p sonli guruhi joylashadi. Bunda “chet” innovatsion faoliyatning zaruriy tarkibiy qismi bo‘ladi. Loyihaning umumiy samaradorligi unga bog‘liq. Qo‘llab-quvvatlash tizimini ta‘minlovchi malakali xodimlarning bu guruhi ko‘pincha “ilmiy darvozabonlar” yoki “bozor darvozabonlari” deb nomlanadi. Aynan shu xodimlar tashqi muhit va ichki imkoniyatlarni ta‘minlaydilar, innovatsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha amaliy faoliyatni qo‘llaydilar. Yuqori rahbariyat loyiha “jamoasi”ga xodimlar harakatlari ustidan batafsil, bosqichma-bosqich va

yaxlit nazoratni qo‘llash mumkin emasligini tushunishlari zarur. Bunday “jamoa“ a‘zolarini faqat favqulodda holatlarda boshqa ishga ko‘chirish mumkin. Loyiha rahbarining tutgan o‘rni ham ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan muhimroq bo‘ladi. Resurslarni taqsimlash, ularni boshqarish, aniq muddatlar qo‘yish huquqi rahbar shaxsiy hokimligining hal qiluvchi standartlaridan biri hisoblanadi. Agar yuqori rahbariyat yoki xodimlar loyiha rahbarining egallagan o‘rni buzilsa, unda bunday “jamoa”ning mavjuliği amalda yo‘qoladi. Shuning uchun novatorlik firmalari, venchurli bo‘linmalar, tatbiq etish tashkilotlarida rahbarlikning buyruqbozlik uslubi umuman mumkin emas. Loyiha guruhi a‘zolarining mavqei boshqa mezonlar bilan belgilanishini tushunish kerak. Masalan, agar an‘anaviy tuzilmada shaxsning ijtimoiy mavqei lavozim ierarxiyasidagi kattaligi, yuqori daromadi, ma‘lumoti, xabardorligi va tajribasi bilan belgilansa, tadqiqot guruhlarida xodimning mavqei u ilgari surayotgan g‘oyalari, uning ijodiy qobiliyati, tafakkuri kengligi, tavakkalchilikka tayyorligiga bog‘liq. Loyiha rahbari haqida ham shuni aytish mumkin. Mavqei yuqori rahbariyatdan past bo‘lgan holda, u aniq holatni yaxshiroq bilishi, konstruktivroq g‘oyalarni ilgari surishi, loyihani tezroq amalga oshirish uchun samarali usullarni qo‘llashi mumkin.

Tadqiqot guruhlarida ishida masalalarni hal etish, guruh a‘zolari xulqini baholash va umuman ular ishining samaradorligiga oqilona yondashishga rioya etish zarur. Maqsadni ko‘zlash, loyihani rivojlantirish va qarorlar qabul qilishning rasmiy tezkor tizimi to‘liq oqilona yaratilishi kerak, ijodiy shaxsiy xususiyatlar, norasmiy usullar va nostandart yondashuvlarni muvofiq integratsiyalashdan iborat bo‘lishi kerak. Rejalashtirish, boshqaruv qarorlari va nazorat ichida “jamoa” ishtirokchilarini ijodiy va rolli taqsimlanishi sodir bo‘ladigan asosini yaratdi. Guruhni samarali ishlashi uchun ishonchi va hamdardligi muhitini yaratish, xodimlarni ijodga rag‘batlantirish zarur.

Yaxshi strategiya va strategiyani a‘lo darajada amalga oshirish yaxshi boshqaruvning eng ishonchli belgisidir.

Boshqaruv strategiyasi beshta bir-biriga bog‘liq masalani hal etishga asoslanadi:

1. Tashkilot bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarni strategik ko‘ra bilishni, harakatlarning uzoq muddatli yo‘nalishini va aniq vazifani shakllantirish.

2. Strategik ko'ra bilish va zimmadagi vazifani aniq maqsad va topshiriqqa aylantirish.


3. Maqsadlar va vazifalarga erishish strategiyasini ishlab chiqish.

4. Qabul qilingan strategiyani malakali hamda samarali tadbiriq etish va amalga oshirish.

5. Ish natijalarini baholash, yangi yo'nalishlarni o'rganish va rivojlanishning uzoq muddatli yo'nalishi, strategiya maqsadlari yoki amaldagi tajribaga asosan uni amalga oshirish usullari, o'zgaruvchan sharoitlar, yangi g'oyalar va imkoniyatlarga nisbatan to'g'rilovchi xatti-harakatlarni amalga oshirish.

Mazkur strategiyani shakllantirish va amalga oshirish jarayoni 24-rasmda berilgan.

Bunda 5 vazifadan agar zarur bo'lsa qabul qilingan qarorlarni qayta ko'rib chiqish yoki takomillashtirish uchun oldingilariga qaytish ko'zda tutilgan.



24-rasm. Strategik boshqarishni 5 topshirig'i

Tashkilotning strategik ko‘ra bilishi va zimmasidagi vazifasini shakllantirishda quyi tashkilotlarning rahbarlari “biz nima qilmoqchimiz va nimaga erishamiz?” degan savolga javob berishi lozim.

Zimmadagi vazifa bayon qilinganda tashkilot faoliyatining tavsifi aniqlashadi va u mijozlar uchun nima qilishi kerakligi belgilanadi. O‘z xodimlarida “maqsad tuyg‘usi”ni yuzaga keltirish uchun, rahbar ularni tashkilotning strategik mo‘ljali va zimmadagi vazifa to‘g‘risida xabardor qilishi lozim.

Yaxshi o‘ylangan strategik mo‘ljali tashkilotlarni istiqbolga tayyorlaydi, rivojlanishning uzoq muddatli yo‘nalishini belgilashga yordam beradi.

Oliy ta’lim muassasalarining zimmasidagi vazifasi to‘g‘risidagi bayonnomaga ba’zi misollar 14-jadvalda keltirilgan.

14-jadval

Oliy ta’lim muassasalarining zimmadagi vazifa to‘g‘risidagi bayonnoma namunalari

T/r	Oliy ta’lim muassasasi	Zimmadagi vazifa haqida bayonnoma
1	Germaniyaning maxsus oliy muassasalari	<ul style="list-style-type: none"> - amaliy-ilmiy tadqiqot ishlari o‘qitish va o‘quv vositasida texnika, texnologiya, fanlar va san’atning amal qilishi hamda rivojlanishi ta’minlash; - mehnat bozori kasbiy talabini hisobga olgan holda mutaxassislar tayyorlash; - fan va amaliyot (ishlab chiqarish)ning ta’lim jarayoni bilan jips aloqasini ta’minlash; - ancha qisqa muddatlarda ma’lum jarayonni samarali tashkil etish.
2	O‘zbekiston universiteti	- fan, texnika, texnologiya, iqtisodiyot, madaniyat va ta’lim, shuningdek, mutaxassislar bilimi, iqtidori va malakalarini raqobatbardosh darajada tutish asosida bilim, yo‘nalishlar va ixtisosliklar sohaslarining keng doirasi bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash.

3	O‘zbekistonning tarmoq oliy ta’lim muassasalari	<ul style="list-style-type: none"> - fan, texnika, texnologiya, iqtisodiyot, madaniyat va ta’limning zamonaviy yutuqlari asosida ayrim sohalar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, shuningdek, mutaxassislar bilimi, iqtidori va malakalarini raqobatbardosh darajada saqlab turish; - amaliy tadqiqotlar va tajriba konstruktorlik ishlarini yangi ilmiy-texnikaviy bilimlar bunyod etish asosida bajarish; - amaliyot (ishlab chiqarish)ni ta’lim jarayoni bilan jips aloqasini ta’minlash.
---	---	--

Maqsadlarni belgilash. Zimmadagi vazifa va rivojlanishning yo‘nalishlari to‘g‘risidagi rahbariyatning bayonini o‘zgartirish natijasi bo‘lib tashkilot ishining aniq maqsad va vazifalari hisoblanadi. Ular tig‘iz, ammo erishsa bo‘ladigan bo‘lishi lozim. Mitchell Leybovits (Pep Boys-Manny, Moe and Jack kompaniyasining direktor-farmoyishchisi) shunday degan edi: “Agar siz, o‘rtacha natijaga erishmoqchi bo‘lsangiz, unda o‘z oldingizga o‘rtacha maqsadlarni qo‘ying”.

Maqsadlar – tashkilot ish sifati va taraqqiyotini ko‘rsatuvchi mo‘ljaldir.

Rahbariyat tomonidan belgilanadigan maqsadlar qisqa va uzoq muddatliga ajratiladi. Qisqa muddatli maqsadlar rahbariyat yaqin vaqt ichida ega bo‘lishi lozim bo‘lganlarni belgilasa, uzoq muddatligi ancha uzoq vaqt mobaynidagisini belgilaydi. Qisqa va uzoq muddatli maqsadlarni uyg‘unlashtirish kerak bo‘lgan hollarda keyingisi ustuvor hisoblanadi.

Maqsadlarni belgilashda barcha rahbarlar ishtirok etishi lozim. Tashkilot barcha bo‘linmalari oldiga aniq vazifalar qo‘yiladi, bularni hal etish umumiy maqsadga erishilishiga muayyan hissa bo‘lib qo‘shiladi. Mazkur holda tizimli yondashishdan foydalaniladi: bo‘linmalar vazifasi tashkilot umumiy maqsadlarning uzviy qismi hisoblanadi. Agar barcha darajadagi rahbar tegishli maqsad va vazifalarning bajarishi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olsa, bunda tashkilotda ishchanlik muhiti qaror topadi, bu ishda yuqori natijalarga erishishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Maqsadga erishish strategiyasini ishlab chiqishda asosiy boshqaruv muammosi, ya’ni tashkilot ahloqini hisobga olgan holda samarali natijalarga va uning istiqboliga qanday erishish belgilanadi. Strategiya natijalarga

erishish vositasi hisoblanadi. Bunday harakat tarziga tashkilot, maqsad va vazifalarga erishish uchun rahbarlar amal qilishi shart.

Tashkilot strategiyasi asosiy boshqaruv vazifasini hal etishga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq harakatlar va ishga yondashuvlar majmuidan iboratdir.

Tashkilot strategiyasi, qoidaga ko'ra, quyidagi mutanosibliklardan iborat bo'ladi:

- puxta o'ylangan va maqsadga yo'naltirilgan harakatlar;
- agar kutilmagan yo'nalish yuzaga chiqsa va zarur bo'lsa, unga javoban xatti-harakatlar, masalan raqobat tazyiqi sodir bo'lsa va h.k.

Tashkilot strategiyasi bir vaqtning o'zida ham rejadagi va adaptiv (moslashuvchan) hisoblanadi.

Tashkilot strategiyasini tez-tez "zargarona sozlash" yoki boshqarish odatdagi hol hisoblanadi. Bular tashqi va ichki o'zgarishlar miqdori sezilarli darajada jamlanishi bo'yicha amalga oshiriladi. Shuning uchun strategiya uzoq muddat mobaynida kamdan-kam holdagina o'zgarmay qoladi. Biroq strategiyani tubdan o'zgartirish kamdan-kam yuz beradi, qoidaga ko'ra bilish va vazifaning shakllanishi, maqsadning aniqlanishi va strategiyani qabul qilish, bu rivojlanish yo'nalishini ishlab chiqish jarayonining asosiy vazifasi. Bular barchasi birgalikda strategik rejani tashkil etadi.

Strategiyani joriy etish va amalga oshirish. Strategiyani joriy etish asosiy ma'muriy vazifadir, u o'z ichiga quyidagi asosiy jihatlarni oladi:

- strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishga qobil tashkilot tuzish;
- ko'zlangan maqsadga jadal erishishga yo'naltirilgan asoslashni xodimlar uchun ishlab chiqish;
- mukofatlash tizimini qo'yilgan maqsadlarga erishish natijalar bilan bog'lash;
- tashkilotda strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun imkoniyat tug'diruvchi muhit va ishonchli vaziyatni yuzaga keltirish;
- tashkilotning har bir a'zosiga kunma-kun o'z vazifasini samarali bajarishiga imkon beradigan qo'llab-quvvatlash ichki tizimini barpo qilish;
- muntazam takomillashtirish amaliyoti va rejasini (malaka oshirish yoki qayta tayyorlashni) tadbiiq etish;
- strategiyani olg'a siljitishni boshqarish va uni amalga oshirishni muntazam yaxshilash uchun zarur bo'lgan ichki yetakchilik tizimini joriy etish.

Strategiya bilan tashkiliy imkoniyatlar, strategiya bilan mukofotlash tizimi, strategiya bilan qo‘llab-quvvatlash ichki tizimi, shuningdek, strategiya bilan tashkiliy madaniyat (qadriyatlar va e‘tiqodlar shaklida namoyon bo‘luvchi) o‘rtasida mutanosiblik qancha yuqori bo‘lsa, strategiya shuncha muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Ishlarni baholash, yangi yo‘nalishlarni o‘rganish va to‘g‘rilovchi harakatlarni amalga oshirish. Boshqaruv strategiyasining yuqorida ko‘rib o‘tilgan to‘rt vazifasini birdaniga va doimiyga hal etib bo‘lmaydi. Uzoq muddatli maqsadlar o‘zgartirishni taqozo etishi mumkin: ular oshirilishi yoki pasaytirilishi ehtimoldan holi emas, bu to‘plangan tajriba va kelajakdagi istiqbol bilan bog‘liq. Tashkilot strategiyasini amalga oshirish yo‘llarini qabul qilish tahlil etiladi va yangi, yanada samaraliroq yo‘llarini izlash amalga oshiriladi.

Tashkilot vazifasi, maqsadi va strategiyasi, shuningdek, strategiyani amalga oshirishga yondashuv hech qachon tugal bo‘lmaydi. Ishlarni baholash va to‘g‘rilash harakatlarni amalga oshirish me‘yoriy hol hisoblanadi va strategik boshqaruv jarayonining uzluksiz davom etadigan zarur elementi bo‘lib qoladi.

Sanab o‘tilgan 5 strategik vazifa rahbarning boshqa lavozim majburiyatlari (kundalik ishni nazorat qilish, tang vaziyatlarni hal etish, yig‘ilishlar o‘tkazish, hisobotlar tuzish, insonlarga oid muammoni hal qilish, maxsus topshiriqlar va jamoatchilik majburiyatlarini bajarish va h.k.)lardan ajralgan holda mavjud bo‘lmaydi. Keyingilar butoqlar bo‘lib tana – strategik boshqaruv vazifasi atrofida joylashadi.

8.3. Motivasiya innovasiyalarni rag‘batlantiruvchi kuch sifatida

Mehnatni rag‘batlantirish, avvalo, psixologik muammodir.

Innovation boshqaruv faoliyatining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan rahbar xodimlarni mehnatga manfaatdorona munosabatini uyg‘ota bilishiga bog‘liq.

Mehnatga qiziqtirish sistemasi xodimda o‘z kasbiy faoliyati natijasidan faxrlanishni uyg‘otadigan bo‘lishi lozim. Faqat ixtiyoriy faoliyatgina insoini yaxshi natijalarga yetkazadi.

Mehnatni rag‘batlantirish tartibi qanday? Bu – ijtimoiy-iqtisodiy, etik, pedagogik-psixologik shartlar, kishilar ongida mehnatga halol munosabatda bo‘lish, yuqori natijalarga erishishga intilishni shakllantirish maqsadida uyg‘otishga yo‘naltirilgan shakl va usullar majmuasidir.

Demak, birinchi o‘rinda kishilar ongiga ta‘sir, ya‘ni mehnatga qiziqtirishning psixologik usullari turadi. Quyidagilar shunday usullar hisoblanadi:


- asosiy ehtiyoj va manfaatlarni qondirish usuli;
- rag‘bat va asoslar birgalikda ta‘sir etishi usuli.

Ehtiyojlar va manfaatlar kishilarni harakatga undaydi, xatti – harakatini asoslaydi va muayyan yo‘nalish bag‘ishlaydi. Lekin faoliyatga tayyorgarlik aniq ko‘rinishga ega bo‘lishi uchun rag‘bat va asoslar birgalikda harakatlanish usuli amalga oshishi kerak. Axir inson faoliyatsiz qolishi, buning ustiga manfaatga erishishda irodasizlik qilishi mumkin.

Quyidagilar mehnat faoliyatida eng barqaror asoslar bo‘lishi mumkin: pul topish ishtiyoqi, shaxsning o‘zini ko‘satishi (o‘z qadrini baland tutishi), Vatanni yuksakka ko‘tarish (altruizm), huquqiy yoki ahloqiy jihatdan qoralanishdan qo‘rqish.

Insonning mehnatga ongli munosabatda bo‘lishining psixologik asosi – shaxsiy manfaatdorlik bo‘lib, ehtiyoj va manfaatlarga ta‘lluqli maqsadlarni amalga oshirishdir. Shaxsiy manfaatdorlikni uchburchak tarzida tasavvur qilish mumkin (25-rasm), uning bir tomoni – asosi moddiy manfaat (mehnatga haq to‘lash), ikkinchisi – ijtimoiy manfaatdorlik (yomon muomala), uchinchisi – ma‘naviy manfaatlardan iborat. Har bir tomon qanchalik uzun bo‘lsa, uchburchak egallagan maydon shuncha katta, demak inson shaxsiy manfaatdorligi ham:

- moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish birligini ta‘minlash lozim;
- rag‘batlantirish va jazolash kishilarni moddiy va ma‘naviy mohiyatlashning aniq chorasi bo‘lishi lozim.



25-rasm. Insonning shaxsiy manfaatdorligini belgilovchi asosiy omillar

Mazkur holda quyidagi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:
- o‘z vaqtidalik (rag‘batlantirish yoki jazolashning o‘z mavrudidaligi);

- oshkoralik (keng xabardorlik va rag‘batlantirish chorasi hamda mehnat natijalarining taqqoslanarliligi);

- ko‘rgazmalilik (rag‘batlantirish chorasining yaqqol ko‘rinarli bo‘lishi).

Mehnat jamoasi shaxs kamoliga yetishadigan asosiy ijtimoiy muhitlaridan (oila va maktab bilan bir qatorda) biridir.

Shaxsning shakllanishi va kamolga yetishish jarayoni oila-maktab-mehnat jamoasi tizimida amalga oshadi, bu unsurlar orasida shaxsiy xislat – ishbilarmonlik sifatleri ijtimoiy shakllanishi jarayonining vorisligi va uzluksizligini ta‘minlovchi jips aloqa bo‘lishi kerak. Mehnat jamoasi rahbari zimmasiga salmoqli ruhiy-pedagogik og‘irlik tushadi. U jamoa bilan yosh inson oila va maktabda olgan ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashi, uning avvalgi shakllanishi jarayonida orttirgan salbiy xislatlarini bartaraf etishi yoki yo‘qotishi lozim.

Mehnat jamoasi (OTM – kafedra, ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi va b.)dagi tarbiya kasbiy, huquqiy, ahloqiy va estetik tarbiyaga bo‘linadi. Tarbiyaning bu turlari xodimlar jamoaviy mas‘uliyatini yuzaga keltirishga, shuningdek, o‘z mehnati natijasi bo‘yicha shaxsiy javobgarlikni kuchaytirishga yo‘naltiriladi.

Xodimning mehnat jamoasiga taalluqliligiga quyidagi (ob‘yektiv va sub‘yektiv) omillar ta‘sir etadi:

- kasbni to‘g‘ri tanlash;
- ish manfaati yo‘lida birgalikdagi harakatni ta‘minlash;
- sog‘lom norasmiy munosabatlarga qo‘shilish;
- turli konsultatsiyaviy yordam ko‘rsatish;
- adolatli moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish;
- xizmatdagi muvaffaqiyatlar istiqbollari belgilash.

Bu barcha omillar mehnat jamoasi doirasida samarali hal etiladi.

Rahbarning faoliyati ko‘p jihatdan pedagogik faoliyatdan iborat bo‘ladi. Rahbar bajaruvchilarga qat‘iyat bilan o‘z g‘oyasini o‘tkazadi va bularni amalga oshirishni o‘rgatadi.

Har bir rahbar psixologik bilimlar bilan bir qatorda muayyan pedagogik bilimga ham ega bo‘lishi kerak.

Insonning shaxsiy manfaatdorligidan kelib chiqib tarbiya jarayonida rahbar quyidagi pedagogik muammolarni hal etishi kerak:

- aqliy rivojlanish (xodimlarning umumiy va kasbiy ma‘lumoti);

- ma'naviy boyish (madaniy tadbirlar tashkil etish, etik muammolarni yechish);

- muomalani maqbullashtirish.

Bunda quyidagi pedagogik tamoyillarga rioya qilish lozim:

- ezgu ideallar bilan mashg'ul bo'lish;

- shaxsiy xislatlarni takomillashtirish.

Tabiyki, tarbiyaviy ta'sir umumiy va qotib qolgan bo'lmasligi lozim, chunki yuqorida qayd etilgan omillar har bir muayyan shaxs uchun farqlidir. Shuning uchun tarbiyaviy ta'sir har bir shaxsning o'ziga qaratilgan bo'lishi kerak, bu rahbar tarbiyaning turli-tuman usullaridan xabardor bo'lishini taqozo etadi. Rahbarning tarbiyaviy ta'sir usullaridan oqilona foydalanishi, ya'ni pedagogik savodli bo'lishi xodimda xulqiy farosat va ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

Rahbar tarbiyaviy ta'sirni amalga oshirishining quyidagi, ta'bir joiz bo'lsa, "texnologik tamoyillari" mavjud:

- ruhiy o'ziga xoslik, ya'ni shaxsga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishdan oldin uning individual, ijtimoiy–ruhiy sifatlarini anglash lozim;

- ma'naviy motivlar – o'ziga bo'ysunuvchilar oldida yuqori darajadagi xulq-atvor egasi ekanlikni shaxsan namoyon etish, bu rahbarga "mendek bo'l" deb talab qilish imkonini beradi;

- yakka tartibda yondashish, bu – har bir shaxsning o'ziga xos bo'lgan "a'lo" tomonini izlash;

- mehnat faoliyatining talablariga moslashish, bu – xodim aqliy imkoniyatini aniqlash va undan samarali foydalanish bo'yicha pedagogik muammoni hal etish;

- shaxsiy mo'ljal, bu – xodimda noyob qobiliyat kurtaklarini o'stirish va ularni rivojlantirish;

- tizimli yondashish, bu – shaxsni har jihatdan idrok etish va uning xulqiga ta'sir etuvchi ustuvor omillarini aniqlash.

Boshqaruv tarbiyasi shakllaridan quyidagilarni ta'kidlash zarur:

- dunyoqarashni kengaytirish ta'limi, bu – iqtisodiy, huquqiy, ahloqiy va ekologik ta'limni o'z ichiga oladi, uning ko'lamini menejer yoshi, madaniy saviyasi va ish tajribasiga bog'liq bo'ladi. Dunyoqarashni shunday o'stirish tufayli ong ma'naviy zamini barpo etiladi;

- mehnat musobaqasi, bu – kasbiy musobaqalashuv, malaka oshirishda kuchli omil sanaladi. Boshqaruv tarbiyasining bu shakli turli tanlovlar, ratsionalizatorlik takliflari va h.k.lar yordamida amalga oshiriladi;

- boshqaruvda ishtirok etish – boshqaruvga oid qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga oddiy xodimlarni jalb etish.

Rahbar xodimga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatar ekan, G.Salening quyidagi so’zlarini yodda tutishi foydadan holi emas: “Shuni unutmangki, hamma uchun mos andoza yo’q, siz, hammamiz – turli toifadamiz va muammolarimiz ham turlicha”.

8.5. Oliy ta’lim tizimi va uni boshqarish

Malakali, yuqori ma’lumotli kishilarni zarur miqdorda yetkazib beruvchi bir-biriga uyg’un oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarisiz hech bir mamlakatning aniq hamda barqaror rivojlanishni ta’minlashga qurbi yetmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” to‘g‘risidagi Qonunlariga muvofiq O‘zbekistonning ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini masalasini rivojlangan mamlakatlar darajasida hal etishga qodir, yuksak darajada ma’naviy, madaniy va ahloqiy sifatlarga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash oliy ta’lim tizimining vazifasi hisoblanadi.

Quyidagilar oliy ta’lim tizimining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- davlat ta’lim standartlariga muvofiq zamonaviy ta’lim – kasb dasturlari asosida sifatli o‘qituvchi bilan ta’minlash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash;

- yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlarni, jumladan, xorijiy ilmiy markazlarda tayyorlash;

- mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqboli, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya, iqtisod va madaniyat zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlashning tashkil etilishi va usulini muntazam takomillashtirish;

- ta’limni individuallashtirish, masofadan o‘qitishning yangi pedagogik va informatsion texnologiyalari, vositalarini joriy etish;

- mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik, Vatanga, oilaga va atrof-muhitga muhabbat ruhida, milliy uyg‘onish mafkurasi hamda umuminsoniy

qadriyatlarni chuqur his etish asosida oliy ta'limning gumanitar yo'nalishini, yoshlar tarbiyasini ta'minlash;

- ilmiy-pedagog xodimlar va ta'lim oluvchilar ilmiy tadqiqotlari hamda ijodiy faoliyatlari vositasida fan-texnika va texnologiyani rivojlantirish olingan natijalardan ta'lim jarayonida va tarmoqlarda foydalanish iqtisodiyoti;

- ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali uyg'unlashuvchi usullarini amaliyotga tadbiiq etish;

- ta'lim xizmati ko'rsatish bozorida raqobat muhitini yuzaga keltirish;

- rivojlangan mamlakatlar bilan oliy ta'lim sohasida o'zaro foydali aloqalarni rivojlantirish.

Oliy ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- davlatga qarashli va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, bular davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim-kasb dasturini amalga oshiradi;

- ilmiy pedagogik muassasalar bular, oliy ta'limni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini olib boradi;

- ta'limni boshqaruvchi davlat idoralari, shuningdek, ular tasarrufidagi korxonalar, muassasa va tashkilotlar.

Oliy ta'limda ikki bosqich mavjud: bakalavriyat va magistratura.

Bakalavriyat yo'nalishlari bo'yicha o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan nazariy, amaliy va bilim beruvchi oliy ta'lim.

Magistratura – bakalavriyat asosida o'quv muddati ikki yildan kam bo'lmagan muayyan ixtisoslik bo'yicha oliy ta'lim.

Respublikada oliy ta'lim universitetlar, akademiyalar va institutlarda amalga oshiriladi.

Universitet:

- oliy va oliy ta'lim muassasasini tugatgandan keyingi ta'lim-kasb dasturini ta'limning turli sohalari va tayyorlashning yo'nalishlari bo'yicha amalga oshiradi;

- iqtisodiyot turli sohalarning mutaxassisleri oliy ta'lim muassasalari kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar pedagog xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni amalga oshiradi;

- fan turli sohalari bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib boradi;

- fanlarning tegishli sohalarida ilmiy va metodik markaz hisoblanadi.

Akademiya:

- fanning muayyan sohalari va tayyorlov yoʻnalishlari boʻyicha oliy va oliy taʼlim muassasini tugatgandan keyingi taʼlim kasb dasturini amalga oshiradi;
- bilimning muayyan sohalari va tayyorlov yoʻnalishlari boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshiradi;
- fan-texnika yoki sanʼatning biror sohasida nazariy va amaliy tadqiqotlar olib boradi;
- oʻz faoliyati sohasida yetakchi ilmiy va metodik markaz hisoblanadi.

Institut:

- oliy va oliy taʼlim muassasini tugatgandan keyingi taʼlim–kasb dasturini qoidaga koʻra bilimning bir sohasidagi tayyorlov yoʻnalishi boʻyicha amalga oshiradi;
- iqtisodiyotning muayyan sohalari uchun mutaxassislarni qayta tayyorlaydi va malakasini oshiradi;
- amaliy-ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlari olib boradi.

Oliy taʼlim sohasidagi oʻzgarishlarni boshqarish uchun katta kuch jalb etilgan. Bu milliy va tuzilmalar miqyosida taʼlim siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga masʼul shaxslar oʻrtasidagi hamkorlikda namoyon boʻladi.

Oliy taʼlimni boshqarish quyidagi bosqichlari mavjud:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, uning vakolati quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- oliy taʼlim sohasida yagona davlat siyosatini olib boradi;
- taʼlimni boshqarish boʻyicha vakolatlangan davlat idoralariga, shu jumladan, oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi (OOʻMTV)ga rahbarlik qilish;
- taʼlimni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- taʼlim muassasalarini barpo etish, qayta tuzish, tugatish tartibini belgilash;
- taʼlim muassasalarini akkreditatsiyalash, pedagog va ilmiy xodimlarni attestatsiyalash tartibini belgilash;
- Oʻzbekiston Respublikasidagi boshqa davlatlar taʼlim muassasalariga taʼlim faoliyati bilan shugʻullanish huquqini olish uchun ruxsat berish;
- chet davlatlarning taʼlim standartlarini tasdiqlash;
- maʼlumot toʻgʻrisidagi davlat namunasidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
- davlat granti miqdorini va taʼlim muassasalariga qabul tartibini belgilash;
- davlat oliy taʼlim muassasalari rektorlarini tayinlash;

- ta'lim olayotganlari akkreditatsiyalagan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga ko'chirish tartibini belgilash;
- qonunchiliklarga muvofiq boshqa vakolatlar.

2. Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat idorasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (OO'MTV) bo'lib, uning vakolatiga quyidagilar kiradi:

- ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ta'lim va boshqa muassasalarga metodik rahbarlikni amalga oshirish va rahbarlik qilish;
- davlat ta'lim standarti talablari, ta'lim darajasi va mutaxassislarni kasbiy tayyorlash sifatiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;
- o'quv jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitishning informatsion vositalarini joriy etish;
- o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar yaratish va nashr etishni tashkil etish;
- ta'lim olayotganlarni yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi va ta'lim muassasalaridagi ekspert to'g'risidagi nizomlarni ishlab chiqish;
- pedagog xodimlar tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga davlat oliy ta'lim muassasalariga rektor tayinlash to'g'risidagi taklif kiritish;
- qonunchiliklarga muvofiq boshqa vakolatlar.

Oliy ta'lim sohasidagi boshqaruv bilan shug'ullanuvchi shaxslarga yuksak darajadagi mas'uliyatlilik, vakolatlilik hamda tartib, ma'muriy qoidalarni ichki va tashqi vositalar yordamida muntazam samarali baholash qobiliyati xos bo'lishi lozim.

3. Oliy ta'lim muassasalari (OTM) bevosita O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan rektor tomonidan boshqariladi. Nodavlat OTMda rektor ta'sischi (mulk egasi) tomonidan tayinlanadi.

Rektor "Oliy ta'lim to'g'risida"gi nizomga muvofiq ta'lim muassasasining ish natijalari uchun mas'uldir. U O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ta'lim muassasasi nomidan faoliyat ko'rsatadi, barcha idoralar, muassasalar va korxonalar bilan uni namoyon etadi, mulkni tasarruf etadi, shartnomalar tuzadi, ishonchnoma beradi, bankda ta'lim muassasasining hisob raqamini ochadi, kreditlarni taqsim qiluvchi hisoblanadi.

Rektor o'z vakolati doirasida quyidagilarni amalga oshiradi:

- barcha xodimlar, tinglovchilar va boshqa ta'lim oluvchilar uchun buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

- bosh buxgalterni ishga tayinlaydi va undan bo'shatadi;

- ilmiy-tadqiqot, tajriba-eksperiment va boshqa ta'lim muassasasi tarkibiga kiruvchi tashkilotlar, bo'linmalar vakolatini belgilaydi;

- ishchi, xizmatchilar, shuningdek, ilmiy-pedagog xodimlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan va mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo'shatishni amalga oshiradi;

- ta'lim muassasasi xodimlari lavozim maoshiga ustama va qo'shimchalar belgilaydi;

- ichki tartib qoidalarini kasaba uyushmasi yoki boshqa vakolatli organ xodimlari bilan kelishib tasdiqlaydi;

- qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Oliy ta'lim sohasidagi rahbarlik vazifasi jiddiy ijtimoiy mas'uliyatdir. Uning ahamiyati shu sohadagi barcha hamkorlar, shu jumladan, o'qituvchi va ta'lim olayotganlar barchasi bilan erkin muloqot yo'li bilan sezilarli darajada oshirilishi mumkin.

Umumiy manfaatlar, o'zaro hurmat va ishonch asosidagi hamkorlik oliy ta'limni yangilashning asosiy usulidir. Hamkorlik ta'lim siyosatini milliy va tuzilmaviy miqyosda ishlab chiqish hamda joriy etishda mas'ul shaxslar o'rtasida, professor-o'qituvchilar va tinglovchilar, OTM ma'muriyati texnik xodimlari, mehnat sohasi, OTMlar, jamoatchi guruhlar o'rtasidagi mavjud bo'lishi mumkin.

Boshqarishning asosiy maqsadi oliy ta'lim muassasalarining tuzilmaviy vazifasi o'qitishning, oliy kadrlar tayyorlashning va ilmiy tadqiqotlar oliy darajasini mustahkamlash, shuningdek, jamiyatga xizmat qilishdan iborat bo'lishi kerak.

Jahonda ta'limni boshqarishning ikki tizimi shakllangan: markazlashgan va markazlashmagan.

Boshqarishning markazlashgan tizimi Frantsiya va Sobiq Ittifoqda yaqqol namoyon bo'lgan. Mazkur tizimga muvofiq ta'lim dasturlari va o'quv rejalari, pedagog kadrlarni tayinlash, ko'chirish va ishdan bo'shatish, ta'lim muassasasidagi tartib va shu kabilar. Maorif vazirligining me'yoriy hujjatlari, qarorlari, buyruqlari, farmoyishlari va yo'riqnomalari bilan qat'iy

chegaralangan. Shundan markazlashgan boshqaruv muayyan vaqtgacha frantsuz ta'lim tizimining afzalligi bo'lib kelgan. Biroq ta'lim muassasalarining miqdori oshishi bilan boshqaruv tizimi sezilarli darajada kengayadi va xodimlarning tashabbusini cheklab qo'yadi. Shuning uchun hozirgi paytda bu tizim ta'lim muassasalariga erkinlik berish, markazlashishdan chetlashish tomon qayta qurilmoqda.

Markazlashmagan boshqaruv tizimi, AQSH, Angliya, Germaniya va boshqa taraqqiy etgan mamlakatlarda barqaror shakllangan. Bu tizim ta'lim muassasalariga keng muhtoriyat berishni ko'zda tutadi.

Germaniyada ta'lim tizimi har bir federal yer tasarrufidadir. Biroq federal yerlar o'rtasida ta'limning turlarini uyg'unlashtirishni ta'minlash uchun federal organ – Yer ta'lim va madaniyat vazirlari konferentsiyasi mavjud, u ta'lim siyosati bo'yicha kelishuv tavsiyalarini ishlab chiqadi.

Ta'lim, fan, tadqiqotlar va texnologiya federal vazir siymosida federal hukumat quyidagilarga javobgardir:

- kasb ta'limi tizimidagi bir xillikka (OTMlar uchun tartibga soluvchi qonunchilik: ta'lim muddati, o'qishga ruhsat berish, diplomlar va b.);
- ta'limdagi moddiy ta'minotga, ayniqsa moddiy kam ta'minlanganlarga yordam;
- ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalarini moliyalash;
- xalqaro hamkorlik.

Germaniya OTMlari o'quv jarayonini tashkil etish va ta'minlash borasida keng muhtoriyatga ega. Fanlar ro'yxatini va ular mehnattalabliligini belgilovchi rejalar asosida professorlar o'quv mashg'ulotlari va fan mazmunining tuzilishini o'zlari belgilaydilar.

AQSHda ta'lim muassasalari faoliyatiga maktablar okrugiga ajraluvchi Shtatlar tomonidan amalga oshiriladi. Okrugga Qo'mita boshchilik qiladi, odatda, biznesmenlar ziyolilarning barcha – o'qituvchilarni ishga olish va bo'shatish, ularning maoshi, byudjet, darsliklarni tanlash va tavsiya qilish va b. masalalarni hal etish uning vazifasiga kiradi.

AQSHda ta'lim muassasalari keng muhtoriyatga va boshqaruv idoralarida muayyan darajada mustaqillikka ega. Shunga ko'ra ular ta'lim dasturlari tavsifi va sifatiga ko'ra bir-biridan sezilarli farq qiladi.

Shunga ko'ra ta'lim sifati tayanch darajasini ta'minlash uchun ta'lim muassasalarini akkreditatsiyalashdan keng foydalaniladi. Bu ta'lim

muassasalarini, foydalanilayotgan ta'lim dasturlarini hukumatga aloqasiz, ekspert tekshiruvi va nazoratini amalga oshirish vositasidir.

8.6. Kadrlar tayyorlashning milliy modeli va DTS ishlab chiqish tamoyillari

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsni shakllantiruvchi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda oldinda borishlik uchun zarur sharoitlar yaratadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi ko'pgina tomonlarini belgilovchi muhim unsurlaridan biri Davlat ta'lim standarti (DTS)dir. U ko'p o'lchovli yo'riqnoma bo'lib, yo'nalish (bakalavriat) yoki mutaxassislik (magistratura) umumiy tavsifi, ta'lim-kasbiy programma tayyorlash, uning tuzilishi va mazmuni, joriy etilishi, kadrlar tayyorlash sifatining nazorati va h.k. talabni o'zida aks ettiradi.

Ta'lim standarti ta'limning maqsadi, qimmatini, uning mazmuni va natijasi (tayyorlov darajasiga bo'lgan talab), ta'lim-tarbiya programmaviy xususiyati, ta'lim jarayonining tuzilish tarxi, uning maqsadga erishish darajasini bosqichma-bosqich va yakuniy diagnostikasiga mo'ljallangan ko'lam hamda vaqtini, ta'lim va ma'lumotlilik darajasini belgilaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq DTS ishlab chiqish tamoyillarining asosiylari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- gumanitarlash va insonparvarlash;
- nazariylashtirish (fundamentalizatsiya);
- umumta'limiy va kasbiy tayyorlov;
- ta'lim-kasbiy programma dolzarbligi;
- talabalarning akademik zarbdorligi;
- fanlar qismlari va guruhlarining uyg'unligi;
- mustaqil davom ettirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- sifatning ko'p bosqichli nazorati.

Innovation iqtisodiyotni shakllantirishda 2019 yil oktyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" muhim me'yoriy hujjatdir. Mazkur konsepsiya 4 bob va 9 paragrafdan iborat:

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Oliy ta'lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar

3-bob. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari

4-bob. Kontseptsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

Kadrlarni oldindan tayyorlash, oqibatda, mamlakat iqtisodiy raqobatbardoshligini, mutaxassislarning hozirgi va kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga samarali moslashib ketishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Oldindan tayyorlashni ta'minlash uchun DTSning barcha tarkibiy unsurlari fan, texnika, texnologiya, iqtisod, ta'lim va boshqalarning yutuqlarini hisobga olgan holda yo'nalishlarni yoki ixtisosliklarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi zarur.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Innovatsion iqtisodiyotdagi kadrlar salohiyati samaradorligini belgilovchi omillar qaysilar?
2. Innovatsiyalar uchun intellektual salohiyatning ahamiyati qanday?
3. Kadrlarni boshqarishga yondashuvlar qanday rivojlangan?
4. Inson resurslarini boshqarish kontseptsiyasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. Kadrlarni boshqarish strategiyasining mohiyati nimadan iborat?
6. Inson omili strategiyasi mohiyati nimadan iborat?
7. Kadrlar qanday tanlanadi? Innovasion loyihalar uchunchi?
8. Baholash va vazifalarga tayinlash qanday tizimga ega?
9. Korxonada inson omilini baholash qanday kechadi?
10. Innovasion loyihalar moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning ahamiyati qanday?
11. Innovasion loyiha uchun samarali guruh qanday tuziladi?
12. Innovatsion sohada personalni boshqarish qanday xususiyatlarga ega?
13. Innovatsion sohada kadrlar qanday mezonlarga ko'ra baholanadi?

7-amaliy mashg'ulot


Topshiriq.

O'zingizni menenjer sifatida tasavvur qiling. Muvaffaqiyatga erishgan innovatsion menejment strategiyalariga misollar keltiring. Menenjer sifatida Siz qaysi strategiyani tanlagan bo'ladingiz va nima uchun?

IX BOB. INNOVATSION LOYIHANI AMALGA OSHIRISH: START-APDAN KORPORATSIYAGACHA

9.1. Start-aplarning nazariyasi

Start-ap tushunchasi ingliz tilidan olingan bo'lib, yangi ish boshlayotgan degan ma'noni bildiradi. Bu tushuncha 1-marta 1973 yilda Forbes va 1973 yilning avgustida Business Week jurnallarida qo'llanilgan. Start-ap kompaniya qisqa muddatli tarixga ega bo'lgan tezkorlik bilan o'z faoliyatini boshlagan kompaniyadir. Jahon amaliyotida start-aplar 90 yillardan boshlab keng yoyila boshlandi.



26-rasm. Start-ap loyihaning boshlanishi

Iste'molchilar rivojlanishi (ing. *Customer development*) ning asoschisi amerikalik tadbirkor Stiven Blank start-aplarni qayta ishlashga va keng ko'lamdagi biznes-modelga aylana oladigan vaqtinchalik tuzilmalar sifatida qaraydi.

Tadbirkorlikda kreativ yondoshuvlar yaratuvchisi ideolog Erik Ris start-aplarni yuqori noaniqlik sharoitida yangi mahsulot va xizmatni yaratuvchi kompaniyalar deb nomlaydi. Tadbirkor, venchur kapitalist Y biznes-akseleratorining asoschisi Pol Grem tez o'sish sur'atlari (tayanch ko'rsatkich bo'yicha haftasiga 4-7%) start-aplarning asosiy xarakteristikasi deb e'tirof etadi. Xuddi shu fikrga PayPal kompaniyasining asoschilaridan biri, Facebookning birinchi investori Piter Til ham qo'shiladi. Shuningdek, Pol Grem texnologik innovatsiyalar va venchurli moliyalashtirishning mavjudligi ahamiyatli emasligini, kichik yosh kompaniyani start-ap qila olmasligini ta'kidlaydi.



27-rasm. Start-ap reytingida qatnashuvchi kompaniyalarning mezonlari

Texnologik kompaniyalar tushunchasining keng qo'llanilishi barqaror o'sishni ta'minlashda texnologiyalarning rolini ifodalasada, start-aplarning majburiy xarakteristikasiga aylana olmaydi.



28-rasm. Start-aplarning kompaniyaga aylanish bosqichlari (Stiven Blank «Gullab-yashnashga to'rt qadam» kitobidan)

Iste'molchilarni paydo bo'lishi – bunda start-aplar ular tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar potentsial mijozlarning qanday muammolarini hal qila olishiga qaratilgan gipoteza shakllantiriladi.

Iste'molchilarning verifikatsiyasi – bunda gipoteza tekshiriladi va sotish, marketing strategiyasi rejasi tayyorlanadi. Agar ushbu bosqich muvaffaqiyatsiz tugallansa yana 1-bosqichga qaytiladi.

Iste'molchilarni jalb qilishga kompaniya tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotning foydaliligi tasdiqlangandan so'ng o'tiladi. Bunda start-up mahsulotni sotish va marketingni investitsiyalashga o'tadi.

Kompaniyani yaratish – start-upning yakuniy maqsadi bo'lib, kompaniyaning rasmiy tuzilmasi va uning kelajakda rivojlanish biznes-jarayonlari yaratiladi.

Start-aplarni moliyalashtirish

Venchurli investitsiyalash amaliyoti start-aplarni moliyalashtirishning bir necha bosqichlardan iboratligini ko'rsatadi. Har bir bosqichda kompaniya o'sishni ta'minlash va investitsiyalarning navbatdagi raundiga o'tish uchun yetarli bo'lgan mablag'ni jalb etadi. Investor o'zining kompaniya kapitali ulushidagi qiymatni ortishidan daromad olar ekan, kompaniyaning investitsion raundlar oralig'ida qisqa o'sish ro'y berib, ushbu holat start-upni yangi investor uchun jozibadorligini orttiradi.

Moliyalashtirish bosqichlariga oid yondashuvlar Pol Gremning "Start-aplar qanday moliyalashtiriladi" esesida keltirilgan.

➤ ***Urug'lik investitsiyalar*** – mablag'larni jalb etishning 1-bosqichi bo'lib, ko'pchilik hollarda start-upning asoschilari, ularning qarindoshlari yoki do'stlari investor sifatida maydonga chiqadi. Ingliz tilida aksariyat start-aplarni 1-investorlarini ifodalovchi 3 F (friends, family and fools) qisqartmasi mavjud.

➤ Boshlang'ich mablag'lar komandaning yashashi, biznes-rejani ishlab chiqish va bo'lajak mahsulotni prototipini yaratish xarajatlarini qoplaydi.

➤ Istisno hollardagina urug'lik investor sifatida venchur fondlar gavdalanadi, investitsiya summasi esa ketma-ketlikda ortib boradi.

➤ Angel (farishta) investitsiyalar – xususiy investorlar tomonidan kiritilib, ular kompaniyani rivojlantirishda qatnashishdan manfaatdor bo'ladilar. Kompaniya kapitaliga kiruvchi biznes angel' direktorlar kengashidan o'rin oladi va o'zi noma'qul deb bilgan kompaniya asoschilarining qarorlarni bloklash imkoniyatiga ega. Mazkur bosqichda start-up shtatlarni kengaytirish, mahsulotning dastlabki versiyasi ustidagi ishlarni yakunlash va birinchi mijozlarni jalb etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

➤ «A» raund – kompaniyaga ishlashga layoqatli mahsulot, mijozlar va rivojlanish rejalari bilan venchur fondlarining mablag'larini jalb etish. Investitsiya summasi avvalgi olingan summaga nisbatan ancha yuqori

bo‘ladi va start-up o‘zining rasmiy strukturasi qurishni hamda kengayishni boshlaydi. «A» raunddan keyin «B», «C» va keyingi raundlar bo‘lishi mumkin (lotin alifbosida belgilanadi).

Start-aplarni moliyalashtirish bosqichlari

Pol Grem tomonidan yozilgan essedagi ketma-ketlik shartli bo‘lib, namuna sifatida xizmat qiladi. Boshqa mualliflarning ishlari bu modelni yanada to‘ldiradi. Jumladan, Kaliforniya kolledjidagi tadbirkorlikdagi moliya bo‘yicha professor va yozuvchi Devid Nьyuton zayom mablag‘larini jalb etish, sh.j. oraliq kreditlash (bridj-kredit deb ham ataladi) start-aplarning joriy majburiyatlarini bajarishda alohida bosqich sifatida ajratib ko‘rsatadi. Moliyalashtirishni jalb etishning yana bir bosqichi birinchi ommaviy taklif hisoblanadi, IPO – kompaniyaning aksiyalarini birjada joylashtirish. IPOga chiqish start-aplarning so‘nggi rivojlanish bosqichidagi asosiy maqsad hisoblanadi.

9.2. O‘zbekistonda start-ap biznes

Innovatsion loyiha – yangi ishlanmalar yaratish uchun bajarish muddatlarini, ijrochilarni, moliyalashtirish manbalarini va tegishli infratuzilmani shakllantirishni nazarda tutuvchi tadbirlar majmuidir.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda turli sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar qatorida innovatsion tadbirkorlik, venchur va startap ekotizimini rivojlantirish sohasida ham tub ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

Innovatsion g‘oyalar, startaplar, venchur loyihalarni moliyalashtirish tizimini shakllantirish va takomillashtirishga, ilmiy tadqiqotlar natijasini ishlab chiqarishga tatbiq etish sur‘atlarini oshirishga qaratilgan qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

2018 yilning 24 noyabrida “Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilingan. Mazkur qaror bilan investitsiyalarni, xususan xorijiy sarmoyalarni samarali jalb qilish maqsadida investitsion va boshqaruv kompaniyalarini tashkil qilish amaliyotini kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Ta‘kidlash joizki, yuqori texnologiyalarga asoslangan tadbirkorlik startap loyihalarini moliyalashtirishda hissasi bo‘lgan venchur kompaniyalari

2023 yilning 1 yanvariga qadar yagona ijtimoiy to'lovdan tashqari barcha turdagi soliqlar va majburiy to'lovlardan ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019 yilning 17 may kuni tasdiqlangan "Investitsiya va boshqaruv kompaniyalari faoliyati" to'g'risidagi Nizom investitsiya va boshqaruv kompaniyalarining maqsadi, vazifalari, tamoyillari, faoliyat turlari va monitoringini amalga oshirish tartibini belgilaydi, shuningdek, ushbu kompaniyalarning venchur moliyalashtirish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi.

O'zbekistonda venchur ekotizimini rivojlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan tadbirkorlik sub'yektlarining xabardorligini oshirish va biznes vakillarining mazkur jarayonda ishtirokini kengaytirish bo'yicha maqsadli siyosat olib borilmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida 2019 yildan buyon respublikamizda innovatsion va startap loyihalarini moliyalashtiruvchi investitsion kompaniyalar va venchur fondlarini yaratish va tashkil etish sohasida qator ishlar olib borildi.

Bugungi kunga kelib innovatsion faoliyatni moliyalashtiruvchi 10 taga yaqin kompaniya tashkil etilgan bo'lib, "ASTRON FUND ADVISORS" venchur jamg'armasi shular jumlasidandir. Jamg'arma mablag'larni qaytarish bo'yicha yuqori salohiyatga va O'zbekiston iqtisodiyotiga ijobiy hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'lgan istiqbolli loyihalarga dastlabki bosqichlarda investitsiya kiritish orqali moliyaviy ko'mak beradi va mentorlik qiladi.

Bugungi kunga kelib, "ASTRON FUND ADVISORS" venchur jamg'armasi tomonidan tanlab olingan loyihalar doirasida uchta investitsiya kelishuvi imzolandi³⁸.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va U-Report hamkorlikda startaplar bo'yicha so'rov o'tkazishdi. Maqsad esa yoshlarning Start-up (startap) loyihalari haqidagi tushunchalarini o'rganish, qaysi sohada o'zlarining Start-up loyihalarini rivojlantirishni xohlashlari va startap-loyihalar mamlakatdagi innovatsiyalar va iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'siri haqidagi fikrlarini o'rganish bo'lib, so'rovda mamlakat bo'ylab 8800 dan ortiq respondentlar qatnashdi.

³⁸ <https://mininnovation.uz/uz/news/17-01-2020-startap-loyiha>


So‘rov natijalari Innovatsiya vazirligiga Start-up harakatlarini va intellektual mulk bozorini rivojlantirish, yoshlarning o‘z g‘oyalarini bozorda targ‘ib qilishda hayotiy pozitsiyalarini yaxshilash uchun zarur.

Start-up loyihalari haqidagi so‘rovning asosiy natijalari:

1. Respondentlarning 68%i startap loyihalari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega emaslar, ularning 22%i javob berishga qiynalayotganliklarini aytishdi, qolganlari esa startap mezonlariga javob bermaydigan turli xil variantlarni tanladi.
2. Respondentlarning deyarli yarmi (48%) O‘zbekistonda juda kam bo‘lsa-da, muvaffaqiyatli startap loyihalari mavjud deb hisoblashadi.
3. Respondentlarning 81%i o‘z startaplarini ochishni xohlashadi (ularning 23%i nimadan boshlashni bilmaganliklari uchun buni amalga oshirolmagan).
4. Respondentlarning deyarli yarmi (jinsidan qat‘iy nazar o‘rtacha 48%i) O‘zbekistonda startap loyihalarini yaratish uchun faqat qisman sharoitlar yaratilgan deb hisoblashadi.
5. Respondentlarning fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda startaplarning rivojlanishidagi asosiy to‘siqlar quyidagilar: (1) startap nima ekanligini bilmaslik (24%), (2) qog‘oz byurokrtiyasining ko‘pligi (22%) va (3) mamlakatda startaplarni yuritish va rivojlantirish bo‘yicha yoshlarda bilim va/yoki ko‘nikmalar yetishmasligi.
6. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun quyidagi uchta asosiy yo‘nalishda startap loyihalarini amalga oshirish zarur: ta‘lim (35%), IT / telekommunikatsiyalar (24%) va sog‘liqni saqlash (7%).
7. U-Reportyorlarning fikricha, mamlakatda muvaffaqiyatli startap loyihalarini ko‘paytirish uchun moliyaviy yordam (24%), ta‘lim tizimini takomillashtirish (19%) va startaplar bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil qilish (18%) kerak.
8. U-Reportyorlarning aksariyati (68%) "Biznes / tadbirkorlik asoslari" fanini maktablar / universitetlarning o‘quv dasturlariga kiritish kerak deb hisoblashadi³⁹.

³⁹ <https://mininnovation.uz/oz/news/1809>

Sizningcha, Start-up (startap) loyiha bu nima?




Источники: U-Report Uzbekistan • Создано с помощью Datawrapper

29-rasm. Start-ap loyiha mazmuni

Faqat 32% respondentlarning fikriga ko'ra, Start-up (startap) bu **innovatsion biznes**. So'rovda ishtirok etganlarning 1/5 qismi startap deb kichik biznesni hisoblashadi va 12%i uchun startap – bu har qanday yangi kompaniya hisoblanat ekan. Shu bilan birga, respondentlarning 22%i bu savolga javob berishga qiynalayotganini aytishdi.

Sizningcha, MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH uchun birinchi navbatda qaysi sohada start-up loyihalarini rivojlantirish kerak?



Источники: U-Report Uzbekistan • Создано с помощью Datawrapper

30-rasm. Start-ap loyihalarni rivojlantirish sohalari


Respondentlarning fikriga ko‘ra, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga birinchi navbatda yordam beradigan startap loyihalari uchta asosiy yo‘nalishda bo‘lishi kerak: ta‘lim (35%), IT / telekommunikatsiyalar (24%) va sog‘liqni saqlash (7%).

Qizig‘i shundaki, ayol respondentlar (40%) erkaklar (32%) bilan solishtirganda ta‘lim sohasida startaplarni rivojlantirishga ko‘proq e‘tibor berishadi; axborot texnologiyalari sohasida esa startaplarga ayollar (16%) erkaklarga (28%) nisbatan kam ahamiyat berishadi. Shu bilan birga, ayollarning 11%i va erkaklarning atigi 5%i tibbiyot sohasida startaplarni rivojlantirish zarur deb hisoblashadi.

Respondentlarning fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda startaplarni rivojlantirishdagi asosiy to‘siqlar: (31-rasm.)

- startaplar nimaligini bilmaslik va startaplar haqida xabardorlikni sustligi (24%),
- ikkinchi o‘rinda ortiqcha qog‘ozbozlik va byurokratiya (22%);
- uchinchi katta to‘siq bu mamlakatda startaplarni olib borish va rivojlantirish bo‘yicha yoshlarning bilimlari/ko‘nikmalari yo‘qligi (11%).

Sizningcha, mamlakatimizda startaplarning rivojlanishidagi eng katta to‘siq nima?



31-rasm. Start-ap loyihalarni rivojlanishidagi to‘siqlar

Respondentlarning atigi 3% mamlakatda startaplarni rivojlantirish uchun hech qanday to‘siqlar yo‘q deb hisoblashadi.

“Boshqa” variantini tanlagan respondentlarning 5%i o‘zlarining shaxsiy javoblarida mamlakatda startaplarning rivojlanishiga xalaqit beradigan quyidagi sabablarni yozishgan:

1. Yuqorida keltirilgan barcha javoblar;
2. Kasb tanlashga nisbatan ota-onalar tomonidan qo‘yilgan qat‘iy talablar;
3. Yoshlarning startaplarga qiziqishi yo‘qligi;
4. Yoshlarga startaplarni yaratish va boshqarish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatadigan xodimlarning yetishmasligi, startap-inkubatorlarning yo‘qligi /yetishmasligi;
5. Mahalliy aholining xarid qobiliyati pastligi, startaplar ishlab chiqadigan mahsulotlar yoki xizmatlarga bozor va talabning mavjud emasligi;
6. Korruptsiya, ijro hokimiyati vakillarining aralashuvi, "himoyaga olish", byurokratiya, Toshkent shahri misolida ba’zi qonunlarning qabul qilinishi, shahar va qishloq o‘rtasidagi tafovut;
7. Mahalliy hokimiyat qarorlarni bajarmasligi, qonunlar va ularning ijrosi o‘rtasidagi tafovut, adolatning yo‘qligi, demokratik institutlarning rivojlanmaganligi;
8. Investirlarning haddan tashqari yuqori foiz qo‘yishlari, potensial investorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish joylarining yo‘qligi, boshlang‘ich kapitalga investitsiya kiritishga tayyor bo‘lgan sarmoyadorlar to‘g‘risida ma’lumotlarning yo‘qligi, investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asosini va xarajatlar smetasini tayyorlash uchun standart bazaning yo‘qligi, investitsiya jarayonining shaffofligini ta’minlash zaruriyati;
9. Soliq yuki;
10. Startup biznes uchun yangi g‘oyalarni ishlab chiqish imkoniyatini bermaydigan biznes sohasida monopoliya va oligopoliya kuchi;
11. Yaxshi boshlang‘ich g‘oya o‘g‘irlanib ketishidan qo‘rqish, g‘oyalarni plagiat qilinishi, rivojlanmagan patent tizimidan qo‘rquv;
12. Xokimiyat tomonidan tadbirkorlik subyektlariga yer ajratmaslik;
13. Asosiy infratuzilma (elektr, Internet va boshqalar) bilan bog‘liq muammolar;
14. Ommaviy axborot vositalarida ushbu sohaning kam yoritilishi;

15. Ishonchli rasmiy statistikaning yo‘qligi, rasmiy ma’lumotlarni topish qiyinligi, tegishli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyati yo‘qligi.⁴⁰

O‘zbekistondagi start-ap loyihalarga misollar⁴¹:

Kavar (cho‘chqa tarvuz) ekish loyihasi. Dunyoda kavarning 400 dan ortiq turi bor. Ammo ularning hammasi ham hosil bermaydi. Loyihadagi kavarlar Germaniya va Turkiyada laboratoriyada tekshirilgan bo‘lib, dunyodagi eng oliy nav deb tan olingan. Kavarni qayta ishlovchi tadbirkorlar bilan hamkorlikka chorlanib, aholining doimiy ish bilan bandligini ta’minlashga qaratilgan.

Industrial telefon aloqa tizimlari. Ushbu loyiha Hong Kong Koon Technology Ltd. Kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan. Ularning asosiy mahsulotlari: suv o‘tmaydigan telefonlar, suv o‘tmaydigan baland so‘zlashgichlar, banklar uchun telefonlar, tunnellar uchun tezkor aloqa telefonlari, liftlar uchun telefonlar, qamoqxonalar uchun telefonlar.

Ulardan metroda, temir yo‘lda, katta yo‘llar yoqasidagi budkalarda, tunnellarda, elektr stantsiyalarida, neft mahsulotlarini qayta ishlash zavodlarida, shaxtalarda, kema qurish yoki ta’mirlash zavodlari hamda temir va po‘lat ishlab chiqarish zavodlari hududlarida va boshqa murakkab hududlarda foydalanish mumkin.

E‘lonlarni yopishtirib chiqish biznesi. Ma’lumki, e‘lonlarni yopishtirib chiquvchilarga ehtiyoj doim bor, chunki axborotni aynan shu yo‘l bilan tarqatishga ehtiyoj ham doim bo‘lgan. Ushbu ishni bajarish uchun o‘smirlar, talabalar va pensionerlarni jalb qilish mumkin. E‘lon yopishtirib chiquvchilarning ishini samarali tashkil etish usuli ishlab chiqilgan bo‘lib, qo‘l stanoki bilan birgalikda bu usul ish unumdorligini oshirish imkonini beradi.

Ushbu yo‘nalishda biznes tashkil etishni va o‘z shahrida monopolist bo‘lishni istaganlar uchun sinovdan o‘tgan kontseptsiya taklif etiladi.

“Quyoshli palov” loyihasi. “Quyoshli palov” aktsiyasini o‘tkazish: G‘oya shundan iboratki, quyosh nurida katta qozonda milliy palov pishiriladi va keyin barcha ushbu palovni tatib ko‘radi. Bundan tashqari, idish-tovoq yuvish va choy damlash uchun quyosh nurida suv qaynatiladi. Palov pishirish marosimi ommaviy bayram va sayl tarzida o‘tadi. Konstruktsiyalarni ishlab chiqarish, gelioqozon, samovar tayyorlash,

⁴⁰ <https://mininnovation.uz/oz/news/1809>

⁴¹ http://bizplan.uz/business_idea/169

tomoshani tashkil etish uchun 30 mln. so‘m miqdorida sarmoya zarur. Natijalar ijobiy baholansa, bunday konstruktsiyalarni ommaviy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish mumkin.

9.3. SKOLKOVO: Dunyoni o‘zgartirayotgan biznes maktabi



32-rasm. SKOLKOVO biznes maktabining tashqi ko‘rinishi

Moskva shahrida joylashgan “SKOLKOVO” xususiy biznes maktabiga 2006 yilda asos solingan. Uning Vasiylik kengashini Rossiya Federasiyasi Bosh vaziri Dmitriy Medvedev boshqaradi. SKOLKOVO RF va MDHdagi eng yirik xususiy biznes maktabi bo‘lib, biznes hamjamiyatiga ta’lim dasturlarini amalga oshirish orqali o‘zgarishlarga moslashishda samarali ko‘mak berib keladi. Uning ta’lim dasturlari biznesning barcha bosqichlari – startapdan to xalqaro bozorlarga chiquvchi yirik korporatsiyagacha bo‘lgan rivojlantirish dasturlarini o‘z ichiga oladi. Dasturlar nazariy bloklar, amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari hamda xalqaro modullarni o‘zida jamlagan. O‘zbekistonning qator ishbilarmonlari ushbu biznes maktabda ta’lim olib, o‘z bilimlarini boyitib kelishgan.

- SKOLKOVO biznes maktabi – Ishbilarmonlar hamjamiyati tashabbusi bilan 2006 yilda tashkil etilgan MDHdagi yetakchi xususiy biznes maktablaridan biri.
- SKOLKOVO Moskva boshqaruv maktabi ta'lim tizimi o'zida biznesning barcha rivojlanish bosqichlari (startapdan xalqaro bozorlarga chiquvchi yirik korporatsiyagacha) uchun dasturlarni qamrab olgan.
- Barcha dasturlar amaliyotda o'rgatish printsipi bo'yicha qurilgan va o'zida nazariya bloklari, amaliy topshiriqlar, loyiha ishi va xalqaro modullarni jamlagan.
- Maktab jahon darajasidagi boshqaruvchilarni, davlat hukumati vakillari, tadbirkorlarni birlashtirgan va noaniq sharoitda biznes tashabbuslarni rivojlantirishga yordam beradi.

Maktabning maqsadlari:

- – Omadlilarga yanada omadli bo'lishga ko'maklashish;
- – O'zgaralar oladigan va mamlakatni hamda dunyoni o'zgartiralar oladigan shaxslarni tayyorlash.

Maktab printsiplari:

- Dunyoga ochiqlik;
- Rossiya biznesini dunyo hamjamiyatiga olib chiqish va biznes maktab tinglovchilarida dunyoni global ko'rishni rivojlantirish;
- Ishbilarmonlik yetakchiligi.
- O'zgarishlarning keng ko'lamdagi islohotlarni boshqarish, trendlarni oldindan ko'ra biladigan befarq bo'lmagan va faol yetakchilarni tarbiyalash.
- Uzluksiz rivojlanish.
- Shaxsiy salohiyatni maksimal darajada ochilishiga imkon beruvchi sharoitlarni yaratish va tinglovchining intellektual qobiliyatini rivojlantirish.
- Sheriklik hamkorlikning shakli sifatida.
- Erishilgan natijalar uchun mas'uliyat madaniyatini rivojlantirish va atrof-muhitni birgalikda o'zgartirishdan iborat.

Bugungi kunda ham SKOLKOVO biznes maktabida ta'lim olayotgan o'zbekistonli yosh tadbirkorlar ham ko'p.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Innovatsion start-ap uchun komandaning ta'rifi va tuzilishi qanday?
2. Start-aplarning zarurligi nimalarda ko'rinadi?
3. Komanda qanday turlari bor?
4. Kompaniyaning rivojlanish davrida komandaning dinamikasi qanday bo'ladi?
5. Innovatsion loyiha komandasining shakllanish, saqlab turish, rag'batlantirish va rivojlantirish tamoyillarini bilasizmi?
6. Komandaning istiqbolda korporasiyaga aylanishi qanday kechadi?
7. O'zbekistonda start-ap biznes qanday rivojlanmoqda?
8. SKOLKOVO innovatsion biznes maktabi haqida nimalarni bilasiz?

9-amaliy mashg'ulot

Topshiriq.

Faraz qiling: Siz jamoa liderisiz. Siz faoliyat olib borayotgan firma yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish arafasida. Innovatsion, start-ap loyihangiz mavjud. Mazkur loyihani amalga oshirishda kerakli kadrlarni qanday tanlaysiz? Javobingizni misollar bilan yoriting.

X BOB. INNOVATSION FAOLIYATNI MOLİYALASHTIRISH

10.1. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning tamoyillari va vazifalari

Jahon globallashuvi jarayonida kuchli raqobat har sohada yangilikka undaydi. Fan-texnika va texnologiya sohalaridagi eng soʻnggi yutuqlar, kashfiyotlar, yangiliklar, ratsionalizatorlik takliflarni ishlab chiqish va xizmat koʻrsatish sohalariga shiddat bilan kiritilib boriladi va marketing, boshqaruv, ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish sohalarida yangi yondashuv, yangi texnologiya, texnikalarni qoʻllashni talab qiladi va texnologiyalarni yangi avlodini qoʻllash asosida investisiyalashni talab etadi.

Kichik raqobat muhitida innovatsiya tushunchasi mavjud ishlab chiqariladigan mahsulotni yangi maxsus turlarga almashtiruvchi, uning oʻrnini bosuvchi yangi mahsulotni ishlab chiqarishni anglatadi. Kuchli raqobat muhitida esa yangi texnika va texnologiyalarni qoʻllash asosida yangi mahsulotni, yangi bozorga olib chiqishni bildiradi⁴². Investitsiya kashfiyotlar asosida fan va texnika sohasida yangi bilimlarni qoʻllashga kiritilishini, yangi ilgʻor texnika va texnologiyalarni yaratilishini, ularni ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohalarida qoʻllanilishini, ular asosida yangi tovar va xizmatlarni yaratilishini va ular hisobiga raqobatni kuchaytirishni, yangi bozorni egallash uchun muhim asosdir.

Innovatsiya anʼanaviy va yangi ilm-fan sigʻimkorligi yuqori boʻlgan tarmoq va sohalarda iqtisodiy oʻsishni va raqobatbardoshlikni doimiy ravishda taʼminlovchi zaruriy vosita sifatida namoyon boʻladi.

Innovatsiyalarni investisiyalashda ularning ilmiy-texnik yangiligiga, amaliyotga joriy etilishiga va bozorda maʼlum isteʼmolchilar talabini qondira olishiga eʼtibor qaratiladi.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish – bu yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni loyihalashtirish, ishlab chiqish va tashkil etish, yangi texnika, texnologiya, xizmatlar, ishlarni yaratish va joriy etish, yangi boshqaruv shakllari, tashkiliy ishlanmalarni ishlab chiqish usullari va joriy etish uchun ajratilgan mablagʻlarni taʼminlash va ulardan foydalanish jarayonidir.

⁴² <https://hozir.org/moliya-va-kredit.html?page=14>

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning asosli tizimini yaratish moliyaviy resurslarni to'plash uchun sharoit yaratadi, ularni innovatsion jarayonlarning asosiy yo'nalishlariga jamlash imkoniyatini beradi.

Moliyalashtirish tizimini yaratishda quyidagi asosiy tamoyillarga tayaniladi:

1) moliyalashtirishning maqsadli yo'nalishi – uning zamonaviy ilmiy - texnikaviy ishlanmalarni tez va samarali amalga oshirish vazifasi bilan bog'liqligi;

2) moliyalashtirish manbalarining asoslanganligi va huquqiy himoyasi;

3) moliyalashtirish manbalarining ko'pligi;

4) moliyalashtirishning kengligi va murakkabligi, ya'ni texnik va texnologik yangiliklarning keng doirasini va ulardan foydalanish sohalarini maksimal darajada qamrab olish imkoniyati;

5) maksimal samaradorlikni saqlash uchun dinamik o'zgaruvchan bozor sharoitlarini hisobga olish uchun moliyalashtirish tizimi va uning alohida elementlarining moslashuvchanligi. Mahalliy va xorijiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan moliyaviy resurslarni o'z vaqtida va manzilli taqsimlanishiga bog'liq.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimi quyidagi vazifalarni hal etishga mo'ljallangan:

➤ milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida innovatsiyalarni tez va samarali amalga oshirish uchun sharoit yaratish;

➤ rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarida strategik innovatsion salohiyatni saqlash va rivojlantirish;

➤ fan va texnikaning kadrlar salohiyatini saqlab qolish, uning innovatsion sohadan chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun zarur shart - sharoitlarni yaratish.

Innovatsion sohaga investitsiyalarning sarflanishi, shu jumladan pul tushumlarini yig'ish mexanizmini, ularni maqsadli innovatsion loyihalar va dasturlarga investitsiyanganligi orqali nazorat qilinadi.

Moliyaviy nazorat quyidagilarni ta'minlash uchun mo'ljallangan:

➤ moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj va ularni mavjud manbalardan olishning real imkoniyatlari o'rtasidagi muvozanat;

➤ davlat va mahalliy byudjetlar oldidagi moliyaviy majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishi;

- korxonaning moddiy boyliklari va moliyaviy resurslarini sarflashning ratsionalligi;
- buyurtmachilar bilan pudratchilar va etkazib beruvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar amaliyotidan kelib chiqadigan muammolarni hal qilish.

Moliyaviy rentabellik o'sishining eng muhim umumlashtiruvchi ko'rsatkich bo'lib, uning asosida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish, innovatsion loyihalarni moliyaviy qo'llab – quvvatlovchi barcha sub'ektlarning faoliyati nuqtai nazaridan qo'yilgan maqsad va vazifalarning samaradorligini baholash mumkin.

Innovatsiya har qanday sohada yangilikni qo'llash bo'lib, uzluksiz jarayonni bildiradi, tizimli faoliyatni, aniq strategiyani amalga oshirishdan dalolat beradi.

Yangilikka intilish, yaratuvchanlik, kashfiyotlar va ular asosida qo'lga kiritiladigan ishlanmalar har qanday sohada resurs talab etadi.

Har qanday iqtisodning bosh bo'g'inini ishlab chiqarish tashkil etishi munosabati bilan, uni muntazam ravishda yuksaltirish, yangilanishni, ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanishni, progressiv boshqaruv usullarini qo'llashni, turli yo'nalishlarda samara keltiruvchi iqtisodiy-moliyaviy resurslarni, ya'ni investitsiyalarni kiritishni talab etadi.

Makroiqtisodiy darajada innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy tizimni takomillashtirishga qaratiladi va iqtisodiy taraqqiyotni umumiy shart-sharoitlarini yaxshilab boradi hamda iqtisodiy mexanizmlarning takomillashtirilishini ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish mukammal omillarga ega bo'lishi talab etiladi va zaruriy iqtisodiy resurslar, ya'ni investitsiyalarni talab etadi. Bunda innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy tizimning moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy va g'oyaviy-siyosiy belgilarini takomillashtirilishiga safarbar etiladi. Bunday investitsiyalar resurslar, ishlab chiqariladigan mahsulotlar, xizmatlar, mulkchilik shakllari, iqtisodiy mexanizm, intilinayotgan g'oya va siyosatning ustuvorligini ta'minlanishiga qaratiladi⁴³.

Demak, makroiqtisodiyot darajasida innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar firma (korxonalar)ning raqobatbardoshligini ta'minlash bilan

⁴³ <https://hozir.org/moliya-va-kredit.html?page=14>

bog‘liq bo‘lgan mavqeini mustahkamlash orqali, ularning samaradorligini yuksaltirish, foyda (daromadi) hajmi va me‘yorini oshirishga qaratiladi.

10.2. Korxonaning innovatsion faoliyatni moliyalashtirish

Milliy iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirishda innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish innovatsion faoliyatning muhim jihatlaridan hisoblanadi. Shu bois, sanoat korxonalaridagi mavjud moddiy-texnik bazani yangilash, ishlab chiqarish ob‘ektlarini rivojlantirish, yangi faoliyat turlarini o‘zlashtirish, ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarish, korxonalarda innovatsion muhitni yaratish, innovatsion ishlab chiqarishni rag‘batlantirish innovatsion jarayonlarni strategik boshqarishning asosiy vazifalaridan biridir.

Shu bilan birga, iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, raqobatchilikka asoslangan biznes muhitini yanada rivojlantirishda davlat tomonidan innovatsion siyosatning amalga oshirilishi muhim ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi. Chunki davlat tasarrufidan chiqarilgan va xususiylashtirilgan korxonalar negizida tashkil etilgan xo‘jalik sub‘ektlarida innovatsion jarayonlarni strategik boshqarishning ahamiyati ortib bormoqda.

Xo‘jalik yuritishning zamonaviy shart-sharoitlarida iqtisodiy o‘sishning sur‘ati va sifatini ta‘minlash, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini ta‘minlash, milliy iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlari mutanosib rivojlanishiga erishish innovatsion xarakterga ega bo‘lmog‘i lozim. Bunga erishishning birmuncha murakkabligi korxonada doim tanlov oldida turishi, ya‘ni agar yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarilmasa ertami – kechmi tanazzulga uchrashi, ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilsa yangi turdagi mahsulotlar yirik xarajatlar bilan bog‘liqligi, ya‘ni korxonada yetarli darajada moliyaviy mablag‘larga ega bo‘lishi zarur. Bu esa iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yurituvchi korxonalarining juda oz qismi – 5 foizigina mustaqil tarzda ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanishini ko‘rsatmoqda.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning oqilona tizimini yaratish orqali moliyaviy resurslarni jamlash va ularni innovatsion jarayonlarning ustuvor sohalariga yo‘naltirish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish – yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonini loyihalashtirish, tadqiq etish va tashkil qilish,

ishlanmalar va tashkiliy jarayonlarni, yangi turdagi texnika va texnologiyalarni, ish va xizmatlarni, shuningdek, boshqaruvning yangi shakl va uslublarini yaratish va joriy etishga yo‘naltirilgan pul mablag‘laridan foydalanishdir.

Korxonada innovatsion faoliyatini moliyalashtirish manbalarini ichki (o‘z mablag‘lari) va tashqi manbalarga ajratish mumkin.(33-rasm)

Ichki manbalar (o‘z mablag‘lari)	Tashqi manbalar
<ul style="list-style-type: none">• Amortizatsiya fondi• Mahsulot sotishdan tushgan tushum• Korxonada mulkini sotishdan daromadlar• Moliyaviy faoliyat daromadlari	<ul style="list-style-type: none">• Davlat byudjeti mablag‘lari• Byudjetdan tashqari mablag‘lar• Innovatsion jamg‘arma mablag‘lari• Bank kreditlari va boshqalar

33-rasm. Korxonada innovatsion faoliyatini moliyalashtirish manbalari

Innovatsion loyihaning mahsulot hayotiylik sikli barcha bosqichlarida zarur moliyaviy resurslar bilan ta‘minlanganligining yuqori darajasi bozor tomonidan mahsulot yetarli darajada qabul qilinmasligi bilan bog‘liq xatarni kamaytiradi va uning samaradorligini oshiradi. Quyidagilar innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimining elementlari hisoblanadi:

- Investitsion resurslar manbalari;
- Moliyaviy mablag‘larni jamlash va ularni innovatsion loyihalarga investitsiyalash mexanizmi;
- Investitsion resurslar samaradorligi va qarz kapitalining qaytarilishini ta‘minlashga qaratilgan boshqarish mexanizmi.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning quyidagi shakllari mavjud:

1. Korxonaning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish;
2. Bank kreditlari orqali moliyalashtirish;
3. Venchur moliyalashtirish;
4. Lizing;
5. Forfeyting;
6. Aralash moliyalashtirish va boshqalar.

Umuman olganda, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi moliyalashtirish manbalari va moliyalashtirishning tashkiliy shakllarini o‘z ichiga oladi.

Quyidagilar innovatsion faoliyatning asosiy shakllari bo‘lib hisoblanadi:

- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI);
- texnologik ishlar, ishlab chiqarishni va sanoat sinovlarini o‘tkazishni tayyorlash;
- patentlar, litsenziyalar va nou-xaular olish;
- Innovatsion faoliyatni amalga oshirish borasidagi investitsion faoliyat.

Innovatsion loyihalarni davlat tomonidan moliyalashtirish shakli asosan davlat byudjetini tashkil etuvchi Respublika va mahalliy byudjetlar mablag‘lari evaziga amalga oshiriladi. Bu jarayonda asosiy e‘tibor milliy iqtisodiyot tarmoqlarining strategik ahamiyatiga qaratiladi. Ustuvor ahamiyatga molik tarmoqlardagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish orqali xalqaro maydondagi raqobatbardoshlik ta‘minlanishi ko‘zda tutiladi. Byudjet mablag‘larining innovatsion loyihalarga ajratilishi quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- davlat maqsadli dasturlarini amalga oshirish doirasida;
- istiqbolli innovatsion loyihalarni tanlov orqali tanlab olish asosida.

Korxonaning o‘z mablag‘lari hisobiga innovatsion faoliyatni moliyalashtirish birmuncha murakkab masala hisoblanadi. Odatda kichik biznes tarkibiga kiritiluvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanish uchun yetarli darajada mablag‘lari bo‘lmaydi. Aksariyat hollarda innovatsion faoliyatni olib borish yirik korxonalar, ya‘ni aktsiyadorlik jamiyati shaklidagi korxonalarda uchraydi. Aktsiyadorlik jamiyati shaklidagi korxonada yirik hajmdagi moliyaviy mablag‘larni jamlay olish va uni aynan innovatsion faoliyatga yo‘naltirish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, bunday shakldagi korxonalarda istiqbolli innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun qo‘shimcha aktsiyalar emissiyasini amalga oshirish imkoniyatlari ham bor. Bu yo‘l bilan kredit resurslaridan foydalanish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy xarajatlar birmuncha tejab qolinadi. Qimmatli qog‘ozlarning qo‘shimcha emissiyasi miqdorini aniqlash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar e‘tiborga olinadi:

- innovatsion loyihani amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar hajmi;

- kapital va dividend miqdorining kutilayotgan o‘shish hajmi;
- aktsiyalarning joylashtirilishi natijasida emitent tomonidan olinishi kutilayotgan pul tushumlari hajmi.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo‘yicha jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari tomonidan innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda asosiy e‘tibor loyihaning o‘z-o‘zini qoplash muddatlariga qaratiladi. Aksariyat hollarda tijorat banklari innovatsion loyihaning o‘zini o‘zi qoplay olish muddatlari, uning to‘liq amalga oshirilishi muddatlaridan kamroq muddatga mo‘ljallangan loyihalarni moliyalashtirishdan manfaatdor bo‘ladilar. Bank kreditlari uchun foiz stavkalari kredit muddati, hajmi, loyihaning tavakkalchilik darajasi, qarz oluvchining moliyaviy holati va boshqa jihatlarini e‘tiborga olgan holda belgilanadi. Xorijiy davlatlarda investitsion banklar tomonidan foiz stavkasini belgilashda mavjud bazis stavkalaridan foydalaniladi (LIBOR, LIBID va FIBOR).

Innovatsion loyihalarni venchur asosida moliyalashtirishning dastlabki bosqichlardan o‘q yuqori tavakkalchilik xatari mavjud bo‘lib, investitsiyalashtirilgan jarayonlarning yakuniy natijalari amalga oshirilgandan keyin ijobiy samaraga erishilmagan taqdirda moliyalashtirilgan mablag‘lardan ajralib qolish holati kuzatilishi mumkin. Venchur kapitalining investorlari barcha mas’uliyat va moliyaviy xatarlarni tadbirkor bilan teng sheriklikda o‘z zimmlariga oladilar. Venchurli investitsiyalar odatda 5-7 yil davomida faoliyat ko‘rsatadi. Innovatsion loyihani amalga oshirishni moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlashning quyidagi bosqichlari farqlanadi:

- 1) fondni (jamg‘armani) yaratish;
- 2) kelishuvlarni amalga oshirish (shartnomalarni imzolash);
- 3) investitsiyalash;
- 4) investitsiyalashdan keyingi boshqaruv;
- 5) biznesdan chiqish jarayonini boshqarish.⁴⁴

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning yana bir muhim manbasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishdir. Davlat o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda moliyalashtirishni amalga oshiradi.

Byudjet tomonidan moliyalashtirishning 3 ta tamoyili mavjud:

1. Minimal xarajatlar bilan maksimal darajada iqtisodiy va ijtimoiy samara olish;

⁴⁴ <https://fayllar.org/innovacion-faoliyatni-moliyalashtirish-jllari.html>

2. Byudjet resurslaridan samarali foydalanish;
3. Byudjet mablag‘larining qurilish va pudratchi tashkilotlarga belgilangan rejaning bajarilishi bo‘yicha berilishi.

Minimal xarajatlar bilan maksimal darajada iqtisodiy va ijtimoiy samara olish tamoyilining mohiyati shundaki, byudjet mablag‘lari mazkur loyihaning samaradorligini ta‘minlash zarur bo‘lganda beriladi. Yangi investitsion siyosatga ko‘ra, kapital qurilishga mablag‘larni ajratish konkurs asosida amalga oshiriladi.

Byudjet resurslaridan samarali foydalanish tamoyilining xarakteri shundan iboratki, ..konkret qurilish yoki ob‘yektlarni moliyalashtirishning amalga oshirilishi joriy yilning davlat byudjeti tasdiqlanganidan so‘ng bo‘ladi va shu bilan birga resurslardan foydalanilishini nazorat qilish yo‘lga solinadi.

Byudjet mablag‘larining qurilish va pudratchi tashkilotlarga belgilangan rejaning bajarilishi bo‘yicha berilishi tamoyiliga ko‘ra, byudjet resurslari belgilangan rejaning bajarilishi uchun moliyalashtiriladi va mablag‘lar pudratchi tashkilotlarga yoki qurilish tashkilotlariga beriladi. Ushbu mablag‘larni taqsimlovchi sifatida buyurtmachi, ya‘ni investorlar bo‘y ko‘rsatishi mumkin.

Investitsiyalarni byudjetdan moliyalashtirish tartibi Investitsiyalarning byudjet tomonidan moliyalashtirilishi qaytarilmaydigan va qaytariladigan bo‘lishi mumkin.

Qaytarilmaydigan moliyalashtirish ko‘pincha ishlab chiqarish faoliyatini va yangi yo‘nalishlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Qaytariladigan moliyalashtirishga mo‘ljallangan mablag‘lar amalga oshiriladigan loyihaning tijorat samarasiga bog‘liq bo‘ladi.

Moliyalashtirish yo‘nalishlarini ochish uchun davlat Markaziy bank tomonidan Moliya Vazirligiga davlat byudjeti mablag‘lari kredit shaklida beriladi. Olingan mablag‘larni Moliya Vazirligi tijorat banklari orqali buyurtmachilar o‘rtasida taqsimlaydi. Qarz majburiyatlari to‘g‘risidagi shartnoma buyurtmachi, Moliya Vazirligi va tijorat banklari o‘rtasida tuziladi.

Kredit – bu vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini ma‘lum muddatga, haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir.

Kreditning mohiyatini tushunish uchun avvalom bor, uning tarkibi nimadan iborat ekanligini tushunib olish zarur. Kredit munosabat bo'lishi uchun uning zarur munosabatlari – kreditning ob'yekti va sub'yektini bilish zarur.

Kreditning asosiy tamoyillari

- Kreditning qaytarib berishlilik tamoyili
- Kreditning muddatliligi
- Kreditning ta'minlanganligi
- To'lovlilik tamoyili
- Kreditning maqsadliligi
- Kreditning samaradorligi

Kreditning samaradorligini ta'minlash maqsadida dunyoning rivojlangan mamlakatlari amaliyotida kreditlashning biz uchun yangi qoidasi qo'llaniladi. Bu qoida kreditlashda «5 «S» lar qoidasi» deb yuritiladi.

«5 «S» lar qoidasi» ga asosan har bir «S» bo'yicha korxonaning faoliyati tahlil qilib chiqiladi va korxonaga faoliyati talabga javob bersagina korxonaga kredit beriladi.

- **Conditions** – shartlar. Bunda iqtisodiy muhim shartlar asosida mazkur biznesni rivojlanishi nazarda tutiladi.
- **Collateral** – garov (kafolat, kafillik, sug'urta polisi, tovar moddiy boyliklar) va boshqalar
- **Character** – qarz oluvchining xarakterini baholash, hamda bozordagi obro'si;
- **Capacity** – qarz oluvchining boshlagan ishini oxiriga yetkaza olish, tegishli daromad olish, hamda bank kreditlarini qaytarib berish kobiliyati;
- **Capital** – qarz oluvchining sarmoyasini yetarliligi.

Kredit kabi muhim investisiyalashning tashqi manbalaridan biri lizing va forfeyting hisoblanadi. “Lizing” so'zi inglizcha so'z bo'lib, “Lease” fe'lidan kelib chiqqan va taxminan, “mulkni ijaraga berish” yoki “mulkni ijaraga olish” ma'nolari ifodasini bildiradi.

Ayrim mutaxassislar fikricha, lizing – asosiy fondlarga kapital qo'yilmalarni ixtisoslashgan lizing kompaniyalari vositachiligida moliyalashning o'ziga xos shakli, ular uchinchi shaxs uchun muayyan

tovarga egalik huquqini sotib oladi va uni qisqa, o'rtacha va uzoq muddatga beradi

Boshqa manbalarda qayd etilishicha, lizing – vaqtincha bo'sh turgan yoki jalb etilgan mablag'larni investitsiyaga yo'naltirishga qaratilgan alohida turdagi tadbirkorlik faoliyatidan iborat bo'lib, bunda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga binoan bir shaxs shartnomada belgilangan mulkni muayyan sotuvchidan sotib olib, uni haq evaziga boshqa shaxsga tadbirkorlik maqsadlarida vaqtincha foydalanish uchun berib qo'yish majburiyatini oladi.

Qonunchilikda lizing (moliyaviy ijara) ijara munosabatlarining alohida turi hisoblanib, unda bir tomon (lizing beruvchi) ikkinchi tomonning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tomondan (sotuvchidan) lizing shartnomasida kelishilgan mol-mulkni (lizing ob'yektini) mulk qilib sotadi va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda ma'lum haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga 12 oydan ortiq muddatga beradi.

Lizing bitimi qatnashchilari uchun afzalliklar:

- ijara vositasida kapitalga ega bo'lish;
- risksiz kapital investitsiyalarini amalga oshirish;
- mulkka manfaatli tarzda egalik qilish;
- kam mablag' yoki mablag'siz tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish

Lizingning o'ziga xosligi

Oddiy, uzoq muddatli kreditdan foydalanib, uskunalar sotib olish uchun korxonaga o'z mablag'lari hisobidan avans shaklida 15% dan kam bo'lmagan to'lovlarni amalga oshirishi kerak. Lizingda shartnoma mol-mulkning to'la qiymati miqdorida tuziladi. Lizing to'lovlari esa uskunalar yetkazib berilgandan so'ng yoki ma'lum bir muddat o'tgandan keyin amalga oshiriladi.

Lizingning salbiy tomoni

Lizing sxemasidan asosiy vositalarni yangilashni moliyalashtirishda foydalanib, korxonaga daromad solig'i to'lashda tannarxdan lizing to'lovini chegirib tashlanishi hisobiga mablag'larni tejaydi, lekin jalb qilingan qarzni lizing kompaniyasi bank kreditiga o'z foizlarini qo'shishi natijasida qimmatlashishi sababli, tashkilot xarajatlari yuqori bo'lishi mumkin.

Lizing krediti

Bank krediti kabi lizing kreditini ham o‘z vaqtida qaytarib berish va undan foydalanganlik uchun haq to‘lash kerak. Bank kreditiga ham, lizing kreditiga ham qarz olinishi asos bo‘ladi. Bank kreditini berishda ham, lizing kreditini berishda ham u yoki bu loyihani investitsiyalash qanchalik maqsadga muvofiq ekanligi haqida puxta ishlangan qaror qabul qilinadi.

Forfeyting operatsiyalari

Tijorat veksellari muomalasining rivojlanishi pirovard natijada xalqaro forfeyting operatsiyalarini yuzaga keltirdi. Bu operatsiyalar o‘tgan asrning 50-yillarning oxiri va 60-yillarning boshlarida xalqaro savdo kon’yunkturasi va tarkibidagi jiddiy o‘zgarishlar natijasida paydo bo‘ldi.

Forfeyting operatsiyasining mazmuni shundaki, bunda eksportyor tijorat vekselarini regress huquqisiz bankka sotadi. Ya’ni vekselning emitenti to‘lovga noqobil bo‘lib qolgan taqdirda ham bank eksportyorga da’vo qilish huquqiga ega bo‘lmaydi. Forfeyting operatsiyalari eksportyorga valyuta mablag‘larini mobilizatsiya qilish imkonini beradi, banklar uchun esa sezilarli daromad olish manbaidir.

Xaridorlarning kreditga olgan tovarlarining asosiy qismi ko‘pchilik hollarda veksel bilan rasmiylashtiriladi, shu sababli forfeyting operatsiyalarida oddiy va o‘tkazma tijorat vekselaridan keng foydalaniladi.

Agar importyor birinchi toifali qarzdor degan yuqori reputatsiyaga ega bo‘lmasa, unda forfeyting operatsiyasi boshqa bank kafolati bilan ta’minlanishi lozim. Aks holda, forfeytor yirik miqdorda zarar ko‘rib qolishi mumkin.

10.3. O‘zbekistonda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish

Innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etishga ko‘maklashish, tijoratlashtirish loyihalarini moliyalashtirish ishlarini kengaytirish dolzarflik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjeti hamda viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari;

- Innovatsion rivojlanishni va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi;
- innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari;
- venchur jamg'armalari;
- innovatsion faoliyat subyektlarining o'z mablag'lari;
- xalqaro grantlar, tijorat banklarining, shu jumladan chet el banklarining va xalqaro moliya institutlarining maqsadli kreditlari;
- xususiy investorlarning, shu jumladan chet ellik xususiy investorlar va boshqa homiylarning mablag'lari;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Innovatsion rivojlanishni va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi innovatsion faoliyatni rivojlantirishni moliyalashtirish maqsadida vakolatli davlat organi huzurida, yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi.

Innovatsion rivojlanishni va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining mablag'lari quyidagilarga yo'naltiriladi:

- ustav fondida davlat ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning buyurtmalariga muvofiq innovatsion faoliyatga oid tadbirlarni moliyalashtirish;
- innovatsion faoliyat subyektlari tomonidan innovatsiyalarni yaratish va ularni joriy qilishni moliyalashtirish;
- innovatsion, tajriba-konstruktorlik va startap loyihalarini tanlab olish asosida moliyalashtirish;
- ilmiy laboratoriyalarni zamonaviy yuqori texnologiyaga asoslangan asbob-uskunalar bilan jihozlash (qo'shimcha jihozlash), shuningdek zarur sarf materiallari va butlovchi qismlar bilan ta'minlash bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish;
- ilmiy faoliyat bo'yicha davlat dasturlari doirasida yaratilgan intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni (patentlarni) xorijda ro'yxatdan o'tkazish va patentni saqlab turish xarajatlarining o'rnini qoplash;
- ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining yetakchi elektron ilmiy ma'lumotlar bazalaridan erkin foydalanishni ta'minlash, shuningdek xalqaro nashrlarda ilmiy natijalarni chop etishga tayyorlash bo'yicha xarajatlarni to'lash;

➤ olimlarning yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlardagi (markazlardagi, universitetlardagi va boshqa tashkilotlardagi) ilmiy stajirovkalarini moliyalashtirish;

➤ ilmiy va innovatsion faoliyat sohasidagi jalb qilinayotgan yuqori malakali xorijlik olimlar va mutaxassislarning xarajatlarini (mehnatga haq to‘lash, transport xarajatlari va boshqalar) ular bilan tuziladigan shartnomalar (kontraktlar) asosida moliyalashtirish.

Innovatsion rivojlanishni va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining mablag‘lari quyidagilar hisobidan shakllantiriladi:

➤ kelgusi yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetini qabul qilishda belgilanadigan miqdorlarda ustav fondida 50 va undan ortiq foiz davlat ulushi bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlaridagi davlat ulushi bo‘yicha hisoblanadigan dividendlarning hamda davlat korxonalarining O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga ajratmalarining bir qismi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligiga patent bojlaridan, yig‘imlardan va soliq toifasiga kirmaydigan boshqa to‘lovlardan kelib tushadigan valyuta mablag‘larining bir qismi;

➤ O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag‘lari;

➤ xalqaro moliya tashkilotlari va institutlarining grantlari hamda kreditlari;

➤ jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik mablag‘lari;

➤ qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar.

Innovatsion rivojlanishni va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish, qayta tashkil etish hamda tugatish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari texnologiyalarni yaratish, joriy etish, ishlab chiqarish, ularning transferi va yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish maqsadida, yuridik shaxs tuzmasdan tashkil etiladi.

Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalarining mablag‘laridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

➤ innovatsion faoliyat sohasidagi tadbirlarni amalga oshirish;

- innovatsion faoliyat subyektlari tomonidan taqdim etiladigan buyurtmalarga muvofiq innovatsion loyihalarni, yangi ishlanmalarni tijoratlashtirishni va texnologiyalar transferini moliyalashtirish;
- innovatsion faoliyat subyektlarini moddiy ragʻbatlantirish, ularning ilmiy tadqiqotlarini moliyalashtirish va kadrlar malakasini oshirish, ushbu subyektlarning moddiy-texnika va ilmiy-laboratoriya bazasini mustahkamlash.

Innovatsion faoliyatni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmalari qaytarish shartlari asosida yoki begʻaraz asosda mablagʻlar ajratishi, shuningdek innovatsion faoliyat subyektlarining majburiyatlari boʻyicha kafil sifatida ish yuritishi mumkin.

Innovatsion faoliyatni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.⁴⁵

Bugungi kunda Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan tajriba-konstruktorlik, startap loyihalariga ajratilgan mablagʻlar miqdori 51,5 mlrd. soʻmni tashkil qilmoqda. 2019-2021 yillar davomida jami 63 ta startap loyiha moliyalashtirilgan.

Amalga oshirilayotgan startap loyihalarning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari kesimidagi ulushi IT-axborot texnologiyalari sohasi boʻyicha 11,5 mlrd. soʻmlik 15 ta, qishloq xoʻjaligi sohasi boʻyicha 9,5 mlrd. soʻmlik 14 ta, qurilish tarmoqlarida boʻyicha 2,9 mlrd. soʻmlik 3 ta, oziq-ovqat sanoati sohasida 3,3 mlrd. soʻmlik 5 ta, sogʻliqni saqlash sohasida 16,4 mlrd. soʻmlik 16 ta, transport va energetika tarmoqlari boʻyicha 4,9 mlrd. soʻmlik 5 ta va boshqa soha-tarmoqlar boʻyicha 3 mlrd. soʻmlik 5 ta loyihalarni tashkil qilmoqda. Shundan, 2019-2020 yillar davomida start-up loyihalarini oʻz xarajatlarini oʻzi qoplash asosida moliyalashtirish maqsadida ikki marotaba mahalliy tanlovlar hamda ikki marotaba qoʻshma Oʻzbekiston-Rossiya, Oʻzbekiston-Turkiya startap tanlovlari oʻtkazilgan. Tanlovlarga jami 700 ta loyihalar kelib tushgan. Tanlov natijalariga koʻra 34,7 mlrd. soʻmlik, 39 ta startap loyihalar moliyalashtirilgan. Shuningdek, 6,5 mlrd. soʻmlik 10 ta loyiha shartnoma shartlari toʻliq bajarilganligi va kalendar rejada belgilangan tadbirlar oʻz vaqtida amalga

⁴⁵ Oʻzbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat toʻgʻrisida”gi Qonuni 2020-yil 24-iyul, OʻRQ-630-son

oshirilganligi sababli yakunlangan va topshirish-qabul qilish dalolatnomalari rasmiylashtirilgan.

Bundan tashqari, 3,1 mlrd. soʻmlik 3 ta loyiha tashabbuskorlari tomonidan shartnomaviy majburiyatlar toʻliq bajarilmaganligi sababli vazirlikning tegishli buyruqlariga muvofiq moliyalashtirish toʻxtatilgan.

2021 yil 1 avgust holatiga jami 16,8 mlrd. soʻmlik 24 ta startap loyihalari moliyalashtirilgan.⁴⁶

Oʻzbekiston iqtisodiyotida firma (korxonalar) hayotiylikini taʼminlash, ular rivojlanishi va daromadlilikini oshirish uchun fan va texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan holda, jahon talablari darajasidagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish talab etiladi. Yangi, zamonaviy va ilgʻor texnika-texnologiyalarni qoʻllagan holda sifatli, arzon tovar va xizmatlarni tashqi bozorlarga yetkazish uchun qaratilgan investitsiyalar innovatsion investitsiyalardir. Erkin raqobat muhitida firma (korxonalar) innovatsiya strategiyasini yaxlitlikda taʼminlashga qaratilgan investitsiyalar:

- ishlab chiqarish hayotiylikini saqlab qolish;
- jamoa rivojlanish dasturini taʼminlash;
- zamonaviy boshqarish usullarini qoʻllash;
- foydani maksimallashtirish;
- jamoa faoliyatini takomillashtirish;
- yangi sohalarga kirib borish;
- manfaatlarga mos keladigan maqsadlarga erishish;
- moliyaviy holatga risk vaziyat taʼsirini kamaytirish qobiliyatiga ega boʻlish kabi vazifalarni qamrab oladi va ularni taʼminlashga qaratiladi.

2018 yil noyabr oyida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentning «Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PF-5583 sonli Farmoni⁴⁷ kuchga kirdi. Hujjat Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu farmon tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan boʻlib, unda investorlarning investitsiyaviy hissalarini tezkor va samarali jalb etish uchun boshqaruv va investitsiya kompaniyalarini tashkil etish amaliyotini kengaytirish taklif etilgan.

⁴⁶ <https://mininnovation.uz/oz/news/3416>

⁴⁷ <https://www.lex.uz/pdfs/4076948>

Boshqaruv kompaniyalari investitsiya kompaniyalari o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq ularning investitsiya kapitalini boshqarish uchun tashkil etiladi.

Investitsiya kompaniyalari boshqaruv kompaniyasi malakali investorlardan jalb etgan pul mablag'larini keyinchalik innovatsion, venchur va istiqbolli loyihalarga qo'yish uchun ularni shakllantirish va jamlash bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiradilar.

Investitsiya kompaniyalariga pul mablag'lari ko'rinishida investitsiya hissalarini qo'shadigan, shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar *malakali investorlar* deb tan olinadi. Har qanday tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxslar boshqaruv va investitsiya kompaniyasi bo'lishi mumkin, aksiyadorlik jamiyatlari bundan mustasno.

Quyidagilar boshqaruv kompaniyasining muassislari bo'la olmaydilar:

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo'lgan yuridik shaxslar;
- ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulush davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, jamoat fondlari va diniy tashkilotlar.

Investitsion hissalar

Malakali investor investitsiya kompaniyasiga investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun bergan pul mablag'lari investitsiyaviy hissa bo'lib, investitsiya kompaniyasining ustav kapitaliga hissa deb hisoblanmaydi. Bitta malakali investorning eng kam investitsiyaviy hissasi miqdori kamida 500 mln so'mni tashkil etishi kerak, u milliy valyutada va/yoki hissa kiritilgan sanadagi Markaziy bank kursi bo'yicha ekvivalentda xorijiy valyutada kiritilishi mumkin.

Investitsiya kompaniyalari va malakali investorlarga bir qator imtiyozlar va kafolatlar berilgan:

Joriy xarajatlar qoplangandan keyin investitsiya kompaniyasi daromadlarining kamida 90%i malakali investorlar o'rtasida taqsimlanadigan

bo'lsa, investitsiya kompaniyalarini yuridik shaxslardan olinadigan foyda va dividend soliqlaridan ozod qilinadi.

Malakali investorlarning investitsiya kompaniyasiga hissalarini, shuningdek malakali investorlar investitsiya hissasini qo'yish natijasida investitsiya kompaniyalaridan olgan daromadlari soliqlardan ozod qilinadi.

Malakali investorlar-norezidentlarning investitsiya kompaniyasiga investitsiya qilish natijasida olgan xorijiy valyutadagi daromadini (foydasini) repatriatsiya qilish huquqi kafolatlanadi.

Mamlakatimizda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari yanada kuchaytirildi. Bu Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi qarorida nazarda tutilgan. Hujjatga ko'ra ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha davlat buyurtmasi, startup loyihalarini tanlash va moliyalashtirish tartibi hamda Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi ilmiy-texnik kengashlar to'g'risidagi Nizomlar tasdiqlandi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmalarini shakllantirish va amalga oshirish uchun mas'uldir. Fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar shaklida bajariladigan ishlarni moliyalashtirish yo'nalishi, predmeti va hajmini belgilaydi. Loyihalarni tanlash tanlov asosida yoki tanlovdan tashqari, muqobil loyiha takliflari bo'lmagan taqdirda amalga oshiriladi.

Tanlov e'loni Innovatsion rivojlanish vazirligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilib, arizalarni ro'yxatga olish va taqdim etish shartlari ko'rsatiladi. Loyihaning har bir turi (fundamental, amaliy yoki innovatsion) aniq talablarga javob berishi kerak. Hamma uchun umumiy shart – ilmiy jamoaning o'rtacha yoshi ish boshlangan vaqtda 45 yoshdan oshmagan bo'lishi kerak.

Arizalarni qabul qilish muddatidan 15 kun ichida belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish uchun barcha taqdim etilgan loyihalar dastlabki texnik ekspertizadan o'tkaziladi. Agar natijalar ijobiy bo'lsa, ular ilmiy ekspertizaga yuboriladi. Uni ilmiy-texnik kengashlar muayyan mezonlar bo'yicha baho berish yo'li bilan amalga oshiradi. G'oliblar moliyalashtirish uchun tavsiya etiladi va Vazirlik kengashi bu haqida tegishli qaror qabul qiladi.

Davlat buyurtmasi vazirlik bilan loyiha bajaruvchisi – tegishli tashkilot o'rtasida shartnoma tuzish yo'li bilan shakllantiriladi.

Startaplar Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalari qo'llab-quvvatlash jamg'armasi orqali moliyalashtiriladi. Vazirlik yiliga kamida ikki marta ishtirok etish shartlari, mavzular va loyihalar uchun muddatlar ko'rsatilgan holda startap tanlovini e'lon qiladi. E'lon vazirlikning rasmiy saytida va zarur hollarda boshqa ommaviy axborot vositalarida joylashtiriladi.

Tanlovda tashkiliy-huquqiy shakllari va idoraviy bo'ysunishidan qat'iy nazar barcha ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy o'quv yurtlari, tajriba-konstruktorlik tashkilotlari, innovatsiya markazlari, shuningdek, xususiy kompaniya va jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin.

Startap loyihalari uch bosqichli ekspertizadan o'tkaziladi:

- texnik – loyihalarning tanlov shartlariga javob berishini tekshirish uchun dastlabki bosqichda amalga oshiriladi;
- moliya-iqtisodiy – bunda ekspertizadan muvaffaqiyatli o'tgan loyihalarning moliyaviy va iqtisodiy tomondan mukamalligi tekshiriladi;
- ilmiy-texnik kengash ekspertizasi. Ushbu bosqichda Kengash ilmiy daraja yoki tadbirkorlik tajribasiga ega ikki nafar mustaqil ekspertni tayinlaydi. Ular loyihalarni o'rganadi va tasdiqlangan mezon hamda metodologiya bo'yicha 100 ballik tizimda baholaydilar. Mutaxassislar tomonidan chiqarilgan xulosa Ilmiy-texnik kengash tomonidan muhokama qilish uchun ochiqdir.

Ekspertiza xulosa natijalari Kollegiya loyihani moliyalashtirish bo'yicha qaror qabul qilishi uchun vazirlikka yuboriladi.⁴⁸

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mohiyati namadan iborat?
2. Innovatsion kompaniyalar ustav kapitalini shakllantirish qanday xususiyatlarga ega?
3. Innovatsiyalarning turli hayot bosqichlarida moliyalashtirishning tartibi qanday?
4. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda qanday tamoyillarga amal qilinadi?
5. Davlat tomonidan innovatsion loyihalar qanday moliyalashtiriladi?
6. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalariga nimalar kiradi?

⁴⁸ <https://mininnovation.uz/uz/news/1896>

7. Davlat grantlari qanday yutib olinadi?
8. Venchur fondlar qanday tashkil etiladi va faoliyat yuritadi?
9. Moliyalashtirish darajasini aniqlashning qanday usullari bor?
10. Korxonaning o'z mablag'lari hisobidan innovatsion loyihalarni moliyalashtirish qanday tartibda amalga oshadi?
11. Joriy va kapital xarajatlar qanday nisbatda moliyalashtiriladi?
12. Ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish manbalari qaysilar?
13. O'zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish holati qanday?
14. Innovatsion loyihalarning qanday turlarini bilasiz?
15. Fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi farqlar nimadan iborat?
16. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro tashkilotlarning roli qanday?
17. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning qaysi xorij tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiq?
18. boshqaruv va investitsiya kompaniyalarining vazifalari nimadan iborat?

10-amaliy mashg'ulot

Topshiriq.

Muayyan korxonada yoki firma misolida konkret bir innovatsion loyihani moliyalashtirish amaliyotini tushuntirib bering. Bunda joriy xarajatlar va kapital xarajatlarning nisbatiga alohida e'tibor qarating.

XI BOB. INNOVATSION XATARLARNI BOSHQARISH TIZIMI

11.1. Innovatsion jarayonning xatarlari

Korxonada innovatsion jarayonni amalga oshirish yuqori xavf-xatar bilan bogʻliq. Xavf-xatar deganda, tashkilot yangi tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga, bozorda kutilgan talabni topa olmaydigan yangi uskunalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga investitsiya qilganda, shuningdek, boshqaruv innovatsiyalarini rivojlantirishga sarmoya kiritishda yuzaga keladigan yoʻqotishlar ehtimoli tushuniladi. Jumladan,

1. innovatsion loyihani notoʻgʻri tanlash xavfi;
2. innovatsion loyihani yetarli mablagʻ bilan taʼminlamaslik xavfi;
3. marketing xatarlari;
4. xoʻjalik shartnomalarini (kontraktlarni) bajarmay qolish xavfi;
5. raqobatning kuchayishi xavfi;
6. kadrlar etishmasligi xavfi;
7. innovatsion loyihaga mulk huquqini taʼminlash bilan bogʻliq xavflar.

Innovatsiya natijalarini amalda tatbiq etish bozor bosqichida amalga oshiriladi, u quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oladi: bozorga kirish, ishlab chiqarishning oʻsishi, oʻsish surʼatlari va sotishning pasayishi.

Bozorga kirish bosqichida ishlab chiqaruvchi mahsulotning sinov partiyasini ishlab chiqaradi. Kompaniya, shuningdek, yangi mahsulotlarning kichik partiyalarida bozorni aniqlash uchun bozor tadqiqotlarini oʻtkazadi. Agar bozorning javobi muvaffaqiyatli boʻlsa, tovarlarni bozorda keng miqyosda reklama qilishga tayyorgarlik boshlanadi.

Tayyorgarlik ikki asosiy yoʻnalishda olib boriladi:

1. Ishlab chiqarish hajmini keskin oshirish uchun mos imkoniyatlarni yaratish. Ushbu maqsadlar uchun ishlab chiqarishni texnik tayyorlash amalga oshiriladi va kerak boʻlganda yangi ishlab chiqarish obʻyektlari quriladi;
2. Marketing boʻlimlari orqali kuchli innovatsion kompaniya olib boriladi va savdo tarmogʻi tashkil etiladi.

Mahsulot ishlab chiqarishni boshlash, eski ishlab chiqarishni qayta yangilash yoki yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, xodimlarni oʻqitish va reklama kompaniyasini oʻtkazish katta sarmoyalarni talab qiladi. Innovatsion jarayonning ushbu bosqichida innovatsiyalarga bozor

munosabati xali noma'lum, taklif qilinayotgan tovarlarni rad etish xavfi mavjud. Shuning uchun investitsiyalar xavfli hisoblanadi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, yangi mahsulotlarni keng miqyosda ishlab chiqarish va keyinchalik texnologiyani takomillashtirish bilan bog'liq ishlarni moliyalashtirish ushbu bosqichda tadqiqotlar va ishlanmalar xarajatlaridan 6-8 baravar ko'proq. Investitsiyalarning asosiy manbai korxonalarining maxsus fondlarda to'plangan o'z mablag'lari, shuningdek, jalb qilingan mablag'lar, asosan bank kreditlari hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning o'sishi bosqichida agar bozorda yangi mahsulotning o'xshash analoglari bo'lmasa, uning narxi ma'lum vaqt davomida sun'iy ravishda oshirilishi mumkin, bu esa kompaniyaga ortiqcha daromad olish imkonini beradi. Innovatsion jarayonning ushbu bosqichida mahsulot ishlab chiqarish kengayadi. Joriy ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi kuzatiladi, bu esa narxlarning pasayishiga olib keladi. Tovarlarini sotishdan olingan daromad ko'pincha yuqori cho'qqiga chiqadi. Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu davrda foyda hajmi tovarlarning butun hayotiy sikli aylanishi davomida olingan foydaning 50-70 foizini tashkil qilishi mumkin.

Ishlab chiqarish o'sishini sekinlashtirish bosqichida asta-sekin ishlab chiqarishning o'sish sur'ati pasayib boradi. Xarajatlar tarkibida mahsulotni reklama qilish va raqobatdoshligini qo'llab-quvvatlashga sarflanadigan xarajatlarning ulushi ortib boradi. Yangi bozorlar qidiriladi. Mahsulotlarning yaxshilangan modifikatsiyalari ishlab chiqarilib, texnologik jarayonlar takomillashtiriladi.

Hozirgi vaqtda ko'plab firmalar yangi bozorda o'zlarini o'rnini qat'iy topishga harakat qilmoqdalar. Ulardan ba'zilari yangi mahsulot ishlab chiqarish uchun litsenziyaga ega bo'lsa, boshqalari mahsulotni patent qonunchiligini buzgan holda chiqaradilar. Yana boshqalari esa ishlab chiqaruvchining savdo markasi ostida ko'pincha past sifatli mahsulotni yashirin ravishda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishadi. Va nihoyat, to'rtinchi raqobatchilar patent huquqidagi mumkin bo'lgan bo'shliqlardan foydalangan holda yuqori texnik darajadagi o'xshash mahsulotlarni ishlab chiqaradilar.

Savdo pasayishi bosqichining boshlanishi, bozor ushbu mahsulot bilan to‘lib toshishni boshlagan vaqt keldi degan ma’noni anglatadi. Savdolarning barqaror pasayishi va foyda hajmining, hatto nolgacha pasayishi kuzatiladi. Retsessiya mahsulotning eskirishi bilan bir qatorda, texnologiyalarning o‘zgarishi, iste’molchilarning didi va xohishlarining o‘zgarishi tufayli, shuningdek, raqobatchilar tomonidan taklif etilayotgan ilg‘or mahsulotlar bozorida paydo bo‘lishi tufayli ro‘y beradi.

Risk uchun quyidagi belgilar xarakterli:

1. Hodisalarning to‘satdan sodir bo‘lishi;
2. Muqobil qarorlarning mavjudligi;
3. Hodisalarning ehtimolligi yoki kutilayotgan natijalarni aniqlash mumkinligi yoki ma’lum ma’noda ma’lumligi;
4. Yo‘qotishlar ehtimoligining mavjudligi;
5. Qo‘shimcha daromad olish ehtimolining mavjudligi.

Har qanday risk, albatta, moliyaviy holat bilan bog‘liq va ma’lum ma’noda daromad yoki zarar keltirishi aniq, shunga ko‘ra moliyaviy risk, nafaqat moliya bozorida vujudga kelishi kutilayotgan risklarni balki, boshqa sohalar miqyosida ajratadigan bo‘lsak ham, sug‘urta faoliyatidami, bank faoliyatidami va turli xo‘jalik faoliyatlaridagi risklarni ham moliyaviy risklar deb atasak, yanglishmagan bo‘lamiz. Shu ma’noda, moliyaviy risk deb, kutilayotgan daromadni ololmaslik yoki kutilmagan daromadga erishish ehtimolligi, xo‘jalik faoliyatda doimiy mavjud bo‘lgan hodisa hisoblanadi. Risklar keng qamrovli bo‘lib, ularning paydo bo‘lishiga turli omillar ta’siri kuzatiladi. Bu omillarni olimlar shartli ravishda 2 guruhga bo‘lishadi:

1. Ichki omillar (ya’ni ko‘p tomondan boshqarilib bo‘linadigan, korxonaning ichki tizimida sodir bo‘ladigan risklar)

2. Tashqi omillar (ya’ni, korxonaga bog‘liq bo‘lmagan holda undan tashqarida vujudga keladigan risklar) Ko‘pgina adabiyotlarda ichki risklarni tizimsiz, spekulyativ, boshqariladigan, bashoratlanadigan va boshqa, tashqi risklarni esa tizimli, sof, boshqarilmaydigan, bashoratlanmaydigan va boshqa risklar ko‘rinishda bayon etiladi. Ammo ular mohiyatan bir-birini to‘ldiradi va bir-biriga yaqin bo‘lgani uchun faqatgina ichki va tashqi risklar sifatida e’tirof etish ma’qul.(15-jadval)⁴⁹

⁴⁹ Tursunhodjayeva Sh.Z. Moliyaviy risklarning konseptual asoslari// “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. №2, aprel, 2020 yil

Moliyaviy risklarning kelib chiqish omillari

Ichki		Tashqi	
Boshqariladigan	Qisman boshqarib bo'lmaydigan	Qisman boshqariladigan	Boshqarib bo'lmaydigan
Boshqaruvdagi o'zgarishlar Boshqaruvning sustligi Shartnomalar bilan bog'liq Qonun bilmaslik Kadrlar bilan bog'liq Risk qilmaslik Axborot yetishmaslik Marketing rivojlanmaganligi Ijtimoiy samarani o'ylamaslik Innovatsion g'oyalar yetishmasligi Faoliyat sug'urtalanmaganligi Ishlab chiqarish bilan bog'liq Selektiv risklar	Mablag' kamligi O'yinlar O'g'rilik va tajovuz Texnik nosozlik Brak mahsulotlar soni Savdo bilan bog'liq Yetkazib berish bilan bog'liq	Qonunchilikdagi o'zgarishlar O'g'rilik va tajovuz Monopoliyalar Imidj tushishi bilan bog'liq Korrupsiya va ta'magirlik Hamkorlikka putur yetishi (buzilishi, tugashi, susayishi, o'zgarishi) Transport Infratuzilma rivojlanmaganligi Fond bozori bilan bog'liq	Siyosiy xatarlar Favqulotda vaziyatlar Iqtisodiy tanglik: Inflyatsiya Aholi daromadlari kamligi Raqobat nosog'lomligi Konvertatsiya

Demak, innovatsion xavf-xatar tadbirkorlik sub'ekti tomonidan bozorda kutilgan talabni topolmasligi mumkin bo'lgan yangi tovar va xizmatlarni, yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarish, kutilayotgan samarani bermaydigan boshqaruv yangiliklarini rivojlantirish uchun sarmoya kiritganda, yuzaga keladigan yo'qotish ehtimoli sifatida tavsiflanadi.

11.2. Innovatsion xatarlarning klassifikatsiyasi

Innovatsion xatarlar – innovatsion loyihalarning amalga oshirilishiga tahdid soluvchi va ularning samaradorligini pasaytiruvchi risklar yig'indisidir.

Innovatsion xatarlar to'g'ri aniqlash va boshqarish ularni muayyan mezonlar bo'yicha klassifikatsiyalashni (tasniflash) talab etadi. Tasnif ularni tahlil qilish metodologiyasini shakllantirish va amalda foydalanish usullari va imkoniyatlarini ishlab chiqish uchun innovatsion faoliyat tavakkalchiliklari tasnifi ishlab chiqiladi. Bir tomondan, tasniflash ushbu tadqiqot usulining to'g'riligini va natijada paydo bo'lgan tasniflash tizimining adekvatligini ta'minlaydigan umumiy rasmiy qoidalarni belgilab bersa, boshqa tomondan, tasnif har doim tadqiqot maqsadlariga qat'iy rioya qilishi, aniq ilmiy tahliliy vazifani bajarishi kerak. Natijada, shakllangan tasniflash tizimlari o'ziga xos mazmuniga ko'ra sezilarli darajada farqlanadi, lekin ayni paytda qat'iy bir xillikka (qoida tariqasida, ierarxik tuzilishga) ega.

Xorijlik ekspertlar tomonidan moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish sohasidagi nashlarda risklarni tasniflashning 40 ga yaqin tasnif xususiyatlari va 220 dan ortiq risk turlari hamda tasniflash sxemalari ishlab chiqilgan. Biroq, ularni innovatsion faoliyat tavakkalchiliklarini boshqarish tizimini shakllantirish uchun to'g'ridan – to'g'ri ishlatish mumkin emas, chunki bir tomondan, ularni tasniflash sxemalari boshqa muammolarni hal qilish uchun ishlab chiqilgan bo'lsa, boshqa tomondan, ba'zi hollarda tasnif asosiy tamoyillarni buzadi. Bu esa ichki qarama -qarshilikni keltirib chiqarib, innovatsiyalar xavfini tahlil qilish va boshqarish metodologiyasini shakllantirish va keyinchali foydalanish uchun to'sqinlik qiladi.

Tasnif (sinf) – bu ma'lum bir xususiyat bilan tavsiflangan, tadqiqot maqsadlari uchun zarur bo'lgan elementlar yoki muhim belgilar guruhidir. Ob'yektlarni tasniflashda sinflarni aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan muhim xususiyat tasniflash asosi, ob'yektni ma'lum bir sinfga taalluqliligi tamoyili tasnif mezoni deb ataladi.

Tasniflash elementar yoki murakkab bo'lishi mumkin. Elementar (bir darajali) tasniflar yaxlit bitta asosga quriladi. Murakkab (ko'p darajali) tasniflar avval aniqlangan elementar sinflar ichidan pastki darajalarini shakllantirish uchun qo'shimcha asoslar va tasniflash mezonlarini o'z ichiga

oladi. Shuningdek, tasniflash ham ochiq va ham yopiq bo'lishi mumkin. Ochiq tasniflarda, yangi ob'yektlar paydo bo'lishida ilgari tuzilgan tasniflash mezonlarining birortasiga ham mos kelmaydigan, qo'shimcha sinflarni shakllanishi mumkin; yopiq tasnif – bu cheklangan va oldindan belgilangan sinflar ro'yxatiga ajratilgan tasniflardir.

Tasniflash tizimini tanlash tasniflash ob'jektining murakkabligi bilan belgilanadi. Biroq, tasniflash tizimidan qat'iy nazar, uning tuzilishida quyidagi tamoyillarga rioya qilish kerak:

1. **Poydevor birligi.** Bir xil tasnif darajasida sinflarni shakllantirish uchun bitta va yagona asos qo'llaniladi.
2. **Qamrovning to'liqligi** bir tomondan, kichik sinflarni ajratish nuqtai nazaridan asosning birligi printsiptini to'ldiradi, boshqa tomondan, tasniflash tizimining ierarxik shaklini belgilaydi.
3. **Kesishmaslik** tasniflash printsipti sifatida, shuni anglatadiki, bitta kichik guruh elementlarining hech biri bir vaqtning o'zida boshqa to'plamga kiritilmasligi kerak.
4. **Ketma-ketlik.** Tasniflash tasnif tizimining ierarxik tuzilishining barcha darajalarini qamrab olishi kerak, ya'ni bir darajali kichik sinfga tegishli ob'jekt keyingi yuqori darajadagi sinflardan biriga tegishli bo'lishi kerak.
5. **Yakdillik.** Tasnif guruhlari xususiyatlarning bir xil talqini asosida tuzilishi kerak.

Shunday qilib, boshqaruv ob'ektining xususiyatlari va maqsadlaridan qat'iy nazar, xavflar tasnifi tizimini shakllantirishda, ko'rsatilgan printsiplarga rioya qilish nafaqat ilmiy xarakter printsiptiga qat'iy rioya qilishni ta'minlaydi, balki jarayonlarni shakllantirish va risklarni boshqarishga ham yordam beradi.

Xatarlarni tasniflashda, tashkil etish maqsadidan kelib chiqish kerak. Tasniflash maqsadlariga qarab, shakllangan tasniflash tizimlari muayyan farqlarga ega bo'ladi. Demak, analitik tizimlar uchun tasnif xavfli vaziyatlarning oqibatlarini tahlil qilish va prognoz qilishni soddalashtirish uchun amalga oshiriladi, shuning uchun bunday tizimlardagi tasnif guruhlari ularning paydo bo'lish sabablarining umumiyliги asosida baholanadi. Bunda xavf darajasi yoki kelib chiqadigan oqibatlarining bir xilligi inobatga olinadi. Har bir korxonaga uchun, har bir innovatsion loyiha uchun o'ziga xos risk tasnifi tizimi shakllantiriladi. Analitik tasniflash tizimlarining asosiy

kamchiligi ularning haqiqiy innovatsion faoliyat bilan zaif aloqasida ko‘rinadi. Natijada, amalda ba’zi risklarni tasniflash tizimlari ma’lum darajada avtonom bo‘lib, qaror qabul qilishda to‘liq ishlatilmaydi.

G‘arb kompaniyalarida risklarni innovatsion faoliyatni boshqarish usullari va yondashuvlarini shakllantirish nuqtai nazaridan tasniflash, qoida tariqasida, innovatsion jarayonlarning xususiyatlariga – ularning bosqichlariga qarab amalga oshiriladi. Bunday yondashuv boshqaruv qarorlarining qabul qilish tezligini va adekvatligini oshiradi. Bunda, risklarni boshqarish tizimi innovatsion loyihalarni boshqarish bilan oson uyg‘unlashib ketadi: bir xil dasturiy-texnik platforma asosida ular faqat turli xil tahliliy sozlamalarni talab qiladi. Shu bilan birga, bu yondashuv tasniflash guruhlarining takrorlanishiga barham berish va tasniflash mezonlarini umumlashtirish bilan birga mahalliy tasniflash tizimlarini integratsiyalashuv jarayonini murakkablashtiradi. Xatarlarni tasniflash tizimining yana bir kamchiligi – bu xavflarning faqat bir qismini aks ettirishga imkon beradigan va loyihalarni boshqarishda xavflarni to‘liq va har tomonlama tahlil qilish uchun deyarli ishlatilmaydigan ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratishdir, chunki bu tizimlar xavfli vaziyatlar statistik ko‘rsatkichlar orqali baholashga asoslanib, yangi tashkiliy, texnik va moliyaviy – iqtisodiy yechimlar sharoitida foydaliligi cheklangan.

Risklarni tasniflashda turli xil jihatlar mavjuddir:

- Loyihaviy imkoniyatning bosqich va foydalariga ko‘ra;
- Loyiha risklari ishtirokchilarining risk omillariga ta’sir darajasiga ko‘ra;
- Risklardan himoyalanih imkoniyatlari nuqtai-nazariga ko‘ra: sug‘urtalangan va sug‘urtalanmagan risklarga ajratish mumkin

Innovation loyiha risklarining quyidagi turlari bo‘lishi mumkin:

1. Loyiha ishtirokchilari riski;
2. Loyihaning yuqori qiymatliligi riski;
3. Loyihaning bevaqt to‘xtatilishi riski;
4. Ish va ob’yektning past sifatli riski;
5. Konstruktorlik va texnologik risklar;
6. Ishlab chiqarish riski;
7. Boshqaruvchilik riski;
8. Ortiqchalik riski;

9. Moliyaviy risk;
10. Davlatlararo risk;
11. Ma'muriy risk;
12. Huquqiy risk;
13. Fors-major riski.

11.3. Innovasion xatarlarni boshqarish

Xavf-xatar sharoitida innovatsion loyihani boshqarish jarayoni, agar barcha xavf omillari boshqariladigan, boshqarib bo'lmaydigan va qisman boshqariladigan guruhlariga ajratib olinsa yanada samarali bo'lishi mumkin. Bu tasnif quyidagilarga imkon beradi:

- maqsadli ravishda riskka qarshi muolajalarni qo'llash, ularning xarajat xususiyatlarini hisoblash;
- nazorat qilib bo'lmaydigan omillarni chetlab, nazorat qilinadigan omillarga e'tibor qaratish,;
- ko'rib chiqilayotgan barcha xavf omillari maydonining hajmini kamaytirish;
- loyiha xavfining boshlang'ich va yakuniy narxlarini aniqlash.

Boshqarish qobiliyati jihatidan omillarni aniqlash tartibi sifatli yondashuvga asoslangan bo'lib, loyiha muhiti elementlarining tuzilishini hisobga oladi va har bir loyiha uchun o'ziga xosdir.

Umumlashtirilgan tasniflash guruhlarini tavsiflash, risklarni tasniflashning an'anaviy yondashuvlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.



34-rasm. Moliyaviy risklarni boshqarish tamoyillari

Riskni boshqarish faoliyati quyidagi asosiy yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi:

1. Identifikatsiya;
2. Risklarni baholash;
3. Risk boshqaruvida maqsad va instrument tanlash;
4. Riskning oldini olish va nazorat qilish;
5. Riskni moliyalashtirish;
6. Natijalar bahosi.

Risklarni identifikatsiyalash (sifatli tahlil)

Bunda tahlil omillarini, risk koʻrinishlarini, bosqichlarini risk oʻsishi mumkin boʻlgan sharoitda aniqlash imkoni paydo boʻladi.

Riskning tahliliy jarayonini rasmiylashtirish uchun turli risk matritsalarini ishlab chiqilgan. Ularda loyihaviy risklarning koʻrinishlari, yechimlari, sohalari va amalga oshirish vaqtlari koʻrsatilgan.

Risklarni baholash (Miqdoriy tahlil)

Loyihaviy faoliyatda riskni baholash usullari ichida “loyihaning taʼsirchanlik tahlili”dan foydalaniladi. Bunda “zararsizlik nuqtasi”ni aniqlash, barqarorlikni tekshirish koʻzda tutiladi.

Taʼsirchanlik tahlilida loyihada belgilangan parametrlardan birining oʻzgarishi loyiha taʼsirchanligiga qay darajada taʼsir etishini koʻrsatib beradi.

Miqdoriy tahlil usuli adabiyotlarda quyidagicha qayd etilgan:

- Stsenariy tahlili;
- Hal qilish daraxti;
- Monte-Karlo usuli;
- Noaniqlikning rasmiy tasviri;
- Statistik usul;
- Mutaxassis bahosi usuli;
- Riskni baholash pallasi;
- Opalogiya usuli.

Nazariya va amaliyot risk boshqaruvini quyidagi asosiy guruhlariga ajratadi:

1. Siqib chiqarish riski;
2. Riskning oldini olish va nazorat;
3. Risk sugʻurtasi;
4. Riskni singdirish.


Loyihaviy faoliyatning quyidagi xususiyatlari mavjud:

- A) ishtirokchilarning ko‘pligi;
- B) sezilarli vaqt cho‘zilishi;
- V) loyihaviy faoliyatning xarakteri;
- D) xalqaro xarakter.

Loyihaviy moliyalashtirishda loyihalarni tuzishda maxsus kompaniyalar ishtirok etadi. Innovatsion loyihani qabul qilishda kutilayotgan sof foyda me‘yori, qo‘llaniladigan foiz summasi, innovatsion faoliyat turi, innovatsion loyiha qiymati, boshqa o‘xshash loyihalarning mavjudligi, moliyaviy resurslarning chegaralanganligi va boshqa omillar ishtirok etadi.

Tadbirkorlik sub’yektlari uchun investitsiyalashning yakuniy natijasi uning foydaliligidir. Shuning uchun innovatsion loyihani qabul qilishda quyidagi shartlarga amal qilinadi:

- Loyihaga kapitalni jalb etishda undan foyda olish mo‘ljallanadi.
- Kutilayotgan foyda bankda pul saqlashdan olinadigan foizdan ko‘ra ko‘proq daromad manbai bo‘lishi kerak.
- Innovatsiya rentabelligi inflyatsiyaning o‘sish sur‘atidan yuqori bo‘lsagina loyiha maqbul hisoblanadi.



35-rasm. Innovatsion loyiha mezonlari

Innovatsion loyiha:

- loyihaning arzonligi;
- inflyatsion yo‘qotish tavakkalchiligining past darajada bo‘lishi;

- kapital qo'yilmalarni qoplash muddatining qisqaligi;
- yuqori rentabellik;
- foydaliroq bo'lgan boshqa o'xshash loyihalarning mavjud emasligi kabi mezonlar asosida qabul qilinishi mumkin.

Innovatsion loyihani qabul qilishda nominal foiz miqdori emas, real foiz miqdori muhim ta'sir kuchiga egadir. Chunki nominal foiz miqdori joriy baholarda aks ettirilsa, real foizlar bahoning inflyatsiyalashuvini hisobga olgan holda yuritiladi va u quyidagicha ifodaga ega bo'ladi:

Real foiz miqdorini hisoblash formulasi:

$$XFM = BFM - I$$

Bu yerda:

XFM-real foiz miqdori

BFM-nominal foiz miqdori

I-inflyatsiya darajasi

Innovatsion loyiha bir necha faza va bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Identifikatsiya yoki loyihani ochib berish (Identification)
- Tayyorgarlik (Preparation)
- Baholash (Appraisal)
- Qurilish yoki amalga oshirish (Implementation)
- Tatbiq qilish (Operation)
- Natijalarni baholash (Expost evaluation)

Tadbirkorlarni investitsiyalash jarayonidagi xatoliklarni kamaytirish maqsadida bozor iqtisodi amal kiladigan barcha davlatlarda moliyaviy reyting ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi. Bu ko'rsatkichlar maxsus maslaxat firmalari tomonidan u yoki bu davlat, tarmoq, korxonalar, bank, qimmatbaxo qog'ozlar uchun hisoblab chiqiladi.

Mamlakat reytingini hisoblashda qo'llaniladigan parametrlar 5 ta alohida guruhga birlashtirilgan:

I. Ichki siyosat (aI=3)

1. Boshqarish shakli (aII=3)
2. Boshqarishning barqarorligi (aI2=3)
3. Davlatning soliq tizimi (aI4=I)
4. Davlat sektorining ulushi (aI5=I)
5. Aholi emigratsiyasi (aI=I)

II. Tashqi siyosat (a2=2)

1. Qo‘shni mamlakatlarga munosabat(a2I=2)
2. Rivojlangan davlatlarga munosabat (a22=I)
3. Siyosiy - iqtisodiy ittifoqlarda ishtiroki (a23=I)

III. Ichki iqtisod(a3=4)

1. Milliy daromad (a3I=3)
2. Milliy daromadning usishi (a32=3)
3. Inflyatsiya usuli(a33=I)
4. Investitsion faoliyat (a34=I)
5. Qishloq xo‘jaligida qo‘shimcha o‘shish (a35=I)
6. Canoatda qo‘shimcha o‘shish (a36=I)
7. Boshqa tarmoqlar bo‘yicha qo‘shimcha o‘shish (a37=I)
8. Infratuzilma sifati (a38=I)
9. Ishsizlik darajasi (a39=I)
10. Istiqbollar (a300=I)

IV. Tashqi iqtisod (a4=4)

1. Eksport tarkibi (a4I=3)
2. Import tarkibi (a42=3)
3. Tashqi iqtisodiy salbdo (a43=I)
4. Valyutani almashuvchanligi (a44=I)
5. Istiqbollar (a45=I)

V. Qarzlilar (a5=5)

1. Milliy daromad hajmiga nisbatan tashqi qarz (a5I=2)
2. Eksport hajmiga nisbatan tashqi qarz (a52=I)
3. Eksport hajmiga nisbatan qarzlarga bog‘liq to‘lovlar (a53=I)
4. Milliy zahiralilar (a54=I)
5. Istiqbollar (a55=I)

Bahoning mumkin bo‘lgan qiymatlari intervali oltita qismga ajratilgan:

- 0 dan 3.0 gacha - oltinchi guruh mamlakatlar;
- 3.1 dan 4.0 gacha - beshinchi guruh;
- 4.1 dan 5.0 gacha - turtinchi guruh;
- 5.1 dan 6.0 gacha - uchinchi guruh;

6.1 dan 7.5 gacha - ikkinchi guruh;
7.5 dan 10 gacha - birinchi guruh.

Birinchi moliyaviy reyting guruhiga taalluqli mamlakatlarga har qanday shaklda investitsiyalash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Oxirgi 20 yil ichida bunday mamlakatlar qatoriga muntazam ravishda Yaponiya, AQSH, Germaniya mamlakatlari kirib kelmoqda. To'rtinchi guruhga mansub mamlakatlarga qisqa muddatli, beshinchi guruhdagilarga esa faqat qisqa muddatli, oltinchi guruhga kiruvchi mamlakatlarga iloji bo'lsa xech qanday investitsiya sarmoyalari sarflamaslik kerak.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Innovatsion xatar deganda nimani tushunasiz?
2. Innovatsiya natijalarini amalda tatbiq etish qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
3. Risklarni xarakterlovchi belgilar qaysilar?
4. Moliyaviy risklar qanday kelib chiqish omillarini bilasiz?
5. Risklarni tasniflashda qanday tamoyillarga rioya qilish kerak?
6. Innovasion loyiha risklarining qanday turlari bor?
7. Innovatsion xatarlarni boshqarish kontseptsiyasi nimadan iborat?
8. Innovatsion xatarlarni tahlil etishning qanday usullari bor?
9. Loyihani amalga oshirish va uning samaradorligi ustidan qanday nazorat olib boriladi?
10. Innovatsion loyiha samaradorligi ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?
11. Innovatsion loyiha qiymatini baholash bo'yicha qanday yondashuvlarni bilasiz?
12. Innovatsion loyihalar qiymati va samaradorligini baholash mezonlari qanday?

11-amaliy mashg'ulot

Topshiriq.

Muayyan innovatsion loyiha misolida innovasion xatarlarni hisoblab ko'ring. Bunda miqdoriy va sifat tahliliga alohida e'tibor qarating.

XII BOB. BIZNESNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH VA INVESTITSİYALASHNING NAZARIY ASOSLARI

12.1. Innovatsion biznesni rivojlantirish asoslari

Hamma davrlarda ham innovatsion biznes maksimum foyda keltirgan. Agar biznes tarixini o'rganadigan bo'lsak, yangi g'oyalarni amalga kiritgan va tatbiq etgan biznes yuqori foyda olganini guvohi bo'lamiz. Apple brendining tahlili ko'rsatishicha, Stiv Djobs biznesni innovatsion rivojlanish yo'lini tanlagan. Ilg'or biznesmenlar doimo shunday yo'l tutishadi. Ular yangi g'oyalar foydali ekanligini yaxshi bilishadi.

Shuning uchun ular yangi g'oyalarga pul tikadilar. Masalan, o'zga sayyoraliklar hayoti – o'ta qiziq g'oyalardan biridir. Uning tarqalishi yangi ehtiyojlarning paydo bo'lishiga, masalan, fantastik film va kitoblarga ehtiyojni keltirib chiqardi. O'zga sayyoraliklar to'g'risidagi g'oyalar paydo bo'lmasdan oldin, yulduzlar, o'zga olam sirlariga qiziquvchilar juda kamchilikni tashkil etardi. Hozirda esa bunga qiziquvchi odamlar soni ortib ketdi. Yoki bo'lmasa, ko'pchilik yangi g'oyalarning paydo bo'lishi kasalliklarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Ularning orasida necha o'n yilliklardan beri davosi topilmayotgan OITS ko'proq diqqatga sazovor. Shuningdek, «paranda grippi» va «cho'chqa grippi» kabi kasallik turlari ham yangi turdagi dorilar, shifoxonalar, tibbiy buyumlarga talabni paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, ikki yildan beri davom etayotgan pandemiya sharoitida virusga qarshi kurash minglab innovatsion g'oyalarning yaralishiga sabab bo'lmoqda.

Avval boshdan ma'lumki, avtomobilsozlikni paydo bo'lishida avtomobillarning bir nechta modeli mavjud edi. Ular asosan transport voitasini vazifasini bajarar edi. Hozirda ekologik muammolarning paydo bo'lishi, global iqlim sharoitlarining o'zgarishi avtomobilsozlikda ham yangi modellarning ishlab chiqarilishiga sabab bo'ldi.

Biznesni innovatsion rivojlantirish nafaqat alohida biznes turi uchun, balki butun iqtisodiyot uchun foydalidir. Agar ko'plab yangi g'oyalar paydo bo'lmasa, millionlab kishilar ishsiz qoladi. Ular och qolishlari, eski kiyimlarni kiyishga majbur bo'ladi. Bunga yo'l qo'ymaslikning birdan bir yo'li yangi va yangi g'oyalarni yaratishdir.

Yangi g'oyalarni yaratish va rivojlantirishning dastagi innovatsion marketing – **noomarketing** hisobladi. **Noomarketing** – texnologiya bo'lib,


g'oyalarning generatsiyalashuviga imkon beradi, g'oyalarning harakatlanishi va amalga tatbiq etilishi, shuningdek bozorlarni yaratilishi va unga iste'molchilar oqimini keltirib chiqaradi. Noomarketingdan foydalanish haqiqatan ham biznesni innovatsion rivojlantirishga olib keladi.

Noomarketing oddiy klassik marketingdan shunisi bilan farqlanadiki, bunda oddiy marketingda mavjud bo'lmagan boshqa nisbatan chuqurroq va innovatsion printsiplardan foydalaniladi. Buni o'zlashtirish uchun noomarketing tilida yozilgan maqolalarni o'qish kerak.

Innovatsiya – bu boshqaruv ob'ektini o'zgartirish va iqtisodiy, ekologik, ilmiy – texnikaviy yoki boshqa turdagi samaradorlikka erishish maqsadida yangilikni joriy etishning yakuniy natijasidir.

Ilmiy – texnik taraqqiyot fan, texnika, texnologiyaning uzluksiz rivojlanishi, mehnat ob'ektlarini, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish shakllari va usullarini takomillashtirish jarayoni bo'lib, u mehnat sharoitlarini yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish va natijada millat farovonligini oshirish kabi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishning eng muhim vositasidir. Milliy xavfsizlik va mudofaa tizimini ta'minlashda ilmiy – texnik taraqqiyot katta ahamiyatga ega.

Tashkilotning innovatsion (ilmiy – texnik) rivojlanishining samaradorligi samara va unga sarflangan xarajatlar nisbati orqali aniqlanadi.(35-rasm) Samaradorlik – bu nisbiy kattalik bo'lib, sarf qilingan xarajatlar natijasini ulushli qiymat yoki foizlarda tavsiflovchi nisbiy qiymatni ifodalaydi. Samaradorlik mezoni – ma'lum bir xarajatlarga to'g'ri keladigan samarani (foydani) maksimal darajada oshirish yoki muayyan samaraga erishish uchun xarajatlarni (ishlab chiqarish xarajatlarini) minimallashtirishdan iborat.



36-rasm. Tashkilotning innovatsion rivojlanish samaradorligi

Shunday qilib, tashkilotning innovatsion rivojlanishi uning investitsiya faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Ilmiy – tadqiqot ishlarining natijalarini (laboratoriya texnologiyalari) sanoatda qo‘llashga tayyor holatga (sanoat yoki tajriba texnologiyalari) yetkazish uchun ham, tayyor sanoat texnologiyasini sotib olish uchun ham (kapital sig‘imkorligi nisbatan kam bo‘lgan) katta mablag‘ talab qilinadi.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonani innovatsion rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari:

- majmuaviy mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish;
- kimyoviy lashtirish;
- elektrlashtirish;
- ishlab chiqarishni elektronlashtirish;
- yangi materiallarni joriy etish;
- yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishdan iborat.

Yuqori darajadagi raqobatbardosh ustunliklarga asoslangan innovatsion rivojlanish (yangi ilmiy ishlanmalar, texnologiyalar) tashkilot uchun yangi tarmoq va yangi bozorlarga chiqish uchun katta strategik imkoniyatlar yaratadi. Bu strategik imkoniyatlar, o‘z navbatida, iqtisodiy o‘sishning sifat jihatdan yangi salohiyatini shakllantiradi. Tashkilot uchun eng muhim oltita diversifikatsiya strategiyasi mavjud:

1. Birikish, qo‘shilish yoki yangi yoki qo‘shma korxonalar tashkil etish orqali yangi sohaga kirish;
2. Bir-biriga yaqin tarmoqlarga diversifikatsiya qilish;
3. Bir-biriga yaqin bo‘lmagan tarmoqlarga diversifikatsiya qilish;
4. Ishlab chiqarishning yopilishi va tugatilishi;
5. Aralash diversifikatsiya va restrukturizatsiya;
6. Ko‘p qirrali diversifikatsiya.

Agar yangi sohaga kirish, yangi kompaniya yoki qo‘shma korxonani tuzish strategiyasi diversifikatsiyalanmagan kompaniya tomonidan kuchli va daromadli raqobatbardosh pozitsiyani egallash uchun ishlatilsa, ortda qolgan tarmoqlar va transmilliy diversifikatsiyani qisqartirish va tugatish maqsadida diversifikatsiya qilish strategiyasi, odatda, kuchli va keng ko‘lamli korporatsiyalar orasida paydo bo‘ladi.

12.2. Innovatsion biznesni rivojlantirishning xorij tajribasi

Bugun har bir mamlakat ilg'or iqtisodiyot nazariyasiga asoslangan o'z milliy innovatsiya tizimini yaratishga intilmoqda. Bir necha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning muvaffaqiyatli va kutilgan natijani bermagan tajribasini tahlil qilinganda har qaysi mamlakatda bu tizimni rivojlantirish strategiyasi amaldagi davlat makroiqtisodiy siyosati, me'yoriy-huquqiy qonunchilik, to'g'ridan-to'g'ri va bevosita davlat boshqaruvi shakllari, ilmiy-texnologik va sanoat salohiyati, ichki tovar va mehnat bozorining holati, tarixiy-madaniy rivojlanish darajasi bilan uyg'unlikda belgilanganini ko'rish mumkin.

Mamlakatda qulay tadbirkorlik muhitini yaratmay, samarali innovatsion rivojlanishga erishish mumkin emas.

Qulay tadbirkorlik muhitini shakllantirmasdan innovatsiya loyihalarini davlat tomonidan moliyalashtirishni kuchaytirish past samaradorlik ko'effitsientiga ega bo'ladi.

Milliy innovatsiya tizimi yaratilishi ilmiy tadqiqotlarning tijoratlashishi uchun qulay sharoitlar shakllanishiga olib keladi.

Innovatsiya tizimlarini tashkillashtirish va ularning amal qilish printsiplari xorijiy mamlakatlarda rivojlanish modellariga qarab, turli darajada farqlanadi. Mavjud tizimlarni o'zimizga ko'r-ko'rona ko'chirish kutilgan samarani bermaydi. Yaxshisi, o'sha davlatlarda bu institutlar uyg'un ishlashini va o'zaro aloqalarni o'rnatish mexanizmini o'rganish kerak

Muvaffaqiyatli innovatsion rivojlanishning bosh omili iqtisodiyotga yangi texnologiyalarni singdirish qobiliyati (absorbition ability) bo'lib, bu innovatsiyani o'zlashtirish va qo'llash uchun qulay muhit yaratilishidan dalolat beradi.

MDH davlatlarida yaqin vaqtgacha innovatsion faoliyat faqat byudjetdan moliyalashtiriladigan va rejalashtirilib boshqariladigan yirik davlat muassasalarida amalga oshirilgan, lekin innovatsion jarayonning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlari hisobga olinmagan.

Innovatsion biznes – aslida kichik biznesining eng himoyaga muhtoj bo'lagidir.

Ilmiy – texnik yangiliklarni (innovatsiyalarni) yaratish jarayoni fan, texnika, tadbirkorlik va boshqaruvni birlashtiradi.

O‘zbekiston Milliy innovatsion tizimiga juda o‘xshash tuzilmaga ega Belarus milliy innovatsiya tizimi tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik sektoriga tadqiqotlar olib borish uchun byudjet mablag‘larini ajratish innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishda tez natija beradi.

Qozog‘iston tajribasidan ma‘lum bo‘lishicha, moliyalashtirishning venchurli mexanizmini joriy etish murakkab vazifa bo‘lib, jiddiy harakatlarni, o‘zgarishlar va vaqtni talab etadi.

AQSHning ushbu yo‘nalishdagi tajribasi yuqori ichki raqobat iqtisodiyotda o‘z-o‘zidan innovatsiya korxonalarini mustaqil ravishda paydo bo‘lishiga olib kelishini, yuqori malakali mutaxassislar (ya‘ni, universitetlar) qulay makon (laboratoriyalar, ilmiy-tadqiqot institutlar)da va qulay muhit (innovatsion klasterlar)da barakali ishlashini va innovatsiyalarni rivojlantirishini isbotladi.

Evropa Ittifoqida shuni ko‘rish mumkinki, faol moliyalashtirish (YaIMning kamida 3 foizi miqdorida) innovatsiya salohiyatini, unga a‘zo mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishini kuchaytirdi.

Germaniya tajribasi bilvosita qo‘llab-quvvatlash to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarishdan samaraliroq bo‘lishini, ilm-fan, ishlab chiqarish va bozorning integratsiyalashuvi mamlakat innovatsiya tizimi elementlari hamkorligining eng samarali shakli ekanligini, har bir investitsiya innovatsion yo‘naltirilgan bo‘lishiga harakat qilish kerakligini ko‘rsatdi.

Buyuk Britaniya tajribasiga qaraganda, hozirgi iqtisodiyotda fanlararo tadqiqotlar va ishlanmalarning natijadorligi tor yo‘nalishli loyihalarnikiga nisbatan yuqoriroqdir.

Finlyandiya tajribasiga asoslansak, siyosatni tubdan o‘zgartirib, mamlakatni taraqqiyotning innovatsiya yo‘liga burish qisqa fursatda uni dunyodagi yetakchi iqtisodiyotlardan biriga aylantirishi mumkin.

Finlyandiyaning innovatsion rivojlanishida 1980 yillarda tashkil etilgan Sitra innovatsion fondi venchur moliyalashda muhim o‘rin tutdi, ushbu fondning maqsadi bo‘lib iqtisodni raqobatbardoshligini rivojlantirish, iqtisodni barqaror rivojlanishini, mamlakatda ishbilarmonlik faoliyatini kuchaytirish va finlyandiya korxonalarini xalqaro hamkorligini kuchaytirish xizmat qiladi. Finlyandiya milliy innovatsion tizimining davlat segmentida ikkita hal qiluvchi vazirliklarni bo‘lishi katta ahamiyat kasb etadi. Ta‘lim va

madaniyat vazirligi ilm bo'yicha siyosatga javob bersa, Finlyandiya akademiyasi esa ilmiy tekshirishlarni moliyalashtirishga yo'naltirish uchun asosiy mexanizm hisoblanadi.

Bandlik va iqtisodiyot vazirligi texnik va innovatsion siyosatga mas'ul bo'lib, moliyalashtirishga yo'naltirish uchun asosiy mexanizm Tekes xizmat qiladi. Tekes agentligi mamlakatni rivojlantirishda muhim institut sanalib, izlanuvchilar hamjamiyatini sanoat va servis sektorlarini qo'llab quvvatlaydi. Tekes har yili Finlyandiyadagi 60 %dan ko'p innovatsion loyihalarni moliyalashtiradi, ularning 80 %i samarali natijaga ega bo'ldi. SHuningdek Finlyandiyada texnopolis yaratishga katta ahamiyat berilgan, dunyodagi yirik va birinchilardan bo'lgan, dunyoda o'zining o'lchamlari bilan lol qoldirgan "Texnopolis" tarmog'i yaratilgan. "Texnopolis" tarmog'ida 18 ta ilmiy va texnologik parklar kiradi va ulardan 2 tasi mamlakat tashqarisida joylashgan.

Isroil innovatsion mahsulotlarni kommertsiyalashtirish va bozorga chiqarish uchun eng qulay sharoitlar yaratgan mamlakatdir. Xususan, Isroil bugungi kunda texnologik jihatdan eng rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Har bir g'oyani amalda ishlaydigan, doimiy va yuqori daromad keltiradigan texnologiyaga aylantirish bu yerdagi biznes uchun an'anaga aylangan. Isroil innovatsiyalar rivojiga sharoit yaratish bo'yicha Global Innovation Index – 2017 reytingida 17-o'rinni egalladi. U bir paytlar parchalanayotgan sobiq SSSRdan ko'plab malakali mutaxassislarni qabul qilib, ilmiy-texnik jihatdan jadal ilgari lab ketdi. 1989-90 yillarda bu mamlakatga 200 mingdan ortiq muhandis va olim ko'chib kelgan.

Isroilning rivojlanganlik darajasini quyidagi faktlar bilan tavsiflash mumkin:

- unda har yili 15-20 ta yangi nanotexnologiya yaratiladi va o'zlashtiriladi, ular orasida ekologik jihatdan xavfsizlari ham bor. Bu ilm-fan va innovatsiyalarga xarajatlar yuqoriligi (mamlakat YaIMning 4,4 foizi atrofida) bilan bog'liq
- aholisining malakaviy ma'lumoti bo'yicha Isroil dunyoda AQSH va Kanadadan keyin uchinchi o'rinda turadi
- ilmiy unvonlarga ega xodimlar barcha ishlovchilarning 25 foizini tashkil etadi
- har ming kishining 145 nafarini olimlar tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich Yaponiyada 70 tadan, AQSHda 85 tadan oshmaydi

- har ming kishiga 109 sahifa ilmiy ish to‘g‘ri keladi
- aholi jon boshiga berilgan patentlar soni bo‘yicha Isroil dunyoda birinchi o‘rinda
- mamlakatda aholi umumiy soniga nisbat bo‘yicha qaralsa, dunyodagi eng ko‘p startaplar to‘g‘ri keladi. Isroil yuqori texnologik va innovatsion kompaniyalar soni bo‘yicha AQSHdan keyingi yetakchi o‘rinni band etgan. Unda har kuni 12 ta, yil davomida 4000 dan ziyod shunday kompaniyalar paydo bo‘ladi
- Isroil, AQSHdagi Silikon vodiysini istisno etganda, dunyodagi yuqori texnologik kompaniyalarning eng katta konsentratsiyasiga, ya’ni zich joylashuviga ega
- Isroil AQSHdan keyin NASDAQ birjasida kotirovkalanadigan kompaniyalarning eng ko‘p soniga ega
- Isroil bir innovatsion korxonaga davlat tomonidan kiritiladigan investitsiyalar hajmi bo‘yicha jahonda AQSHdan keyin ikkinchi o‘rinda
- u aholi jon boshiga yangi ochilgan biotexnologik kompaniyalar soni bo‘yicha ham eng yuqori foizga ega
- Isroil tadbirkorlik rivojlanishi bo‘yicha jahonda uchinchi o‘rinni zabt etgan. Unda ayollar, 55 yoshdan oshganlar soni bo‘yicha birinchi o‘rinni egallaydi
- Isroil kosmik kemalarni Sharqdan G‘arbga, ya’ni Yer aylanishiga qarama-qarshi yo‘nalishda uchira oladigan yagona davlatdir. Bu raketalarning dushman qo‘shni hududlar ustidan uchib o‘tishini istisno etish imkonini beradi.

Umuman, innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyot Isroilga mintaqadagi eng yuqori turmush darajasini ta’minladi. Aholi jon boshiga YaIM 2020 yili 33,8 ming AQSH dollarini tashkil etgan.

Isroilda turli sohalarda texnologiyalarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi sanoat kompaniyalari va universitetlar konsortsiumlarini moliyalashtiradigan talay jamg‘armalar, davlat dasturlari, infratuzilmalar mavjud. Sirasini aytganda, bu zamindagi innovatsiya tizimi olim va muhandislarga o‘z kashfiyotlari asosida kichik firma ochishlari, keyinchalik ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini, ya’ni o‘z innovatsion mahsulotlarini bozorda sotishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratgan.

XXI asrning boshlarida jahonning 20 dan ortiq (AQSH, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Finlyandiya, Shveytsariya va b.) mamlakati innovatsion iqtisodiyotga ega mamlakatlari sifatida tan olindi. Ushbu rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti quyidagi xususiyatlari bilan alohida guruh sifatida ajratiladi:

- ilmiy tadqiqotlarga asoslangan bilimlarga ega bo'lish, yangi texnologiyalar yaratish va ularni amaliyotga qo'llashga e'tibor qaratish;
- fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ommalashtirishni ta'minlab beruvchi axborot infratuzilmasini yaratishni jadallashtirish;
- yangi texnologiyalar asosida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish va ishlab chiqarish raqobatbardoshligini oshirish;
- innovatsiyalarni ishlab chiqarish va boshqaruvdan tashqari boshqa sohalarga ham joriy etishga olib keluvchi ijtimoiy tarkibni o'zgartirish;
- yangi bilimlarni muntazam ravishda o'zlashtirish jarayonini yo'lga qo'yish.

Mamlakatlarni amalga oshirayotgan innovatsion siyosatiga qarab uch guruhga ajratish mumkin (37-rasm).

AQSH, Buyuk Britaniya, Frantsiya	<ul style="list-style-type: none"> • Fanda yetakchilikni saqlab qolishga intilayotgan mamlakatlar. Odatda, ushbu mamlakatlarda innovatsion tsiklning hamma bosqichlarini qamrab oluvchi yirik miqyosli maqsadli loyihalar amalga oshiriladi
Germaniya, Shvetsiya, Shveytsariya	<ul style="list-style-type: none"> • Qulay innovatsion muhitni yaratish, iqtisodiyot tarkibini optimallashtirishga yo'naltirilgan mamlakatlar
Yaponiya, Koreya Respublikasi	<ul style="list-style-type: none"> • Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, jahondagi ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini qabul qilishni ta'minlash, turli sektorlarning fan va texnologiyalar sohasidagi faoliyatlarini muvofiqlashtirish yo'li orqali yangiliklarni rag'batlantiruvchi mamlakatlar

37-rasm. Mamlakatlarning innovatsion siyosat xususiyatlari

Zamonaviy jahon iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlaridan biri taraqqiy etgan mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyotning yangi, ustun darajada bilimlarni to'plash, tarqatish va ulardan foydalanishga asoslangan iqtisodiyotni qurish bosqichiga o'tish hisoblanadi. Inson kapitaliga investitsiyalar sarflash resurslarni joylashtirishning samarali usuliga aylanib

bormoqda. Nomoddiy aktivlar firmalar va korporatsiyalar mulkida sezilarli o‘rin egallamoqda. Ishlab chiqarishni intensivlashtirish va ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalanish innovatsion tsiklning keskin qisqarishi, mahsulotlar va texnologiyalarning yangilanish sur‘atlarini jadallashtirishga olib kelmoqda.

Xorijiy mamlakatlarning rivojlanish tajribasini o‘rganish asosida innovatsiyani bugungi kunda farovonlik va raqobatbardoshlikning asosiy omili, innovatsiyalarni rivojlantirishni esa raqobat kurashidagi afzalliklarni qo‘shimcha tarzda kuchaytiruvchi vosita sifatida tavsiflasak bo‘ladi. Rivojlangan mamlakatlar bu omillarni oldindan hisobga olib, o‘z pozitsiyalarini xalqaro maydonda kuchaytirish yo‘lida foydalanmoqda. Unutmaslik kerakki, innovatsion faollikni boshqalarga nisbatan oldinroq ishga tushirgan davlat doimo yutib chiqadi.

12.3. Kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlantirish

Bugungi kunda iqtisodiyotning integratsiyalashuvi, raqobat bozorining tobora kuchayib borishi, iste‘molchilar ehtiyojlarining tez o‘zgara borayotganligi har bir tadbirkordan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni talab etmoqda. Shu sababli ham korxonalarining faoliyatini innovatsion rivojlantirish zamon talabiga aylanib bormoqda.

Kichik biznes sub‘yektlarining innovatsion faoliyati asosan quyidagilarni nazarda tutadi:

➤ Ishlab chiqarish jarayoniga yangi hamda takomillashgan mahsulotni kiritish;

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining barcha turlarini qisqartirish va bu bilan tannarxning pasayishiga erishish;

➤ Ishlab chiqarilgan mahsulotlarda doimiy ravishda iste‘mol va sifat ko‘rsatkichlarini oshirib borish.

➤ Kichik biznes korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishdan maqsad butun ishlab chiqarish tizimini yangilash hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ilmiy-texnik, intellektual va iqtisodiy salohiyatdan samaraliroq foydalanish asosida soha raqobatbardoshligini oshirishdan iboratdir.

Kichik biznes korxonalarini kishilardagi tashabbuskorlik, tadbirkorlik hamda mulkka egalik qilish qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish vositalaridan

biri bo‘lib hisoblanadi. O‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirishda, aholini ish bilan ta‘minlash va pirovardida milliy farovonlikni oshirish ushbu sektorning qay darajada rivojlanganligiga bog‘liq.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik to‘g‘risidagi ko‘plab adabiyotlarda ushbu faoliyatning quyidagi o‘ziga xos afzalliklari keltirilgan: bozor konyunkturasi o‘zgarishlariga tez moslashuvchan va harakatchan; o‘z harakatida boshqa korxonalariga bog‘liq bo‘lmaydi; vaziyatga qarab tezda ishlab chiqarish, xizmat qilish konyunkturasini tezda o‘zgartirishga qaror qabul qila oladi; iste‘molchilar talabidan kelib chiqqan holda ularning istaklariga, urf-odatlariga mos mahsulotlar ishlab chiqarishga tez moslasha oladi; ishlab chiqarish siklining qisqa muddatligi va qisqa muddatda foyda ko‘rish va eng asosiysi fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tezda joriy qilishi mumkinligi.

Kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish va kichik biznes korxonalarida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish quyidagilar hisobiga muhim hisoblanadi:

➤ Kichik biznes korxonalarining ixcham va harakatchanligi ishlab chiqarish jarayonida innovatsiyalarni joriy etishda tavakkalchilik darajasining pastligi yaxshi samara beradi;

➤ Kichik korxonalar faoliyatida innovatsiya va innovatsion texnologiya larning joriy etilishi ularning faoliyatidagi xarajatlarni kamaytirib, rentabellikni oshiradi;

Kichik biznes korxonalarining yangilik va innovatsiyalarni tez o‘zlashtira olish qobiliyati ularga innovatsiyalarni tijoratlashtirishdan yuqori daromad olish imkoniyatini beradi;

➤ Kichik biznes subyektlarining boshqaruv jarayonida zamonaviy innovatsiyalarni qo‘llash orqali korxonalar ko‘plab imkoniyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, tovar nomenklaturasi va assortimentini oshirish; yangi ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sotilish hajmini oshirish; mahsulot sotishning istiqbolli bozorlarini o‘zlashtirish va asosiysi korxonaning eksport salohiyati oshadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, kichik biznes korxonalarini faoliyatini zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsiyaning o‘rni ortib borayotganligi sababli

kichik biznes korxonalari faoliyatida uni qo‘llamasdan turib yangilik darajasi yuqori bo‘lgan raqobatbardosh mahsulotlar yaratib bo‘lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznesning innovatsion faoliyati raqobat kurashi uchun maqbul vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Ushbu faoliyat ishlab chiqarish jarayonida yangi iste‘molchilarning paydo bo‘lishiga, investitsiyalar kirib kelishining asosiy mezonini bo‘lib hisoblanadi. Bu sababli yangi mahsulot ishlab chiqaruvchilarning reytingi oshib boradi va yangi zamonaviy bozorlarni egallash imkoniyati tobora ortib boradi.

G‘oyalarni amalga oshirish, ya‘ni korxonani to‘liq yoki qisman yangilash uchun mumkin bo‘lgan tadbirkor faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan tarkib topgan:

- Ishlab chiqarishning boshqaruv tizimini har tomonlama o‘rganish;
- Zamonaviy texnika hamda texnologiyalarni qo‘llash;
- Mahsulotni ishlab chiqarishda yanada tejamli yoki mustahkam yangi materiallardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
- Mahsulotlarning dizayni va qadoqlanishini yaxshilash;
- Korxonada reklama faoliyatini har tomonlama samarali va mukammal ravishda tashkil etish.

Bugungi kunda kichik biznes korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish jarayoni o‘z oldiga ko‘plab vazifalarni olgan. Innovatsion faoliyatni boshqarish jarayoni turli vaziyatlarga tez moslashuvchan bo‘lib, kompleks xarakter kasb etadi. Uning zimmasiga mahsulotni ishlab chiqarishga joriy etish, tashkiliy tuzilma shakllarini va boshqaruvchilik funksiyalarini qayta tuzish, yangiliklarni amaliy hayotga joriy etish, innovatsion jarayonlarni boshidan oxirigacha boshqarish imkoniyatini ta‘minlash kabi vazifalar yuklatiladi.

Kichik biznes subyektlarida innovatsion jarayonlar quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olgan holda amalga oshiriladi:

- Korxonada mahsulot haqida kelib tushayotgan fikrlarni tizimlashtirib borish;
- Innovatsion g‘oyani aniqlash hamda yangi mahsulotning g‘oyasini ishlab chiqish;
- Ishlab chiqariladigan yangi mahsulotning iqtisodiy samaradorligining mazmuni va marketing dasturini tayyorlash;

➤ Yangi mahsulotning yaratilishi.

Korxonada innovatsiya faoliyatini tashkil etishning birinchi bosqichida ishlab chiqarish bo'limlaridagi marketing xizmatidan, korxonaning sotish apparatidan, savdo agentlaridan, iste'molchilardan kelib tushayotgan yangiliklar hamda bozorlardagi texnologik o'zgarishlar haqida ma'lumotlar yig'iladi. Yangi mahsulotni yaratish va o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan potensial imkoniyatlar ham o'rganiladi.

Yangi mahsulotning g'oyasini ishlab chiqish bosqichida esa g'oyaning amaliy jihatdan amalga oshirishning mavjud imkoniyatlarini aniqlash; yangi va an'anaviy mahsulotni texnologik umumiyligi darajasini aniqlash; kelajakda ishlab chiqariladigan mahsulotga patent tizimini aniqlash kabilar aniqlanadi.

Mahsulotning texnik holatini yaratish hamda mahsulotning iqtisodiy xarakteristikasini aniqlash g'oya aniq loyiha ko'rinishiga kelganidan so'ng amalga oshiriladi. Uning sifati hamda iste'mol xususiyatlarini baholash; sotuv hajmi va potensial bozor taklifini baholash; yangi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligining tahlili va uni baholash, marketing dasturini yaratish kabilar yangi mahsulotning iqtisodiy samaradorligining mazmuni, marketing dasturini yaratish deb nomlangan uchinchi bosqichida amalga oshiriladi.

Kichik biznes subyektlari innovatsion faoliyatining oxirgi: yangi mahsulotning yaratilishi deb nomlangan bosqichida esa kichik biznes subyektning bo'limlariga vazifalarni taqsimlagan holda yangi mahsulot rivojlanishining aniq dasturini tuzish; mahsulot namunasini yaratish va texnik tanlovdan o'tkazish; mahsulotning nomini va belgisini aniqlash; narx va boshqa tijorat shartlariga oid test o'tkazish kabi jarayonlar amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rsatilgan bosqichlarda belgilangan jarayonlar samarali tashkil etilsa kichik biznes subyektlarini innovatsion faoliyati ham mukammal ravishda amalga oshadi. Buning natijasida esa korxonada o'z oldiga qo'ygan maqsadlar sari odimlashi mumkin bo'ladi⁵⁰.

⁵⁰ <https://fayllar.org/kirish-i-bob-kichik-biznes-korxonalari-innovatsion-faoliyatini.html>

12.4. O‘zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish

Innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishda juda muhim rol o‘ynaydi.

Uzoq muddatli iqtisodiy o‘shishni asosan mehnat unumdorligining o‘shishi ta‘minlaydi. O‘z navbatida, bu o‘shish faqat innovatsiyalarni joriy etish orqali amalga oshiriladi. Hisob-kitoblar bo‘yicha O‘zbekistonda mehnat unumdorligi taxminan 10,97 dollarga teng. Bu Norvegiya va Lyuksemburg ko‘rsatkichlaridan 7 baravar, AQSHdagidan 6 baravar, Turkiyadagidan 3 baravar, Rossiyanikiga nisbatan 2 baravar kam demakdir.

16-jadval

O‘zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish kontsepsiyasi⁵¹

Bosqich-lar	Yo‘nalishlar	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar
1-pog‘ona	Institutlarning amal qilishi	Respublika iqtisodiyotida bazaviy shart-sharoitlarni yaratish maqsadida jamoat, siyosiy va iqtisodiy institutlarning samarali ishlashi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: - o‘zgaras soliq stavkalari va oddiy soliqqa tortish tartibi; - korxonalar innovatsiya faoliyatini imtiyozli soliqqa tortish; - mulk huquqini muhofaza qilish; - investorlar huquqini himoyalash; - intellektual mulkni himoya qilish; - eksportni qo‘llab-quvvatlash; - sifatli bank xizmati; - hukumatning barqaror siyosati va hokazolar.
2-pog‘ona	Sifatli ta‘lim	Aholining intellektual salohiyatini yuksaltirish uchun sifatli ta‘lim tizimini ta‘minlash quyidagilar orqali tadqiqotlarga sharoitlar yaratadi: - ta‘limga yuqori xarajatlar; - zamonaviy ta‘lim standartlari; - xalqaro hamkorlikni rivojlantirish; - malaka oshirish va xususiy ta‘lim markazlarini

⁵¹ A. Oteuliev O‘zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirish kontsepsiyasi asoslari 29.12.2017 | Son: №12(120)-2017

		ragʻbatlantirish; - texnik mutaxassislar va muhandislarni koʻproq tayyorlash.
3- pogʻona	Tadbirkorlik madaniyati	Aholi, olimlar va tadqiqotchilar orasida quyidagilar orqali tadbirkorlik madaniyatini oshirish: - innovatorlarning tadbirkorlik tashabbusini amalga oshirishlarini qoʻllab-quvvatlash; - olimlar va tadqiqotchilarning tadbirkorlik bilan bandligini taʼminlash; - biznes yuritishda huquqbuzarliklar uchun qonuniy javobgarlikning yumshoqligini taʼminlash; - aholi oʻrtasida tadbirkorlik va innovatsiya jarayonlarini faol targʻib qilish.
4- pogʻona	Rivojlangan infratuzilma	Tadbirkorlik faoliyatini yuritishni yengillashtirish uchun rivojlangan infratuzilmani yaratish: - yuqori tezlikdagi Internet va aloqadan foydalanish; - muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarining elektr taʼminoti, gaz taʼminoti, texnik va ichimlik suv taʼminoti uzluksizligini taʼminlash; - avto va temir yoʻllardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish; - sifatli logistika xizmatlari.
5- pogʻona	Rivojlangan bozorlar	Quyidagi imkoniyatlar mavjud ichki raqobat rivojlangan bozor: - kreditlar va venchur moliyasidan foydalanish; - bozorda innovatsion ishlanmalarni kommertsiyalash; - iqtisodiyotda klasterlar rivojlangani; - yaxshi rivojlangan mehnat bozori; - koʻchmas mulk va tijorat binolari ijarasi rivojlangani; - valyuta va fond bozorining ishlashi.

Dastlabki beshta pogʻona iqtisodiyotda innovatsiyalar uchun qulay muhitni shakllantirish zarurligini koʻrsatadi. Bu vazifalar ado etilgan taqdirdagina innovatsion taraqqiyot uchun qulay muhit yaratish, shunda Oʻzbekistonda innovatsiyalarni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash samara berishi mumkin.

17-jadval

6- pogʻona	Ilm-fanning davlat tomonidan moliyalashtirilishi	Ilmiy-texnik yutuqlarimizni erishilgan darajada saqlab turish va yanada oshirish maqsadida ilm-fan va fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish: - tadqiqotlar uchun grantlar ajratish; - ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy taʼlim muassasalari ilmiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida subsidiyalar ajratish; - fanlararo tadqiqotlar faol olib borish; - olimlar va tadqiqotchilar oʻrtasida xalqaro tajriba almashinuvini ragʻbatlantirish.
7- pogʻona	Innovatsiya ishlanmalarining davlat tomonidan moliyalashtirilishi	Umumiy tovarlar, ish va xizmatlar hajmida innovatsion mahsulotlar ulushini oshirish uchun tajriba-konstruktorlik faoliyatini va innovatsion korxonalar ishlanmalari kommertsiyalashuvini moliyalashtirish: - innovatsion ishlanmalar va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etishning davlat tomonidan moliyalashtirilishi; - kreditlarga garov sifatida kafolatlar berish; - strategik muhim loyihalarni amalga oshirish uchun soliq imtiyozlari berish; - innovatsion yangi mahsulotlar ishlab chiqarishning dastlabki bosqichlarida ularga talabni saqlab turish uchun davlat xaridini taʼminlash; - davlat venchur fondlarini tashkil etish hamda xususiy fondlar investitsiyalarini riskdan kafolatlash fondini tashkil qilish.

Qulay muhitni ta'minlashdan tashqari, innovatsiya siyosatining uzviy tarkibiy qismi bo'lmish ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish ham muhim hisoblanadi. Faol moliyaviy qo'llab-quvvatlash siyosati davlat uchun jozibaliroq. Chunki u aniq o'lchanadigan natijalarga tezroq erishishini ko'zlaydi. Jozibali muhitni yaratish esa unga nisbatan uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, murakkab tizimlashtiriladi va unda kim aniq naf oluvchi ekanini oldindan bilib bo'lmaydi.

18-jadval

8- pog'ona	Innovatsion faollik (effekt)	Qulay muhit shakllantirilishi va innovatsiyalarni faol moliyalashtirish natijasida: - O'zbekiston iqtisodiyotining innovatsion faolligi oshadi; - mehnat unumdorligi ko'tariladi; - milliy va xalqaro patentlar berish ko'payadi; - innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan korxonalar safi kengayadi; - tadqiqotlar va ishlanmalar bilan band kishilar soni oshadi.
9- pog'ona	Siyosat natijasi	SHundan so'ng O'zbekistonda olib borilgan innovatsiya siyosat natijasini quyidagi ko'rsatkichlar orqali his etish mumkin: - berilgan patentlar soni; - venchurli investitsiyalar hajmi; - yuqori texnologik eksportning umumiy eksport hajmidagi ulushi; - xorijiy texnologiyalarga bog'liqlikning pastligi; - ekologiya, sog'liqni saqlash va aholi turmush darajasining yuqoriligi.
10- pog'ona	Iqtisodiy oqibatlar	Shu tariqa O'zbekiston xalqaro yuqori texnologiyalar bozoridagi yetakchilardan biriga aylanadi va turli xalqaro reytinglarda mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha yuqori o'rinlarga erishamiz.

Innovatsiyalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash davlat uchun jozibador bo‘lsa-da, aynan qulay muhit yaratishga ustuvorlik berilishi kerak. Innovatsion taraqqiyotda muvaffaqiyatlarga erishgan barcha mamlakatlar, qanday model doirasida rivojlanmasin, birinchi navbatda, qulay innovatsion muhit yaratib olgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Tashkilotning innovatsion rivojlanish samaradorligi qanday aniqlanadi?
2. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonani innovatsion rivojlantirish qanday yo‘nalishlarga ega?
3. Diversifikatsiya strategiyasi nima?
4. Innovatsion investitsiyalar va ularni amaliyotga joriy etishning xorijiy tajribasi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
5. Isroilda innovatsion rivojlanish qanday amalga oshgan?
6. Finlandiyaning innovatsion rivojlanishiga qanday xususiyatlar xos?
7. Kichik biznes sub’yektlarining innovatsion faoliyatiga nimalar kiradi?
8. Tadbirkor innovatsion faoliyatining asosiy yo‘nalishlari qaysilar?
9. Kichik biznes subyektlarida innovatsion jarayonlar nechta bosqichdan iborat?
10. Nomarketing nima?
11. O‘zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish kontseptsiyasi nechta pog‘onadan iborat?

12-amaliy mashg‘ulot

Topshiriq.

Jahon xaritasidan bir mamlakatni tanlab oling va ushbu mamlakatda innovatsion biznes yuritish amaliyoti bo‘yicha “ESSE” tayyorlang.

XIII BOB. INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI

13.1. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishi

Davlat innovatsion faoliyatni tartibga solishning barcha turlarini - tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy, tartibga solishni amalga oshiradi.

Tartibga solish faoliyatining eng yuqori shakli innovatsion siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, innovatsiyalarni boshqarish hisoblanadi. Bunday siyosat zamonaviy ijtimoiy rivojlanish uchun innovatsiyalarning ustuvor ahamiyatini tasdiqlash asosida ishlab chiqilgan. Davlat innovatsiyalar uchun tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratadi.

Innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish va tarqatishga yordam beradigan davlat tomonidan tartibga solishning *iqtisodiy omillari*:

- bozor munosabatlarini rivojlantirish;
- innovatsion bozorda taklifning o‘shishiga yordam beradigan soliq va narx siyosatini amalga oshirish;
- barcha korxonalar tomonidan innovatsiyalarni amalga oshirish uchun qulay soliq sharoitlarini yaratish;
- innovatsion sohada samarali bandlikni ta’minlash;
- innovatsiyalarga talabning oshishi;
- innovatsiyalarni o‘zlashtirgan va tarqatgan Rossiya korxonalariga moliyaviy ko‘mak va soliq imtiyozlari berish;
- zamonaviylashtirishga ko‘maklashish;
- yuqori texnologiyali mahsulot lizingini rivojlantirish;
- tadbirkorlikni jonlantirish;
- adolatsiz raqobatni tugatish;
- xalqaro bozorda mahalliy innovatsion mahsulotlarni qo‘llab-quvvatlash;
- mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish;
- innovatsion sohada tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish;
- tashqi iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan davlat innovatsion dasturlariga kiritilgan innovatsion loyihalar uchun boj imtiyozlari berish.

Innovatsiyalarni davlat tomonidan tartibga solishning *tashkiliy omillari*:

- federal va mintaqaviy innovatsion dasturlarga kiritilgan innovatsion loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;
- innovatsion infratuzilmani rivojlantirishga ko‘maklashish,
- kadrlar innovatsiyalarini qo‘llab-quvvatlash,
- innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ko‘maklashish;
- innovatsion faoliyatni ma‘naviy rag‘batlantirish (masalan, Rossiya Federatsiyasi Prezidentining farmoni bilan Rossiya Federatsiyasining Xizmat ko‘rsatgan novatori unvonini berish);
- innovatsion faoliyatni axborot bilan ta‘minlash (innovatsion sohada davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida ma‘lumot olish, innovatsion faoliyat uchun asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan tugallangan ilmiy-texnik tadqiqotlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, amalga oshirilayotgan va tugallangan innovatsion loyihalar va dasturlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga kirish erkinligini ta‘minlash va boshqalar.);
- integratsiya jarayonlariga ko‘maklashish, Rossiya Federatsiyasi sub‘yektlarining innovatsion sohadagi hamkorligini kengaytirish, ushbu sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;
- xalqaro tashkilotlarda rus innovatsion subyektlarining manfaatlarini himoya qilish.

Innovatsiyani davlat tomonidan tartibga solishning *moliyaviy omillari*:

- innovatsiyalarni moliyalashtirishni ta‘minlaydigan byudjet siyosatini amalga oshirish;
- davlat resurslarini innovatsion sohaga yo‘naltirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- ijtimoiy rivojlanish uchun muhim bo‘lgan, ammo xususiy sarmoyadorlar uchun yoqmaydigan innovatsion dasturlar va loyihalarni amalga oshirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat investitsiyalarini ajratish,
- innovatsion sohada qulay investitsiya muhitini yaratish,
- innovatsiyalar bilan shug‘ullanadigan rossiyalik va xorijiy investorlarga grantlar, imtiyozli kreditlar, kafolatlar berish;
- agar ular federal byudjet dasturlarini va loyihalarini moliyalashtirish uchun o‘z byudjet mablag‘laridan foydalansalar, Rossiya Federatsiyasining ta‘sis sub‘yektlariga to‘lanadigan soliqlarni kamaytirish.

Innovatsiyalarni davlat tomonidan tartibga solishning *me'yoriy-huquqiy omillari*:

- innovatsiya sub'yektlarining o'zaro munosabatlari uchun huquqiy asoslarni yaratish
- innovatsion faoliyat sub'yektlarining huquqlari va manfaatlarini, xususan, intellektual mulk huquqlari singari innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun eng muhim huquqlarni himoya qilishni kafolatlash.

Innovatsion faoliyat sub'yektlari, shuningdek ular va innovatsion jarayonning boshqa ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni me'yoriy-huquqiy tartibga solish shartnomalar asosida amalga oshiriladi, xususan:

- ilmiy-tadqiqot, konstruktorlik va texnologik ishlarni bajarish uchun shartnomalar;
- loyiha-qidiruv ishlari bo'yicha shartnomalar;
- qurilish shartnomalari;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartnomalari;
- tavakkalchilikni sug'urta qilish shartnomalari;
- investorlar bilan tuzilgan shartnomalar;
- qonunlarda nazarda tutilgan boshqa shartnomalar.

Innovatsiyalarni tartibga solish quyidagilar asosida amalga oshiriladi.

- innovatsion prognozlar;
- innovatsion strategiyalar;
- innovatsion dasturlar;
- innovatsion loyihalar;
- innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi dasturlar va loyihalar.

Innovative Forecast - bu innovatsion faoliyatning asosiy parametrlarini (yo'nalishlari, turlari, ob'yektlari, oqibatlari va boshqalar) bashorat qilish.

Innovatsion prognozlar qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilgan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi prognozining ajralmas qismi hisoblanadi.

Innovatsion prognozlarda, asosiy yangiliklarni ishlab chiqish va tarqatish stsenariylari, yangi yuqori texnologiyali mahsulotlar va texnologiyalardan amaliy foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari yaratiladi.

Innovativ Strategiya - bu innovatsiyaning ustuvor yoʻnalishlarini aniqlash.

Davlat innovatsion siyosatining strategik ustuvorliklari mamlakatning uzoq muddatli istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyasida, oʻrta muddatli istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturida aks ettiriladi.

Innovatsiya Loyihasi - maʼlum bir vaqt ichida muayyan innovatsion faoliyatni amalga oshirishni taʼminlaydigan oʻzaro bogʻliq hujjatlar toʻplami.

Innovatsion faoliyatni qoʻllab-quvvatlash loyihasi (DASTURI) – bu innovatsion infratuzilmani rivojlantirish boʻyicha loyiha (dastur).

Innovatsiya dasturi – bu oʻzaro bogʻliq boʻlgan innovatsion loyihalar va innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlovchi loyihalar majmui.

Davlat (federal) innovatsiya dasturi quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- asosiy innovatsiyalar boʻyicha federal maqsadli innovatsion dasturlar;
- yirik innovatsion loyihalar;
- innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish boʻyicha federal dasturlar.

Innovatsion loyihalar tanlov asosida tanlab olinadi va ishtirok etish ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi. Tanlovda ishtirok etadigan innovatsion loyihalar majburiy davlat ilmiy, texnik va ekologik ekspertizadan oʻtkazilishi, ularning mavzusi ularning yangiligi, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik samaradorligi hisoblanadi.

Tartibga solish usullari:

- innovatsiyalarni tashkiliy jihatdan tartibga solish;
- innovatsion infratuzilmani rivojlantirish;
- innovatsiyalar ustuvorligini taʼminlash;
- innovatsiyalar mualliflarini maʼnaviy ragʻbatlantirish;
- zamonaviylashtirishni qoʻllab-quvvatlash;
- integratsiya jarayonlarini rivojlantirish;
- xalqaro aloqalarni rivojlantirish;
- innovatsiyalarni iqtisodiy va moliyaviy tartibga solish; innovatsion takliflarni ishlab chiqish;
- innovatsiyalarga talabning ortishi;
- innovatsiyalar sohasida raqobatni rivojlantirish;
- biznesni rivojlantirish;
- innovatsion sohada bandlikni taʼminlash;

- yuqori texnologiyali mahsulot lizingini rivojlantirish;
- innovatsiyalarga investitsiyalar, ularning samaradorligini oshirish;
- qulay investitsiya muhitini yaratish
- innovatsion faoliyatni me'yoriy-huquqiy jihatdan tartibga solish;
- innovatsion faoliyat sub'yektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish;
- egalik huquqini himoya qilish, innovatsiyalardan foydalanish va ularni tasarruf etish;
- sanoat, intellektual mulkni himoya qilish;
- shartnomaviy munosabatlarni rivojlantirish.

13.2. O'zbekistonda Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish

O'zbekistonda Innovatsion faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- innovatsion rivojlantirishning huquqiy jihatdan tartibga solinishini ta'minlash;
- innovatsion faoliyat sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash, shu jumladan texnologik taraqqiyotni prognozlashtirish asosida belgilash;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish;
- innovatsion faoliyat subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;
- innovatsion faoliyat sohasidagi respublika, tarmoq va hududiy davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- innovatsion faoliyatga investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashish;
- innovatsion faoliyat sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- innovatsion faoliyat sohasida kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;
- innovatsion faoliyat sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining innovatsion faoliyat sohasidagi vakolatlari:

- innovatsion faoliyat sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

- innovatsion rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirish bo'yicha faoliyatning shakllantirilishi va muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi;
- iqtisodiyot tarmoqlarini va ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini tasdiqlaydi;
- innovatsion rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;
- innovatsion rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlariga erishilishini baholash mezonlarini tasdiqlaydi;
- yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish va texnologiyalar transferi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;
- innovatsion faoliyat sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni ta'minlaydi.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi innovatsion faoliyat sohasidagi vakolatli davlat organidir. Vakolatli davlat organi:

- innovatsion faoliyat sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining innovatsion faoliyat sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- innovatsion rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- innovatsion faoliyat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi;
- innovatsion faoliyat xavflarini baholash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;
- mamlakatning innovatsion rivojlanish holati tahlilini amalga oshiradi;
- innovatsion faoliyat subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
- innovatsion loyihalarning davlat ekspertizasi tashkil etilishini ta'minlaydi;
- yagona davlat buyurtmachisi sifatida innovatsion loyihalarni shakllantiradi, tasdiqlaydi va moliyalashtiradi;
- innovatsiyalar yaratish uchun davlat buyurtmasi doirasida innovatsion loyihalarning bajarilishini monitoring qiladi va bajarilish samaradorligini baholashni amalga oshiradi;

- O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan xarid qilinadigan texnologiyalar transferiga oid shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga va boshqa tashkilotlarga moliyalashtirish uchun yangi ishlanmalarni tavsiya qiladi;
- yangi ishlanmalarni tijoratlashtirishni moliyalashtiradi va texnologiyalar transferiga ko‘maklashadi;
- innovatsion faoliyat subyektlarini tashkil etish va rivojlantirishga ko‘maklashadi, innovatsion faoliyat natijalarini joriy etishga doir samarali mexanizmlarni shakllantiradi;
- innovatsion faoliyat subyektlari uchun kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tashkil qilishda ishtirok etadi;
- innovatsion faoliyat sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.
- Vakolatli davlat organi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Davlat boshqaruvi organlarining innovatsion faoliyat sohasidagi vakolatlari:

innovatsion faoliyat sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;

innovatsion faoliyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosini ta‘minlaydi;

innovatsion loyihalarni shakllantirish, moliyalashtirish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

o‘z tasarrufidagi innovatsion faoliyat subyektlarining innovatsion loyihalarni amalga oshirishga doir faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Davlat boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining innovatsion faoliyat sohasidagi vakolatlari:

tegishli hududda innovatsion faoliyat sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;

tegishli hududda innovatsion loyihalarni shakllantirish, moliyalashtirish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda innovatsion faoliyat sohasidagi hududiy dasturlarni tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

tegishli hududda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi;

vakolatli davlat organining tavsiyasiga ko'ra yoki o'z tashabbusi bilan innovatsion faoliyatni, shuningdek yangi ishlanmalarni tijoratlashtirishni va texnologiyalar transferini moliyalashtiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlar uchun zarur huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratish, innovatsion loyihalar hamda yangi ishlanmalarni moliyalashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Davlat innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashni quyidagi yo'llar bilan amalga oshiradi:

- innovatsion rivojlantirish strategiyalarini qabul qilish va amalga oshirish;
- innovatsion faoliyat sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- innovatsion faoliyat subyektlariga soliq, bojxona imtiyozlari va preferensiyalar berish;
- O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan innovatsiyalarni yaratishga oid davlat buyurtmasini bajarish;
- innovatsion faoliyatni moliyalashtirishga xo'jalik yurituvchi subyektlar mablag'larini jalb qilish uchun shart-sharoit yaratish;
- ilm-fan yutuqlariga asoslangan mahsulotning va ilg'or texnologiyalarning kafolatlangan tarzda tatbiq etilishini ta'minlash maqsadida ularning davlat xaridlarini tashkil etish;
- innovatsion faoliyat sohasida kadrlarni tayyorlashga, qayta tayyorlashga va ularning malakasini oshirishga ko'maklashish.

Innovatsion rivojlantirish strategiyalari dunyo ilm-fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion ishlanmalar va texnologiyalar asosida inson kapitalini,

mamlakatni jadal rivojlantirish, innovatsion faoliyat sohasida yagona davlat siyosatini olib borish maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

Innovatsion rivojlantirish strategiyalari o'rta muddatli va uzoq muddatli davrlar uchun qabul qilinishi mumkin.

Innovatsion rivojlantirish strategiyalari davlat va jamiyat oldida turgan kompleks maqsad va vazifalarni, tegishli davrga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlarni, shuningdek ularni amalga oshirish bo'yicha harakatlar rejalarini belgilaydi.

Innovatsion rivojlantirish strategiyalarining loyihalari vakolatli davlat organi tomonidan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, ilmiy tashkilotlarning, tadbirkorlik subyektlarining, nodavlat notijorat tashkilotlari va ekspertlarning takliflari asosida ishlab chiqiladi.

Innovatsiyalarni yaratishga doir davlat buyurtmasini shakllantirish va tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, vazirliklar, idoralar va boshqa manfaatdor tashkilotlar takliflari asosida vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

Innovatsiyalarni yaratishga doir davlat buyurtmasi doirasida bajariladigan innovatsion loyihalarni tanlab olishning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

- import o'rnini bosishga va eksportga yo'naltirilgan yoki sifatni takomillashtirishga, joriy etishga tayyor bo'lgan mavjud mahsulotlar va texnologiyalar tannarxini pasaytirishga qaratilgan yangi milliy mahsulotlar va texnologiyalar ishlab chiqilishini, shu jumladan yangi ish o'rinlari tashkil etish va mahalliy xomashyodan foydalangan holda ta'minlash;
- tajriba, eksperimental namunalardan, texnologiyalardan, asbob-uskunalardan, materiallardan, buyumlardan va boshqa ilmiy ishlanmalardan kelgusida amalda foydalanish maqsadida ularni konstruksiya qilish, tayyorlash hamda sinovdan o'tkazish bilan bog'liq tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish;
- ilm-fan yutuqlariga, yuqori texnologiyaga asoslangan mahsulot namunalarni yoki prototiplarini tayyorlashni tugallash va (yoki) ilm-fan yutuqlariga asoslangan mahsulotni ishlab chiqarishni tayyorlash va (yoki) xizmatlarni (tibbiy, moliyaviy, axborotga oid va boshqa xizmatlar)

iqtisodiyotning tegishli tarmog‘iga, ijtimoiy sohaga, bank-moliya sektoriga joriy etish uchun ularning tajriba-sinovini o‘tkazish va boshqalar.

Innovatsion loyihalarni innovatsiyalarni yaratishga doir davlat buyurtmasi doirasida amalga oshirishning eng ko‘p muddati ikki yildan oshishi mumkin emas.

Innovatsion faoliyat innovatsiyalarni yaratishga doir davlat buyurtmasi doirasida O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan taqdirda, ularning natijalari davlatga tegishli bo‘ladi.

Innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini tubdan takomillashtirish, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni yanada samarali joriy etish uchun shart-sharoitlarni yaratish maqsadida:

➤ oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor lavozimi o‘rniga ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor lavozimini joriy etildi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilm-fan bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarini bir vaqtda tegishli yo‘nalishdagi oliy ta‘lim muassasalarining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori lavozimlariga tayinlandi;

➤ oliy ta‘lim muassasalari tuzilmasida innovatsion jamg‘armalar va ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘yicha bo‘linmalar tashkil etildi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘laridan moliyalashtiriladigan qo‘shimcha 10 ta shtat birligini ajratgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tuzilmasida Fan va ilmiy-texnik tadqiqotlarni rivojlantirish boshqarmasini tashkil etildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Davlat innovatsion siyosatining mohiyati nimadan iborat?
2. Davlat innovatsion siyosatining transformatsiyalashuv bosqichlari qanday?
3. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda davlatning o‘rni (qonuniy-huquqiy kafolat, soliqlar orqali tartibga solish, rag‘batlantirish tizimi) qanday?
4. Innovatsion siyosatning zamonaviy dastaklari nimalardan iborat?

5. Universitetlarning innovatsion rivojlanishdagi yangicha oʻrni qanday?
6. Innovatsion strategiyani shakllantirish uchun ilmiy-texnik va innovatsion prognozlashning ahamiyati nimadan iborat?
7. Innovatsion strategiyalar qanday klassifikatsiyalanadi?
8. Innovatsion faoliyatni tartibga solish mexanizmi nimadan iborat?

13-amaliy mashgʻulot

Topshiriq

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini ifodalovchi klaster tuzing.

XIV BOB. INNOVATSION FAOLIYATNING INFRATUZILMASI

14.1. Innovatsion iqtisodiyot infratuzilmasi

Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va yangi bozorlarni shakllantirishni rag'batlantirish uchun maxsus innovatsion infratuzilma va innovatsion jarayonni qo'llab-quvvatlovchi institutlarni yaratish zarur:

1. Innovatsiyalarga talab va taklifni shakllantirish va raqobatdoshlikni rivojlantirish.
2. Samarali yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni, tarmoqlarni va tarmoqlarni yaratish.
3. Texnologiyalarni iste'molchilarga tarqatish jarayonlarini shakllantirish.
4. Iqtisodiyot va infratuzilmani modernizatsiya qilish.
5. Inson kapitalini uning ijodkorligi va innovatsionligini oshirish yo'nalishi bo'yicha modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.
6. Ilmiy-tadqiqot loyihalari, tadqiqot yo'nalishlari, shuningdek ilmiy va muhandislik guruhlarining mustaqil ekspertizasi.
7. Innovatsion iqtisodiyot sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari.
8. Prognoz markazlari, prognoz loyihalari, yangi mahsulotlarni taqdim etish xavfini kamaytiradigan va rivojlanish guruhlarining sa'y-harakatlarini muvofiqlashtiradigan yo'l xaritalarini yaratish.
9. Kelajak haqidagi tasavvurni shakllantirishga imkon beradigan turli xil ekspert va ilmiy prognozlash tashkilotlari, hamjamiyatlar va tarmoqlar.
10. Ixtisoslashtirilgan o'quv markazlari (masalan, Massachusetts texnologiya instituti, Stenford universiteti), nafaqat olimlar va muhandislarni, balki innovatsion loyihalarni ilgari surishga qodir tadbirkorlarni tayyorlaydigan institut va maktablar.
11. Texnologiyani tijoratlashtirish va rivojlantirish markazlari.

Innovatsion infratuzilma – innovatsion faoliyat subyektlariga innovatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xizmatlarni taqdim etadigan tashkilotlar majmuasidir.

Yuridik shaxs innovatsion subyektlarga ishlab chiqarish, texnologiya, konsalting, moliyaviy, axborot va boshqa xizmatlar ko'rsatadigan innovatsion faoliyat infratuzilmasi sub'yekti deb tan olinadi.

Innovatsion infratuzilma quyidagi elementlar bilan ifodalanadi:

- ishlab chiqarish va texnologik tuzilma, shu jumladan texnoparklar, innovatsion va texnologik markazlar, biznes-inkubatorlar;
- ekspert-konsalting: intellektual mulk masalalari, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, konsalting markazlari, umumiy audit, shuningdek moliya, investitsiya va marketing sohalarida ixtisoslashgan xizmatlar ko'rsatish;
- moliyaviy: har xil turdagi mablag'lar – byudjet, venchur, sug'urta, investitsiya va moliya institutlari (yuqori texnologiyalar kompaniyalari ishtirokidagi fond bozorlari);
- kadrlar: kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha o'quv muassasalari, ilmiy va innovatsion menejment, shuningdek texnologik audit, marketing sohasidagi yangiliklarni reklama qilish va sotish tashkilotlari tarkibidagi innovatsion bozor infratuzilmasi;
- ma'lumot: amalda ma'lumotlar bazasi va bilimlar, kirish markazlari, shuningdek analitik, statistik, axborot markazlari;
- savdo: innovatsion jarayonning asosiy ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kengaytirish, ilmiy va texnik ma'lumotlarning kengayishi.

Innovatsion infratuzilmaning tarkibiy qismi, shu jumladan uning moliyaviy tarkibiy qismi, xususan innovatsiyani moliyalashtirish, innovatsion muhitning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Infratuzilmani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- davlat infratuzilmasi subyektlarining investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, o'zaro lizing, davlat kredit kafolatlari, tijorat banklariga foiz stavkalarini qoplash kabi turli mexanizmlarga asoslangan moliyaviy-kredit ta'minoti tizimini yaratish bo'yicha o'zaro munosabatlari;
- innovatsion biznesni qo'llab-quvvatlash choralari amalga oshirish.

Investitsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha davlat infratuzilmasi faoliyatini takomillashtirish, shahar tuzilmalari (jamg'armalar, biznes markazlari yoki mintaqaviy fondlarning filiallari) bilan o'zaro munosabatlarni kuchaytirish, ushbu sifat tufayli o'sib borishi va investorlarga ko'rsatiladigan xizmat turlarining kengayishi bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Ilmiy va innovatsion qo'llab-quvvatlash jarayonlari vertikal ravishda boshqarilishi kerak, Rossiya Federatsiyasida Federal ilmiy-innovatsion markaz (yoki bir nechta markazlar) federal darajada ishlaydi, hududiy ilmiy

innovatsion markaz innovatsion infratuzilmaning elementi sifatida muayyan mintaqada ma'lum bir sohada innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha ishchi organ vazifalarini bajaradi.

Hududiy ilmiy-innovatsion markazning asosiy vazifasi viloyat rahbariyati uchun takliflar tayyorlashdan iborat:

- mintaqadagi muayyan sohada innovatsiyalarni davlat tomonidan boshqarish kontseptsiyasiga muvofiq Rossiya Federatsiyasi Hukumatining Federal innovatsion dasturi va ilmiy, texnik sohada innovatsion faoliyatni intensivlashtirish bo'yicha Idoralararo dastur loyihalarini tarmoq, tarmoqlararo va mintaqalararo ilmiy-texnik loyihalar bo'yicha ilmiy-texnikaviy loyihalarga kiritish uchun mintaqadan kelib tushgan arizalarni asoslash;
- mintaqaviy innovatsion dasturlar loyihalari, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar, maqsadli va samarali foydalanish uchun tarmoq va tarmoqlararo byudjetdan tashqari jamg'armalarni shakllantirish;
- viloyatning byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalari, manfaatdor mahalliy va xorijiy investorlarning mablag'lari hisobidan innovatsion dastur va loyihalarni moliyalashtirish;
- o'z mablag'lari hisobidan innovatsion dastur va loyihalarni moliyalashtirish;
- xalqaro, mintaqalararo va tarmoqlararo shartnomalar asosida birgalikda ishtirok etish shaklida shakllantiriladigan va amalga oshiriladigan ilmiy, texnik va innovatsion dasturlarni moliyalashtirish;
- o'z nomidan talabnomalarni to'ldirish va himoya hujjatlarini (Rossiya Federatsiyasi patentlari va guvohnomalari) olish;
- patent egalari va patent egalaridan intellektual mulkdan patent berish shartnomalari va lizing shartnomalari bo'yicha pullik va bepul asosda foydalanish huquqini olish;
- samarali ilmiy-texnik ishlanmalar ishlab chiqarishda keng miqyosda amalga oshirish loyihalari;
- manfaatdor sarmoyadorlar bilan birgalikda texnopark shakllarini mulkchilikning barcha shakllarini tijorat markazlari sifatida qayta ishlash, sinovdan o'tkazish, ishlab chiqarishni rivojlantirish, marketing, ishlab chiqaruvchilar bilan maslahatlashuv markazlarini tashkil etish, ishlab

chiqarishni rivojlantirish va innovatsiyalarni jadallashtirishga amaliy yordam berish;

- joylashgan joyidan tashqaridadagi yuridik shaxs bo‘lmagan hududiy ilmiy-innovatsion markazning alohida bo‘linmalari sifatida vakolatxonalar va filiallarni tashkil etish;
- ilmiy-texnik mahsulotlar va intellektual mulk bozorini rivojlantirish;
- innovatsion jarayonlarni qo‘shma faoliyat to‘g‘risidagi shartnomalar va federal infratuzilma subyektlari, mahalliy va xorijiy yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida rivojlantirish;
- hududiy va tarmoq ilmiy tashkilotlari, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, shuningdek barcha tarmoqlar va darajalarni amalga oshirish shakllari bilan o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish;
- innovatsion xizmatlarning rahbarlari va xodimlari, maslahatchilar va ishlab chiqaruvchilarni o‘qitish va uzluksiz ta‘lim tizimlari bilan o‘zaro munosabat;

Mintaqaviy ilmiy-innovatsion markazning mablag‘lari quyidagilar tomonidan shakllantiriladi:

- ilmiy-texnik mahsulotlar va intellektual mulkni iste‘molchilarga sotishdan olingan daromadlar;
- patentni berish to‘g‘risidagi shartnomalar va litsenziya shartnomalari asosida intellektual mulkka bo‘lgan huquqlarni sotishdan olingan daromadlar;
- korxonalar va tadbirkorlik sub‘yektlari bilan qo‘shma faoliyat to‘g‘risidagi bitimlar bo‘yicha innovatsion loyihalarni amalga oshirishdan olingan daromadlar;
- innovatsion, axborot va konsalting ishlari va xizmatlarini to‘lashdan olinadigan daromadlar;
- shartnomalarni (kontraktlarni) bajarish, yuridik va jismoniy shaxslarga xizmatlar ko‘rsatish uchun to‘lanadigan tushum;
- mintaqaviy ilmiy-innovatsion markaz ta‘sischilar, ishtirokchilar yoki aksiyadorlardan biri bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidan olingan foyda ulushi;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, tashkilotlar, korxonalar va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet mablag‘lari va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga o‘tkazmalar.

Federal va mintaqaviy ilmiy innovatsion markazlar va ularning texnoparklari Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga muvofiq hududlarda filiallar, vakolatxonalar, sanoat zonalarini tashkil etishlari mumkin. Bunday innovatsion tuzilmalar tarmog'i sohada ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning vertikal boshqaruvini tiklash, gorizontalar ishlarni muvofiqlashtirish, "o'sish nuqtalari" orqali innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun mablag' ajratish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash fondlari va innovatsion infratuzilmani to'ldirishning haqiqiy manbalarini yaratishga imkon beradi.

Innovatsion biznesning marketing infratuzilmasi

Korxonaning marketing infratuzilmasi deganda, uning shakllanishi, faoliyati va rivojlanishi jarayonida faoliyat almashinuvini ta'minlaydigan institutsional birliklar yoki iqtisodiy agentlar (klasterlar) tushuniladi. Infratuzilmani mustaqil bozor mexanizmi sifatida taqsimlash mehnat taqsimoti natijasida yuzaga keldi va innovatsiyalar samarali marketingning umumiy sharti hisoblanadi.

Adaptiv tizim sifatida innovatsion kompaniya to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni boshqarish ob'yekti orqali tashqi makro muhit bilan bog'liqdir. Shunday qilib, innovatsiyalarni yaratish jarayonlari ob'yektiv ravishda makro muhit omillari ta'siriga bog'liq: iqtisodiy, ilmiy, texnik, siyosiy, demografik, ijtimoiy va hokazo.

Innovatsion firmaning boshqaruv sub'yekti boshqaruv ob'yekti bilan to'g'ridan-to'g'ri va o'zaro qayta aloqa orqali ishlaydi. Tashqi muhit tashqi parametrlarning qiymatlari orqali boshqaruv organlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi va ular mikro muhit bilan ob'yekt-atrof-muhit munosabatlari bilan bog'liq, chunki mikro muhit ishtirokchilari etkazib beruvchilar, vositachilar, mijozlar, raqobatchilar va boshqa aloqa auditoriyalari hisoblanadi. Innovatsion jarayon parametrlarining qiymatlari va o'zaro aloqalari boshqaruv ob'yekti bilan o'zaro aloqa orqali uzatiladi. Marketing infratuzilmasi makro va sabab-munosabatlarning mikro muhiti tushunchasi bilan bog'liq, chunki u ikkinchisini hosil qilish va shakllantirish funktsiyalarini bajaradi.

Innovatsion biznesning bozor infratuzilmasi bu innovatsion bozorning ishlashi uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydigan tarmoqlar majmui: transport, aloqa, omborxonalar, axborot xizmatlari, moliyalashtirish va kreditlash,

sugʻurta, kommunal xizmat va boshqalar. Makro va mikro-marketing muhitiga oʻxshab bozor infratuzilmasi ham makro va mikro infratuzilishga ega.

Zamonaviy bozorlar, shu jumladan innovatsion bozorlar nafaqat yuqorida koʻrsatilgan asosiy omillar taʼsiri ostida, balki innovatsion bozor infratuzilmasini shakllantiruvchi ilmiy, texnikaviy, tijorat va marketing muhitidagi yangi tendentsiyalar bilan bogʻliq holda keskin oʻzgarib bormoqda. Mahsulotga kiritilgan texnik modda, mahsulotning eksklyuzivligi va yangiligi, uning foydali, ijtimoiy-axloqiy va maqom parametrlari kabi omillarga boʻlgan talab ortib borishi yangi tadqiqotlarni, shu jumladan biznes infratuzilmasini talab qiladi.

Tranzaksion marketingning ortib borayotgan roli - isteʼmolchilar bilan munosabatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish, ishlab chiqarish va tarqatish jarayonida strategik alyanslar va tarmoqlarni yaratish muhim hisoblanadi. Globallashuv jarayonida kompaniyalar qanchalik katta boʻlishiga qaramay, ular juda kam manbalarga ega. Strategik markazlarga birlashish innovatsion tashkilotlarning resurs va infratuzilma bazalarini kengaytirishga imkon beradi.

Toʻgʻridan-toʻgʻri va onlayn marketing mexanizmlaridan foydalanish bilan bogʻliq infratuzilma rivojlanib bormoqda. Informatika va aloqa vositalari sohasidagi inqilob innovatsion tovarlar va xizmatlarni sotish tartibini tubdan oʻzgartirmoqda. Sayyoramizning istalgan joyida joylashgan bir kishi kompyuterdan foydalanib Internetga kirish, soʻnggi mahsulot yoki xizmatni topish va buyurtma qilish imkoniyatiga ega.

Innovatsion xizmatlar marketingining rivojlanishi boshqa innovatsiyalar turlariga qaraganda tezroq rivojlanmoqda. Bu dunyoning postindustriya davriga kirishi bilan bogʻliq. Shu sababli, ishbilarmonlar va marketologlar audit, konsalting, franchayzing, lizing sugʻurtasi, dasturiy taʼminotni ishlab chiqish va hk kabi infratuzilmaviy xizmat turlari, shu jumladan yangi mahsulotlarni tarqatish jarayonlari paydo boʻlishiga zudlik bilan va yetarli darajada javob berishlari kerak.

Innovatsiyalarni yaratishda yuqori texnologiyali tarmoqlarning rolini oshirish infratuzilmaning yangi shakllariga oʻtishni talab qiladi: venchur kapital va kapital, investitsiya fondlari. Anʼanaviy firmalardan sezilarli

darajada farq qiladigan yuqori texnologiyali sanoat korxonalarini iqtisodiy o‘rnatishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Ular ilm-fanning so‘nggi yutuqlaridan foydalanadilar, yuqori xavf ostida ishlaydilar. Iste‘molchilar tovarlarni idrok etish stereotiplaridan xalos bo‘lishga majbur bo‘lmoqdalar va mahsulotning qisqartirilgan tsikllari va tezlashtirilgan texnologik eskirishga duch kelmoqdalar. Bunday kompaniyalar iste‘molchilarni yangi mahsulotlarni qabul qilishlariga ishonitirib, o‘z mahsulotlarini moliyaviy doiralarda taqdim etish (marketing) san‘atini o‘rganishlari kerak.

Makroiqtisodiy darajada o‘z xizmatlarini ko‘rsatadigan institutsional tuzilmalarni innovatsion bozorning makro infratuzilma elementlari bilan bog‘lash mumkin, bu bozor munosabatlari rivojlanishiga yordam beradigan yoki xalaqit beradigan milliy funktsiyalarni bajarish bilan bog‘liq. Bunday tuzilmalar – bu biznesning qonuniy asosini tashkil etuvchi, shuningdek boshqarish va bozor muhiti barqarorligiga hissa qo‘shadigan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va huquqiy hokimiyatlardir. BMTning xalqaro standartlashtirilgan sanoat tasnifiga muvofiq bozor infratuzilmasi xizmatlari, savdo qilinmaydigan tovarlar deb nomlanadi, ya‘ni, ular ishlab chiqarilgan mamlakatda iste‘mol qilinadi va mamlakatlar o‘rtasida harakat qilmaydi.

Innovatsion faoliyatning infratuzilmasi – innovatsion faoliyat sub‘yektlarining majmui, ularda innovatsion faoliyatni amalga oshirish va innovatsion jarayonlarning ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligidir.

Hozirgi vaqtda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga hissa qo‘shadigan tashkilotlarning ancha keng tarmog‘i mavjud (19-jadval).

19-jadval

Innovatsion infratuzilmaning umumiy sxemasi

II komponentlari	Tashkilot turi
Ishlab chiqarish	Texnopark, asbob-uskunalaridan jamoaviy foydalanish markazi va boshqalar.
Konsalting	Texnologiyalar transferi bo‘yicha maslahat markazi, biznes-inkubator, iqtisodiyot va moliya, texnologiya, marketing, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi konsalting
Moliyaviy	Byudjet tashkiloti, byudjetdan tashqari fondlar, venchur

	fondlari
Xodimlar	Texnologik va ilmiy menejment sohasida kadrlar tayyorlash tizimi; innovatsiyalar sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimi
Axborot	Davlat ilmiy-texnikaviy axborot tizimi, mintaqaviy axborot tarmoqlari, Internet
Savdo	Tashqi savdo uyushmasi, ixtisoslashgan vositachilik firmasi, Internet, ko'rgazma

Ta'kidlash kerakki, innovatsion infratuzilma ob'yektlari muammolarning faqat bir qismini hal qila oladi, va innovatsion faoliyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi faqat tegishli infratuzilma ob'yektlarining mavjudligi yoki soniga bog'liq bo'lishi mumkin emas. Muvaffaqiyatli ishlash uchun innovatsion tizim, shuningdek, maqbul me'yoriy bazaga ega bo'lishi kerak.

14.2. Innovatsion infratuzilma elementlari va ularning xususiyatlari

Infratuzilma alohida elementlarining roli va ularni rivojlantirish muammolarini tavsiflab beraylik.

1. Ishlab chiqarish va texnologik infratuzilma kichik korxonalarining ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishlari uchun sharoit yaratish uchun mo'ljallangan. Bunga texnoparklar, innovatsion va texnologik markazlar, texnologik klasterlar va boshqalar kiradi.

Texnopark (TP) bo'sh joyni tijorat ijarasidan ko'ra yaxshiroq sharoitlarda innovatsion korxonalariga ijaraga beradi. Bu erda ijaraga qo'shimcha ravishda imtiyozli shartlarda (faks, telefon, Internetga kirish, ko'p martali, kotibiyat, buxgalteriya hisobi va yuridik xizmatlar) umumiy xizmatlar ham taqdim etiladi. TP ish tajribasi strategiyaning to'g'riligini va uning yuqori samaradorligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, turli korxonalar o'rtasida ma'lumot va tajriba almashish natijasida yangi loyihalar, yangi echimlar, sotish sxemalari va boshqalar paydo bo'ladi, shuningdek, TPda soyali faoliyatni amalga oshirish uchun sharoitlar mavjud emasligi muhimdir.

Ushbu tuzilmalarni tashkil etish zarur aloqa va ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan jihozlangan hududni tashkil etish orqali amalga oshiriladi, bu erda kichik korxonalar ish boshlashlari, ijaraga olishlari va moliyaviy imkoniyatlari bo'lsa, ishlab chiqarish ob'yektlarini sotib olishlari mumkin. Yana bir variant - deyarli barcha hududlarda juda ko'p bo'lgan bo'sh yoki ishlamayotgan korxonalar asosida TPni tashkil qilishdir. Bunday loyihalar bir qator viloyatlarda allaqachon amalga oshirila boshlandi.

So'nggi paytlarda klasterlar, ya'ni cheklangan hududda joylashgan (yirik korxonada yoki bitta shaharda) va ko'p yoki kam ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan korxonalar to'plamini tashkil qilish urfga aylandi.

Ayonki, barcha kichik korxonalarni zamonaviy ishlab chiqarish uskunalari bilan ta'minlash imkonsiz, chunki ularni ishlab chiqarishning nisbatan kam hajmi zamonaviy ishlab chiqarish uskunalaridan samarali foydalanishga imkon bermaydi. Bir necha yuz ming dollarlik zamonaviy dastgohlarni faqat yirik korxonalar o'z mahsulotlarini ishlab chiqarishda uni sotib olish va samarali ishlatishga qodir. Shunday qilib, ishlab chiqarishda yangi texnologiyalarni qo'llash natijasida juda katta miqdordagi kichik va o'rta korxonalar faoliyati to'xtatiladi. Ushbu vaziyatdan chiqish uchun xizmat ko'rsatish markazlarida asbob-uskunalaridan jamoaviy foydalanish kerak. Kollektiv foydalanish markazlarini tashkil etish ko'pgina korxonalarni zamonaviy texnologiyalardan foydalanishini iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq qiladi va Rossiya iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishiga hissa qo'shadigan ko'plab ijobiy ta'sirlarni beradi.

2. Konsalting infratuzilmasi – bu konsalting tashkilotlari to'plamidir. Innovatsion faoliyat ko'pgina o'ziga xos xususiyatlarga ega, ularning bilimlari faqat amaliy tajriba bilan ta'minlanadi. "Kasbiy bo'lmagan" menejerlar tomonidan kichik innovatsion korxonalarni (MIP) tashkil etilishi bunday korxonalarining yashash darajasi odatda past bo'lishiga olib keladi. Shu sababli, professional maslahatlarga (moliyaviy, iqtisodiy, marketing, shuningdek tashqi iqtisodiy faoliyat) kirish imkoniyati innovatsion rivojlanish uchun ajratilgan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish vositalaridan biri bo'lib sanaladi. Ushbu muammolarning ko'pchiligini texnologiyalar transferi markazlari (STT) tomonidan hal qilish kerak. Hozirgi kunda STT, qoida tariqasida, yirik universitetlar va akademik

institutlarda yaratilgan, chunki aynan ular yangi texnologiyalarni rivojlantirishda eng muhim asoslarga ega. STTlar innovatsion ishlanmalarga ega bo'lgan tashkilotlarning tarkibiy bo'linmasi sifatida yoki mustaqil yuridik shaxs sifatida yaratiladi.

STT tarmog'ining rivojlanishining boshlanishi bilan paydo bo'ladigan asosiy muammolar, malakali kadrlarning etishmasligi edi. Agar kadrlar muammosi hal etilsa, STT mintaqalarda innovatsion faoliyatni rivojlantirishni rag'batlantiruvchi muhim tarkibiy qismlardan biriga aylanishi mumkin.

3. O'qitish infratuzilmasi. Agar o'qitish bilan bog'liq muammolarni batafsil ko'rib chiqsak, ushbu sohadagi muammolarning bir qatorini ta'kidlash kerak. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar bilan ta'minlaydigan kadrlar bilan bog'liq muammolar o'sib bormoqda va o'rtacha texnik xodimlar va malakali ishchilar etishmasligi muammosi mavjud. So'nggi yillarda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarining muammosi asosiy texnologiyalarning tashuvchisi bo'lgan xodimlarning qarishi bo'lib, yosh ishchilar kirmasdan, ishlatilgan texnologiyalar qisman yo'qolishi mumkin.

O'quv tizimining rivojlanishi bilan innovatsiyalarni ta'minlaydigan barcha sohalarda mutanosib ravishda o'qitishni ta'minlash kerak. Shunga qaramay, bugungi kunda aksariyat korxonalarda (ham katta, ham kichik) bozorda yangi mahsulotlarni targ'ib qilishni kafolatlaydigan mutaxassislar yo'qligini ta'kidlash kerak. Muammoni faqat 5-10 yil rejalashtirish davriga ega bo'lgan bunday kadrlar tayyorlash bo'yicha maqsadli ishlarni tashkil qilish orqali hal qilish mumkin (asosiy xodimlarni tayyorlash va ular tomonidan amaliy mehnat ko'nikmalarini olish vaqti).

Hozirgi kunda mamlakatdagi o'nlab universitetlar yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni boshqarish va marketing sohasida mutaxassislar tayyorlashmoqda, ammo bu ish unchalik samarali emas. Faqatgina kam sonli bitiruvchilar o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlashga ketmoqdalar, hatto Rosnauka ishtirokida tashkil etilgan oz sonli texnologiyalarni uzatish markazlarini sotib olishda ham jiddiy muammolar mavjud.

Va nihoyat, o'qitish uchun malakali o'qituvchilarning etishmasligini ta'kidlash kerak. Ko'pgina universitetlarda talabalarga o'rgatadigan masalalarda amaliy tajribaga ega bo'lmagan mutaxassislar o'qitadilar.

Treninglar ruscha o'ziga xoslik talab qilgani holda voqeliklarini to'liq aks ettirmaydigan chet el ishlanmalari va qo'llanmalarida olib borilib, mutaxassislar yetishtiriladi, natijada keyinchalik ular bir necha yil davomida sinov va xatolar tufayli tajribaga ega bo'lishlari kerak.

Shu munosabat bilan maslahat tizimining ahamiyatini yana bir bor ta'kidlash kerak. Kadrlar tayyorlash juda uzoq va inersion jarayoni bo'lganligi va yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ko'plab korxonalarda qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishlar vaqti kadrlar muammosini hal qilish uchun zarur bo'lgan vaqtdan kam bo'lishi mumkinligi sababli sanoat korxonalari uchun innovatsiyalar va reklama sohasida maslahat tizimlarini yaratish va rivojlantirishni ta'minlash kerak. Ushbu tizim STT tizimini takrorlamaydi, garchi u bilan yaqindan ishlashi kerak bo'lsa-da, lekin korxonalarda paydo bo'ladigan ba'zi masalalar bo'yicha bir martalik maslahat beradi. Ehtimol, ushbu tizimni innovatsion yondashuvlar asoslarini tezkor o'rganish tizimi sifatida qurish maqsadga muvofiqdir.

4. Axborot infratuzilmasi ma'lumotlarga kirishni ta'minlash bilan bog'liq. Ushbu sohada ancha keng tarmoqlar, jumladan, ilmiy-texnikaviy axborot markazlarining mintaqaviy tizimi, kichik biznesni qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalar va mintaqaviy axborot tarmoqlari mavjud. Internetda innovatsion masalalar bo'yicha katta hajmdagi ma'lumotlar mavjud.

Mavjud tizim bir qator muammolarni samarali ravishda hal qiladi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda texnik ma'lumot deyarli barcha fan va texnologiyalarning katta hajmlarida mavjud. Patent ma'lumotlariga kirish muammo emas. Innovatsion rivojlanish muammolarini hal qilishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan va katta kamchilikka ega bo'lgan asosiy ma'lumotlar bozorlar to'g'risidagi ma'lumotlarga bog'liq. Innovatsion faoliyatni axborot bilan ta'minlashning yana bir guruhi potentsial foydalanuvchilarga yangi ishlanmalar to'g'risidagi ma'lumotlarni etkazish, ulardan foydalanish bo'yicha maslahatlarni tashkil etish bilan bog'liq.

Ushbu muammoning bir qismi ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor sohalarida, shuningdek, innovatsion mavzularda axborot-tahlil markazlari tarmog'ini yaratish orqali hal qilinishi mumkin. Tugallangan ITI bo'yicha mintaq va umuman Rossiya bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini olib borish kerak. Amalga oshirilgan

ilmiy-tadqiqot ishlari to'g'risida ma'lumotni manfaatdor iste'molchilarga etkazish uchun ko'p kuch sarflash kerak.

5. Moliyaviy infratuzilma innovatsion korxonalarini (katta va kichik) moliyaviy resurslardan foydalanishni ta'minlaydigan tuzilmalarni o'z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda moliyaviy vositalar juda oz, ammo statistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z mablag'lari innovatsion sanoat korxonalarini rivojlantirishni moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadi. Bank krediti innovatsiyalarni rivojlantirish uchun hali ham juda qimmat va muddati jihatidan qisqa hisoblanadi.

Davlat byudjeti mablag'lari asosan yirik korxonalar uchun mavjud.

Ta'kidlash kerakki, so'nggi paytlarda ko'plab hududlarda mintaqaviy venchur kapital fondlari tashkil etilmoqda. Yaqinda bank tizimida kichik korxonalarini kreditlash bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun bir qator viloyatlarda kafolatli tuzilmalar va fondlar yaratildi. Kichik korxonalar tomonidan yuqori texnologik uskunalarni sotib olish uchun lizing sxemalari muvaffaqiyatli rivojlanmoqda.

Innovatsiyalarni moliyalashtirishning yana bir manbai korxonalarining xalqaro loyihalarda ishtirok etishidir. Ushbu manbadan moliyaviy daromadlarning kengayishi xorijiy sheriklar ishtirokida texnologiyalarni uzatish markazlari tarmog'ining rivojlanishi bilan mumkin.

6. Sotish infratuzilmasi. Sotish zamonaviy korxonaning raqobatdoshligining asosiy omillaridan biridir. Rossiya korxonalarining rivojlanish tarixi bilan bog'liq bo'lgan ob'yektiv sabablarga ko'ra, ularning aksariyati innovatsion mahsulotlarni sotish sohasida xodimlar va ko'nikmalarga ega emaslar, natijada ishlab chiqaruvchilar tomonidan innovatsion mahsulotlarni bozorlarda ilgari surish bo'yicha faol ish deyarli yo'q.

Ushbu muammo global bozorga chiqish uchun yanada muhimdir. Xorijiy bozorlarda, hattoki Rossiya innovatsion korxonalarini mahsulotlari to'g'risida dastlabki ma'lumotlar deyarli mavjud emas, shuning uchun ushbu yo'nalishda jiddiy ish olib borilmasdan turib, ushbu korxonalar yuqori texnologiyali mahsulotlarning jahon bozorlariga chiqishida va ularning ulushini 0,3-0,5% gacha oshirishda umid yo'q.

Innovatsion infratuzilma, shuningdek, qonunchilik va huquqiy bazaga - tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarining majmuiga, ularning

texnik va iqtisodiy salohiyatidan bozor ob'yektlari tomonidan erkin foydalanish va muqobil foydalanishni ta'minlaydi.

14.3. O'zbekistonda innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi

Innovatsion infratuzilmaning sub'yektlariga quyidagilar kiradi:

- innovatsion texnologik park;
- texnologiyalar transferi markazi;
- innovatsion klaster;
- venchur tashkiloti;
- innovatsiya markazi.

Tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, boshqa shaxslar innovatsion infratuzilmaning subyektlari bo'lishi mumkin.

Innovatsion texnologik park direksiyasi nomidan innovatsion texnologik park innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladigan yagona moddiy-texnika majmuasi bo'lgan hududga mulk huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asoslarda egalik qiluvchi yuridik shaxsdir.

Innovatsion texnopark rezidenti innovatsion texnopark hududida innovatsion loyihani amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

Innovatsion texnopark faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashga ko'maklashish;
- innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish;
- innovatsion faoliyat subyektlariga moddiy-texnik, tashkiliy-uslubiy, moliyaviy, axborotga oid, maslahat xizmatlari va boshqa servis xizmatlari ko'rsatish;
- innovatsion loyihalarni boshqarishda ko'maklashish;
- yangi ishlanmalarning tajriba-sanoat sinovlarini o'tkazish va intellektual mulk obyektlariga huquqiy muhofaza berilishiga ko'maklashish;
- yuqori texnologik va innovatsion ishlab chiqarishlarni tashkil etishdan manfaatdor bo'lgan mahalliy, xorijiy investorlarni hamda tadbirkorlik subyektlarini jalb etish;
- innovatsiyalarni tashqi bozorda ilgari surish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ko'maklashish;

➤ innovatsion faoliyat subyektlari o'rtasida uzviy va amaliy hamkorlikni ta'minlash.

Innovatsion texnoparkning asosiy vazifasi uning rezidentlarini quyidagi yo'llar bilan qo'llab-quvvatlashdan iborat:

- bozorda realizatsiya qilish uchun yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot chiqaruvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga ko'maklashish, shuningdek yangi yoki takomillashtirilgan texnologiyalarni o'zlashtirish;
- ko'char va ko'chmas mulkni, shu jumladan turli funksional maqsadlarga mo'ljallangan xonalarni shartnoma asosida ijaraga berish;
- tajriba namunasini tayyorlash hamda ularning sinovlarini o'tkazish bilan bog'liq ishlarni va boshqa tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarish;
- mahsulotni sertifikatlashtirish va ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha xizmatlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga huquqiy muhofaza berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;
- ko'rgazmalarda, konferensiyalarda va boshqa tadbirlarda ularning ishtirok etishini tashkil qilish orqali innovatsion mahsulotni, texnologiyalarni ilgari surish;
- innovatsion texnoparkning ilmiy, ilmiy-texnikaviy va innovatsion faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish).

Rezidentlardan laboratoriya asbob-uskunalarining, ishlab chiqarish, ofis xonalarining va boshqa xonalarining ijarasi, ko'rsatiladigan xizmatlar uchun kelib tushadigan mablag'lar to'liq hajmda innovatsion texnopark tasarrufida qoladi.

Innovatsion texnoparkning faoliyat ko'rsatish muddati o'ttiz yilgachani tashkil etadi, keyinchalik bu muddat uzaytirilishi mumkin.

Innovatsion texnopark rezidentining maqomi tanlov asosida o'n yil muddatgacha beriladi.

Innovatsion texnoparkning rezidentlar bilan munosabatlari ular o'rtasida tuziladigan innovatsion faoliyatni amalga oshirishga doir shartnomalar asosida tashkil etiladi.

Innovatsion texnoparkka hamda uning rezidentlariga qonun hujjatlariga muvofiq soliq, bojxona imtiyozlari va preferensiyalar belgilanishi mumkin.

Innovatsion texnoparkni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Innovatsion texnoparkning faoliyati vakolatli davlat organi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Texnologiyalar transferi markazi texnologiyalar transferini va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashirishni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan yuridik shaxsdir.

Texnologiyalar transferi markazi faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- yangi ishlanmalarni ilgari surish tashkiliy-texnikaviy imkoniyatlarini aniqlash bo'yicha bozor konyunkturasi tadqiqotlarini o'tkazish;
- muhandislik-maslahat va loyiha (injiniring) xizmatlari ko'rsatish;
- biznes-rejalar tayyorlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;
- investitsiyalarni jalb qilish;
- texnologiyalar transferi bilan bog'liq axborotni tarqatish.

Texnologiyalar transferi markazini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Innovatsion klaster tegishli hududda innovatsiyalarni yaratishda ishtirok etuvchi innovatsion faoliyat subyektlarining, innovatsion faoliyat natijalari iste'molchilarining yig'indisi sifatida yuridik shaxs tashkil etmasdan tuziladi va ushbu subyektlarning, iste'molchilarning asosiy maqsadi samarali hamkorlik qilishdan, quvvatlardan birgalikda foydalanishdan hamda bilimlar, ko'nikmalar almashishdan, shuningdek texnologiyalar transferiga ulushni ta'minlash orqali innovatsion faoliyatni rag'batlantirishdan iborat bo'ladi.

Innovatsion klaster faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- muayyan innovatsiyalarni yaratish, shuningdek bozor ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish sohasidagi innovatsion faoliyat subyektlarining salohiyatini birlashtirish;
- innovatsion klasterlar faoliyatiga taalluqli bo'lgan kadrlarni tayyorlashga va qayta tayyorlashga, shu jumladan innovatsiyalarni yaratishga doir buyurtmalarni shakllantirish;
- yangi yoki yaxshilangan ishlanmalarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi tarmoqlar va korxonalar tashkil etishga ko'maklashish;
- innovatsion faoliyat natijalarini birgalikda bozorda ilgari surish.

Innovatsion klaster iqtisodiyot ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, innovatsion faoliyat subyektlarining o'zaro manfaatdorligi asosida tashkil

etiladi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularning qarori bo'yicha tugatiladi.

Asosiy faoliyat turi xavfli innovatsion loyihalar amalga oshirilishini moliyalashtirishdan iborat bo'lgan ham yuridik shaxs shaklida tashkil etiladigan, ham yuridik shaxs sifatida tashkil etilmaydigan ixtisoslashtirilgan moliya institutlari *venchur tashkilotlar, fondlar, shirkatlardir*.

Yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar venchur tashkilotlarining ta'sischisi bo'lishi mumkin.

Venchur tashkilotlari:

- yangi tashkil etilayotgan yuridik shaxslarning ustav fondida ulush asosida ishtirok etishga;
- o'z mablag'larini yangi ishlanmalarni amalga oshirish uchun garovsiz, kafilliksiz va kafolatsiz berishga haqli.

Venchur tashkilotlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ta'sischilarning qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Innovatsiya markazi innovatsion faoliyat sohasida yangi g'oyalarni yaratishdan yangi ishlanmalarni tijoratlashtirishgacha bo'lgan to'liq ishlar turkumini amalga oshirish maqsadida yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi.

Innovatsiya markazi faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- yangi g'oyalar va ishlanmalar bazasini shakllantirish;
- yangi g'oyalarni takomillashtirish va kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish (akseleratsiya);
- innovatsiyalarga yangi g'oyalar va ishlanmalarni tatbiq etish uchun moddiy-texnik shart-sharoitlarni ta'minlashga ko'maklashish;
- innovatsion menejment bo'yicha treninglar o'tkazish;
- innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va ularni amalga oshirishga ko'maklashish;
- marketing tadqiqotlari o'tkazish;
- yangi ishlanmalarni bozor talablariga yo'naltirish va moslashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- innovatsion faoliyat subyektlari o'rtasida kooperatsiyani rivojlantirish;
- yangi g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni ommalashtirish maqsadida reklama va ko'rgazmaga oid xizmatlar ko'rsatish.

Innovatsiya markazini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Innovatsion infratuzilma nima va uning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni qanday?
2. Innovatsion faoliyatni tashkil etishning asosiy shakllari qanday?
3. Ilmiy-konstruktorlik va loyihaviy-texnologik tashkilotlar nima?
4. Texnopark, biznes-inkubator, start-ap va boshqa tizimlar qanday tashkiliy tuzilishga ega?
5. O‘zbekistonda innovatsion texnologik parklar qanday yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi?
6. Texnologiyalar transferi markazining vazifalari nimadan iborat?
7. Innovatsion klasterlar qanday samara beradi?
8. Venchur tashkilotlarining faoliyati nimaga qaratilgan?
9. Innovatsiya markazlari nima va ularning vazifalari nimadan iborat?

14-amaliy mashg‘ulot

Topshiriq

Innovatsion infratuzilma sub’yektlaridan biriga “ESSE” yozing.

XV BOB. INNOVATSION IQTISODIYOT – RAQAMLI IQTISODIYOTGA O‘TISHNING ASOSI SIFATIDA

15.1. Raqamli iqtisodiyot va uning shakllanishi

Dunyo doimo o‘zgarib bormoqda va so‘nggi yillarda ilg‘or texnologiyalar va innovatsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati tobora ko‘proq yangramoqda. Eng yangi texnologiyalar ishlab chiqarish va biznes jarayonlarining samaradorligini oshirishi mumkin. Eng yangi texnologiyalar inson faoliyatining barcha yangi sohalariga kirib borishi bilan an‘anaviy yondashuvlar va ish uslublari o‘zgaradi.

1995 yilda biznes va konsalting bo‘yicha kanadalik mutaxassis Donald Tapskott global iqtisodiyot tendentsiyalarini tavsiflash uchun mo‘ljallangan yangi atamani taklif qildi – “raqamli iqtisodiyot”. Tapskot o‘z asarlarida odamlarning turmush tarzi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta’siri ostida qanday o‘zgarishi mumkinligini va o‘zgarishi kerakligini tavsiflab berdi va foydalanuvchilar o‘rtasidagi aloqalarga - birinchi navbatda turli jug‘rofiy joylar, faoliyat sohaları va boshqalardagi odamlar o‘rtasidagi tarmoq o‘zaro munosabatlari imkoniyatlariga e‘tiborni qaratdi. Bu yangi iqtisodiyotning asosi bo‘lgan axborot aloqalarining ko‘chkiga o‘xshash o‘sishi bo‘lib, raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ga asoslangan iqtisodiyot deb ataladi.

Hozirda to‘rtinchi sanoat inqilobi yoki IR-4.0 (Industrial revolution 4.0), ma‘lum bo‘lganidek, kiber-fizik tizimlar, neyrotexnologiyalar, sun‘iy intellekt, katta hajmli ma‘lumotlar, robototexnika, bulutli hisoblash, nanotexnologiya, kvant kompyuter, biotexnologiya, buyumlar interneti, beshinchi avlod simsiz texnologiyalar (5G), 3D bosib chiqarish tizimlar kombinatsiyasini anglatadi. (38-rasm.)

To‘rtinchi sanoat inqilobi iborasi birinchi marta Jahon iqtisodiy forumining ijrochi raisi Klaus Shvab tomonidan 2015 yil tashqi ishlar bo‘yicha maqolasida e‘lon qilingan, "To‘rtinchi sanoat inqilobini o‘zlashtirish" Jahon iqtisodiy forumi yillik yig‘ilishining 2016 yilgi mavzusi bo‘lgan. 2016 yil 10 oktyabr kuni Forum San-Frantsiskoda To‘rtinchi Sanoat Inqilobi markazining ochilishini e‘lon qildi.

Ushbu to‘rtinchi inqilobda fizik, raqamli va biologik olamlarni birlashtirgan bir qator yangi texnologiyalar paydo bo‘ldi.



38-rasm. IR-4.0 tarkibi

Ushbu yangi texnologiyalar barcha fanlarga, iqtisodiyotga va sohalarga ta'sir qiladi. Jumladan, ular orasida hukumat; siyosat va tartibga solish; elektr infratuzilmasi; telekommunikatsiya sohasi; raqamli xizmat ko'rsatuvchi provayderlar; elektron biznes va elektron tijorat sanoati; axborot va bilimlarni boshqarish tizimlari; intellektual mulk huquqlari; inson kapitali va bilim ishchilari; tadqiqot va ishlanmalar; va rivojlanayotgan texnologiyalar bor. Raqamli inqilobning iqtisodiyot uchun ahamiyatini misollarda keltiradigan bo'lsak, 2016 yilda global raqamli iqtisodiyot 11,5 trln. dollarga teng bo'lib, dunyo yalpi ichki mahsulotining 15,5 foizni tashkil etadi. O'n yildan kam vaqt ichida ushbu ko'rsatkich 25 foizga o'sishi kutilmoqda.

Ekotizimining mohiyati va tabiatini tushunish uchun raqamli iqtisodiyotga berilgan ayrim ta'riflarni o'rganish maqsadga muvofiq. (20-jadval)

Raqamli iqtisodiyot ta’rifi	Muallif
Raqamli iqtisodiyot – bu bizning voqeligimizni to‘ldiruvchi virtual muhit	V.Ivanov
Raqamli iqtisodiyot – raqamli texnologiyalardan foydalaniladigan iqtisodiy ishlab chiqarish	R.Meshcheryakov
Raqamli iqtisodiyot ma’lumot va ma’lumotning moddiy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda, shuningdek, saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun raqamli texnologiyalardan faol foydalanishda rol o‘ynashi bilan tavsiflanadigan zamonaviy iqtisodiyot turi	A. Kuntsman
Raqamli iqtisodiyot elektron mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish va ularni elektron tijorat orqali tarqatish asosida: "elektron mahsulotlarga ixtisoslashgan biznes ishlab chiqarish jarayonlarini, pul o‘tkazmalarini amalga oshiradi, shuningdek internet texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlar bilan ishlash va ularni boshqarish bilan shug‘ullanadi	R.K.Asanov

Raqamli iqtisodiyotning institutsional muhitining elementlaridan biri bu infratuzilma yoki ekotizimdir⁵².

Infrastruktura (lotincha infra - "quyida", "ostida" va lotincha structure - "tuzilma", "joylashish") – har qanday tizimning uzluksiz ishlashini ta'minlaydigan o'zaro mustaqil tuzilmalar to'plamidir. Atama 1920-1930 yillarda harbiy sohada paydo bo'lgan. Umumiy ma'noda infratuzilma butun jamiyat yoki unga tegishli soha faoliyat ko'rsatadigan korxonalar, tashkilotlar, boshqaruv tuzilmalari majmuasidir.⁵³


Hozirgi vaqtda ilmiy adabiyotlarda "infratuzilma" atamasi bilan bir qatorda yoki uning o'rniga "ekotizim" atamasi qo'llanilmoqda.

1993 yilda biznesga nisbatan ekotizim atamasi J. Mur tomonidan ishlatilib, uni biologiyadan iqtisodiyotga o'tkazgan.

⁵² https://bstudy.net/777130/ekonomika/ekosistema_tsifrovoy_ekonomiki

⁵³ Инфраструктура. [Электронный ресурс]. — Режим доступа: [https://ru. Wikipedia.](https://ru.wikipedia.org)

Deloitte Consulting tomonidan nashr etilgan “Business Trends” hisobotida ekotizimlar oladigan turli xil subyektlardan iborat dinamik va hamkorlikda rivojlanayotgan jamoalar bo‘lib, ular o‘zaro ta‘sir va raqobat jarayonida yangi tarkib yarata olish hususiyatiga ega⁵⁴.



39-rasm. Tadbirkorlik ekotizimi ko‘rinishi

Bir tomondan ekotizimlar barqaror va bardoshlidir, boshqa tomondan ular doimiy ichki dinamik jarayonlar va transformatsiyalar bilan ajralib turadi. Ba'zi tizimlar (masalan, dasturiy ta'minot (DT)) har doim nozik individualizatsiya yo'nalishi bo'yicha rivojlanayotgan bo'lsa, boshqa tizimlar, masalan, texnologik infratuzilma, aksincha, kichik o'yinchilarni birlashtiradi, singdiradi va boshqalarga resurslar, ma'lumot va platformalarni taklif etadi.

Olimlar o‘zida ichki raqobat va kooperasiyani tashkil qiluvchi o‘zaro hamkor tashkilotlarning (kichik korxonalar, korporatsiyalar, universitetlar, ilmiy muassasalar, notijorat sektori tashkilotlari va b.) dinamik tarkibini ECOTIZIM deb atay boshlashdi.

⁵⁴ Обзор новых бизнес-тенденций, или Экосистемы рынка труда. [Электронный ресурс]. -Режим доступа: <https://habrahabr.ru/company/mbaconsult/blog/295502/>

R.W.Ayres ekotizimning maqsadi kompaniyalarining o'z sheriklari bilan o'zaro aloqalarini takomillashtirish, o'zaro etakchi bo'ladigan innovatsion mahsulotlarni yaratishda ifodalangan raqobatbardosh ustunliklarni rivojlantirish ekanligini ta'kidlaydi⁵⁵. Uning fikricha, kompaniyalar uchun "sog'lom" ekotizimni qaror toptirish uchun innovatsiyalar joriy etish va yangi aloqalarni o'rnatishi kerak.

"Ekotizim" atamasi biznes aylanmaga nisbatan yaqinda kirib keldi.

Ilmiy adabiyotlarda biznes ekotizimiga quyidagi ta'rif berilgan. Bu tabiat xilma-xilligi bo'lgan atrof-muhit elementlarining barqaror ochiq tizimidir, ular o'rtasida doimiy ravishda resurslar almashinuvi jarayonlari bo'lib turadi, bu ham korporativ, ham mintaqaviy, milliy va integratsion darajalarda ishlashning barqarorligini ta'minlaydi.⁵⁶

Umuman olganda, "ekotizim" atamasini ilmiy adabiyotlarda qo'llashning ma'nosi innovatsiyalarni faol yaratish va amalga oshirish maqsadida tashkilotlar o'rtasida yaqin hamkorlik aloqalari va o'zaro aloqalarni o'rnatishga qaratilgan. Zamonaviy sharoitda chet ellik mutaxassislar o'zaro hamkorlik va sheriklikni afzal ko'rishadi. Darhaqiqat, raqamli iqtisodiyotning ekotizimi – intellektual, ishlab chiqarish, axborot va boshqa resurslarni birgalikda ishlatadigan va ularga kirish imkoniyatini beruvchi kompaniyalar to'plamidir. Resursni baham ko'rish barcha manfaatdor tomonlarga ekotizim miqyosidagi imtiyozlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Hamkorlik va o'zaro aloqalardan tashqari, ekotizimdagi tashkilotlar o'rtasida raqobat mavjud, bu raqamli iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari tufayli ob'ektiv hodisadir.

Elektronika va dastur ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasi (ARPE – Assotsiatsiya razrabotchikov i proizvoditeley elektroniki) mutaxassislarining fikriga ko'ra, raqamli iqtisodiyot narxlar raqobatini kuchayishiga va faoliyat ko'lamiga talablarning oshishiga olib keladigan texnologiyalarni, dizaynlarni, jarayonlarni keng standartlashtirish bilan

⁵⁵ Yakovleva A. Yu. Факторы и модели формирования и развития инновационной экосистемы. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук Национальный исследовательский университет «Высшая Школа Экономики». М., 2012. [Elektronniy resurs]. – Rejim dostupa: <https://search.rsl.ru/ru/record/01005472744>. <http://dlib.rsl.ru>, <http://libed.ru/knigi-nauka/98679-1-faktori-modeli-formirovaniya-razvitiya-innovacionnih-ekosistem.php>

⁵⁶ Goloxvastov D.V. Экосистема как инструмент сбалансированной интеграции интересов экономических агентов в условиях цифровой экономики. [Elektronniy resurs]. - Rejim dostupa: <http://izron.ru/articles/sovremennyy-vzglyad-na-problemy-ekonomiki-i-menedzhmenta-sbornik-nauchnykh-trudov-po-itogam-mezhduna/sektsiya-2-ekonomika-i-upravlenie-narodnym-khozyaystvom-spetsialnost-08-00-05/ekosistema-kak-instrument-sbalansirovannoy-integratsii-interesov-ekonomicheskikh-agentov-v-usloviyakh/>

tavsiflanadi. Keng miqyosli va takrorlanadigan muvaffaqiyatli echimlarni yaratadigan kompaniyalar bozorni o'rta va eng yomon ishlab chiqaruvchilar bilan bo'lishmaydilar, uni butunlay egallab olishadi. Har bir segmentda bozorning 40 foizini boshqaruvchi etakchi daromadning 80 foizidan ko'prog'ini oladi. Yetakchi kompaniya va qolgan ishtirokchilarning investitsiya imkoniyatlarida ulkan, tobora kengayib borayotgan bo'shliq paydo bo'lmoqda. Bozorlarni monopollashtirish jarayoni, oligopolistik tuzilmalarning paydo bo'lishi, mamlakatlarning jahon bozoridagi ixtisoslashuvini mustahkamlaydi⁵⁷.

Raqamli platformalarning rivojlanish sohasidagi yorqin misollardan biri sifatida Alibaba elektron savdo tizimiga ega bo'lgan Xitoy kompaniyasini keltirib o'tish mumkin. Undan foydalanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlar to'plash jarayoni iqtisodiyotning turli sektorlariga ekspansiya uchun o'ta raqobatli ustunliklar yaratadi. Alibaba bu – oddiygina raqamli platforma emas, balki platformalar ekotizimidir. Tushunarliki, bunday ekotizim qudrati alohida platformalar kuchidan katta bo'ladi.

Raqamli transformatsiya manfaatdor tomonlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi:

- davlat tomonidan – sohani tartibga solish, normalar va tartib-qoidalarni belgilash, qo'llab-quvvatlash choralari ta'minlash nuqtai nazaridan, shuningdek, raqamli paradigmaga o'tish uchun ishlab chiqarish liderlarini rag'batlantirish;
- iqtisodiyot tarmoqlarining etakchi korxonalarini tomonidan – ekspertlar hamjamiyatini birlashtirish, ma'lumot almashish doirasida rivojlanish uchun resurslar va ularga kirishda raqamli xizmatlar, standartlashtirish, ishonch va xavfsizlik darajasini ta'minlash;
- innovatsion kompaniyalar tomonidan – yangi raqamli xizmatlar va iste'molchilarga mo'ljallangan mahsulotlar paydo bo'lishining asosiy drayveri sifatida ko'rish.

Shunday qilib, raqamli rejimga o'tish uchun ochiqlik va jamoatchilikning ishtiroki printsipial jihatdan muhimdir va raqamli sanoatning ekotizimlarini shakllantirish raqamli iqtisodiyotning asosiy yechimiga aylanmoqda.

⁵⁷ ARPE rasskazala o tsennosti ekosistem dlya razvitiya tsifrovoy ekonomiki v Rossii. [Elektronniy resurs]. — Rejim dostupa: http://arpe.ru/news/ARPE_rasskazala_o_tsennosti_ekosistem_dlya_razvitiya_tsifrovoy_ekonomiki_v_Rossii/

Raqamli sanoatning ekotizimi – bu raqamli xizmatlarning innovatsion rivojlanishi va tarqalishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydigan muhit, raqamli mahsulotlar, dasturlar va qurilmalardan iborat.

Ekotizimni yaratish nafaqat tashkiliy, balki texnologik jarayondir. Chunki aynan raqamli texnologiyalar ekotizim ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni avtomatlashtirishga, biznesni global miqyosda kengaytirishga imkon beradi⁵⁸.

Gartner, Inc. (NYSE: IT) – etakchi global tadqiqot va konsalting kompaniyasi – har qanday biznesni aktivlari, jarayonlari va funksional bo'linmalari yopiq tizim sifatida emas, balki tashkilotdan tashqarida ham ochiq chegaralari bo'lgan platformalar to'plami sifatida ko'rib chiqishga chaqiradi. Hozirgi rivojlanayotgan texnologik yo'nalishlar beshligida "ekotizim kuchi" ikkinchi o'rinni egallaydi.

Ekotizimdagi munosabatlar va aloqalar kompleksi nafaqat biznesning muvaffaqiyatiga, balki inson atrof-muhiti holatiga, insonning ushbu muhitni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish qobiliyatiga ham ta'sir qiladi. Ushbu ta'sir kompleksi biznes ekotizimining institutsional xususiyatini o'z ichiga oladi.


Shu sababli, tashkiliy hodisa – biznes ekotizimi – ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi, texnologik xavfsizligi va kasbiy layoqat nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

Jamiyatda faol takrorlanadigan "Biznes raqamli tizimga o'tadi" shiori bir tomonlama, tor darajada fikr yurituvchilar tomonidan barcha ma'lumotlarning raqamli shaklga o'tkazilishi sifatida qabul qilinadi. Ammo biznes aloqalari sohasida ushbu shior raqamli ma'lumotlar bilan to'g'ri ishlash va undan analitik qimmatliklarni – yangi g'oyalar va bilimlarni chiqarib olish qobiliyatiga aylanmoqda. Raqamlashtirish ishbilarmonlik muvaffaqiyatining drayveriga, biznesdagi raqobatbardosh ustunlikka aylanmoqda. Bugungi kunda ushbu qimmatliklarga kerakli vaqt oralig'ida osongina "erishish" mumkin emas. Innovatsion jarayonlarni jadallashtirish uchun tashqi kuchlarni birlashtirish – o'zlarining ekotizimini shakllantirish – tashkilotlarga raqobat kurashida kuchli mavqega ega bo'lishga imkon beradi.

⁵⁸ https://studme.org/339535/ekonomika/postroenie_ekosistemy_organizatsionno_tehnologicheskii_protssess

15.2. Jahonda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi

Jamiyat raqamli transformatsiyasining muqarrarligi ("Raqamlashtirilishi mumkin bo'lgan hamma narsa raqamlashtiriladi" – Den Reymer, 2016) va ushbu o'zgarish natijasida tashkiliy sohadagi agentlar uchun qanday kasbiy mahoratlarni rivojlantirish kerak?, qanday tashkiliy modellarni joriy etish kerak? qaysi harakatlar algoritmlarini qo'llash kerak? qanday xatti-harakatlar eng moslashuvchan hisoblanadi? kabi yangi savollar tug'iladi.



40-rasm. Jahon internet trafigi diagrammasi

Raqamli transformatsiya barcha jarayonlar va o'zaro ta'sirlarni tezlashtiradi, ularni real vaqt rejimiga o'tkazadi, bu esa barcha aktor(ishtirokchi)larning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirini kuchaytiradi. Tarmoqli o'zaro aloqa, agar hamma hamma bilan bog'langan bo'lsa va real vaqt rejimida ulanishlarni amalga oshira olsa, ishtirokchilardan tarmoqda o'zlarini aniq joylashtirilishi, roli va funkcionalligini aniqlash talab etiladi.

Inson omilini ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy munosabat jarayonlaridan chetlashtiradigan buyumlar Internetining (IoT) rivojlanishi jismoniy va raqamli olamni birlashtiradi, funktsiyalarning takrorlanishini diagonal ravishda olib tashlaydi, sanoat chegaralarini yo'q qiladi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi (yo'q qiladi), shu jumladan, "vertikal vaqt" va tashkiliy tizim konturlarini texnologik jihatdan kengaytiradi.

Big Data analitikasi va sun'iy intellektning o'sib borayotgan imkoniyatlari yaqin vaqtlargacha texnologik jihatdan imkonsiz bo'lgan sheriklikni kuchaytirmoqda (masalan, noan'anaviy ma'lumotlar skoringi, B2B operatsiyalarini aqlli skoringi).

Bular yangi turdagi tashkiliy tuzilma – ekotizimning paydo bo'lishi va kengayishi uchun zarur shartlardir.

Raqamli iqtisodiyot umuman iqtisodiyotni o'zgartirmoqda. Jumladan, fond birjasida savdolar bilan shug'ullanadigan robotlarni misol keltirish mumkin. Robotlar o'zgaruvchan sharoitlarga odamlarga qaraganda tezroq javob berishga qodir, chunki ularda foydalilik va xavflarni hisoblash uchun zamonaviy algoritmlar yaratilgan.

2019 yil iyul oyida McKinsey konsalting kompaniyasi kelgusi yillarda hayotni, biznesni va global iqtisodiyotni o'zgartirishi mumkin bo'lgan texnologiyalar, jumladan, mobil internet, haydovchisiz mashinalar va zamonaviy genomika haqida hisobotni taqdim etdi⁵⁹.

Tahlilchilarning prognozlariga ko'ra, 2025 yilga kelib, ushbu texnologiyalarni joriy etishdan potentsial iqtisodiy samara 14-33 trillion AQSh dollarini tashkil etadi. Ushbu prognoz asosiy potentsial imtiyozlarni, shu jumladan nisbatan sifatli mahsulotlar va arzon narxlarni chuqur tahlil qilishga asoslangan.

Hisobot quyidagi texnologik yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- Mobil Internet;
- Avtomatlashtirish;
- Buyumlar interneti;
- Bulutli hisoblashlar;
- Rivojlangan robototexnika;
- Avtonom transport vositalari;
- Keyingi avlod genomikasi;
- Yangi energiya saqlash vositalari;
- 3D bosib chiqarish;
- Yaxshilangan materiallar va yoqilg'i;
- Qayta tiklanadigan energiya manbalari.

Hozirgi kunda dunyodagi voqelikdan xabardor yirik kompaniyalar raqamlashtirish, bulutli texnologiyalar va tarmoqni yangilashdan iborat infratuzilmaga e'tibor qaratishmoqda. Raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi iste'molchilar, davlat va umuman jamiyat uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochadi.

Raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash bo'yicha dunyodagi etakchi davlatlar qatorida Singapur, Xitoy, Janubiy Koreya, Yangi Zelandiya va Daniya kabilarni sanab o'tish mumkin. Mamlakatlar texnologiyalarni

⁵⁹ <https://news.myseldon.com/ru/news/index/213613787>

raqamlashtirish va yuqori darajadagi tashabbuslarni amalga oshirdi. Jumladan, 2014 yilda Singapur o'zining Smart Nation kontsepsiyasini asoslab berdi va ushbu kontsepsiyani amalga oshirish uchun biznes hamjamiyatini taklif qildi. "Smart Nation" Kontsepsiyasi – davlat korxonalarini raqamli texnologiyalarni aholining kundalik hayotiga kiritish orqali hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan. Ushbu kontsepsiyani amalga oshirish uchun nafaqat yirik kompaniyalar, balki kichik va o'rta biznes vakillari ham jalb qilingan. Smart hisoblagichlar bilan jihozlangan shahar bloklari datchiklar orqali elektr, suv va boshqalarning sarflanish ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatadilar. Olingan ma'lumotlar hukumatga shahardagi suv iste'molini yaxshilash va toza suv import qiladigan Malayziyadan qaramlikni kamaytirishga yordam beradi. Sensorlar yordamida fuqarolar resurslarni sarflanishini kuzatib borishi va uy xarajatlarini qanday kamaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berishi kerak. Avvalo, dastur ishtirokchilari uy-joy, sog'liqni saqlash (bemor uydan chiqmasdan yordam olishi, masofadan turib shifokor bilan bog'lanishi) va transport tarmog'i (haydovchisiz avtomobillar va avtobuslar) muammolarini hal qilish bilan shug'ullanishadi. Ushbu tizimlarning barchasi birgalikda Virtual Singapur deb nomlangan ekotizimni hosil qiladi. Shunindek, real vaqt birligida sayyohlar yo'llardagi tirbandlikni kuzatib borish, xavfsizlik kameralaridan ma'lumotlarni ko'rishlari mumkin.

Dunyoning rivojlangan davlatlari iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasi ustunlikka egaligi va ular asosida axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi bilan ajralib turadi. Biroq, jamiyat taraqqiyotdan to'xtamaydi, uning yanada rivojlanishi va xizmat ko'rsatish sohasining ishlab chiqarishga nisbatan ustunligi ortib borishi, bunda axborot texnologiyalari va IT sektori muhim rol o'ynay boshlaganligi, kishilarni har qanday xizmatdan foydalanish mexanizmini sezilarli darajada soddalashtirdi. Internetning rivojlanishi va global tarmoqqa kirish narxining pasayishi, umuman, insoniyat hayotini va xususan iqtisodiyotini o'zgartirgan haqiqiy axborot (raqamli) inqilobiga aylandi.

Raqamli iqtisodiyot, ya'ni yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishi, albatta, inson hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tufayli iste'molchi kerakli xizmatlarni tezda olishi, Internet-dokonlarda arzon narxlarda mahsulot sotib olib, pulni tejashga qodir. Oxir-

oqibat, iste'molchi hatto o'z biznesini onlayn ravishda boshlashi, uydan chiqmasdan tadbirkor bo'lishi mumkin.

Jahon banki 2016 yildagi hisobot-sharhida raqamli iqtisodiyot mehnat unumdorligini o'sishiga, kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirishga, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga, qashshoqlik va ijtimoiy tengsizlikka barham berishga yordam berishini ta'kidlab o'tilgan.

15.3. O'zbekiston raqamli iqtisodiyotga o'tish

Zamonaviy jamiyatning rivojlanishi va raqamli muhit O'zbekiston iqtisodiyotini global makonga kirishiga imkon beradi, chunki biznes sohasi uzoq vaqtdan buyon fuqarolar bilan hamkorlikda raqamli texnologiyalardan, shu jumladan raqamli valyutadan foydalanmoqda. Jismoniy pullar bilan bir qatorda raqamli valyuta muomalada qo'llanilmoqda. Bu esa tovarlar aylanmasini sezilarli darajada oshiradi va umuman iqtisodiyot rivojlanishida ijobiy dinamikani yaratadi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi to'liq globallasuvni, iqtisodiyot sohaslarida yuqori raqobat muhitini, malakali kadrlarning mavjudligini va yuqori sifatli ta'limni, hayotning yangi sifatini, biznes va davlat xizmatlarini, zamonaviy shaharlarda zamonaviy Internet infratuzilmasini o'rnatishni, aholining raqamli savodxonligini oshirishni va barcha sohalarda IT mutaxassislarini muntazam ravishda o'qitishni anglatadi.

Raqamli iqtisodiyotning muhim mezonlari – davlat va kommunal xizmatlarning sifatini yaxshilash va ularni taqdim etishda davlat xarajatlarini kamaytirishdir. Shu bilan birga, davlat infratuzilmaning barqarorligi va xavfsizligini kafolatlashi, aholining yuqori darajadagi bilimlarini, shu jumladan raqamli savodxonligini ta'minlashi, raqamli iqtisodiyotni barcha sanoat sohalari bilan bog'lab turishi, eng muhimi, xalqaro raqamli sanoatni milliy infratuzilmaga qo'shishi kerak.

Shu maqsadda davlat texnoparklar, ilmiy-ishlab chiqarish klasterlari va boshqa innovatsion loyihalarni yaratish, raqamli savodxonlik bo'yicha fuqarolarni keng va arzon o'qitish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, 5G yoki undan yuqori tarmoqlar bilan Internetni qamrab olishni ta'minlash va elektron hujjat aylanishini joriy etish bo'yicha ishlar olib borishi kerak. Bularning barchasi davlatdan katta moliyaviy investitsiyalarni, korxonalar

ishchilari va aholini raqamli iqtisodiyot asoslariga o'qitish uchun yuqori malakali mutaxassislarni talab qiladi, lekin bu zamon va xalq xizmatiga qo'yiladigan ilg'or axborot texnologiyalarining talabidir.

O'zbekiston hukumati raqamli iqtisodiyot dasturini davlatning strategik rivojlanish rejasiga kiritdi, uning maqsadi respublikada to'liq raqamli muhit va raqamli maydon yaratishdir. Hukumatning fikriga ko'ra, aynan iqtisodiyotni "raqamlashtirish" mamlakatga global raqobatbardoshlik va milliy xavfsizlik masalalarini imkon qadar tezroq hal qilishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga 2018 yil 28 dekabrda murajaatnomasida: "... 2019 yilda biz raqamli texnologiyalar asosida iqtisodiyotning barcha sohalarini yangilashni ko'zda tutadigan Raqamli iqtisodiyotning "Raqamli O'zbekiston - 2030" milliy konsepsiyasini ishlab chiqishni boshlashimiz va shu asosda dasturni amalga oshirishimiz kerak", - deya ta'kidlangan. "Raqamli iqtisodiyot" mamlakat hayotining barcha sohalarini raqamli makon bilan ta'minlaydi. Dasturning asosiy maqsadi mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun huquqiy, texnik, tashkiliy va moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish va keyinchalik xorijiy mamlakatlarning raqamli iqtisodiyotlari bilan integratsiyalashuvidir. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotning kamida 30 foizga o'sishini ta'minlaydi va korrupsiyani keskin kamaytiradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlarning tahliliy izlanishlari buni tasdiqlaydi. Mamlakat iqtisodiyotda raqamli formatga o'tish dasturini ishlab chiqishga kirishdi. Ushbu dasturning bosqichlari 2030 yilgacha davom etadi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Respublikada raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, 2017

— 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar, biznes hamjamiyati va ilmiy doiralar vakillari hamda xorijiy ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi qabul qilindi.

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- optik tolali aloqa liniyalari, xalqaro kommutatsiya markazlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish orqali mintaqaviy va xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlarining, O‘zRning chegaradosh Markaziy Osiyo davlatlari bilan tranzit aloqalarining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini kengaytirib borish;
- taqdim etilayotgan xizmatlar hajmini oshirish, rezervlash, tizimlarning ishonchliligini ta’minlash, shuningdek, aholi punktlari va ijtimoiy obyektlarni keng polosali xizmatlardan foydalanish imkoniyati bilan ta’minlash uchun ma’lumotlar uzatish tarmog‘ini kengaytirish;
- mobil va yo‘ldosh aloqa operatorlarining investitsion faolligini rag‘batlantirishning qo‘shimcha mexanizmlarini yaratish;
- mobil aloqa tarmog‘ini 4G va 5G texnologiyasi bo‘yicha rivojlantirish, Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlarini beshinchi avlod aloqa tarmog‘i bilan bosqichma-bosqich qamrab olish;
- barcha aholi punktlari va ijtimoiy obyektlarni optik va mobil keng polosali xizmatlardan foydalanish tarmoqlari bilan qamrab olish
- avtomagistral va temir yo‘llari, turistik obyektlarni mobil aloqa tarmoqlari bilan qoplashni ta’minlash;
- Internet jahon axborot tarmog‘iga ulanish tariflarini takomillashtirish va optimallashtirish;
- geografik joylashuvidan qat’iy nazar, fuqarolarning o‘sib borayotgan axborotga ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun keng polosali simsiz va mobil texnologiyalarni yanada rivojlantirish;

- iste'molchilarga televizion signalni uzatish, yer usti televizion eshittirish, kabel televideniyesi, IP-televideniye, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari, mobil aloqa, Internet texnologiyalaridan foydalangan holda teleradioeshittirish, televizion va radio xizmatlarining barcha turlarini to'liq qamrab olgan holda raqamli eshittirishni takomillashtirish;
- “bulutli” hisoblashlar asosida ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini rivojlantirish, foydalanuvchi talablariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining axborot resurslariga doimiy ulanishni ta'minlash;
- bozorning erkin rivojlanishi imkoniyatini saqlab, telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish uchun sharoitlarni yaxshilash, biznes yuritish va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish uchun ma'muriy to'siqlarni kamaytirish;
- elektron hukumat doirasida elektron davlat xizmatlaridan foydalanish uchun barcha davlat organlari, ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalarini idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'iga ulagan holda ushbu tarmoqni rivojlantirish;
- mamlakatimiz hududida davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun axborotni saqlash, qayta ishlash, himoya qilish va elektron davlat xizmatlarining foydalanuvchanligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish va elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish doirasida “xizmat sifatida dasturiy ta'minot”, “xizmat sifatida platforma”, “xizmat sifatida infratuzilma” texnologiyalarini keng joriy etish;
- shahar infratuzilmasini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali transport logistikasi, shahar infratuzilmasi, shahar muhitining sifati, shahar rivojlanishini boshqarish samaradorligi, jamoat, biznes va yashash joylari bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun “aqlli” va “xavfsiz” shahar loyihalarini izchil amalga oshirish;
- keng polosali ulanishni rivojlantirishning texnologik asosi iste'molchilarga asosiy va qo'shimcha xizmatlarni, shu jumladan texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish xizmatlarini, aholining hayotini qo'llab-quvvatlashda aqlli tizimlarni joriy etishning bir qismi sifatida individual infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga bosqichma-bosqich kirishni

ta'minlash uchun yagona infratuzilma yordamida multiservis tarmoqlarini rivojlantirish;

- mavjud aloqa (simsiz va optik), simli va simsiz aloqa texnologiyalari va tizimlari, shuningdek, yangi geografik axborot va navigatsiya tizimlarining samaradorligini oshirish yo'llarini o'z ichiga olgan aloqa va navigatsiya texnologiyalarini rivojlantirish;
- aloqa operatorlari o'rtasida raqobatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

Shunday qilib, "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasi O'zbekiston Respublikasining innovatsion faoliyatining muhim yo'nalishi bo'lib, uning asosiy maqsadi nafaqat yuqori rivojlanishga erishish, balki dunyoning rivojlangan davlatlari bilan integratsiya va o'zaro aloqada bo'lishdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Raqamli iqtisodiyot kategoriyasiga berilgan ta'riflari haqida ma'lumot bering.
1. Raqamli iqtisodiyot ekotizimi klasteri deganda nimani tushunasiz?
2. Ekotizim klasterining maqsadi nima?
3. Yuqori – ilg'or texnologiyalar haqida nimalarni bilasiz?
4. Davlat-Biznes-Iste'molchi uchligi nima?
5. Raqamli iqtisodiyot ekotizimi kadrlar salohiyati haqida yozing.
6. Ma'muriy-huquqiy asoslar deganda nimani tushunasiz?
7. Axborot infratuzilmasi nima?
8. Raqamli iqtisodiyotga o'tishda investitsiyalarning o'rni qanday?
9. Texnologik rivojlanish omillarini sanab o'ting.

15-amaliy mashg'ulot

Topshiriq.

O'zbekistonning raqamli ekotizimini klasterli usulda xablarga ajrating. Har bir xabning tarkibiy qismlarini izohlang.

GLOSSARIY

Atamaning o`zbek tilidagi nomlanishi	Atamaning rus tilidagi nomlanishi	Atamaning ingliz tilidagi nomlanishi	Atamaning ma`nosi
Innovatsiya	Innovatsiya	Innovation	bu qandaydir yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayonni, marketingning yangi uslubini ish amaliyotida, ish joylarini tashkil qilishda yoki tashqi aloqalarda yangi tashkiliy uslubni iste`molga kiritishdir.
Innovatsion faoliyat	Innovatsionniy aktiv	Innovative activity	innovatsiyani amalga oshirishga olib keladigan yoki shu maqsad bilan ko`zlab qilingan barcha ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, tijorat, marketing harakatlardir. Innovatsion faoliyat shuningdek qandaydir aniq innovatsiyani tayyorlash bilan to`g`ridan-to`g`ri bog`liq bo`lmagan tadqiqotlar va ishlanmalarni o`z ichiga oladi.
	Texnologicheskie novinki		bu yangi mahsulot va jarayonlarni ishlab chiqarish va joriy etish, shuningdek mahsulot va

Texnologik innovatsiyalar		Technological innovations	jarayonlarni sezilarli takomillashtirish; texnologik jihatdan yangi yoki sezilarli takomillashtirilgan xizmatlar, yangi yoki sezilarli takomillashtirilgan xizmatlarni ishlab chiqarish (ko`rsatish) usullarini ishlab chiqarish va joriy etish.
Mahsulot innovatsiyasi	Innovatsiya produkta	Product innovation	bu yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan tovar va xizmatlarni joriy etishdir. Masalan, texnika xususiyatlari, komponent va materiallari, ichiga o`rnatilgan dasturiy ta`minoti, foydalanuvchi uchun qulayligi yoki boshqa funktsional xususiyatlari.
Jarayon innovatsiyasi	Innovatsionniy protsess	Process innovation	yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan ishlab chiqarish yoki etkazib berish uslubini, texnik jarayonlar, uskunalari va/yoki dasturiy ta`minotdagi sezilarli o`zgarishlarni joriy etishdir.
Marketing innovatsiyasi	Marketingovie innovatsii	Marketingovie innovatsii	bu firma tomonidan marketingning yangi uslubini joriy etish (mahsulotning dizayni va qadoqlash, uni

			joylashtirish, narx belgilash, bozorga chiqarish) agarda u firma tomonidan birinchi marta ishlatilayotgan bo`lsa.
Tashkiliy innovatsiya	Organizatsion-naya innovatsiya	Organizational innovation	bu firmaning ish amaliyotiga yangi tashkiliy uslubni joriy etish.
Nou-xau	Nou-xau	Know-how	bu ishlab chiqarish siri hisoblangan, egasi bu ma`lumotlarni uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy ishlatilishidan himoya qilish huquqiga ega bo`lgan, himoyalovchi hujjatlar (masalan, patentlar) bilan muhofazalanmagan va to`liq yoki qisman nashr qilinmagan texnik, tashkiliy yoki tijorat ma`lumotlaridir.
Tovar belgisi	Tovarniy znak	Trademark	bu biror ishlab chiqaruvchining tovar va xizmatlarini boshqa ishlab chiqaruvchining o`xshash tovar va xizmatlaridan farqlash uchun mo`ljallangan original grafik tasvir, raqam, harf yoki so`zlarning birikmasidir.
Ixtiro	Izobretenie	Invention	bu turli sohalardagi mahsulotga (xususan, qurilma, modda,

			mikroorganizm shtamlari, o`simlik va hayvonlar hujayralariga) yoki usulga (moddiy ob`ektlar ustidan harakatni amalga oshirish jarayoniga) tegishli texnik echim.
Foydali model	Poleznaya model	Model	bu moslamaga taalluqli texnik echim. Ishlab chiqarish vositalarining konstruktiv bajarilishi va iste`mol qilish predmetlari hamda ularning tarkibiy qismi foydali modellarga kiradi.
Sanoat namunalari	Promishlennie obraztsi	Industrial Designs	bu sanoat yoki hunarmandlik buyomlarining tashqi ko`rinishini belgilovchi badiiy-konstruktorlik echimidir.
Seleksion yotuqlar	Texnologicheskie novinki	Selection achievements	ijodiy mehnat orqali o`simlikning yangi navi yoki hayvonlarning yangi turini yaratish (aniqlash) kabi insonning aniq bir maqsadga qaratilgan faoliyatining natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil. Qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar.
2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon. demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O'zbekiston. 2016. - 56 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 48 b
4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017. 488 b.
5. Mirziyoyev SH.M. 2017 yil 19 sentyabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. Xalq so'zi. 2017 yil 20 sentyabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi. 2017 yil 23 dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezident SH.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasini keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. Nashr uchun mas'ul R.S. Qosimov. T: "Ma'naviyat", 2018. - 320 bet.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020 // <https://president.uz/oz/lists/view/4057>
9. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Import mahsulotlari uchinchi Xitoy xalqaro ko'rgazmasining ochilish marosimidagi nutqi. 04.11.2020// <https://president.uz/oz/lists/view/3932>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi 16-07-2021//<https://president.uz/oz/lists/category>
11. Andreychikov, A. V. Strategicheskiy menedjment v innovatsionnix organizatsiyax : sistemniy analiz i prinyatie resheniy / A. V. Andreychikov, O. N. Andreychikova. – M. : Vuz. uchebnik : INFRA-M, 2013. – 394 s.
12. Buxarova, M. Upravlenie transferom texnologicheskix innovatsiy: otraslevaya tsepochka tsennostey / M. Buxarova // Problemi teorii i praktiki upravleniya. – 2013. – № 1. – S. 111-119.
13. Doljenko, R. A. Innovatsii v upravlenii personalom v kommercheskom banke: monografiya / R. A. Doljenko ; Alt. in-t truda i prava (fil.) Obrazovat. uchrejdeniya profsoyuzov "Akad. truda i sotsial. otnosheniy". – Barnaul : Azbuka, 2012. – 177 s.
14. Ivanus, A. I. Garmonichniy innovatsionniy menedjment / A. I. Ivanus ; predisl. d-ra texn. nauk, prof. A. P. Staxova. – M. : URSS: LIBROKOM, 2011. – 247 s.
15. Inshakova, A. O. Realizatsiya effektivnoy konkurentnoy politiki YeS v sfere innovatsiy posredstvom obshego intellektualnogo prava / A. O. Inshakova, D. V. Kojemyakin // Zakoni Rossii: opit, analiz, praktika. – 2013. – № 2. – S. 19–23.

16. Kryaklina, T. F. Professionalnie kompetentsii menedjera innovatsionnogo tipa / T. F. Kryaklina, T. G. Stroiteleva, S. V. Rettix ; Avtonom. nekommerch. org. vissh. prof. obrazovaniya "Alt. akad. ekonomiki i prava (in-t)". – Barnaul : Izd-vo AAEP, 2012. – 115 s.
17. Razrabotka i prinyatie resheniya v upravlenii innovatsiyami / I. L. Tukkel. – SPb. : BXV-Peterburg, 2011. – 342 s.
18. Rogova, Ye. M. Venchurniy menedjment / Ye. M. Rogova, Ye. A. Tkachenko, E. A. Fiyaksel. – M. : Vissh. shk. ekonomiki, 2011. – 438 s.
19. Sovershenstvovanie upravleniya proizvodstvom. Innovatsii i investitsii: materialy III mejregion. seminaru / [pod red. V. V. Titova]. – Barnaul : Izd-vo AltGTU, 2013. – 195 s.
20. Andreychikov, A. V. Sistemniy analiz i sintez strategicheskix resheniy v innovatike / A. V. Andreychikov, O. N. Andreychikova. – Izd. 2-e. – M. : URSS : LIBROKOM, 2013. – 304 s.
21. Axinov, G. Gosudarstvennoe regulirovanie innovatsionnoy deyatel'nosti v sotsialnoy sfere / G. Axinov, D. Kamilov // Problemi teorii i praktiki upravleniya. – 2013. – № 9. – S. 22-28.
22. Baev, L. A. K voprosu o kategoriynoy sisteme otsenki i upravleniya innovatsionnim razvitiem / L. A. Baev, M. G. Litke // Menedjment v Rossii i za rubejom. – 2013. – № 3. – S. 20-27.
23. Viktorova, N. G. Upravlenie nalogooblozheniem i nalogovimi riskami rezidentov texnoparkov v sfere visokix texnologiy / N. G. Viktorova. – M. : INFRA-M, 2013. – 165 s.
24. Doljenko, R. A. Innovatsii v sisteme upravleniya personalom organizatsii / R. A. Doljenko ; razvitie personala // AGAU. Vestnik Altayskogo agrarnogo universiteta. – 2013. – № 1. – S. 149-153.
25. Emelyanov, Yu. Benchmarking kak instrument bistrogo "perexvata" innovatsiy / Yu. Yemelyanov, S. Xaynish // Problemi teorii i praktiki upravleniya. – 2013. – № 6. – S. 105-118.
26. Ermakova, Ye. Rol korporativnogo predprinimatel'stva v innovatsionnoy aktivnosti kompanii / Ye. Yermakova, M. Kuznetsova // Problemi teorii i praktiki upravleniya. – 2013. – № 9. – S. 194-101.
27. Mannapov, A. Sistema upravleniya innovatsionnoy deyatel'nostyu v organizatsii / A. Mannapov // Problemi teorii i praktiki upravleniya. – 2013. – № 6. – S. 98-104.
28. Reymer, V. Innovatsionnaya sistema Rossii: problemi upravleniya i perspektivi / V. Reymer, A. Breusov // Mejdunarodniy selskoxozyaystvenniy jurnal. – 2013. – № 2. – S. 3-6.
29. Taylasheva, M. A. Vnedrenie innovatsionnix texnologiy v informatsionnuyu sistemu menedjmenta gosudarstvennix uchrejdeniy zdravooxraneniya / M. A. Taylasheva, M. N. Semikolenova, S. Yu. Fedorova; M-vo obrazovaniya i nauki RF, Alt. gos. un-t. – Barnaul : Izd-vo Alt. gos. un-ta, 2013. – 149, [1] s.
30. Trachuk, A. Innovatsionnaya strategiya kompanii / A. Trachuk // Problemi teorii i praktiki upravleniya. – 2013. – № 9. – S. 75-83.

31. Upravlenie konkurentosposobnostyu v investitsionno-stroitel'nom biznese / [A. V. TSvetkov i dr.] ; pod red. A. V. TSvetkova i V. D. SHapiro. – M.: Omega-L, 2013. – 486 s.
32. Ushachev, I. G. Sistema upravleniya – osnova realizatsii modeli innovatsionnogo razvitiya agropromishlennogo kompleksa Rossii / I. G. Ushachev // Ekonomika selskoxozyaystvennix i pererabativayushix predpriyatii. – 2013. – № 2. – S. 4-8.
33. Filobokova, L. Yu. Innovatsionnie podxodi k upravleniyu konkurentosposobnostyu malogo predprinimatel'stva / L. Yu. Filobokova, O. V. Grigoreva // Menedjment v Rossii i za rubejom. – 2013. – № 4. – S. 52-57.
34. Ivanov N. Sotsialnyy kontekst innovatsionnogo razvitiya // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya 2013 №5 s.17-30
35. Zorkaltsev V., Traxtenberg M., Ratiner D. Zagadochnaya strana Izrail // EKO 2013 №10 s.76-92
36. Zagladin N. SShA: Na rubeje novogo etapa razvitiya // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya 2014 №3 s.88-97
37. Faltsman V.K. Prioriteti strukturnoy politiki: importozavisimost, importozameshenie, vozmojnosti eksporta innovatsionnoy produktsii promishlennosti // EKO 2014 №5 s. 162-180
38. Sodiqov A.M. O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyasi // Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash strategiyasi va uni o'rta muddatlarda amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari. T.: 2014 y. – B. 5-9.
39. Maxmudova G.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash modellarining nazariy asoslarini takomillashtirish. – T.: Iqtisod-moliya, 2016. – 192 b.
40. Makhmudova G.N., Babkin A.V. Theoretical aspects of innovative development in conditions of economic modernization: tendencies, analyses and future opportunities // Scientific-technical Bulletin of SPbSPU Economics 2018. T.13. № 2, 2020. p. 73-86
41. Brikin A., Shumaev V. Opit innovatsionnogo razvitiya na osnove integratsii // Ekonomist 2013 №3 s. 60-63
42. Kulkov V., Tenyakov I. K voprosu o koordinatax innovatsionnix sopostavleniy // Ekonomist 2013 №9 s. 70-78
43. Cherednikov O. Visokotexnologichnie startapi v mire i v Rossii // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya 2013 №10 s. 68-75
44. Lizun V. Regulyatori innovatsionnogo protsessa // Mejdunarodnaya ekonomika 2013 №7 s. 74-83
45. Sokolov A.V., Bajanov V.A. Visokotexnologichnoe i naukoemkoe proizvodstvo: problemi i neopredelennost budushego//EKO 2014 №2 s.15-25
46. Aubakirova G.M. Industrialno-innovatsionnoe razvitie stran s perexodnoy ekonomikoy (na primere Respubliki Kazaxstan) // EKO 2014 №2 s. 103-120
47. Chemezov S. Gosudarstvo i visokie texnologii // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya 2013 №4 s. 39-46
48. Xeyfets B. Dorojnaya karta investitsionnogo sotrudnichestva stran BRIKS//Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya 2013 №6 s.19-28

49. Kuznetsova T., Rud V. Konkurentsia, innovatsii i strategii razvitiya rossiyskix predriyatii // Voprosi ekonomiki 2013 №12 s.86-107
50. Mir. Vizovi globalnogo krizisa. Italiya // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya 2013 №5 s. 67-80
51. Mir. Vizovi globalnogo krizisa. Velikobritaniya // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya 2013 №6 s. 75-89
52. Mir. Vizovi globalnogo krizisa. Frantsiya // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya 2013 №11 s. 70-83
53. Mixeev V. Dalshe bez otvetov-2 (Kitay: smena modeli modernizatsii) // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya 2013 №6 s. 57-65
54. Kirichenko I., Onishenko I. Innovatsionnie prioriteti v energetike Kitaya i Yaponii // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya 2013 №11 s. 13-20
55. Selixov D. KNR v mirovom innovatsionnom razvitii // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya 2013 №11 s. 21-28
56. Amosov A. Kak preodolet otstavanie v razvitii // Ekonomist 2013 №4 s. 19-26
57. Xubiev K. Neoindustrialnaya modernizatsiya i alternativnie podxodi k ney // Ekonomist 2013 №4 s. 27-32
58. Aliev T. Strukturnie sdvigi v ekonomike Kazaxstana (1991-2011) // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya 2013 №12 s. 62-70
59. Spartak A.N Perspektivi Yevraziyskoy ekonomicheskoy integratsii // Mejdunarodnaya ekonomika 2013 №3 s.9-22
60. Aksenova, J. N. Otsenka urovnya innovatsionnosti regiona i formirovanie usloviy yego povisheniya : avtoref. dis. na soisk. uchen. step. kand. ekon. nauk / Tom. gos. un-t sistem upr. i radioelektroniki. – Barnaul, 2012. – 22 s.
61. Batukova, L. R. K voprosu ob innovatsionnoy modernizatsii sotsialno-ekonomicheskoy sistemi regiona // Regionalnaya ekonomika: teoriya i praktika : nauchno-prakticheskii i analiticheskii jurnal . – 2013. – № 11. – S. 37–47.
62. Boltina, L.V. Otsenka innovatsionnosti strategii sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya regiona; Alt. gos. un-t. – Barnaul, 2012. – 22 s.
63. Vostretsov, A. I. Razrabotka modeli upravleniya protsessami vvoza i vivoza elementov vosproizvodstvennogo potentsiala regiona // Regionalnaya ekonomika: teoriya i praktika. – 2013. – № 4. – S. 38–48.
64. Geraskina, I. N. Formirovanie innovatsionnoy aktivnosti predpriyatii regiona na printsipax sinergeticheskogo benchmarkinga / I. N. Geraskina, T. I. Sherstobitova // Regionalnaya ekonomika: teoriya i praktika. – 2013. – № 14 . – S. 16–21.
65. Goyxer, O. L. Povishenie effektivnosti upravleniya institutami v strukture investitsionnoy politiki regiona // Regionalnaya ekonomika: teoriya i praktika. – 2012. – № 1. – S.24-29.
66. Gusakov, M. A. Regionalnaya innovatsionnaya politika monosirevogo regiona / M. A. Gusakov, T. M. Vtorushina // Regionalnaya ekonomika: teoriya i praktika . – 2012. – № 10. – S.2-7.

67. Dubinina, A. V. Osobennosti razvitiya innovatsionnoy ekonomiki v regionax Rossii // Regionalnaya ekonomika: teoriya i praktika . – 2013. – № 15. – S. 31–38.
68. Kamenskix, M. A. Povishenie konkurentosposobnosti regiona na osnove organizatsii innovatsionnoy infrastrukturi / M. A. Kamenskix, V. P. Postnikov // Regionalnaya ekonomika: teoriya i praktika. – 2013. – № 2. – S. 39–43.
69. Isyanbaev, M. N. Strukturno-texnologicheskaya modernizatsiya ekonomiki regiona: sushnost, sostoyanie, problemi // Regionalnaya ekonomika: teoriya i praktika. – 2013. – № 12. – S. 2–9.
70. Korol, S. P. Innovatsionnaya deyatel'nost' v regionalnom stroitel'nom komplekse kak ob'ekt upravleniya / S. P. Korol, A. A. Shuvalov, Ye. V. Babenko // Regionalnaya ekonomika: teoriya i praktika. – 2013. – № 16. – S. 2–10.
71. Maslova, A. Ye. Innovatsionnoe razvitie v usloviyax disproportsionalnosti ekonomiki regiona // Regionalnaya ekonomika: teoriya i praktika. – 2013. – № 4. – S. 52–56.
72. Izmalkova, S. A. Vibor perspektivnix napravleniy innovatsionnogo razvitiya regionov i ix realizatsiya posredstvom formirovaniya texnologicheskix platform / S. A. Izmalkova, S. S. Baxtina // Regionalnaya ekonomika: teoriya i praktika : nauchno-prakticheskiy i analiticheskiy jurnal . – 2013. – № 1. – S. 29–34.
73. Okrepilov, V. V. Perspektivi razvitiya standartizatsii kak instrumenta innovatsionnogo razvitiya // Problemi prognozirovaniya. – 2013. – № 1. – S. 52–62.
74. Prokofev, K. Yu. Mesto territorialnix klasterov v mexanizme innovatsionnogo razvitiya regionov // Regionalnaya ekonomika: teoriya i praktika. – 2013. – № 14. – S. 22–29.
75. Rodionova, N. D. Setevoy podxod k upravleniyu razvitiem innovatsionnoy sferi regiona // Regionalnaya ekonomika: teoriya i praktika. – 2013. – № 4. – S. 46–51.
76. Ter-Grigoryants, A. A. Metodicheskie podxodi k otsenke innovatsionnogo razvitiya regiona / A. A. Ter-Grigoryants, M. L. Ushvitskiy // Regionalnaya ekonomika: teoriya i praktika. – 2013. – № 10. – S. 49–56.
77. Shevchenko, T. A. Innovatsionniy marketing v usloviyax mestnogo samoupravleniya // Praktika munitsipalnogo upravleniya. – 2013. – № 4. – S. 85–95.
78. Petrova, O. S. Viyavlenie mesta i funktsiy klasterov v obespechenii effektivnogo mejregionalnogo vzaimodeystviya i innovatsionnogo razvitiya ekonomiki regionov // Ekonomicheskie nauki. – 2012. – № 8. – S. 119–122.
79. Predprinimatel'stvo i innovatsii: regionalnie prioritety i perspektivi razvitiya / V. V. Chermyanina, S. P. Lyakishev. – Barnaul : Azbuka, 2012. – 210 s.
80. Sannikova, T. D. Institutsionalnie aspekti innovatsionnogo razvitiya regionalnoy ekonomicheskoy sistemi / Tom. gos. un-t sistem upr. i elektroniki. – Barnaul, 2012. – 22 s.
81. Malyutin, A. Upravlenie izmeneniyami v innovatsionnoy deyatel'nosti regionalnix organizatsiy // Ekonomist. – 2013. – № 10. – S. 23–28.

- 82.** Mannapov, R. G. Modernizatsiya sistemi upravleniya ekonomikoy regiona v usloviyax innovatsionnogo razvitiya / R. G. Mannapov, A. R. Mannapov // Regionalnaya ekonomika. – 2013. – № 33. – S. 2-9.
- 83.** Nikitaeva, A. Yu. Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo v innovatsionnom razvitii promishlennoy sferi: napravleniya i mexanizmi realizatsii na regionalnom urovne // Regionalnaya ekonomika. – 2013. – № 34. – S. 9-15.
- 84.** Popovicheva, N. Ye. Kraudsorsing kak innovatsionnaya marketingovaya texnologiya razvitiya regiona: praktika primeneniya / N. Ye. Popovicheva, M. A. Goncharova // Regionalnaya ekonomika. – 2013. – № 35. – S. 18-22.
- 85.** Saralidze, A. Effektivnaya investitsionnaya politika: opredelyayushiy faktor mejregionalnoy innovatsionnoy integratsii / A. Saralidze, O. Donichev // Problemi teorii i praktiki upravleniya. – 2013. – № 7. – S. 81-88.
- 86.** Upravlenie innovatsionnim razvitiem ekonomiki regiona: strategii, klasteri, modeli: monografiya / [Yu. G. Algazina i dr. ; pod red. O. P. Mamchenko i dr.]. – Barnaul : Azbuka, 2013. – 262 s.
- 87.** Upravlenie innovatsionnim razvitiem ekonomiki regiona: znaniya, investitsii, integratsiya: monografiya / [S. N. Bocharov i dr. ; pod red. O. P. Mamchenko]. – Barnaul : Azbuka, 2013. – 102 s. Finansirovanie innovatsionnoy deyatelnosti
- 88.** Ageeva, S. D. Finansirovanie innovatsiy: istochniki, riski, interesi / S.D. Ageeva // EKO : Ekonomika i organizatsiya promishlennogo proizvodstva. – 2012. – № 5. – S.4-5.
- 89.** Golichenko, O. G. Osnovnie faktori razvitiya natsionalnoy innovatsionnoy sistemi; Ros. akad. nauk, TSentr. ekon.-mat. in-t. – M. : Nauka, 2011. – 633 s.
- 90.** Glyanko, D. A. Banki v sisteme finansirovaniya nachinayushix predprinimateley / D. A. Glyanko // Bankovskoe delo. – 2013. – № 1. – S. 81-84.
- 91.** Sicheva, N. V. Sushnost i mexanizm investirovaniya innovatsionnogo protsessa // Sibirskaya finansovaya. – 2012. – № 1. – S. 150-155.
- 92.** Finansovie aspekti sovremennoy ekonomiki: opit, problemi, innovatsii / M-vo obrazovaniya i nauki RF, Alt. gos. un-t, Mejdunar. in-t ekonomiki, menedjmenta i inform. sistem, Kaf. finansov i kredita. – Barnaul : Izd-vo AltGU, 2012. –155 s.
- 93.** O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyuldagi O‘RQ-630-son “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni.
- 94.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni.
- 95.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 maydagi PQ-3698-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori.
- 96.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

97. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 avgustdagi PQ-3899-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni integratsiyalash tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori.
98. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 noyabrdagi PQ-3416-son “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori.
99. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi PF-5264-son “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida” Farmoni.
100. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 11 sentyabrdagi 721-son “Innovatsion faoliyatni yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori.

Internet saytlari

101. www.mininnovation.uz (O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi)
102. www.mineconomy.uz (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi)
103. www.mehnat.uz (O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi)
104. www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
105. www.stat.uz. (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi)
106. www.ima.uz (O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)
107. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)
108. [http: www.webofscience.com](http://www.webofscience.com) Xalqaro ilmiy nashrlar platformasi
109. [http: www.scopus.com](http://www.scopus.com) Xalqaro ilmiy nashrlar platformasi.
110. [http: www.elibrary.ru](http://www.elibrary.ru) Rossiya ilmiy maqolalar bazasi.

G.N.MAXMUDOVA

INNOVATSION IQTISODIYOT

O‘QUV QO‘LLANMA

Muharrir Z.N.Buranov

Bosishga ruxsat etildi 24.12.2021y. Bichimi 60X84 ¹/₁₆.
Bosma tabog‘i 16,0. Shartli bosma tabog‘i 16,25. Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Universitet” nashriyoti. Toshkent, Talabalar shaharchasi,
O‘zMU ma’muriy binosi.

O‘zbekiston Milliy universiteti bosmaxonasida bosildi.
Toshkent, Talabalar shaharchasi, O‘zMU.